O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

IS’HOQXON IBRAT NOMIDAGI
NAMANGAN DAVLAT CHET TILLARI INSTITUTI

Til va adabiyot, chet tillarni o‘qitishning zamonaviy yondashuvlari

xalqaro talabalar anjumani maqolalar to`plami

Namangan - 2023

MUNDARIJA

QIYOSIY ADABIYOTSHUNOSLIK, CHOG‘ISHTIRMA TILSHUNOSLIK BA TARJIMASHUNOSLIK MUAMMOLARI		
1.	Yaponcha–o‘zbekcha tarjimalarda leksik lakunalarni tarjima qilish usullari A. T.Axmedova, B.Shamsiyeva	4
2.	Bilvosita tarjimada milliy-madaniy xususiyatlarni saqlab qolish muammolari D.A.Shukurova, N.B.Xodjayeva	7
3.	Ғарбда шарқ адабиётини ўрганиш тарихига доир Абдукаримова, О.А.Бабаев	10
4.	The major postmodern figures and how they contributed to literature D.B. Sulaymonova	13
CHET TILLAR O‘QITISHNING DOLZARB MUAMMOLARI VA TA’LIMDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR		
5.	Ўрта умумтаълим мактабларида чет тил ўқитишда изчилликни таъминлаш муаммолари А.Абдупаттаев, С.А.Мисиров	17
6.	The methodological basis of improve writing skills in English language teaching H. Otaqulova	19
7.	The system of exercises in developing spoken skills John Smith, Arizona state university, USA	22
8.	Смешанное обучение в преподавании иностранных языков Е.Мустаева	26
9.	Impact of culture on Indian and Uzbek students through developing oral speech competence Sujith Callicut, National Institute of technology, India, Feruza Erkulova	31
10	Проблемы и инновационные технологии в сфере обучения иностранным языкам К.Р.Гаибова	35
11	Эффективный метод активного обучения русскому языку как иностранному. Н. Т. Ибрагимова	38
12	Technologies of language teaching methods Oana Cojocaru, Romania	42

13	Ingliz tilini o’qitishda noverbal vositalardan foydalanish usullari O. R. Omonboyeva, N.Abdullayeva	44
14	Talabalarga ingliz tilida sohaviy matnlarni o’qishni o’rgatish usullari (tarix yo’nalishi misolida) T. Odiljonova	47
15	Chet til darslarida yuqori sinf o‘quvchilarining lug‘at boyligini oshirish usullari D.Shermahammatova	51
16	Талабаларнинг инглиз тилида ёзма нутқ малакаларини ривожлантириш усуллари (нофилологик йўналишлар мисолида) Ф. И. Каримова	53
17	Katta yoshdagilarga chet tilini o‘rgatishning samarali usullari. M.D. Raximova, Sh.Ne’matjonov	56
18	Ways of improving writing skills english language teaching X. Otaqulova	59
19	Zamonaviy nemis tilini o‘qitishda predloglarni o’rgatish metodikasi D.Z. Hayotova, S.A. Vafoyeva	62
20	Бошланғич синфларда инглиз тили талаффузини ўргатиш хусусиятлари А.Абдупаттаев, С.А.Мисиров	68
21	Maktabgacha yoshdagi bolalarga chet tilini o’rgatish usullari M. Xolmirzayeva, U. Soliyev	70
CHET TILLARNI O‘QITISHGA BO‘LGAN ZAMONAVIY YONDASHUVLAR		
22	Инглиз тили ўқитишга қўйиладиган замонавий талаблар таҳлили (коммуникатив ёндашув мисолида) А.Абдупаттаев, С.А.Мисиров	72
23	Methods of using modern pedagogical technologies in the development of communicative competence of students of the tourism direction K. Yuldasheva	74
24	Инглиз тили таълимида ўқувчилар тил тажрибасини ҳисобга олиш тамойилининг методик тавсифи А.Абдупаттаев, С.Мисиров	82
25	Chet tillarni o’qitishda masofaviy ta’limning ahamiyati H. Kozimova, U.Soliyev	84
26	Chet til o’qitishga bo’lgan zamonaviy yondashuvlar (clil yondashuvi misolida) X. X. Xabibullayev	88

27	Bo`lajak nemis tili o`qituvchilarining xatolarini bartaraf etish kompetensiyalarini takomillashtirish yuzasidan olib borilgan ilmiy-metodik ishlar tahlili Q. Xasanova	91
28	Chet til darslarida boshlang‘ich sinf o’quvchilarining bilish faolligini zamonaviy metodlar asosida shakllantirish usullari. S.Bilolidinova, V.A. Ermatova	96
29	Chet tillarini õqitishning zamonaviy yondashuvlari M.Q. Abdullayeva	99
30	Xorijiy tillarni mustaqil o‘rganishning samarali usullari S. Adhamjanova, U.Soliyev	104
31	Tinglashni multfilm orqali o‘rgatish G. Shamshidinova	108
	TIL BA ADABIYOT, TIL NAZARIYASI MUAMMOLARI	
32	Xitoy tilida joy nomlarining ifodalanishi D.D.Mamidova, J.T.Kuralova	111
33	Is’hoqxon ibrat asarlarining yoshlar tarbiyasidagi ahamiyati G. Jo'rayeva, U. Soliyev	114
34	Zahiriddin muhammad boburning mehr-muruvvat olamiga doir qarashlari H.A.Muradova	118
35	Некоторые вопросы прозы А.С.Пушкина Наталия Соколова	121
36	Xitoy ertaklarida epik makon tushunchalarini berilishi D.Sh.Saydaxmedova	124
37	Yovvoyi hayvon nomlari orqali inson obrazi tasvirlash usullari (o‘zbek tilidagi o‘xshatishlar misolida) A.Sh.Hatamova	127
38	O‘zbekistonda turizmni rivojlantirish imkoniyatlariga doir M. Mazamjonova U. Soliyev	132
39	Jeyms Joys she’riyatining o‘ziga hos hususiyatlari N.U. Egamova	135
40	Dunyo tilshunosligida “Terminologiya va termin” tushunchalarining vujudga kelish omillari D.Hamdamov, G.S.Hojiyeva.	139
41	Internet tilining zamonaviy xitoy tiliga ta’siri N.X. Norbekova, J.T. Kuralova.	143
42	Ways to plan a good lesson	146

	N. Abdujabborova Sh.Ne’matjonov	
43	Исползования произведений фольклора на уроках русского языка начальных классов. Серикбай Айдинов	150
44	Maktabgacha yoshdagi bolalarni kitob o‘qishga qiziqtirishda psixologiyaning o‘rni O.S. Sobirova G.A.Mamataliyeva U. Soliyev	152
45	Premchand hikmatli so‘zlarining o‘ziga xos xususiyatlari N.O. Saidnazarova	154
	Applying effective ways and techniques of improving writing and speaking skills in esl classroom Adashaliyeva Margiyona Sherzod kizi	160

QIYOSIY ADABIYOTSHUNOSLIK, CHOG’ISHTIRMA TILSHUNOSLIK BA TARJIMASHUNOSLIK MUAMMOLARI

YAPONCHA–O‘ZBEKCHA TARJIMALARDA LEKSIK LAKUNALARNI TARJIMA QILISH USULLARI

A. T.Axmedova, B.Shamsiyeva, Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Annotatsiya: Ushbu maqolada yapocha-o‘zbekcha tarjimalarda leksik lakunalarni tarjima qilish masalalariga bag‘ishlangan. Dastlab, jahon va o‘zbek tilshunosligida lakunologiya termini kirib kelishi haqida so‘z borgan. Bundan tashqari, lingvistika va tarjimashunoslik sohalarida lakuna atamasi farqlari yoritib berilgan.

Kalit so‘zlari: lakuna, leksik, L.Bayramova, ekvivalentsiz leksika, realiya, analog tarjima, kalkalash tarjima usuli, transliteratsiya, transkripsiya, tasviriy tarjima usuli.

Dunyo xalqlarining ma’naviy-madaniy, umuminsoniy qadriyat va xususiyatini o‘rganish, adabiy tarmog‘ining leksik birliklar hisobiga boyitish hozirgi davrning eng dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Til, jamiyat va madaniyatni bir-biriga aloqadorligini tatbiq etish, hozirgi tilshunoslikning muammolaridan biri sanaladi.Shu o‘rinda, tilshunoslikning masalalari faqatgina til hodisalarini tavsiflash emas, balki o‘sha tilga doir hodisalarni o’rganish jarayonida , ularning madaniyati, munosabatlarini yoritib berish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bugungi kunda tilshunoslikning tarjimashunoslik va madaniyatshunoslik sohalarida ko‘p bora lakuna atamasiga duch kelinmoqda. Lakuna termini bu ikki sohada ham o‘z o‘rniga ega bo‘lib qolmoqda. Zamonaviy davrda ko‘plab olimlar ushbu sohani o‘rganishga qo‘l urmoqda. Bu esa o‘z navbatida fanda “lakunarlik”, “lakunologiya” va “lakun” kabi tushunchalarni paydo bo‘lishiga sabab bo‘lib kelmoqda.

Lingvistika va tarjimashunoslikda “lakuna” tushunchasi tavsifi, tasniflash mezonlari va qo‘llanilish ko‘lami jihatidan farqlanadi. Tarjimashunoslikda lakunarlik hodisasi ekvivalentsiz leksika doirasida o‘rganiladi. Demak, tilshunoslik va tarjimashunoslik sohalarida lakuna tushunchasi bir-biridan tubdan farq qiladi. Jahon ilmida lakunarlik hodisasining tarjimada voqelanishi masalasini o‘rganish XX asrning 50-yillarida boshlangan va ular til va madaniyat sohalariga ajralgan. 1954-yili ikki til grammatik strukturasini chog‘ishtirib o‘rgangan amerikalik tadqiqotchi Ch.Hokket ilk bor “bo‘shliq” tushunchasiga duch kelgan[1]. Yuqorida termin ilk bor kanadalik tilshunoslar J.P. Vine va J. Darbelnelar tomonidan ilmiy muomalaga kiritilgan[2]. O‘zbek tarjimashunosligida ilk marotaba “lakuna” atamasi Sh.Usmanova tomonidan tilga olingan va fanga kiritilgan. Olima o‘zining kitobida lakunalarning turlari va tarjimada uni bartaraf etish yo‘llari haqida atroflicha fikr yuritgan.

Jahon tarjimashunosligida lakunalarni bartaraf etish muammosi to‘g‘risida ko‘plab tadqiqotlar amalga oshirilgan. O‘z tadqiqotlari bilan lakunashunoslikka katta hissa qo‘shgan tarjimashunoslar sifatida P.Nyumark, M.Shatlvorz, M.Kovi, S.Basnet, S.Vlaxov, S.Florin, L.Barxudarov, L.Bayramova, I.Markovina kabilarni ko‘rsatish mumkin.

O‘zbek tarjimashunosligida I.G‘afurov, O.Mo‘minov, N.Qambarov, Q.Musayev, E.Ochilov, Sh.Usmanova, X.Hamidov, Sh.Sirojiddinov, G.Odilova va boshqa olimlar tomonidan ekvivalentsiz leksika, milliy xos so‘zlar va lakunalarning tarjimasi bo‘yicha turli takliflar berilgan.

L.Bayramova lakunar birliklarni tarjima qilishda quyidagi usullardan foydalanish mumkinligini qayd etadi: 1) kalkalash (konteksdagi ekvivalentlarning shakllanishiga olib keladi), 2) tasviriy tarjima usuli, 3) o‘zlashtirish[3].

O‘zbek tarjimashunosligidagi aksariyat tadqiqotlarda bevosita lakuna emas, balki milliy xos so‘zlar tarjimasining usullari qayd etilgan. Jumladan, E.Ochilov 1) transliteratsiya, 2) analogiya, 3) yangi so‘z va so‘z birikmasi yaratish[4]; Q.Musayev esa 1) transliteratsiya va transkripsiya hamda 2) tarjima usullari haqida to‘xtalib o‘tgan[5].

Yapon tilidan o‘zbek tiliga tarjima jarayonida duch kelinadigan “lakuna” muammosi, o‘z navbatida o‘zbek tilidan yapon tiliga tarjima qilish jarayonlarida ham o‘z aksini topadi. Bu muammolar ayniqsa, hozirgi davrda dolzarb ko‘rinishga kelayotgan va ommalashayotgan turli ertaklar, bolalar multiplikatsion filmlari, kinofilmlar va boshqa tarjima turlarida o‘z aksini topadi[6]. Demak, yuqorida lakuna atamasi haqida keng fikr yoritib berildi, endi yapon tilidan o‘zbek tiliga leksik lakuna tarjimasi haqida fikr yuritamiz.

Shaxslararo muloqot, munosabatlarni ifodalovchi lakunalarni o‘rgatishda foydalanish tavsiya qilinayotgan mazkur metod haqidagi tadqiqotlarimizda “ぎり” atamasiga to‘xtalib o‘tmasdan ilojimiz yo‘q. Bu atama ham boshqa tillarga faqatgina izoh yordamida tushuntiriladigan, lekin boshqa millat vakillari tomonidan q‘llanila olmaydigan atamalardan biri hisoblanadi. Mazkur tushunchani unga beriladigan quyidagi 3 ta ta’rif bilan izohlash mumkin.

1. Qarz yoki qarzdor.
2. Shaxslar amal qilishi majburiy bo‘lgan jamiyatdagi tartib – qoidalar majmui.
3. Shaxslar hatto o‘z xohishlariga qarshi turib bo‘lsa ham, amal qilishlari majburiy bo‘lgan, yozilgan yoki yozilmagan yurish–turish intizomi va o‘zini tutish qoidalari.

Yuqorida keltirilgan izohlardan “ぎり” atamasining ta’rifinigina tushunish mumkin. Lekin aslida, bu tushunchaning tub mohiyatini tushunish yoki tushuntirish juda murakkabdir. Yaponlar “ぎり” atamasini qadim zamonlardan beri qo‘llashadi. Dastlab, yaqinlaringiz tomonidan sizga qilingan yaxshilikga qaytarilgan javobni ifodalashda ishlatilgan[7].

Bundan tashqari yapon tilida 先輩ーせんぱい、後輩ーこうはい kabi leksik tushunchalar mavjud bo‘lib, ushbu so‘zlarni yapon tilidan o‘zbek tiliga tarjima qila olmasligimiz sababli ham gapda lakuna hodisasiga sababchi bo‘lib keladi. Masalan:

彼女は私の 1 年先輩です。

(kanojo wa watashi no 1-nen senpaidesu)

U mendan 1 yosh katta.

Ushbu gapda senpai so‘zi katta deb tarjima qilingan. Aslida **先輩** senpai so‘zi yaponlar orasida o‘zidan mansab, yosh, lavozim, kurs jihatdan katta bo‘lgan shaxslarga nisbatan hurmat bildirib murojaat qilishda foydalaniladi.

後輩の仕事を手伝う。

Kouhai no shigoto o tatsudau.

Yoshlarning ishlariga ko‘maklashing.

Yuqoridagi gapda **後輩** kouhai so‘zi yoshlar deya tarjima qilingan. O‘zbek tilida 18 yoshgacha bo‘lgan barcha shaxslarni yoshlar deya aytishadi, ammo yaponlarda yoshidan qat’iy nazar kasb, lavozim, kurs, mansab jihatdan o‘zidan pastda bo‘lgan shaxslarga kouhai deb murojaat qiladi.

Bundan tashqari yapon tilida **めい(mei)- qiz jiyan、おい(oi)-o‘g‘il jiyan** kabi so‘zlar mavjud. O‘zbek xalqida amma yoki amakisining farzandi qiz yo o‘g‘il bo‘lsa ham jiyan deya murojaat qilinadi, yapon tilida esa huddi, ingliz tilidagidek めい(mei)- qiz jiyan va おい(oi)-o‘g‘il jiyanga nisbatan murojaat qilinganda foydalaniladi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, yapon tilidan o‘zbek tiliga tarjima qilish jarayonida lakunar birliklar va realiyalarga juda ko‘p bor duch kelinadi. Ushbu birliklarni tarjima qilish jarayonida transletiratsiya va transkripsiya, analogik va kalkalash usullaridan foydalanib tarjima qilinsa, tarjima birmuncha mazmunli va o‘quvchiga yetib borishi oson bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ismatullayeva N. Xitoy va o‘zbek tillarida lakunalar: monografiya/ Toshkent: Nodirabegim, 2021.-144 b.

2. Usmanova Sh. Lingvomadaniyatshunoslik: darslik/ Toshkent: Bookmany print, 2022.-286 b.

3. Плеухава Е.А. Лексическая лакунорность и её отражение в переводе (на материале русского и испанского языков). Дисс. ...канд. филол. наук: - М.:РГБ, 2005.-18 с.

4. Ochilov E. Tarjima nazariyasi va amaliyoti (o‘quv qo‘llanma). – Toshkent: ToshDSHI,2012.- 124 b.

5. Musayev Q. Tarjima nazariyasi asoslari. Darslik. – Toshkent:Fan,2005.-352b.

6. Kurbonova G.I. O’zbek va yapon xalq ertaklarining qiyosiy tahlili (“Oltin tarvuz” va『雀報恩の事』- “Chumchuqning minnatdorchiligi haqida” ertaklari misolida). - Samarqand. – 2021.-80b.

7. https://cyberleninka.ru/article/n/yapon-tilida-leksik-va-grammatik-lakunalar-tarjimasida-duch-kelinadigan-muammolar-ularni-o-qitish-davomida-qo-llaniladigan

BILVOSITA TARJIMADA MILLIY-MADANIY XUSUSIYATLARNI SAQLAB QOLISH MUAMMOLARI

D.A.Shukurova, N.B.Xodjayeva , Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Annotatsiya: Bilvosita tarjimada milliy-madaniy xususiyatlarning saqlab qolinish muammosi berilishi maqolasida bilvosita tarjima, badiiy tarjima va badiiy tarjimada milliy-madaniy xususiyatlarning berilishi haqida ma’lumotlar berildi. Yapon tilidan o‘zbek tiliga bilvosita tarjimaning o‘ziga xos xususiyatlari, milliy-madaniy xususiyatlari Xaruki Murakamining “Shamol qo‘shig‘ini tingla” nomli romanidan parchalar yordamida tahlil qilindi.

Kalit so‘zlar: tarjima, badiiy tarjima, bilvosita tarjima, Xaruki Murakami, yapon tili, o‘zbek tili, milliy kolorit.

Tarjimachilik uzoq o‘tmishga borib taqaladi. Qadimdan odamzot tarjima ishiga muhtoj bo‘lgan va bu ehtiyoj hozirda kundan-kunga ortib bormoqda. Xalqlarni boshqa bir millat hayoti, turmush tarzi, madaniyati bilan tanishtirishning eng samarali yo‘li bu – badiiy tarjimalar hisoblanadi. Badiiy tarjima – tarjima turlari ichida eng murakkabi hisoblanadi. Negaki, badiiy tarjimada barcha janrlar ishtirok etishi mumkin. Badiiy tarjimada bir tilda yozilgan asarni, butun borligi, go‘zalligi, jozibasi, asosiy mazmuni bilan ikkinchi tilga qayta jonlantirish deganidir. Badiiy tarjima xalqlarni tutashtiradi, adabiyotlarni boyitadi, dunyoqarashni kengaytiradi. Kitobxonni o‘ziga eng ko‘p jalb qiluvchi tarjima turi ham badiiy asarlar tarjimasi hisoblanadi. Badiiy tarjimaning boshqa tarjima turlaridan farqi, bunda tarjimon bir so‘z yoki jumlani to‘g‘ri o‘girish bilan kifoyalana olmaydi, bunda butun bir mazmun, uslub va o‘sha davr ruhi ham ko‘chib o‘tishi kerak. Shu sababli ham tarjimonga ijodkorlik mahorati suv va havodek zarur degan ta’rif berishadi. Belinskiyning fikricha, badiiy tarjimada asarga biron narsa qo‘shish, undan biror narsani olib tashlash yoki uni o‘zgartirish mumkin emas. Tarjima qilishdan maqsad – tilni bilmaslik natijasida asarni o‘qishga muyassar bo‘lmagan kishilarga ularning o‘z ona tillarida o‘qib bahra olishlari uchun mumkin qadar asl nusxa o‘rnini bosadigan asar yaratishdan iborat, toki ana shu asar orqali kitobxon asardan bahramand bo‘lsin va u to‘g‘rida fikr yurita olsin [1]. Demak tarjima xalqlarni manaviy bog‘lashga katta xissa qo‘shar ekan.

Bilvosita tarjima badiiy adabiyot kabi ko‘p qirrali, murakkab va juda nozik soha hisoblanadi. Tarjima qadimgi davrlardan boshlab insonlar o‘zaro muloqot jarayonida qo‘llaganlar, sababi xalqlar taraqqiy etar ekan ular o‘zaro aloqasiz rivojlana olmasliklarini tushungan holda boshqa xalqlar bilan muloqotni yo‘lga qo‘ya boshlashgan va bu holatni tarjima amalga oshirgan. Bilvosita tarjima tarjimashunoslikning eng kam o‘rganilgan sohalaridan biridir. Ayrim mualliflar o‘z asarlarida to‘g‘ridan-to‘g‘ri va bilvosita tarjimalarga ajratmaydilar, ba’zilari esa bilvosita tarjimani nomaqbul va muvaffaqiyatsizlikka mahkum deb hisoblaydilar.

Milliy-madaniy xususiyatlar biror xalqning o‘ziga xosliklari, urf-odatlari, manaviy olami va lisoniy tafakkurida namoyon bo‘ladi. Milliy kolorit deb – har bir xalqda

bo‘ladigan xos so‘zlar, faqatgina shu xalqga tegishli bo‘lgan xususiyat, millatning turmush tarzi va yashash sharoti bilan bog‘liq birliklarga aytiladi. Badiiy tarjimada milliy koloritni to‘g‘ri yetkazish masalasi doimo mavjud bo‘lgan. Negaki, tarjima ikki begona madaniyatlarni tutashtiruvchi ko‘prik bo‘lib, tarjima jarayonida bir xalqda mavjud bo‘lgan tushuncha ikkinchi bir xalq madaniyatida uchramasligi ham mumkin. Bu muammoni esa tarjimon ustalik bilan hal qilishi lozim. Misol qilib oladigan bo‘lsak, dunyoning shimoliy qismida yashovchi xalq adabiyotidan Arab yoki Afrika xalqlari tiliga tarjima qilish jarayonida qahraton sovuq, qor bilan qoplangan tabiatni tasvirlash va uni kitobxonga yetkazib berish biroz mushkul bo‘lgan bo‘lishi mumkin. Biroq hozirgi texnika rivojlangan zamonda insonlar biror yurtga xos bo‘lgan tabiat, madaniyat va o‘ziga xosliklardan xabardor bo‘lish imkoniyatiga ega. Ammo tilning etnolingvistik ma’nolarini tarjima qilish haqiqatdan ham mushkul. Misol qilib oladigan bo‘lsak, turk, rus madaniyatida turmush qurgan ikki yosh bir-biriga sizlab murojaat qilishmaydi. Shu vaziyatni o‘zbek kitobxoniga yetkazishda so‘zlarni hurmat so‘zlari bilan tarjima qilish to‘g‘ri deb hisoblayman. Negaki, o‘zbek madaniyatida yoshi jihatdan farqlangan vaziyatda kichik yoshlilar sizlab gapirishadi va turk, rus xalqi madaniyati haqida ma’lumoti bo‘lmagan kitobxonlarda noto‘g‘ri tushuncha paydo bo‘lmasligini oldini olgan holda shu yo‘l bilan tarjima qilgan samarali deb hisoblayman.

Tarjima jarayonida diniy yoki bayramga doir so‘zlarni tarjimasida ham qiyinchilikga duch kelamiz. Ularni to‘g‘ri tarjima qilish uchun esa madaniyatlar haqida yetarlicha bilimga ega bo‘lish talab etiladi. Agarda bunday so‘zlarni milliylashtirgan holda tarjima qilinsa, kitobxonda noto‘g‘ri tushunchalarni paydo qiladi.

Milliy-madaniy leksikani, dinga tegishli tushunchalarni tarjima qilishning o‘ziga yarasha ba’zi bir murakkabliklari bor. Shuning uchun, milliy-madaniy tushunchalar tarjimasida so‘zning ekvivalenti topiladi yoki transliteratsiya usulidan foydalaniladi [2]. Shundan kelib chiqib Xaruki Murakamining “Shamol qo‘shig‘ini tingla” romanidan parchani ko‘rib chiqiladi.

Asliyat: 冬にはまた帰ってくるさ。クリスマスのころまでにはね。12 月 24 日が誕生日なんだ [3, b. 137].

So‘zma-so‘z tarjima: Men qishda yana qaytaman. Rojdestvogacha. 24-dekabr mening tug‘ilgan kunim

Rus tilidagi tarjimasi: – Zimoy ya пriedu snova. Na Rojdestvo. U menya denь rojdeniya 24 dekabrya [4]. Ushbu gapda [クリスマス] so‘zi tarjimasi: *Krismas*(rojdestvo).

O‘zbek tilidaga Alisher Otaboyev tarjimasi: — Qishda yana kelaman. Mavlud bayramiga. Tug’ilgan kunim 24-dekabrda [5].

Yuqorida keltirilgan, “rojdestvo” hamda “mavlud” so‘zlarining lug‘aviy ma’nosi quyidagicha:

Rojdestvo har yili Iso Masihning tug‘ilgan kunini nishonlash bayrami bo‘lib, asosan 25-dekabrda butun dunyo bo‘ylab milliardlab odamlar orasida diniy va madaniy bayram sifatida nishonlanadi [6].

Mavlud, mavlid annabiy (arab. — tug‘ilish, payg‘ambarning tug‘ilgan kuni) — Muhammad (s.a.v) payg‘ambarning tug‘ilgan kuni bilan bog‘liq bayram hisoblanadi. Rabiulavval oyining 12-kuni nishonlanadi [7].

Lug‘aviy ma’nolarida ko‘rganimizdek, krismas ya’ni rojdestvo hamda mavlud so‘zlari boshqa-boshqa din va payg‘ambarlar uchun qo‘llanilar ekan. Shundan kelib chiqib, yuqoridagi tarjimada noo‘rin ishlatilgan. Yapon tilidan rus tiliga ekvivalent tarjima amalga oshirilgan. Lekin o‘zbek tilidagi tarjima xato hisoblanadi, chunki bu tarjima orqali kitobxon yaponlar ham mavlud bayramini nishonlar ekan degan tushunchaga kelib qolishi mumkin. Chunki taxminan yaponlarning ko‘p qismi xristian diniga e’tiqod qiladi va aksar yapon xalqi Rojdestvo bayramini nishonlaydi. Rojdestvo so‘zi o‘zbek kitobxoniga ham notanish emas, shuning uchun tarjimada ham “mavlud” so‘zining o‘rniga “rojdestvo” qo‘llanilsa yanada tushunarli bo‘lgan bo‘lar edi.

Asl matn: 六畳ばかりの部屋に安物の家具をひととおり詰めこんだ後には人間ひとりがやっと横になれる程度の空間しか残ってはいない [3, b. 41].

Rus tilidagi tarjimasi: Площадь в shestь tatami bыla вsya zastaвlena standartnoy desheвoy mebelью [4].

So‘zma-so‘z tarjima: Barcha arzon mebellarni bor-yo‘g‘i 6 ta tatami bo‘yradan iborat xonaga joylab qo‘ygandan so‘ng, bir kishi yotishi uchun yetarli joy qoladi.

O‘zbek tilidagi Alisher Otaboyev tarjimasi: Olti tatamicha* keladigan maydonni bir xil arzon uy jihozlari band etgan [5].

Tarjimon Alisher Otaboyev tomonidan qiligan tarjima bilan tanishildi, bunda yapon millatiga xos bo‘lgan o‘lchov birligi “tatami” so‘zi tarjimasi keltirilgan. “Tatami” – *yap.* — poxol bo‘yra, bordondir[1]. Kitobxonni matndan chalg‘itmaslik maqsadida “tatami” transliteratsiya usulidan foydalanib tarjima qilingan. Biroq tatami asosan buyum, predmat ma’nosida butun dunyoga mashhur, bu parchadagi e’tiborli jihati milliy yaponlarga xos bo‘lgan tarzda “tatami” o‘lchov birligi sifatida foydalanilgan. Shu jihati kitobxonni ikkilantirib qo‘yishi mumkin. Internet manbalarida ham tatami faqatgina gilamchaga o‘xshash narsa sifatida ma’lum, shu jihatini hisobga olgan holda tarjimon bayon qilish usulidan foydalanib ketgan.

Xulosa qilib aytganda, yapon tilidan o‘zbek tiliga bilvosita tarjima jarayonida milliy-madaniy xususiyatlarni berishda ayrim qiyinchiliklarga duch kelish mumkin ekan. Bilvosita tarjimada vositachi tilning ta’siri katta bo‘lib, buning natijasida asliyatdagi ma’nolarning biroz o‘zgartirilib yoki milliylashtirib tarjima qilinishini kuzatish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. G‘aybulloh as-Salom. Til va tarjima. — T.: O‘zSSR fan nashriyoti bosmaxonasi, 1966. 382 b.

[1] https://uz.wiktionary.org/wiki/tatami

2. Xodjayeva N.B. Premchand asarlari o‘zbekcha tarjimalarining leksik-stilistik xususiyatlari: PhD dissertatsiyasi avtoreferati. – T.: TDShU, 2019. 51-b.
3. 村上春樹. 風の歌を聴け. – Y.: 講談社文庫, 2004. 160 b.
4. Xaruki Murakami. Slushay pesnю vetra. – Rossiya, 2006. https://librebook.me/hear_the_wind_sing/vol1/1
5. Xaruki Murakami. Shamol qo‘shig‘ini tingla. – T.: Jahon adabiyoti jurnali, 9-son, 2009-yil. https://ziyouz.uz/jahon-nasri/xaruki-murakami-1949-yaponiya/xaruki-murakami-shamol-qushigini-tingla-roman/
6. https://en.wikipedia.org/wiki/Christmas
7. https://qomus.info/oz/encyclopedia/m/mavlud
8. https://uz.wiktionary.org/wiki/tatami

ҒАРБДА ШАРҚ АДАБИЁТИНИ ЎРГАНИШ ТАРИХИГА ДОИР

В. Абдукаримова, О.А.Бабаев, Бухоро давлат университети

Ғарбий европа мамлакатларида Рўдакий ғазалларини ўрганилиши 19 аср бошларида амалга оширилган, лекин шеърларни тўплаш маскур асрнинг 70-йилларида бошланган. Таниқли олмон шарқшунос олими Герман Этте Рўдакий ҳаёти ва ижодига бағишлаб мақола ёзган. Бир нечта манбаълардан шоирнинг 228 байтини танлаб олиб немис тилига таржима қилади ва уни 1873 йилнинг ноябрида нашр эттирган[2]. Абу Абдуллоҳ Жаъфар Рўдакий шеъриятини Ғарбда биринчи бўлиб француз шарқшуноси Журден бошлаб, у ўзининг Персия китобида Рўдакийни “Биринчи форс-тожик шоири, шеър ва оҳант устаси” деб атаган[3]. Иосиф Ҳаммер 1818 йилда Рўдакийнинг туғилган жойи, ҳаёти ва шеърий санъати ҳақида мақола ёзган. 1841 йил Лун Дюбоннинг Парижда Журденнинг китобига ўхшаш “Персия” деган китоби нашрдан чиққан. Француз шақшунос олими Шарл Шеффер “Хрестоматия” сида Рўдакий ҳақида маълумот беради.1887 йилда Ж. Даремстеттернинг “Форс поэзиясининг вужудга келиши” илмий рисоласида Рўдакий ҳақида маълумот берган. 1890 йилда Чарлз Пикерингнинг “Форс Жосери” мақоласида Рудакий ҳақида ўз фикрини билдирган. 19 асрнинг охирларида Италия шарқшунослари ҳам Рўдакий ижодини ўргана бошлаган, жумладан Италия эроншунос олими Итало Пице “Форс адабиёт тарихи” номли асарида Рўдакий ҳаёти ва шеърияти ҳақида ўз фикр-мулоҳазаларини билдирган. Инглиз шарқшуноси Эдуард Браун ўз тадқиқотларида Рўдакийнинг шоирлик маҳоратида тўхталиб ўтади. Рўдакийнинг ижоди океан орти шарқшунослар диққатини ҳам ўзига жалб қилган. Жумладан Уильямс Жексон “Илк форс шеърияти” китобида Рўдакий асарлари хусусида муносабат билдириб ўтган, бу анъанани Денисон Росснинг “Рўдакий ва сохта Рўдакий” ва “Рўдакийнинг бир қасидаси” номли илмий мақолаларида ўзининг илмий шахсий қарашларини билдирган.

[2] Жаъфар Холмўминов, Жалил Ҳазраткулов. Форс адабиётининг жаҳон адабиётидаги ўрни 16-бет
[3] Amedee Jordan, La Perse, Paris, 1814.

Биламизки, Абулқосим Фирдавсийнинг форс-тожик адабиётида ўз ўрни бор. Фирдавсий ва унинг “Шоҳнома” асари жаҳон адабиётшуносларининг диққатини ўзига тортган, хусусан Ғарбда манзумани таништиришга катта ҳисса қўшган инглиз шарқшуноси Сэр Уилям Жонсдир, у “Осиё шеъриятидан таржима” ва “Шарқ шоирлари ҳақида мақолалар” илмий тадқиқотлари билан Фирдавсийни Европа китобхонларига таништириб ўтган. Унинг изидан Олмониялик Гурс, Шок, Фридрих Рюккерт ва Англиялик Тортар Мокон “Шоҳнома” дан таржималар амалга оширган. Бу соҳада Англиялик тадқиқодчи Эдкинзнинг ҳам хизматлари катта. Манбаларда маълумот берилишича Жеймес Адкинсон “Шоҳнома” нинг айрим ҳикояларини насрий ва назмий таржима қилган. Француз шарқшуносларидан Лук Ланглис, Жозеф Чимпионлар ҳам Фирдавсийнинг “Шоҳнома” сининг бир қисмини француз китобхонларига чиройли тарзда етказган ва Фирдавсийни таништириб ўтишган. “Шоҳнома” асарини тўла таржима қилишга эришган ва бунга бутун умрини сарфлаган асли немис миллатига мансуб француз шарқшуноси Жюль Мулдир. Ундан сўнг унинг ҳақиқий шогирди Барбие Де Маннор ишни давом эттириб, анча тадқиқотларни амалга оширган. Европалик тадқиқотчилардан Шок, Фенҳомер, Герман Этте, Эдуард Браун, Генри Масе, Ампер, Питзи ва бошқа олимлар ҳам Абулқосим Фирдавсийнинг “Шоҳнома” асари хусусида тадқиқотлар олиб борганлар.

Форс-тожик адабиётининг яна бир забардаст шоири ўз рубоийлари билан бутун инсониятни ҳайратга қолдирган Умар Хайём Нишопурийдир. Кези келганда шуни ҳам таъкидлаш керакки, Шарқ шоирлари томонидан яратилган ҳар қандай асар Ғарб вакилини эътиборсиз қолдирмаган. Масалан Умар Хайёмнинг рубоийлари Олмония, Англия, Франция ва бошқа юртларга кенг тарқалган, унинг ижоди Европада 18 асрнинг бошларидаёқ маълум ва машҳур бўлган. 1700 йилда инглиз тарихчиси ва ёзувчиси Томас Ҳайд шоир ҳақида ўз фикр мулоҳазаларини билдирган. Жейранд Мэрман, Голландиялик тадқиқотчи рубоийнавис Умар Хайёмнинг математикага оид тадқиқотларини ўрганиб, муносабат билдирган. Немис олимлари ҳам бу йўналишда анча заҳмат чекканлар, Ҳ. Пургштал, Х. Рempис, Ф. Розенлардир. Шунингдек, француз тадқиқотчиси Гарсен Де Тасси, Хайём рубоийларини ўгиришда ўз таржима мактабини яратган. Умар Хайёмнинг европалик олимларга таништиришда инглиз олими Артур Арбери, Оксфорд университети профессори Томас Ҳайд, Голландиялик Жеральд Мэерман, Жозеф фон Гоммер, Жеймес Фрезер, француз олим Седиллот, Фитце Жералд, Сэр Уилямс Жонс, профессор Кауэлл, Жон Баттис Николас, инглиз шарқшуноси Эдуард Браун, француз шоири Теофел Гаутиер ва бошқаларнинг хизмати катта.

Форс-тожик адабиётидаги мавжуд асарлар қандай қилиб европаликларининг диққатини жалб қилган? Олиб борган тадқиқотлардан маълум бўлдиким, туркия адабиёти ва туркий тили орқали, европа сайёҳларининг шарқдаги сафарлари,

таржима ва тадқиқотлар орқали европада кенг таъсирини кўрсанган. Бу фикримизни қуйидаги иқтибослик тўла тасдиқлайди.[4]

Мавзу доирасида олиб борилган тадқиқотлардан маълум бўлдиким, форс-тожик адабиётини ғарбда ўрганиш, тадқиқ қилиш, изоҳ бериб таржималарни амалга ошириш учун қуйидаги олмон олимларининг хизматлари ниҳоятда каттадир.

Форс-тожик адабиётининг яна бир забардаст шоири ўз “Хамса” си билан жаҳонга машҳур Низомий Ганжавийдир. Абу Муҳаммад Илёс бинни Юсуф Низомий ҳозирги Озарбайжоннинг Ганжа шаҳрида туғилган. Унинг ҳаёти ҳақида жуда кам маълумот қолган. Низомий форс, араб, юнон, қадимги паҳлавий, санскрит ва бошқа кўп тилларни билиб, фалсафа, мантиқ, илоҳиёт, адабиётшунослик, химия, астрономия, математика сингари фанларни пухта билган. Низомий Офоқ номли хотинидан туғилган ўғли Муҳаммадни илм-маърифатли қилиб тарбиялаган, достонларида ўз ўғлига насиҳатлар қилган. У ёзма адабиётда биринчи бўлиб Меҳинбону образини яратган. Низомий асарлари бошқа шоирлар ижодига таъсир қилган. Масалан, шоир Ҳайдар Хоразмий «Маҳзанул-асрор» дан илҳомланиб, «Гулшанул-асрор» асарини ёзган. Хусрав Деҳлавий, Абдураҳмон Жомий, Ааишер Навоий каби шоирлар «Хамса» чилик анъанасини давом эттирганлар. «Хусрав ва Ширин» достонини 1341 йилда Қутб, «Хафт пайкар» асарини Огаҳий таржима қилган. Навоийдан тортиб барча ўзбек шоирлари Низомийни устоз деб билишган.

12-асрда Салжуқийлар ўз ҳудудларини кенгайтирдилар. Бу жойларда асосан, форс ёзувидан фойдаланишган. Мазкур асрнинг о‘рталарида “Озарбайжон” стили “Хуросон” ёки “Шарқ” услуби ўзининг риторик қийин саволлари, прогрессив метафоралари ва христиан тасвири техникаси билан бойитишди. Айтиш мумкинки, 10- асрда Шарқдаги ижодкорлар араб бўлмасаларда, араб тилида ёзиш анъанага айланган эди. Шунингдек, мўғўллар истилосига қадар бутун Шарқ форс тилида ижод қилишни ўзига фахр деб билган. 13-асрдан сўнг эса, Шарқда туркий тилда ижод қилина бошланди. Аммо туркий тилда ижод қилганларнинг ҳаммаси ҳам турк шоир ва олимлари эмас эди. Ўрта асрларда Европада худди шундай илм-фан тили– бу лотин тили эди. Ҳуқуқшуносми, табиб бўладими, танлаган соҳасидан қатъий назар ўз асарини лотин тилида ёзишга мажбур бўлган. Уларнинг бари ўз ижодини лотинда ифодалашган. Шу сабабларга кўра инглиз ижодкори Уилям Гарвея (1578-1657) Рим империяси қулаганлигига 1200-йил вақт бўлишига қарамасдан, яратган асарлари лотин тилида эди.

Адабиётлар рўйхати:

[4] https://de.wikipedia.org/wiki/Rezeption_persischer_Literatur_im_deutschsprachigen_Raum

1. Kambiz Djalali: Das Fremde ist dem Eigenen zu Eigen. Die klassische persische Dichtung im deutsch-französischen Raum des 19. Jahrhunderts. Königshausen & Neumann, Würzburg 2014, ISBN 978-3-8260-5159-3, S. 468.
2. Abdikarimovich B. O. The views of Jalaliddin Rumi //Middle European Scientific Bulletin. – 2021. – Т. 12. – С. 319-322.
3. Babayev, O. (2023). THE FIRST ENCOUNTER BETWEEN JALOLIDDIN RUMI AND SHAMS TABRIZI. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.Uz), 27(27).извлечено от https://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/8605
4. Qaxorovna, Sanoyeva Dildora. "MAVLONO RUMIY VA ASKETIZM." O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI 1.9 (2022): 40-43.
5. Abdikarimovich, Mr B. O. "The True Values of the Mavlono Jaloliddin Muhammad Rumiy's Philosophy in Russian Translations." International Journal on Orange Technologies, vol. 2, no. 12, 31 Dec. 2020, pp. 68-71, doi:10.31149/ijot.v2i12.1091.
6. Babayev, O. (2023). ЖАЛОЛИДДИН РУМИЙНИНГ «МАСНАВИЙИ МАЪНАВИЙ» АСАРИНИНГ ЖАҲОН АДАБИЁТИДА ЎРГАНИЛИШИ. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.Uz), 29(29). извлечено от https://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/9016
7. Bozorova R. TARJIMA QILISHDA BA’ZI YONDASHUVLAR //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2022. – Т. 12. – №. 12.
8. Hayotova D. KONSEPT VA TUSHUNCHA MUNOSABATI //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2023. – Т. 30. – №. 30.
9. Halimovna K. D. The Influence of Language and Principles of Translation on the Origin of Variation and Invariance in Translation //Web of Scholars: Multidimensional Research Journal. – 2022. – Т. 1. – №. 4. – С. 137-140.
10. Abdulxayrov, D. (2022). NEMIS TILI SO‘Z BOYLIGINING OSHISHIDA SHARQ TILLARINING O‘RNI. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.Uz), 13(13). извлечено от https://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/6667

THE MAJOR POSTMODERN FIGURES AND HOW THEY CONTRIBUTED TO LITERATURE

D.B. Sulaymonova, NamSIFL

Abstract: Postmodernism (sometimes abbreviated as Po-Mo) is a term applied to a wide-ranging set of developments in critical theory, philosophy, architecture, art, literature, and culture, which are considered to have emerged from, or superseded, modernism, in reaction to it, soon after the end of World War II, which caused people much disillusionment.[1] Various scholars have characterised

postmodernism from a variety of views due to the term's multifaceted perception. Many of the concept's supporters concur, while some have differing views on a few points. As a result, this paper does not seek to define postmodernism, instead describing it in terms of its characters and the contributions they made to literature. In this article we are going to briefly inform the readers with 10 notable postmodernists who are in the foreign literature. And the mainly their famous works which can be bright examples for this period. After reading the paper the readers will have more information about the writers of this age and their literary ways.

Keywords: postmodernist, novelist, humor, character

Introduction

Postmodern literature frequently uses parody or satire, showing a lack of tolerance for cultural elements that are usually held in high regard. Authors frequently disagree with the distinctions between different literary genres and "high" and "low" types of literature. The representatives of Postmodernism employed various devices and techniques such as contradiction, **permutation,** discontinuity, randomness etc. Before the entering to this field researchers should have some descriptions about prominent examples of the period and their authors. We may count numerous novelists and writers who achieved the success with their creative works. In the following paragraphs, we will make discussion about postmodern writers, J.Barth, S.Beckett, I.Calvino, D.De Lillo, J.Fowles, J.Heller, T. Pynchon, K.Vonnegut, D.Wallace, J.Barnes. These writers' contribution to the literature is undisputable, because of plots and characters in their works. Every writers worked and lived in different areas and years, but all of them could give postmodern psyche to the readers by their novels.

Methodology

1.John Barth is one of the major novelists of American postmodernism. Barth's contribution to the practice and theory of postmodernism is in this sense undisputable. However, much of the criticism dealing with his work in relationship to postmodernism is prompted by Barth's own theories of "exhaustion" and "replenishment," leaving his writing relatively untouched by theories of postmodernism in general.[2] Barth wrote an essay of literary criticism titled „*The Literature of Exhaustion* "(1967), detailing all writing as imitation and considered by many to be the manifesto of postmodern literature.[1]Barth's fourth novel, „*Giles Goat-Bo"* (1966), is a prime example of the metafiction characteristic of postmodernism, featuring several fictional disclaimers in the beginning and end, arguing that the book was not written by the author and was instead given to the author on a tape or written by a computer.

2.Samuel Barclay Beckett was an Irish novelist, dramatist, short story writer, theatre director, poet, and literary translator. Beckett's "theatre of the absurd" emphasized the disintegration of narrative. In the play „*Waiting for Godot"* (1953), Beckett creates an entire existential narrative featuring two characters who contemplate their day as they wait for the ambiguous Godot to appear. Samuel Beckett's „Waiting for

Godot” is a masterpiece in English literature with postmodernistic point of view. It is considered to be the last modernist or the first postmodernist literature.

3.Italo Calvino was an Italian journalist and writer of short stories and novels.His manifold literary experimentations amount to a textbook like illustration of the passage from literary modernism to postmodernism: his narratives become gradually more fragmented, open-ended and non-linear.[3](K.Pilz.,,Literature as a Natural Philosophy’’.2005)Calvino’s novel ,,*If on a winter's night a traveler”* (1979) is an excellent example of a metanarrative, the book is about a reader attempting to read a novel titled ,,*If on a winter's night a traveler’’*.

4.Don De Lillo is an American novelist whose postmodernist works portray the anomie of an America cosseted by material excess and stupefied by empty mass culture and politics. Following an advertising executive in New York during the Nixon era, De Lillo’s ,,*Underworld*”(1997) is an exceptionally fragmented narrative, exploring the rise of global capitalism, the decline of American manufacturing, the CIA, and civil rights, and other themes. ,,*White Noise”* (1985) has quickly become one of the most frequently taught postwar novels is that De Lillo is seen as representing the turn to postmodernism in American literature.[4] ,,*White Noise”* (1985) reframes postmodernism through consumerism, bombarding characters with meaninglessness.

5.John Fowles is an English novelist, whose allusive and descriptive works combine psychological probings chiefly of sex and love with an interest in social and philosophical issues.[5] Fowles’s *The French Lieutenant's Woman* (1969) is a historical novel with a major emphasis on metafiction. The book features a narrator who becomes part of the story and offers several different ways to end the story.

6.Joseph Heller is an American writer whose novel *Catch-22* (1961) was one of the most significant works of protest literature to appear after World War II. The satirical novel was a popular success, and a film version appeared in 1970.[5]Heller’s ,,*Catch-22”* (1961) tells many storylines out of chronological order, slowly building the story as new information is introduced. Heller also employs paradox (a literary device that contradicts itself but contains a plausible kernel of truth) and farce (a type of comedy in which absurd situations are stacked precariously atop one another) to complicate the narrative further.

7.Thomas Pynchon is an American novelist and short-story writer whose works combine black humour and fantasy to depict human alienation in the chaos of modern society.[5]Thomas Pynchon’s ,,*Gravity’s Rainbow”* (1973) is the poster child of postmodern literature, using a complex, fragmented structure to cover various subjects such as culture, science, social science, profanity, and literary propriety. ,,*The Crying of Lot 49”* (1965) employs a significant amount of silly wordplay, often within contexts of seriousness.

8.Kurt Vonnegut is American writer noted for his wryly satirical novels who frequently used postmodern techniques as well as elements of fantasy and science fiction to highlight the horrors and ironies of 20th-century civilization. Much of

Vonnegut’s work is marked by an essentially fatalistic worldview that nonetheless embraces modern humanist beliefs.[1] Vonnegut’s „*Slaughterhouse Five”* (1969) is a non-linear narrative in which the main character has been “unstuck in time,” oscillating between the present and the past with no control over his movement and emphasizing the senseless nature of war.

9.David Foster Wallace is an American novelist, short-story writer, and essayist whose dense works provide a dark, often satirical analysis of American culture. Wallace’s „*Infinite Jest”* (1996) embodies postmodernism through its eclectic, encyclopedic structure, characters trapped within the postmodern condition, obsessive endnotes and footnotes, and meandering consciousness.[5],„*The Pale King*’’(2011) is also highly metafictional, employing a character named David Foster Wallace.

10.Julian Barnes, in full **Julian Patrick Barnes** is British critic and author of inventive and intellectual novels about obsessed characters curious about the past. Julian Barnes' s extensive uses of postmodern elements in his fiction demonstrates that he is a brilliant postmodern writer in this regard. This is his primary fiction writing style. Barnes’s novels take on the color of Meta fiction as a result of this extensive utilization. Barnes's works inspire great optimism in the hunt for postmodern culture's possible implications. Love, sex, and lunacy are all linked in this way. Even his labelled realism novels, works written in the traditional narrative approach, blur the lines between life and art. Barnes's work „*Before She Met Me”* is an excellent example of this ambiguity.[5]

Conclusion: In American and England context postmodernists are often identified or singled out from the writers of the so-called “school of black humor”, which probably should not be singled out separately. It is interesting that, in general, postmodernism in the United States was formed under the significant influence of European history (in particular World War II) and European literature (avant-garde, “theater of the absurd” existentialism, etc.), and most critics attribute the existence of this phenomenon to the second half of 20thcentury, within 1949 - 1996, where the first and last dates are the years of the appearance of iconic postmodern texts. In this paper, we considered the most important authors of this literary school and their works, which are undoubtedly worthy of attention. Their works are precious wealth of this literary period and an amazing examples for future generation. We hope the next generation will create such kind of or better literary works for the readers.

References

1. Clavier, Berndt. Malmö högskola, Faculty of Culture and Society (KS), School of Arts and Communication (K3).2007.

2. K.Pilz „Literature as a Natural Philosophy’’.2005

3 John N. Duvall. Purdue University, Indiana. Cambridge University Press.28 June 2008

4. New World Encyclopedia

5. (https://www.britannica.com/editor/The-Editors-of-Encyclopaedia-Britannica.

CHET TILLAR O‘QITISHNING DOLZARB MUAMMOLARI BA TA’LIMDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR

ЎРТА ЎРТА УМУМТАЪЛИМ МАКТАБЛАРИДА ЧЕТ ТИЛ ЎҚИТИШДА ИЗЧИЛЛИКНИ ТАЪМИНЛАШ МУАММОЛАРИ

А.Абдупаттаев, п.ф.н., доц. С.А.Мисиров. Наманган давлат университети

Лисоний таълимшунослик (лингводидактика) тил таълимини ўрганадиган илмий соҳа бўлиб, барча аҳоли тил таълимига оид билимларни ўзида мужассамлаштиради. Тиллар таълимшунослигининг асосий тушунчаларидан бири “ўқитиш мазмуни”нинг назарий ва амалий томонлари узоқ вақтлардан бери методист-олимларни қизиқтириб келаётган масалалардандир.

Мазкур тадқиқотда ўрта умумтаълим мактаблари инглиз тили таълимида ўқитиш мазмунининг таркибий қисмлари, унда изчилликни таъминлаш масалалари ҳақида фикр ва мулоҳазалар баён қилинади. Педагогикада, аниқроғи дидактикада ўқитиш мазмуни ўқувчилар таълим жараёнида эгаллаб олишлари зарур бўлган назарий билимларни, амалий кўникма ва малакаларни, шунингдек, дунёқарашга доир аҳлоқий-эстетик ғояларни ифодаловчи тушунчалар мажмуи сифатида талқин қилинади. Ўқитиш мазмуни таркибан нутқ мавзулари (тематика), кўникма/малакалар ҳамда тил материалидан иборатдир. Аслида учала қисм яхлит ўзлаштириш манбаи ҳисобланиб, мазмун тегишли мезонлар асосида методик ташкил қилинади (танланади, таснифланади, тақсимланади ва тақдим этилади), сўнгра ўзлаштирилади.

Нутқ малакаларини “Чет тилда нутқ фаолияти турларини эгаллаганлик тадрижий савиясига қўйиладиган талаблар” деб, қабул қилиш маъқулроқдир. Оғзаки нутқ бўйича якканутқ ва жуфтнутқ, ўқиш ҳамда тинглаб тушуниш малакалари кўрсаткичлари методикада батафсил ёритилган.

Кўникма ва малака ҳақидаги илмий-психологик таълимотни чет тил ўқитиш амалиётига татбиқ этганда нутқнинг лексик, грамматик, талаффуз кўникмаларини шакллантириш зарурлиги ва автоматлашган лисоний кўникмалардан нутқий малака ҳосил қилиш мумкинлигини эътироф этиш кифоя. Малаканинг маҳсули сифатида репродуктив (гапириш, ёзув) ва рецептив (тинглаб тушуниш, ўқиш) нутқий малакаларни ҳосил қилишга тил материалини қўллаш туфайли эришилади.

Тил материали лексика, грамматика, талаффуз аталмиш кичик қисмлардан иборатдир. Улар методик таҳлилда сунъий ажратилади, холос. Нутқда эса бўлинмас ўрганиш объекти сифатида қўлланилади. Тил материалининг таркибий қисмлари ҳисобланмиш лексика, грамматика ва талаффузга оид ҳодисалар махсус машқлар ёрдамида ўрганилади.

Инглиз тилининг хусусияти – унинг изчил (комплекс) характерга эга эканлигидир. Инглиз тилининг комплекс характерга эга бўлиши, биринчидан, лексика, грамматика, талаффуз ва орфография материаллари орасида, иккинчидан,

нутқ фаолиятининг барча турлари (гапириш, тинглаб тушуниш, ўқиш ва ёзув) орасида доимий ўзаро алоқанинг мавжудлигидадир.

Оғзаки нутқ ўқиш ва матнни тушуниш жараёнини осонлаштиради, ўқиш фаолияти (ичда ёки овоз чиқариб ўқиш) эса ўқувчиларнинг оғзаки нутқ малакаларини шакллантиришга ўзининг ижобий таъсирини кўрсатади. Дарснинг муайян мақсад ва вазифаларига қарамасдан юқоридаги боғлиқлик ҳар бир дарсда доимий намоён бўлаверади [1].

Ўқиш тил материалини ўрганишда муҳим восита вазифасини бажаради. Матнларни ўқишни ўргатиш ўқувчилар луғат бойлигини бойитиш усулларидан бири сифатида муҳим аҳамиятга эгадир. Овоз чиқариб ўқиш таллаффузни ўргатишда, тинглаб тушунишда муҳим босқич саналади. Бундан ташқари, ўқиш гапириш малакаларини шакллантиришда ҳам муҳим восита саналади. Ўқилган матнлар мазмуни бўйича савол-жавоб машқларини бажариш, ҳикоя қилиб бериш, суҳбат кабилар мазкур малакаларни шаклланишида муҳим роль ўйнайди. Ўқувчи ўқиш орқали гапиришга маълумот материал тўплайди. Уларни инглизча гапириб беришга тайёрлайди.

Бундан ташқари гапириш тинглаб тушуниш малакаларини шаклланишига, тинглаб тушуниш эса гапириш малакаларини ривожланишига сабаб бўлади. Шунинг учун ҳам машҳур методистлардан бири Н.И.Жинкин “тинглаб тушуниш гапириш жараёнида, гапириш эса тинглаб тушуниш жараёнида шаклланади ” деган фикрни илгари сурган эди [2].

Ёзувни ўргатиш нутқ фаолиятининг бошқа турларини мукаммал эгаллашда ўзининг ижобий таъсирини кўрсатади. Айниқса, ёзув фаолияти гапириш билан яқин алоқада бўлади. Гапиришда, асосан, маъно ва товуш тимсоллари иштирок этса, ёзувда маъно, товуш тимсолларига ҳарфий тимсоллар қўшилиб, бир-бири билан ўзаро боғланади. Касб-ҳунар коллежларида ёзув материалини пухта ўзлаштириш, бошқа нутқ малакаларини шакллантиришда восита вазифасини бажариб, оғзаки нутқ ва ўқиш малакаларини тўлақонли эгаллашда ўзининг муносиб улушини қўшади.

Ўрта умумтаълим мактабларида инглиз тилидан талаффуз материалини ўргатиш бир қатор нутқ малакаларини шакллантиришга ўзининг ижобий таъсирини кўрсатади. Товушларни тинглаш, қайтариш, таний олиш, фарқлаш орқали тинглаб тушуниш ривожланса, талаффуз материалини қайтариш, тақлид қилиш, сўзларни гапларда қўллаш (талаффуз қилиш машқлари) орқали гапириш малакалари шакллантирилади. Сўзларни матнда таний олиш, фарқлаш машқлари ўқиш малакаларини ривожлантирилишига ўзининг ижобий улушини қўшади. Юқоридаги айтилган фикрлар асосида шуни хулоса қилиш мумкинки, ўрта умумтаълим мактаблари инглиз тили таълимида, биринчидан, нутқ фаолияти турлари ва тил материали ичида ўзаро изчиллик кузатилса, иккинчидан, нутқ фаолияти турлари ва тил материалининг нутқда ўзаро бирликда ва изчилликда қўлланиши кузатилади.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Жалолов Ж. Ж. Чет тил ўқитиш методикаси. Чет тиллар олий ўқув юртлари (факультетлари) талабалари учун дарслик. –Т.: Ўқитувчи, 1996. –368 б.
2. Жинкин Н. И. Психологические особенности спотанной речи. Иностранные языки в школе, 1965, №4. –С.8.

THE METHODOLOGICAL BASIS OF IMPROVE WRITING SKILLS IN ENGLISH LANGUAGE TEACHING

H. Otaqulova, Gulistan state university

Abstract: Writing is one of the central pillars of language learning and should be of major interest and concern to teachers, students and researchers. Writing is one of the central pillars of language learning and should be of major interest and concern to teachers, students and researchers. Writing, like any other skill, is something you can get better at with time and practice.

Key words: writing skill, acquisition, grammar, structure, proofread, feedback

Writing is a technical skill that you use to communicate effectively through the written word. Though these may vary depending on what you’re writing, there are several that transcend categories. Writing skills can more specifically include:

- Grammar
- Vocabulary
- Spelling
- Sentence construction
- Structure
- Research and accuracy
- Clarity
- Persuasiveness

Each of these components can influence the quality of writing. Writing, like any other skill, is something we can get better at with time and practice. Here are some strategies for developing your own written communication:

Review grammar and spelling basics.

Grammar and spelling form the foundation of good writing. Writing with proper grammar and spelling communicates your professionality and attention to detail to your reader. It also makes your writing easier to understand. Plus, knowing when and how to use less-common punctuation, like colons, semicolons, and dashes, can unlock new ways to structure sentences and elevate your writing. Read what you want to write. Knowing what a finished piece of writing can look like can guide your own. If you’re trying to write a humorous short story, read humorous short stories. Writing a book review? Find a few and take note of how they’re structured. Pay attention to what makes them good and what you want to emulate (without plagiarizing, of course). If you’re working on a school assignment, you can ask your instructor for examples of successful pieces from past students.

Make reading a part of your everyday life to improve your writing. Try reading the news in the morning or picking up a book before you head to bed. If you haven’t been a big reader in the past, start with topics you’re interested in, or ask friends and family for recommendations. You’ll gradually begin to understand what subjects, genres, and authors you enjoy.

Proofread. While it’s tempting to submit work as soon as you’re done with it, build in some time to revisit what you’ve written to catch errors big and small. Here are a few proofreading tips to keep in mind:

- Set your work aside before you edit. Try to step away from your writing for a day or more so you can come back to it with fresh, more objective eyes. Crunched for time? Even allotting 20 minutes between writing and proofreading can allow you to approach your work with renewed energy.
ЭФФЕКТИВНЫЙ МЕТОД АКТИВНОГО ОБУЧЕНИЯ РУССКОМУ ЯЗЫКУ КАК ИНОСТРАННОМУ.

Н. Т. Ибрагимова, Наманганский государственный педагогический институт

Аннотация: В этой статье рассматривается кейс-технология как разновидность проблемного обучения, но в то же время и как самостоятельная и продуктивная педагогическая технология.

Ключевые слова: метод, Case Study, опыт, технология, ситуация, деятельность, обучение, студент, преподаватель, проблема.

Формирование опыта самостоятельной творческой деятельности учащихся в настоящее время является одной из самых актуальных задач образования. В условиях технологизации и информатизации образования возрастает необходимость создания условий для развития творчески активных учащихся, способных после школы адаптироваться и самореализоваться в обществе 21 века. Один из подходов к организации самостоятельной творческой деятельности – это применение в обучении новых педагогических технологий и материала, способствующего развитию мотивов обучения.

Среди них наиболее эффективными, по моему мнению, являются так называемые кейс-технологии.

“Родиной” данного метода, являются Соединенные Штаты Америки, а более точно — Образовательное учреждение бизнеса Гарвардского университета». Впервые он был применен в 1924 году. «Культурологической основой появления и развития кейс метода явился принцип «прецедента» или «случая». «Метод Case Study наиболее широко используется в обучении экономике и бизнес наукам за рубежом. … На ранней стадии своего возникновения этот метод широко применялся в курсах обучения аспирантов по программе MBA… Этот метод изучения экономики был предложен в Гарвардском университете в Америке и в последнее время нашел широкое распространение в изучении медицины, юриспруденции, математики и других наук».

Метод кейсов (англ. case-study – метод конкретных ситуаций, метод ситуационного обучения) – техника обучения, использующая описание реальных ситуаций, инструмент, позволяющий применить теоретические знания к решению практических задач, метод коллективного анализа ситуаций.

Изначально кейс-технологии разрабатывались для обучения юристов и менеджеров, когда студенты активно обсуждали конкретную экономическую или юридическую ситуацию, что и служило основой для их дальнейшей профессиональной деятельности. На сегодняшний день данные технологии широко

используются в средних школах. Название произошло от латинского термина «casus» — запутанный или необычный случай.

Кейс - технологии объединяют в себе одновременно и ролевые игры, и метод проектов, и ситуативный анализ.

Кейс-технологии противопоставлены таким видам работы, как повторение за учителем, ответы на вопросы учителя, пересказ текста и т.п. Кейсы отличаются от обычных образовательных задач (задачи имеют, как правило, одно решение и один правильный путь, приводящий к этому решению, кейсы имеют несколько решений и множество альтернативных путей, приводящих к нему).

В кейс - технологии производится анализ реальной ситуации (каких-то вводных данных) описание которой одновременно отражает не только какую-либо практическую проблему, но и актуализирует определенный комплекс знаний, который необходимо усвоить при разрешении данной проблемы

Кейс - технологии – это не повторение за учителем, не пересказ параграфа или статьи, не ответ на вопрос преподавателя, это анализ конкретной ситуации, который заставляет поднять пласт полученных знаний и применить их на практике.

Метод имеет ряд технологических особенностей:

- представляет собой специфическую разновидность исследовательской аналитической технологии, т.е. включает в себя операции исследовательского процесса, аналитической процедуры;

- является технологией коллективного обучения, важнейшие составляющие которой – работа в группе (или подгруппах) и взаимный обмен информацией;

- интегрирует в себе технологии развивающего обучения, включая процедуры индивидуального, группового и коллективного развития, формирования многообразных личностных качеств обучаемых;

- выступает в обучении как синергетическая технология, суть которой заключается в подготовке процедур погружения группы в ситуацию, формировании эффектов умножения знания, инсайтного озарения, обмена открытиями;

- интегрирует в себе значительные достижения технологии «создания успеха», т.е. предусматривает деятельность по активизации обучающихся и стимулировании их успеха;

-относится к специфической разновидности проектной технологии.

Выбор проблемы и путей её решения, который школьники осуществляют во время работы над кейсом, состоит из шести этапов, преследующих определённые цели:

Этапы работы над кейсом и их цели

этапы

цели

Знакомство с конкретным случаем

Понять проблемную ситуацию и пути принятия решения

Поиск и анализ информации для принятия решения

Научиться добывать и оценивать информацию, необходимую для решения проблемы

Обсуждение возможностей альтернативных решений

Развивать альтернативное мышление

Резолюция – принятие решения в группах

Сопоставить и оценить предложенные варианты решения

Диспут – защита своих решений отдельными группами

Аргументированно защищать решения

Сопоставление итогов – сравнение решений, принятых в группах, с решением, принятым в действительности

Оценить взаимосвязь интересов, в которых находятся отдельные решения

Классификация кейсов:

Кейсы отличаются от задач, предлагаемых для решения на семинарских и практических занятиях, поскольку цели их использования в обучении различны. Задачи сопровождают материал, дающий школьникам возможность изучения и применения отдельных теорий, методов, принципов. Обучение с помощью кейсов помогает ученикам приобрести широкий набор разнообразных навыков. Задачи имеют, как правило, одно решение и один путь, приводящий к этому решению. Кейсы имеют несколько решений и множество альтернативных путей, приводящих к нему.

Кейсы делятся на:

- иллюстративные учебные ситуации – кейсы, цель которых на конкретном практическом примере обучить учащихся алгоритму принятия правильного решения в определённой ситуации;

- учебные ситуации с формированием проблемы - кейсы, в которых описывается ситуация в конкретный период времени, выявляются и чётко формулируются проблемы; цель такого кейса – диагностирование ситуации и самостоятельное принятие решения по указанной проблеме;

-учебные ситуации без формирования проблемы – кейсы, в которых описывается более сложная, чем в предыдущем варианте, ситуация, где проблема чётко не выявлена, а представлена в статистических данных, оценках общественного мнения, органов власти; цель такого кейса – самостоятельно выявить проблему, указать альтернативные пути её решения с анализом наличных ресурсов;

-прикладные упражнения – кейсы, в которых описывается конкретная сложившаяся ситуация и ищется выход из неё; цель такого кейса – поиск путей решения проблемы.

Данные технологии помогают повысить интерес учащихся к изучаемому предмету, развивает у школьников такие качества, как социальная активность, коммуникабельность, умение слушать и грамотно излагать свои мысли.

При использовании кейс – технологий у обучающихся происходит

развитие навыков анализа и критического мышления соединение теории и практики представление примеров принимаемых решений

демонстрация различных позиций и точек зрения

формирование навыков оценки альтернативных вариантов в условиях неопределенности.

Перед учителем стоит задача – научить обучающихся как индивидуально, так и в составе группы:

анализировать информацию,

сортировать ее для решения заданной задачи,

выявлять ключевые проблемы,

генерировать альтернативные пути решения и оценивать их,

выбирать оптимальное решение и формировать программы действий и т.п.

Кроме того, обучающиеся:

получают коммуникативные навыки

развивают презентационные умения

формируют интерактивные умения, позволяющие эффективно взаимодействовать и принимать коллективные решения приобретают экспертные умения и навыки учатся учиться, самостоятельно отыскивая необходимые знания для решения ситуационной проблемы изменяют мотивацию к обучению.

При активном ситуационном обучении участникам анализа предъявляются факты (события), связанные с некоторой ситуацией по ее состоянию на определенный момент времени . Задачей обучающихся является принятие рационального решения, действуя в рамках коллективного обсуждения возможных решений, т.е. игрового взаимодействия.

Список использованной литературы

1. Гузеев В.В. Образовательная технология: от приема до философии/ М.: Сентябрь, 1996.

2. Роберт И. Новые информационные технологии в обучении: дидактические проблемы, перспективы использования //Информатика и образование. -1991. -№4.

3. Алексеев Н. Г. Формирование осознанного решения учебной задачи //Педагогика и логика. —М.: Касталь, 1993.

4. Селевко Г.К.Современные образовательные технологии: Учебное пособие. – М.: Народное образование, 1998.

5. Смолянинова О.Г. Дидактические возможности метода

case-study в обучении студентов.

TECHNOLOGIES OF LANGUAGE TEACHING METHODS

Oana Cojocaru
West university of Timisoara, Romania

Annotation. This article provides insights into language teaching methodology technologies. It shows the stages of development of educational technologies in teaching mother tongue in Romania. The problem of mother tongue curriculum was identified as a separate topic, it was argued that it is a topical methodological problem, and its form, methods and tools were identified.

Key words: Mother tongue, phenomena of language, standards, integrates, primary of education process.

One of the main problems in the history of school education is what to teach and how to solve it. Although these are separate issues, they are in fact closely linked. To a certain extent, the performance of education is determined by the ability to find the right solution that works in these two conditions.

The granting of state status to the Romanian language has created a wider use of the internal and external potential of this language. The Romanian language has been created by thousands of our romanian-german ancestors over the centuries, and the language of communication and literature between people also serves as a means of communication. In order to fully understand the uniqueness of the Romanian language, its versatility, the ability to create artistic images, it is necessary to study the language of works of art of our classical and modern writers and work with texts.

What mother-tongue therapists should organize and know in secondary schools is still not an issue. For many years, we have approved the creation of absolute programs and textbooks in the native language, as well as all the subjects taught at school, and radically updated it, condemned any action. This is one of the reasons why the content of education in the mother tongue has been depleted at some point, and the theoretical interpretations of school textbooks for 50-year-olds have been working with some pupils from year to year. The isolation of academicism, grammar, and related events from the school's native language programs and textbooks has limited pupils 'ability to learn, and has affected pupils' interest in learning the subject. showed. secret guide.

We need to control the phenomena of language from the point of view of creative thinking, production and development of skills of correct, fluent expression in oral and written forms in accordance with the conditions of speech, pronunciation, spelling and punctuation literacy.

The role and opportunities of the native language in educating young people in the spirit of our national values, customs and traditions are enormous. The teaching of this subject is even more important for our independent republic, especially in the context of the problem of training entrepreneurs and creative people.

Unfortunately, the teaching of the mother tongue in secondary schools is not in demand. One of the main reasons for this is that we have misjudged the role of the

mother tongue in the development of human consciousness and thinking. Considering that the formation of consciousness and thinking is the task of the social sciences, we believe that the content of education in the mother tongue at school is a scientific interpretation of the construction of the mother tongue, the study of grammar. As a result, the pupil is exposed to more than 750 grammatical concepts and definitions and completes many tasks of varying size and complexity, but oral and written literacy does not change significantly. The majority of pupils still have a low level of creativity, independent thinking, the ability to express the product of creative thought in oral and written forms in accordance with the conditions of speech. It would be unfair to blame the teacher or the schools for the material and technical poverty.

This subject is crucial in the organization of philological education in secondary schools, academic lyceums and vocational colleges, as well as in higher education. Because the methodology of teaching Romanian is the basis for the effectiveness of teaching any other subject in the system.

The state standard of primary education was set by areas of education, not by subjects. Standard indicators in the field of education are determined based on the level of development of children aged 7 (6) -11, the amount of educational content required by society, based on the needs and opportunities. The establishment of the state education standard of primary education at this stage allows to limit the scope of educational content, to integrate the spheres of education. The establishment of the state educational standard implies the modernization (updating in terms of the requirements of the time) based on the conceptual basis of the content of primary education.

The state educational standard defines the requirements for knowledge, skills and competencies that pupils should acquire, based on the social requirements of the primary education process. This, in turn, allows you to set criteria for assessing the knowledge, skills, and competencies your student has acquired. The basis of the standard of primary education is the integration of the parameters of education, aimed at the formation of skills and competencies in the same primary school pupils, taking into account the current needs of the state and society.

The standard of primary education is the standard parameters of each stage of education, the modernization of the field of education, the components of this content, the means and methods of the educational process, as well as the general pedagogical, psychological, technological system and serves to determine the level. At the same time, all attention is focused on maintaining the integrity, coherence, continuity and completeness of the purpose of primary education.

The requirements of the state and society for the stage of primary education must be fully ensured in the areas of education, mutual compatibility, proportionality, harmony. In this regard, the establishment of the standard of primary education allows to modernize the content of the educational process and the content of the same components, the use of new, modern pedagogical technology in the process of primary education. The

following pedagogical factors can be applied to new technologies in the educational process:

- Ensuring the gradual transfer of educational material in accordance with the content of education, determined in each area of education included in the process of primary education;

- subordination of the educational process to the goals of the educational sphere and ensuring the balance of inter-sectoral goals of education;

- The main parameters of the standard of primary education, the requirements for the assessment of specific levels of knowledge, skills and competencies of primary school pupils in each field of education, as well as the criteria for assessing learning outcomes development on.

The standard of primary education integrates the standard indicators set for the areas of education. The criteria and parameters of the standard are the indicators of the educational standard set in the field of education.

Bibliography:

Alqahtani A. (2019). The use of technology in English language teaching. Frontiers in Education Technology., 2(3). DOI:10.22158/fet.v2n3p168

Arnó-macià, E. (2016). The Role of Technology in Teaching Languages for Specific Purposes Courses. *The Modern Language Journal*, *96*(1991–2012), 89–104.

Blake, R. J. Technologies for language learning // Routhledge encyclopedia of language teaching and learning / ed. by M. Byram and A. Hu. -London-N. Y. : Routledge, 2013. - P. 712-715.

Chun, D., Smith, B., & Kern, R. (2016). Technology in Language Use, Language Teaching, and Language Learning. *Modern Language Journal*, *100*, 64–80. https://doi.org/10.1111/modl.12302

Connell, J. (2009). Good and bad eLearning. *Australian College of Educators • Acer*, 24–27. 9

Kubler, C. C. (2017). Developing course materials for technology- mediated Chinese language learning. *Innovation in Language Learning and Teaching*, *0*(0), 1–9. https://doi.org/10.1080/17501229.2018.1418626

Suardi, I., & Hamid, S. (2013). Technology on Language Teaching and Learning : A Research on Indonesian Pesantren. *Procedia - Social and Behavioral Sciences*, *83*, 585–589. https://doi.org/10.1016/j.sbspro.2013.06.111

Wikipedia. (2020). *Language Education*.

INGLIZ TILINI O‘QITISHDA NOVERBAL VOSITALARDAN FOYDALANISH USULLARI

O. R. Omonboyeva, N.Abdullayeva. Namangan davlat unversiteti

Annotatsiya: Ushbu maqolada chet tillarni òqitishda noverbal vositalardan, ya`ni imo-ishoralardan foydalanishning axamiyatli jihatlari, o`qituvchi dars mobaynida xar bir

beriladigan ko`rsatma uchun tògri ovoz ohangini tanlay bilishi va undan samarali foydalanishining qay darajada muhimligi va bu borada uchraydigan turli xil muammolar, mashg`ulot davrida òquvchilarni diqqatini jalb qilishda muhim bòlgan omillar haqida fikr yuritilgan.

Kalit sòzlar: noverbal vositalar, yuz ifodalari, imo-ishoralar, kòz bilan boshqarish, ovoz ohang,sinf xona muhiti, òzbek sinf xonalari, talaffuz, she'r, ifodali o`qish, qòshiqlar.

Bugungi shiddat bilan o`zgarib, rivojlanib borayotgan zamonda til òrganish va òrgatish hayotning juda muhim jabxalaridan biri bo`lib qolmoqda. Ayniqsa tilni òqitish juda kuchli bilim va mahorat talab qiladi. Har qanday chet tillarini òrganishga talab yuqori bòlgan zamonda, mahoratli òqituvchi bo`lib yetishish ham katta ahamiyatga ega. Òqituvchining til o`qitishdagi mahorati esa uning samarali o`qitish metodlardan to`g`ri foydalana olishidadir. Ayni vaqtda ushbu maqolada muhokama ostiga olingan o`qituvchining o`z yuz ifodlaridan va imo-ishorlaridan me`yorda, unumli foydalanishi ham uning til o`qitishdagi maxoratlaridan biri hisoblanadi. Umumta`lim maktablarida yoki boshqa ta`lim muassasalarida, chet tilini o`rganayotgan til o`rganuvchi xorijiy tilda òqituvchi tomonidan berilayotgan ma`lumotlarni to`laligicha anglay olmasligi mumkin, buning boisi o`quvchi albatta yetarli darajada bilim va ko`nikmaga ega bo`lmaganligidadir. O`z metodikasiga ega o`qituvchi, o`quvchida shu kabi tushunolmay qolish orqali paydo bo`ladigan bo`shliqni to`ldirish uchun o`zining noverbal imo-ishoralari yoki tegishli yuz ifodasini yordamga chaqirish orqali qo`shimcha muloqot vositalaridan foydalansa, jarayon oson kechadi.[1] Masalan oddiy sinf xonasiga birinchi bor kirganda, yangi til o`rganuvchi birinchi sinf o`quvchilariga “Stand up” ko`rsatmasi bilan bir vaqtda ikki qo`lni kaftini yuqoriga qilgan holda silkitish orqali qo`shimcha ma`lumot beriladi va o`z o`rnida ingliz tilidan bexabar bolalar o`rnilaridan turadilar. Bu harakatni har darsda qayta qayta bajarish yo`li bilan o`quvchi so`z boyligidagida “stand up” bu “o`rningizdan turing” ma`nosida berilishi o`z-o`zidan shakllanadi.

Kòplab ma'lumotlarga kòra har bir sòz bilan bir qatorda imo-ishorlar va yuz ifodalari qòllanilishi barcha tillarda mavjud bo`lib, bu tabbiy holat xisoblanadi. Keling dars mobaynida o`quvchilarni mashg`ulotlarda qay tartibda ishlashlarini belgilovchi noverbal hatti xarakatlarni ko`rib chiqamiz. Agar òqituvchi ikki qòlini oldinga chòzib kaftlarini qarama-qarshi holatda tutib, alohidalikni ko`rsatuvchi silkitish ishorasini ishlatsa, bu uning berilgan topshiriqni òzingiz bajaring degan ko`rsatma berishini anglatadi, yani sinf xonasidagi o`quvchilar yakka tartibda ishlashi lozim bo`ladi.[2] Agar o`qituvchi kaftlarini bir-biriga qarama-qarshi holatda harakat qildirsa u ikki guruhga bo`lining degan ma'noni anglatadi. Noverbal vositalarni sinf xonasidagi axamiyatini tadqiq qilish maqsadida 8-sinflarda kichik tajriba o`tkazib kòrdim. Hech qanday imo-ishora va yuz ifodalaridan foydalanmagan holatda darsni tashkillashtirdim va mavzuga oid yangi materiallarni tushuntirdim. Bu jarayonda imkon qadar faqat ingliz tilidan foydalanishga xarakat qildim, barcha o`quvchilar meni eshitishayotganday edilar va bu menga ularning e'tiborlari to`laligicha yangi mavzuni tushunishga qaratilgandek, mening har bir so`zimni tushunayotgandek ko`rindi. Lekin bu holat uzoqqa cho`zilmadi, ular

meni ko`rsatmalarimni va nima deyotganimni anglashmayotganliklarini savollar berish hamda sekin astalik bilan diqqat e`tiborlarini boshqa tomonga qaratish bilan sezdira boshladilar. Yuqoridagi tajribamda ingliz tilidagi sit down (o`tiring), stand up (turing), divide into two groups (ikki guruhga ajraling) kabi so`z va iboralardan foydalanib ko`rsatmalar berdim, ammo bu ko`rsatmalarni qayta-qayta aytishimga qaramay sinfning 50% o`quvchilari berilgan topshiriqqa javob sifatida hech qanday reaksiya bildirmadilar va men o`z positsiyamda turgan holda noverbal vositalardan ya`ni qo`l xarakatlarimdan foydalanishimga to`g`ri keldi. Imo-ishoralardan foydalana boshlashim bilan sinf jonlandi va yuqoridagi ma`lum bir tushunmayotgan o`quvchilar ham darsga kirishib ketdilar. Ham verbal ham noverbal muloqot vositalaridan foydalanib berilgan ko`rsatmalarimga sinfdagi barcha o`quvchilar bir vaqtning o`zida 100% javob qaytarishlari menda ham o`qituvchi sifatida o`zimga bo`lgan ishonchni oshirdi.

Huddi shu tajribani Ingliz tili va adabiyoti yònalishi 3-bosqich tabalarida ham sinab kòrdim. Ularga imo-ishora va yuz ifodalarisiz mavzuni tushuntirsam hech bir talaba meni nima deyotganimni eshitgisi kelmadi, dars ular uchun zerikarlidek tuyuldi ammo birinchi o`rinda ular bilan ko`zim orqali muloqot o`rnatib, imo-ishorlar orqali gapirganimda ularninig diqqatlari menga qaratildi va mavzu ular uchun qiziqarli ekanligini hatti xarakatlari, berilgan savollarga javob berishga urinishlari bilan ifoda eta boshladilari.

Ko`plab òqituvchilar ko`z aloqasi orqali talabalar bilan muloqot òrtnatmaydilar yani nazoratni ushlab turmaydilar. Buesa talabalarni darsdan tashqari yumushlarga chalg`ishiga katta turtki bòladi. Til o`rganuvchilar qabul qilayotgan yangi mavzuni yaxshi tushunganmi yoki yo`qligini aynan ko`z orqali bilsa bòladi. Talabalarning darsga qay darajada e`tabor berayotganliklarini aynan shu usul orqali bilish mumkin. Agar òquvchining diqqat e`tibori bir marotaba yòqolsa uni qayta tiklash uchun 25 daqiqa kerak bo`ladi.[3] O`z o`zidan ko`rinib turibdiki, shu vaqt oralig`ida berilgan ma`lumotlarni o`quvchi egallay olmaydi, 25 daqiqadan so`nggina tiklash mumkin bo`lgan diqqat e`tabor uchun o`qituvchi bir qancha mashaqqatlar chekishi lozim. Shuning uchun dars davomida har bir o`quvchi bilan ko`z orqali muloqot o`rnatish juda muhimdir.

Ingliz tilini o`rgatish jarayonida ayniqsa boshlang`ich sinflarda o`qituvchilar o`qituvchilarning sòz boyliklarini va tinglab tushunish ko`nikmalarini shakllantirish maqsadida she`r va qo`shiqlardan foydalanadilar. Kichik yoshdagi maktabgacha va boshlang`ich ta'limda esa faqatgina xorijiy tillarni og`zaki she'r va qo`shiqlar yodlatish orqali o`rgatiladi. Ayni shu davrda bolalar o`rgangan narsalarini eslab qolishlari kuchkli bo`ladi.[4] Agar sher va qo`shiqlardagi so`zlarni xatti xarakatlar, imo ishoralar, yuz mimikalari umuman aytganda noverbal vositalar orqali yodlatilsa juda yuqori natijaga erishish mumkin, chunki yosh bolalar “kinesthetic learners” xatta xarakatlar orqali tilni o`zlashtiruvchilar xisoblanadilar va shu usulda tezroq qabul qilishadi, xarakatli o`yinlar orqali o`rgangan so`z va iboralarini bir umrga esda saqlaydilar. Bundan tashqari “Language in use” yani tilni amaliyotda bajarish bilan kelgusidagi gapirish ko`nikmasini shakllantirishga yo`l ochiladi.

Xulosa o`rnida shuni ta`kidlash lozimki, til o`rgatish jarayonida muloqotning verbal yani so`zlardan foydalanib ko`rsatmalar berish va yangi materiallarni o`quvchilarga yetkazishda noverbal muloqot vositalaridan tana a`zolarining xatta xarakatlari, yuz ifodasi va ko`z orqali muloqot qilish ham juda muhim sanaladi va o`z dars mashg`ulotlarini samarali chiqishi uchun xar bir o`qituvchi bu muloqot vositalaridan o`z o`rnida, unumli foydalanishni bilishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdullaeva, N. (2020). Some tips in teaching foreign languages to young learners. *Scientific and Technical Journal of Namangan Institute of Engineering and Technology*, *2*(3), 441-444.\
2. Jim Scrivener. (2012) Classroom management techniques. Cambridge University Press.
3. Gurrey P. (2003) Teaching English as a foreign language. Longmans London.
4. Michael Linsin. (2023) Why you should take responsibility for your students`behavior.

TALABALARGA INGLIZ TILIDA SOHAVIY MATNLARNI O’QISHNI O’RGATISH USULLARI (TARIX YO’NALISHI MISOLIDA)

T. Odiljonova, Namangan davlat pedagogika instituti

Annotatsiya: Maqolada tarix yo’nalishi o’quvchilariga ingliz tilini o’qitishda mutxassislikka oid matn va mashqlarni shakllantirishning ba’zi samarali usullari ko’rib chiqiladi.

Kalit so’zlar: mashqlar, matnlar, diolog, tarix

Annotation: The article considers some effective methods of creating texts and exercises related to specialization in teaching English to history students.

Key words: exercises, texts, diologue, history

Аннотация: В статье рассматриваются некоторые эффективные методы создания текстов и упражнений, связанных со специализацией в обучении английскому языку студентов-историков.

Ключевые слова: упражнения, тексты, диалог, история.

O‘zbekistonda xorijiy tilarni o‘qitishga bo’lgan e’tibor kundan-kunga oshib bormoqda. Xususan, So’ngi yillarda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 19.05.2021 yildagi “O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-5117-sonli qarori[5] hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 19.05.2021 yilda “Xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirishni samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”

[5] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 19.05.2021 yildagi “O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-5117-sonli qarori. // https://lex.uz/docs/-5426736 [murojaat qilingan sana: 5.04.2023]

312-son qarorilari ushbu sohada muhim islohotlar amalga oshirilishida huquqiy asos bo’ldi.[6] Mana shu islohotlarning eng dolzarb ahamiyat kasb etgani – xorijiy tillarni o’qitishning ta’lim yo’nalishlariga qarab ixtisoslashtirilishi bo’ldi. Jumladan, oliy ta’lim muassasalarining Fakultetlararo chet tili kafedralariga fakultet maqomi berildi. Ularda “Ijtimoiy-gumanitar fanlarda chet tili”, “Tabiiy fanlararo chet tillar kafedrasi” singari kafedralar vujudga keldi. Har bir ta’lim yo’nalishida xorijiy tillarni o’qitish o’z navbatida mutaxassisliklarga mos o’quv dasturlari, mavzular hamda sohaga oid atamalar lug’atlarini vujudga keltirishni ham talab qiladi. Bu esa tadqiqotchi pedagoglar oldiga katta mas’uliyat yuklaydi. Uzluksiz ta’lim tizimining barcha bosqichlarida o‘sib kelayotgan yosh avlodni chet tillariga o‘qitish sifatini ta’minlash, chet tillarida erkin so‘zlasha oladigan mutaxassislarni tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish, ushbu yo‘nalishdagi o‘quv dasturlarining uzviyligi va uzluksizligini ta’minlash, chet tillarini bilish darajasini baholashning milliy test tizimini rivojlantirish asosida malaka sertifikatiga ega bo‘lgan o‘quvchilar, talabalar va pedagoglarga imtiyozlar berish hamda ularni rag‘batlantirish maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi: 2018-yil 1-sentabrga qadar chet tillarini o‘qitishning asosiy bosqichlari umumiy o‘rta ta’lim muassasalari va akademik litseylarda ta’minlanishini nazarda tutgan holda uzluksiz ta’lim tizimining barcha bosqichlarida o‘zaro uzviylik va uzluksizlik tamoyillariga asosan o‘quv dasturlarini ishlab chiqib, amaliyotga joriy etish vazifalarini yuklaydi.[7] Bu kabi qarorlarning muhim ahamiyati shundaki, xorijiy tillarni ta’lim yo’nalishlariga qarab ixtisoslashtirilganligidadir. Bundan ko’rinib turibdiki, har bir ta’lim yo’nalishida chet tillarini o’quvchi va talabalarga mutaxassisliklari bo’yicha o’rgatishda pedagoglardan o’quv qo’llanmalar, mavzular yuzasidan mashqlar ishlab chiqishni talab qiladi. Jumladan, tarix yo’nalishi talabalariga ham ingliz tilida ma’lumotlarni tez va samarali o’zlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Buning uchun bir nechta usullardan foydalanish mumkin. Diolog orqali mavzularni takrorlash o’quvchilar ongida o’tilgan mavzuni yaxshi esda qolishini ta’minlaydi. Bunda ikki o’quvchi tarixiy joylar, voqealar hamda sanalar haqida o’zaro suhbat qurishi asnosida, nafaqat suhbatdoshlarga, balki kuzatuvchilarga ham foydali bo’ladi. Quyida huddi shunday diologga misol keltirish mumkin:

Diologue.

- Hello

- Hi

-Today we visited Kokan. Let's find out about it together.

- I agree with that.

- Do you know which madrasas were built in the Kokhan Khanate in the 19th century?

[6] O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 19.05.2021 yildagi “Xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirishni samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 312-son qarori. // https://lex.uz/docs/-5431845?ONDATE=03.08.2022%2000 [murojaat qilingan sana: 5.04.2023]

[7] O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 11.08.2017 yildagi 610-son// https://lex.uz/docs/-3304915 [murojjat qilingan sana: 08.04.2023]

- Of course. Hazrat Kalon Sahibzada, Hokim Ayim, and Sultan Murodbek madrasas were completed during this period.

- How wonderful. What information do you have about the Khudoyar Khan Palace?

- Khudoyorkhan Palace is a unique architectural monument of the second half of the 19th century. It consists of more than a hundred rooms.

- In whose era was Khudoyarkhan Palace built?

- This unique monument was built during the reign of the Kokan prince Khudoyar Khan.

- How many years was the palace built?

- It was built in 1863-1873.

- Thank you, through you I got information about the palace of Khudoyar Khan and madrasas in Kokon.

Bu kabi diologlar orqali talabalar mavzularni mustahkamlash bilan birga, ingliz tilida ravon gapirish salohiyatiga va lug’at boyligiga ega bo’ladilar. Bu orqali talabalarni esda saqlash qobiliyatini yuksaltirish uchun turli kommunikativ vaziyatlarda talabalarni chet tilida muloqotga jalb qilish mumkin.

Shunisi aniqki, o’quv jarayonida ingliz tili insonning umumiy madaniy dunyoqarashini kengaytirishni, boshqa mamlakatlarning urf-odatlari bilan tanishishni, muloqotning yangi usul va uslublarini o’zlashtirishni, ya’ni umumiy rivojlanish va tarbiyaviy funksiyalarni boshqa fanlardan ko’ra ko’proq darajada bajarishni o’z ichiga oladi. Bu bizga chet tilini nafaqat gumanitar fanlar, balki tabiatshunoslik tsikli sub’ektlari bilan fanlararo integratsiyaning maqbul vositasi sifatida ko’rib chiqishga imkon beradi.[8]

Bilamizki, bir sinfda turli xarakterli ilm izlanuvchilar ta’lim oladi. Biri har taraflama mukammal bo’lsa, boshqasi tortinchoq, yana biri uyatchan bo’ladi. Turli xarakterli bilim oluvchilarga turlicha yondashilmasa, ilm o’rganuvchilar boshqa tengdoshlaridan ortda qolishi mumkin. Shunday ekan o’qituvchi talabalarining bilimlarini yozma usulda ham mustahkamlashi mumkin. Buning uchun har darsda talabalar mavzuning qanchalik yaxshi o’zlashtirib kelganlarini aniqlash uchun o’qituvchi muhim ma’lumotlarni tushirib qoldirib, mashq tayyorlab keladi, va matndadagi bo’shliqlarni o’quvchilar tomonidan to’ldilishi kerak bo’ladi.

Albatta, foydalanilayotgan manbalar o’qituvchi tomonidan yig’ib olinadi. Buni yangi mavzu tushuntirilishidan avval bajartirish o’quvchilarni qanchalik uy vazifalarini bajarayotganlarini ham aniqlaydi. Adolatlilikni saqlagan holda, mashq alishtirilgan holda tekshiriladi. Quyida yuqorida aytilgan mashqga misol keltirish mumkin:

Fill in the gap.

The British East India Company became interested in the natural resources and raw materials of the strategically important khanates from the ... century. M. Moorcroft is

[8] Ibragimova M.M. Shodiyorova M.S. Ingliz tili o'rganishda fanlararo aloqalardan foydalanish. // Central Asian academic journal of scientific research. VOLUME 1 | ISSUE 3 | 2021. –B.62 // manba: https://cyberleninka.ru/article/n/ingliz-tili-organishda-fanlararo-aloqalardan-foydalanish [murojaat qilingan sana: 6.04.2023]

sent to Central Asia to establish relations with England. He reached Bukhara and was killed along with two of his companions on the way back. A. Burns was sent to Bukhara in ..., major I. Wolff in ..., Captain J. Abbott to Khiva and Bukhara in ...

Bu kabi mashqlar ma’lum ma’noda ingliz tilidagi grammatika va yozish ko’nikmalarini mustahkamlashga ham hissa qo’shadi. Shu bilan birga, o’zbek tilidagi qadimiy so’zlar ingliz tilida boshqacha yoritilishi mumkin. Ayniqsa joy nomlari yozilishi va aytilishi jihatdan farq qiladi. Mavzuni yaxshi o’zlashtirib kelgan o’quvchi ingliz tilida qanday ifodalanishini bilmagan so’zlarini o’rganishi shubhasizdir. Misol tariqasida ayrim joy nomlarini keltirish mumkin:

Eron - Iranian Afrosiyob - Afrasiyab Tabriz - Tabriz Ko‘lob - Kolob Dog‘iston - Dagestan Chimkent - Shymkent Xo‘jand - Khojand Chimboy - Shimbay Zirabuloq - Zirabulok Buxoro – Bukhara Xuroson- Khorasan	Qang‘ - Kang Qoshg‘ar - Kashgar Sug‘diyona - Sugdiana Marg‘iyona - Margiyona Baqtriya - Bactria Kushon - Kushan Surxko‘tal - Surkh Kotal Sosoniylar imperiyasi - Sasanian Empire Turkiston - Turgistan

Xulosa qilib aytish mumkinki, hozirgi kunda chet tillari ommalashayotgan bir zamonda ta’lim jarayonida o‘qituvchilar eng ilg‘or yondoshuvlar bilan tanishishlari va keyinchalik ularni birlashtirishi va o‘z ishlarida foydalangan holda ta‘lim tizimida sezilarli o‘sishga erishish mumkin.

Shunday ekan, berilayotgan bilimlar qiziqarli, foydali va albatta, kelajak uchun naf keltirishi lozimdir. Darslarni qiziqarli tashkillashtirishda va tilni o’rganishda yuqorida keltirilgan mashqlarning ahamiyati katta. Ular nafaqat tarix yo’nalishi talabalariga mavzularni yaxshi mustahkamlashga, shu bilan birgalikda ingliz tilidagi ko’nikmalarni oshirishga ham yordam beradi. Dars o‘qituvchi va talabalarning ijodiy hamkorligiga asoslanishi lozim. Shundagina o‘quvchilar mustaqil erkin fikrlay oladilar, irodalari tarbiyalanadi

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 19.05.2021 yildagi “O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-5117-sonli qarori. // https://lex.uz/docs/-5426736 [murojaat qilingan sana: 5.04.2023]

2.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 19.05.2021 yildagi “Xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirishni samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 312-son qarori. // https://lex.uz/docs/-5431845?ONDATE=03.08.2022%2000 [murojaat qilingan sana: 5.04.2023]

3.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 11.08.2017 yildagi 610-son// https://lex.uz/docs/-3304915 [murojjat qilingan sana: 08.04.2023]

4.Ibragimova M.M. Shodiyorova M.S. Ingliz tili o'rganishda fanlararo aloqalardan foydalanish. // Central Asian academic journal of scientific research. VOLUME 1 | ISSUE 3 | 2021. –B.62 // manba: https://cyberleninka.ru/article/n/ingliz-tili-organishda-fanlararo-aloqalardan-foydalanish [murojaat qilingan sana: 6.04.2023]

CHET TIL DARSLARIDA YUQORI SINF O‘QUVCHILARINING LUG‘AT BOYLIGINI OSHIRISH USULLARI

D.Shermahammatova, Namangan davlat chet tillari instituti

Annotatsiya: Lug’at boyligini oshirish o’quvchilarda , balkim har bir insonning so’zlashuv qobiliyatini oshishida muhim va asosiy rol o’ynaydi.Qachonki har bir insonnig lug’at boyligi yetarli darajada bo’lar ekan o’shandagina so’zlashuv jarayoniga kirishda ham hech qanday muammo va kamchiliklar vujudga kelmaydi.Shuningdek , lug’at boyligini oshirish o’quvchilarning lug’at boyligini oshirish , o’quvchilarda dunyoqarash , nutq madaniyati va o’z fikrini to’laqonli idodalashda katta yordam beradi.Lug’at boyligini oshrish uchun eng avvalo eslab qolish qobiliyatini rivojlantirish zarur va yod olgan so’zlarni esda saqlab qolish va yodlangan so’zlarni kerakli joyda to’g’ri va o’z o’rnida qo’llashni bilish kerak.Ushbu maqolada yuqori sinf o’quvchilarining lug’at boyligini oshirish uchun zarur bo’ladigan metod va usullar keltirib o’tilgan.

Kalit (tayanch) so’zlar: Lug’at , so’z , lug’at boyligi , nutq , dunyoqarash , faollik , savodxonlik , sinonimlar , antonimlar , imloviy savodxonlik , atama , kontekst , metod , usullar , nutq madaniyati , so’zlashuv , so’zlashuv jarayoni , fikrni ifodalash , muammo , kamchiliklar , so’zlashuv qobiliyati , lug’at boyligini oshirish , imlo lug’at , izohli lug’at , ensiklopedik lug’at.

KIRISH

Bugungi kundagi chet tillarini va umuman ta’lim sifatini oshirish uchun qo’yilgan talablardan biri bu so’zlashuv jarayonidir.Avvalgi ta’limda esa faqat grammatikga e’tibor berilgan.Bugungi kunga kelib butun dunyo grammatikaga bo’lgan e’tibordan voz kechildi bugun esa so’zlashuv jarayoniga e’tibor berilmoqda.Chunki hozirgi kunda barcha insonlarda chet mamlakatga chiqish istagi paydo bo’lmoqda va mamlakatga kirib kelayotgan turistlar oqimiga yetarli darajada xizmat kor’rsat olishdir.Bu xohish va talab avvalgi davrlarga nisbatan ancha yuqorilagan .Tabiiyki buning natijasi o’laroq chet mamlakat insonlar va turistlar bilan to’laqonli munosabatga kira olish kerak. So’zlashuv jarayoni bugungi kunda eng dolzarb va muhim masalalardan biri bo’lib kelmoqda.O’quvchilarda lug’at boyligini oshirish uchun yod olingan so’zlarni misollar bilan amaliyotda yoki so’zlashuvda jarayonida qo’llash kerak.Har bir narsani o’rgangandan so’ng nazariy jihatdan sinab ko’rgandan amaliyotda sinab ko’rgan yuqori darajada samara beradi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR.

O’quvchilarda lu’gat boyligini oshirish muhim vosita hisoblanadi.Lug’at bilan ishlash asosan lug’at usularini ajratish va ular bilan ishlashga yordam beradi.Har bir insonda ehtiyoj tug’ilishi natijasida lug’atga murojaat qiladi.Lug’atlarni bir nech turlari mavjud . Masalan:Izohli lug’atlar , ensiklopedik lug’atlar, lingvistik lug’atlar ,bir tilli yoki ko’p tilli lug’atlar , alfavit tartibli lug’atlar va boshqalar .Lug’atlar bilan ishlashda so’zlarni ko’p ma’noli qismlarini o’rganish uchun Izohli lug’atlarga murojaat etiladi.Shuningdek izohli lug’atlarda so’zlarni har bir ma’nosi ifodalanishi bilan bir qatorda izohlar ham beriladi.Ensiklopedik lug’atlar barcha sohalar uchun nazariy va amaliy bilimlarni saqlaydi.Ensiklopedik lug’atlar turli maqolalardan iborat bo’lib , har bir maqolada biror buyum ,yoki voqea-hodisaga ta’rif beriladi.

Yuqori sinf o’quvchilarida lug’at boyligini oshirish uchun quyidagi metodlar yordam beradi:

1. So’zlarning ko’p ma’noli qismlari sinonim va antonimlarni aniqlash ;

2.Yod olingan so’zlarga misollar yordamida gap tuzish yoki so’zlardan muloqot jarayonida foydalanish;

3. So’zlarni biror mavzu doirasida bo’lib o’rganish;

4. Mavzuga turli o’yinlarni tashkil etish;

5. Zamon talabiga javob beruvchi texnika va texnologiyalardan oqilona foydalanish;

6. Biror mavzuga tegishli bo’lgan tekstlar yod olish.Bu esa ham lug’at boyligi va so’zlashuv samaradorligini oshiradi;

Xulosalar

Har bir mavzu bilan ishlashda shuningdek lug’atlar bilan ishlashda ham faoliyatni izchil tartib – qoida asosida tashkillashtirish.Lug’atlardan foydalanishda lug’at turlaridan to’g’ri foydalana olish zarur.Lug’at boyligini oshirish bilan ishlashda barcha ish tartib asosida tashkillansa o’quvchida hech qanday qiyinchiliklarni keltirib chiqarmaydi.Buning uchun eng avvalo, har bir inson o’z xohish va istaklari ,diqqat-e’tibor qunt,chidam, sabr - toqat , matonat va tirishqoqlik bilan izlanish kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1.,,O’zbekiston milliy ensiklopediyasi’’

2. ,,O’zbek tilining izohli lug’ati’’ (2006 -2008)

3.,,O’zbek tili fanidan lug’atlar ustida ishlash orqali talabalarning so’z boyligini oshirish ‘‘metodik ko’rsatmasi .Toshkent-2005

4.O’zbekiston Milliy Ensiklopediyasi.Birinchi jild.Toshkent , 2000-yil

5.Karimova Qosimova ,Safo Matchnov ,Xolida G’ulomova ,Sharofat Yo’ldasheva, Sharofjon Sariyev ,,Lug’at ustida ishlash metodikasi’’

ТАЛАБАЛАРНИНГ ИНГЛИЗ ТИЛИДА ЁЗМА НУТҚ МАЛАКАЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ УСУЛЛАРИ (НОФИЛОЛОГИК ЙЎНАЛИШЛАР МИСОЛИДА)

Ф. И. Каримова, Андижон машинасозлик институти

Аннотация: Ушбу мақолада нофилологик соҳаларда таьлим олувчи талабаларнинг инглиз тилидаги ёзма нутқини ривожлантириш методлари кўриб чиқилган бўлиб, биз бир қанча холатларда тахлил қилдик ва тавсияларимизи бердик. Ёзма нутқ бугунги куннинг долзарб масалаларидан бўлиб қолмоқда, чунки турли халқаро ва миллий тестларда иншо ва баён ёзиш талаб қилинмоқда.

Аннотация: В данной статье рассматриваются методы развития письменной английской речи студентов, обучающихся в области технических вузах, которые мы описали в нескольких случаях и дали наши рекомендации. Письменная речь остается одним из актуальных вопросов сегодняшнего дня, так как написание эссе и заявлений требуется в различных международных и национальных тестах.

Abstract: This article is devoted to the methods of development of written English speech of Students trained in the fields of technics, which we described in several cases and gave our recommendations. Written speech remains one of the topical issues of today, as writing essays and statements is required in various international and national tests.

Калит сўзлар: халқаро стандартлар, ёзма нутқ, ёзиш техникаси, имло,грамматик кўникмалар, сўз туркумлари, таълим воситаси, иншо.

Ключевые слова: международные стандарты, письменная речь, техника письма, орфография, грамматические навыки, категории слов, образовательный инструмент, эссе.

Keywords: international standards, written speech, writing techniques, spelling, grammar skills, word categories, educational tool, essay.

Давлат таълим стандартида номутахассисларнинг чет тилини умумевропа халқаро стандарти CEFR нинг бошланғич А-2 даражасида билим,малака ва кўникмаларга эга бўлишлари дастурий талаблар сифатида белгилаб қўйилган.Бугунги кунда Олий таълимга ўкишга кабул килинган талабадан В1 даражасидаги билим талаб килинмоқда.Ушбу даражани эгаллаган талабалар содда жуфт-нутқларда иштирок эта олишади, ўзлари ва яқин инсонларига тааллуқли шахсий характердаги саволларга жавоб бера олишади. Чет тилида ёзувни ўргатиш хақида гап борганда ёзувнинг ўқитиш мақомига эга эмас,балки таълим воситаси ҳисобланишини таъкидлаш жоиз. Чет тилида ёзув деганда ушбу тил воситалари қўлланиб,ёзма шаклда фикр баён этиш тушунилади. Ёзма нутқда қўлланиладиган лисоний воситаларни, биринчидан графемалар ва ёзма шаклдаги лексик ва грамматик бирликлар ташкил этса, иккинчидан, уларнинг қўлланиши ёзма нутқнинг ёзиш техникаси саналади.Ёзиш техникасидан фойдаланиб, фикр чет тилида ёзма баён этилса,ёзма мулоқот юз беради. АҚШ чет тиллар ўқитиш методикасининг атоқли намоёндаларидан Гарвард университети профессори Уил Риверснинг фикрича, саводли бўлиш – ўқиш ва ёзувни билиш, деган маънони англатади. Ўқиш ва ёзув ёзма нутқнинг икки “палла” сидир, биринчисида ёзилган

материал ўқилади, иккинчисида эса одатда ўқишда ўзлаштириладиган фикр ёзма изҳор этилади. Ҳусниҳат ҳарф,ҳарф бирикмаси сўз асосида, имло эса морфема, сўз даражасида, ёзма нутқ эса гап, абзац ва боғланма матн материалида ўргатилади. Ёзма нутқ бошқа репродуктив нутқ фаолияти тури – гапириш заминида, яъни унинг лисоний материали ва мавзулари доирасида шаклланади.Ёзма нутқ тегишли хусусий малакаларга асосланади.Ёзувмалакалари қуйидаги кўникмалардан ташкил топади:

1) ҳусниҳат кўникмаси
2) имло кўникмаси
3) тузиш кўникмаси
4) ёзувнинг лексик ва грамматик кўникмалари

Ёзма машқлар деганда ўқувчиар синфда ва уйда бажарадиган барча ёзма ишлар киради.Ёзувга ўргатишда проф.[9]Пассов машқларнинг умумий таснифи ни келтиради:1.кўчириш 2.эшитиб ёзиш (имло диктанти) 3.эркин ва ижодий диктант (фикр баён этиш) 4. Чинакам ёзув машқи (хат,деворий матбуотга мақола ёзиш,бирор ҳодисани тасвирлаш 5. Ўйин-машқ (кроссворд,чайнворд топишмоқ) 6.ҳикоя (матн) режасини тузиш 7. Ўқиган матннинг мухтасар баёни (аннотация)ни тайёрлаш.

Нофилологик соҳаларда чет тилида ёзма нутқни шакллантириш учун “занжир” ўйинини қизиқарли ўтказса бўлади.Бу ўйиндан савод ўргатиш билан бир пайтда сўзлар топиш бўйича ўтказиш мумкин. Ўйин қоидасига кўра ўқитувчи бир сўз айтади ва ёзади.Талабалар шу сўз охиридаги ҳарфдан бошланувчи сўзни навбат билан айтадилар ва ёзишда давом этадилар. Қайси бир талаба сўз топа олмай қолса шу ерда занжир узилади. Шу талабанинг гуруҳига жарима берилади.Масалан:Bag – Girl– Love – Elefant – Table – Enter – Roof – Friend – Dog – Garden – Nose – Elbow – Window – Water – Rose .

Бу ўйин ёрдамида сўз туркумларини ҳам яхши ўзлаштириб олиш мумкин.Ўқувчиларни гуруҳларга бўлиб алоҳида-алоҳида топшириқлар бериш мумкин.1 – гуруҳга от сўз туркуми,2-гуруҳга сифат сўз туркуми,3-гуруҳлар эса феъл сўз туркумига оид сўзлар топиш вазифаси топширилади.

“Нима йўқолиб қолди?” номли таълимий ўйин ўқувчиларнинг ёзма саводини оширади. Дарсда тарқатмаларга ёзилган сўзлар доскага қўйилади ва талабалар уларни кузатиб турадилар. Талабалар уни кузатиб бўлганларидан сўнг уларга кўзларини юмиш айтилади. Талабаларларнинг кўзлари юмилганда ўқитувчи сўзлар ичидаги айрим ҳарфларни оқ қоғоз билан беркитиб қўяди ва ўқувчиларга сўзларни тўғри тўлдириб ёзишларини топширади. Бу ўйин чет тили алфавитини ўргатишда ҳам қўл келади.

“Давом эттир” ўйинида эса ўқитувчи сўзни бошидаги икки ҳарфини айтса, қолганини талабалар ўзлари топадилар ва ёзадилар.

[9]Жалолов.Ж Чет тили ўқитиш методикаси.Тошкент-2012,291-б

[10]Бундай таълимий ўйинлар натижасида талабаларнинг фикрлаш қобилияти ривожланади,сўз бойлиги ортади,хотираси мустаҳкамланади, диққатни жамлаш қобилияти ўсади. Бу ўйиннинг таълимий аҳамияти билан бирга талабалартарбиясида катта рол ўйнайди.”Давом эттир” ўйинидан чет тили дарсларида шеър,ҳикоя ва эртакларни ўтишда ҳам талабалар билим самарадорлигини оширишда ўқитувчи учун қўл келади.

Таълимий ўйинлар талабаларга таълим беришга хизмат қилиши, қизиқарли, мароқли ва тушунарли олиб борилиши зарур. Мусобақа тарзида ўтказилган таълимий ўйинларда талабалар ғолиб чиқиш мақсадида жону дили билан ҳаракат қиладилар,берилган ҳар бир топшириқни бажаришга одатланиб қоладилар, натижада уларга берилган топшириқларни бажаришга бўлган қизиқиш орта боради. Таълимий ўйинлардан тўғри фойдалана олган ўқитувчи ўқувчилардаги бу салбий ҳолатларни бартараф қила олади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Г.А.Абдурахмонов. Узбек тили грамматикаси. 1 том, Изд-во “Фан”,Т.,1975,с.366

2. Бодуэн де Куртенэ И.А. О смешанном характере всех языков. В кн. : И.А.Бодуэн де Куртенэ. Избранные труды по общему языкознанию, т.1, М., 1963, с 37Г.

3. Буранов Ж.Б. Инглиз ва узбек тилларининг киёсий граммматикаси. Т., 12 бет.

4. Виноградов В.В. 0 некоторых вопросах русской исторической лексикологии. Изд. АН СССР отд.лит.и яз., 1953,т.12,вып.3,с. 193.

5. Karimova Feruza Inoyatovna “Ingliz tilidagi matnlarni tarjima qilishda ma’nolarni berish” Образования и наука в XXI веке (Россия) Выпуск №24 (том 2) (март 2022)

6. Karimova Feruza Inoyatovna “Methods of effective use of models in translation of English text into Russian an Uzbek” International Conference of Advance Research in Humanities, Sciences and Education 28.03.2022 Turkey

7. Karimova Feruza Inoyatovna “Some innovation in teaching English” International Conference of Advance Research in Humanities, Sciences and Education 28.03.2022 Turkey

8. Karimova Feruza Inoyatovna “Historical reality in Uzbek literature and discourse analysis of folk songs” O‘zbekiston Respublikasi oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi Andijon Mashinasozlik instituti ISSN 2181-1539 2022 yil

9. Karimova Feruza Inoyatovna “Xorijiy tilni o‘rganish yangi metodikasi , Andijon mashinasozlik instituti” «Raqamli hayot va ijtimoiy fanlarni ning barkamol

[10]М.Артиқова.Мустақил тафаккур ва нутқий фаолиятни ривожлантириш омиллари “Таълимда ўқувчиларнинг мустақил тафаккури ва нутқий фаолиятини ривожлантириш масаласи” конференция материаллари. Андижон-2015

avoldni voyaga yetkazishdagi o‘rni va ahamiyati: dolzarb muammolar va istiqbollar» xalqaro ilmiy-amaliy anjuman 12 aprel 2022 yil, Andijon

10. Мамадалиев Б. Хозирги узбек тилида кушма сузлар. Кукон, Давлат Пединститут Илмий ишлар туплами. Фаргона, 1958, с.24.

11. Ярцева В.Н. Сравнительная типология и ее связи ч контрастивной лингвистикой. –НДВШ, фил.науки, 1978

12. . Karimova Feruza Inoyatovna “Ingliz va o’zbek tillardagi qoshma fe’llarning semantic tahlili ” O‘zbekiston Respublikasi oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi

Andijon Mashinasozlik instituti ISSN 2181-1539 2022 yil № 5(maxsus son 2-tom)

13.Таълим технологиялари.Илмий-услубий журнал.№1(51) 2015 йил

14.Жамол Жалолов. Чет тили ўқитиш методикаси.Ўқитувчи нашриёти.Тошкент.2012

15.Таълимда ўқувчиларнинг мустақил тафаккури ва нутқий фаолиятини ривожлантириш масаласи.Конференция материаллари.Андижон - 2015

KATTA YOSHDAGILARGA CHET TILINI O‘RGATISHNING SAMARALI USULLARI.

M.D. Raximova, Sh.Ne’matjonov. Namangan davlat chet tillari institute

Annotatsiya: Mazkur tezisda katta yoshdagi insonlarga chet tilini o‘rgatishning samarali usullari hamda turli xil metodlar haqida so‘z yuritiladi. Shuningdek, til o‘rganish jarayonida kelib chiqadigan ba’zi muammolarga yechimlar berilib, olingan nazariy bilimlarni amalda qo‘llash haqida yoritib beriladi.

Kalit so‘zlar: til, metod, usul, verbal, visual, o‘rganish, tahlil qilish, metodika, grammatika, qoida, jadval, simvol, tanishish, mashq qilish, qo‘llash, tarjima, gapirish.

Bilamizki, bugungi kunda til o‘rganish jamiyatimizning ajralmas bir bo‘g‘iniga aylanib bormoqda. Xususan, maktabgacha ta’lim muassasalari, umumiy o‘rta ta’lim va oliy o‘quv yurtlarining o‘quvchilaridan farqli ravishda katta yoshdagi insonlarning ham ma’lum sabablarga ko‘ra chet tilini o‘rganishga qiziqishlari ortib bormoqda. Bunday sabablarga misol qilib, chet mamlakatlariga ishlash, tajriba orttirish yoki o‘z sohasi bo‘yicha malaka oshirish maqsadida ketayotgan insonlarning oqimini ko‘rsatish mumkin. Mana shunday vaziyatlarda ularning chet tilini o‘rganishga bo‘lgan ehtiyoji kelib chiqadi. Ammo, shu narsa aniqki, katta yoshdagi insonlarning xotirasi yoshlarnikiga nisbatan biroz sustroq qabul qilishi mumkin. Quyidagi vaziyatda ba’zi usullardan foydalanish kerak. Masalan, metodikadagi samarali usullardan biri, til o‘rgatish davomida o‘rganuvchining o‘ziga o‘tilgan mavzu bo‘yicha gaplar tuzdirib, ularni tahlil qilish orqali o‘rgatishdir. Nega bu usul samarali degan savolga shunday javob berish mumkinki, o‘zbek tili grammatikasidagi ba’zi mavzular aynan boshqa bir chet tili grammatikasida uchramaslik ehtimoli bor. Bunga yorqin misol qilib, o‘zbek va ingliz tillaridagi zamonlar o‘rtasidagi tafovutni keltirish mumkin. Chunki, ingliz tilida mavjud bir nechta zamon o‘zbek tilida mavjuda bo‘lgan uchta zamonning tarkibiy qismlariga kiradi. Lekin ingliz

tilida har bir zamon alohida struktura bilan o‘rganiladi. Buni o‘rganish jarayonida esa ma’lum chigalliklar kelib chiqadi shu sababli, o‘rganuvchi o‘zi gaplar tuzib, nutqida qo‘llay olsagina mavzu yaxshi o‘zlashtirilishi mumkin.

Yana bir samarali usullardan biri bu tildagi verbal emas, visual qoidalardan foydalanish orqali amalga oshiriladi. Sababi, tilimizda verbal qoidalar ya’ni so‘z yordamida ta’riflangan qoidalar mavjud bo‘lib, bular asosan nazariy ta’limotlarga asoslangan. Ammo til o‘rgatish jarayonida visual qoidalar ya’ni faqat so‘zlar ishtirokidan iloji boricha qochish va asosan sxema, jadval va simvollar bilan tushuntirish tilni yaxshiroq o‘rganish va tushunishni osonlashtirishga yordam beradi. Deylik, ma’lum mavzu tanlanib, unga doir barcha qoidalar jadval ko‘rinishidagi shakllarga tartib bilan joylashtirilgan. Aynan shu qoidalarga oid misollar esa diagrammatik shaklga joylashtirilgan. Bu yondashuv eslab qolish uchun qulay, ya’ni jadvallar va simvollar bilan o‘rgatish ma’lum muddat o‘tgandan keyin ham yodda saqlash jarayonini yaxshilaydi. Bu katta yoshdagi insonlarga til o‘rgatishda qo‘llanadigan samarali usullardan biri hisoblanadi.

Yuqoridagi usullar bilan birgalikda, chet tilini o‘qitish jarayonida amaliy ya’ni dars davomida foydalaniladigan metodlar ham mavjud. Bular: tanishish, mashq qilish va qo‘llash. Dars boshlash jarayonida dastlab mavzu haqida umumiy tushuncha berilib yoki mavzuga doir qandaydir muammo o‘rtaga tashlanib keyingi bosqichda shu mavzuda doir mashqlar bajariladi, mavzu keng tushuntiriladi, o‘rganuvchi bilan mustaqil ishlanadi. Oxirgi qadamda esa, yuqorida aytilgan muammoga dars davomida to‘liq yechim topilib, o‘rgangan bilimni qanday sharoitda va qayerda qo‘llash muhokama qilinadi. Olingan bilim mustahkamlanishi uchun o‘rganilayotgan tildagi video darslar va qo‘llanmalar ham tilni mukammalroq o‘rganishga yordam beradi. Nega aynan bunday qo‘llanmalar? Chunki kattalar ham bolalar kabi ko‘proq o‘rganilayotgan tilda qo‘shimcha ma’lumotlarni o‘rganish va ularni o‘z nutqida gapirish orqali til o‘rganish darajasini yaxshilay oladilar. Ahamiyatlisi shundaki, ular gapirishni o‘rganish uchun ko‘p muddat sarflamaydilar, chunki ularda tilni o‘rganish ko‘nikmasi allaqachon mavjud. Lekin faqat tinglash jarayonining o‘zi foydali emas, ushbu qadam bilan birgalikda boshqa vazifalar ham til o‘rganishga katta yordam beradi. Bu jarayonni kengroq ochib berish uchun Benny Luisning tajribalariga yuzlanamiz.

Shu o‘rinda yana bir usul o‘z samarasini bermay qolmaydi. Bu 12 tilda gaplashuvchi tilshunos va tarjimon Benny Luisning qo‘llagan “Tinglash va qaytarish” usulidir. Bu hozirgi kunda eng ko‘p sinab ko‘riladigan usullar qatoriga kiradi. Ushbu inson aynan shu usul orqali italyan tilini mukammal darajada o‘rgangan. Har bir inson tinglar ekan, eshitgan narsasini ma’lum darajada o‘z ongida shakllantiradi va uni qaytarish orqali eshitgan narsasini o‘z nutqida qayta gavdalantiradi. Shu yo‘l bilan ham yangi bilimlarni qo‘lga kiritish mumkin. Lekin bu usul tinglash jarayonida o‘ta diqqatlilikni talab qiladi. Xususan, yuqorida keltirilgan metodlarni qo‘llash va tushuntirish jarayonida faqat o‘rgatilayotgan chet tilidagi so‘zlardan emas balki, ayrim holatlarda o‘z ona tilimizdagi ba’zi jumlalar orqali ifodalash o‘rganayotgan insonning

tushunishini osonlashtiradi. Negaki, shunday tarjima qilinadigan so‘zlar borki, ular o‘zga tilda aynan muqobiliga ega emas ya’ni ba’zan ma’nosi o‘z tilidagidek chiqmasligi mumkin. Shu sababli til o‘rgatish jarayonida sanab o‘tilgan bir qancha usullar bilan birgalikda ba’zan o‘z tilimizdagi so‘zlarni ham ishlatish maqsadga muvofiq.

Katta yoshdagi insonlarning chet tilini o‘rganishdagi eng qiynaladigan jihati bu olingan bilimni nutqda tez qo‘llay bilish faoliyatidir. Chunki, o‘ylanadigan fikrni bayon etish nafaqat yangi o‘rganuvchi insonlarda balki, chet tilini mukammal o‘rgangan insonda ham ba’zida turli muammolarni keltirib chiqarishi mumkin. Gapirishning g’oyat mukammmal darajada bo‘lishi “spontan” (o‘z-o‘zidan beixtiyor sodir bo‘ladigan) nutq nomini olgan. Bu jarayon ushbu sohada qanchalik ko‘p shug’ullanilgan sari shunchalik samarali bo‘la boshlaydi. Bejizga turli xil adabiyotlarda ham, chet tilidagi nutqni oshirish uchun muntazam ravishda shug’ullanish talab etiladi deyilmagan. Barcha nutq faoliyati turlarida bo‘lganidek, gapirishning ham o‘ziga xos mexanizmlari mavjud hamda ushbu mexanizmlarning eng ahamiyatlilaridan biri bu tanlov mexanizmidir. Ushbu mexanizmda so‘zlarni hamda nutq namunalarini tanlab aytishning farqiga borish kerak.

So‘zlarni tanlab aytishda, assotsiativ aloqalar shakllanganligiga qarab, ularni xotiradan tez yoki sekin “topish” mumkin. Chunki yangi o‘rganuvchi insonlarda dastlab gapirish jarayoni sekin bo‘lganidek, so‘zlarni o‘z o‘rnida topib gapirish ham qiyinchilik tug’diradi. Lekin ushbu holatlarda o‘rganuvchi gapirish tezligini koproq tinglash va uni qaytarish orqali kundan kunga yaxshilab boradi. Nega aynan eshitish va qaytarish usuli bilan? Inson ongi shunday shakllanganki, kishi eshitgan narsasini qanchalik ko‘p va tez qaytarsa, undagi eshitish, eslab qolish va hatto gapirish tezligi ham o‘ziga bilinmas darajada bo‘lsa ham sekinlik bilan rivojlanib boradi. Shuningdek, nutqda chet tilidagi so‘zlarni vaqtida qo‘llay olish tez rivojlanib ketadigan sohalar qatorida turmaydi. Ayniqsa yosh bolalarda bu jarayon hatto kattalarga nisbatan tezroq bo‘lishi ham mumkin. Chunki kichik yoshdagi bolalarda yangi texnikalarni qo‘llab ko‘rishga bo‘lgan ishtiyoq katta yoshdagi insonlarga nisbatan kuchliroq. Lekin katta yoshdagi insonlarda ham bu jarayonni yaxshilash mumkin. Buning uchun esa, muntazam ravishda chet tilidagi o‘zlari qiziqqan ko‘rsatuv, video yoki teleeshittirishlarni ko‘rib borish, atrofidagi o‘zi kabi chet tilini o‘rganayotgan insonlar bilan ko‘proq muloqotda bo‘lish hamda kunning asosiy qismini shu tilni o‘rganish uchun bag‘ishlash kerak bo‘ladi.

Tabiiyki, katta yoshli insonlarda bu jarayon biroz mushkul. Negaki, ularning aksariyati ma’lum sababga ko‘ragina tilni o‘rganayotgan bo‘ladi natijada ular ko‘p vaqt sarflay olmaydilar, ammo bunday jarayon samara bermaydi degan fikr noto‘g‘ri. Chunki, bunday insonlar ham tilni ma’lum vaqtda o‘zlashtiradilar, ammo bu juda ko‘p muddatni talab etadi. Lekin shunga qaramasdan, bugungi kunda chet tilini o‘rganish jamiyatimizning har qaysi sohasida, har qaysi davrida va har qanday sharoitda o‘z dolzarblik masalasini yo‘qotmaydigan, azaliy jarayonlardan biri bo‘lib kelmoqda. Shu sababli ham, til o‘rganishdagi yangi me’todlarni ishlab chiqish va ular ustida ko‘proq ishlash samarali natijalarni ko‘rsatib boraveradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. J.Djalolov “Chet tili o‘qitish metodikasi”. “O‘qituvchi“ nashriyot-matbaa ijodiy uyi, Toshkent – 2012.
2. J.Djalolov O‘rta maktabda ingliz tili o‘qitish metodikasi. Toshkent, O`qituvchi nashriyoti 1997 yil.
3. Johnson, K. E. The Sociocultural Turn and Its Challenges for Second Language Teacher Education. // TESOL Quarterly., – London., 2016.
4. K.Shokarimova, “Pedagogoik qobiliyat va pedagogik mahoratning ta’lim-tarbiya berishdagi ahamiyati”. Science and education,1.
5. U.Bekmuratova. Ingliz tilini o‘qitishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish. Toshkent - 2012.

WAYS OF IMPROVING WRITING SKILLS ENGLISH LANGUAGE TEACHING

X. Otaqulova, Gulistan state university

Abstract: Writing is one of the central pillars of language learning and should be of major interest and concern to teachers, students and researchers. Writing is one of the central pillars of language learning and should be of major interest and concern to teachers, students and researchers. Writing, like any other skill, is something you can get better at with time and practice.

Key words: writing skill, acquisition, grammar, structure, proofread, feedback

Writing is a technical skill that you use to communicate effectively through the written word. Though these may vary depending on what you’re writing, there are several that transcend categories. Writing skills can more specifically include:

- Grammar
- Vocabulary
- Spelling
- Sentence construction
- Structure
- Research and accuracy
- Clarity
- Persuasiveness

Each of these components can influence the quality of writing. Writing, like any other skill, is something we can get better at with time and practice. Here are some strategies for developing your own written communication:

Review grammar and spelling basics.

Grammar and spelling form the foundation of good writing. Writing with proper grammar and spelling communicates your professionality and attention to detail to your reader. It also makes your writing easier to understand. Plus, knowing when and how to use less-common punctuation, like colons, semicolons, and dashes, can unlock new ways to structure sentences and elevate your writing. Read what you want to write. Knowing what a finished piece of writing can look like can guide your own. If you’re trying to write a

humorous short story, read humorous short stories. Writing a book review? Find a few and take note of how they're structured. Pay attention to what makes them good and what you want to emulate (without plagiarizing, of course). If you're working on a school assignment, you can ask your instructor for examples of successful pieces from past students.

Make reading a part of your everyday life to improve your writing. Try reading the news in the morning or picking up a book before you head to bed. If you haven't been a big reader in the past, start with topics you're interested in, or ask friends and family for recommendations. You'll gradually begin to understand what subjects, genres, and authors you enjoy.

Proofread. While it's tempting to submit work as soon as you're done with it, build in some time to revisit what you've written to catch errors big and small. Here are a few proofreading tips to keep in mind:

- Set your work aside before you edit. Try to step away from your writing for a day or more so you can come back to it with fresh, more objective eyes. Crunched for time? Even allotting 20 minutes between writing and proofreading can allow you to approach your work with renewed energy.
- Start with easy fixes, then progress to bigger changes. Starting with easier changes can get you in the rhythm for proofreading, allow you to read through your work once more and clear distractions so you can focus on bigger edits. Read through your work to catch misspellings, inconsistencies, and grammar errors. Then address the larger problems with structure or awkward transitions.
- If you could say something in fewer words, do so. Being unnecessarily wordy can cloud your message and confuse the reader. Pare down phrases that are redundant, repetitive, or obvious.
- Read out loud. Reading out loud can help you find awkward phrases and areas where your writing doesn't flow well.

Get feedback. Whether you're writing emails or essays, asking for feedback is a great way to see how somebody besides yourself will interpret your text. Have an idea of what you'd like your proofreader to focus on—the structure, conclusion, the persuasiveness of an argument, or otherwise. Approach a trusted friend, family member, coworker, or instructor. If you're a student, your school might also have a writing resource center you can reach out to. You might also consider forming a writing group or joining a writing class. Find writing courses online, at your local community college, or at independent writing workshops in your city.

Think about structure.

Grammar and spelling keep your writing consistent and legible, but structure ensures the big ideas get across to the reader. In many cases, forming an outline will help solidify structure. An outline can clarify what you're hoping to convey in each section, enable you to visualize the flow of your piece, and surface parts that require more research or thought. Structure might look different depending on what you're writing. An essay

typically has an introduction, body paragraphs, and a conclusion. A fiction piece might follow the six-stage plot structure: exposition, rising action, climax, falling action, resolution, and denouement. Choose what’s best for your purposes.

Write.

Like many skills, one of the best ways to improve your writing is to practice. Here are a few ways you can get started:

- Start a journal or a blog.
- Join a class or writing workshop.
- Practice free writing.
- Write letters to friends or family.
- Put together an opinion piece for your local newspaper or publication you like.

Know some common fixes. Even if a text is grammatically correct, you may be able to make it more dynamic and interesting with some polish. Here are some common ways you can sharpen your writing:

- Choose strong verbs (for example, “sprinted,” “dashed,” or “bolted” instead of “ran”).
- Avoid passive voice.
- Vary sentence length.
- Cut unnecessary words.
- Replace cliches with original phrasing.

References

1. Bloomfield, Louis, The Importance of Writing, Philadelphia Inquirer, 2004.
2. Byrne, D., Teaching Writing Skills, Longman, UK , 1988.
3. College Writing, http://www.unc.edu/dept, last visited 10 April 2010.
4. Kelly, Joe, The Importance of Writing: Past Present and Future, The RSCC Online Writing Lab, 1999.
5. Kondrat, Alla, Importance of Good Writing, from http://www.suite101.com/reference/good_writing, last visited 17 April 2010.
6. Importance of Writing Well. Miamian Magazine. Miami University Alumni Association, 2007
7. Paige Johnson Tan, The Importance of Writing Well: A Justification and How-to Guide, http://people.uncw.edu/tanp/writingwell.html., last visited 16 April 2010.
8. Business Writing Seminars, www.linguarama.com/brochure/pdfbrochures
9. The National Commission on Writing, press release, 2003, from http://www.writingcommission.org/pr/writing_for_employ.html, last visited 9 April2010.
10. www.flo-joe.co.uk/cae/students/writing, last visited 15 April 2010.
11. Saxton, Brian, The Importance of Writing, AptosJunior High School, 2007.

12. Birsen Tan Tütünis, Content Based Academic Writing, tutunis @superonline.com, last visited 21 March 2010.

Writing Skills Necessary for Employment, Says Big Business, http://www.writingcommission.org/pr/writing_for_employ.html., last visited 16 April 2010. White, R. and Arndt, V., Process Writing, Longman UK, 1991.

ZAMONAVIY NEMIS TILINI O‘QITISHDA PREDLOGLARNI O’RGATISH METODIKASI

D.Z. Hayotova, S.A. Vafoyeva, Buxoro Davlat Universiteti

Annotatsiya: Mazkur maqolada interfaol metodlar ularning ahamiyati hamda predloglarning ushbu metodlar orqali o'qitish haqida fikr yuritiladi.

Inhaltsangabe: Dieser Artikel beschreibt die Bedeutung interaktiver Methoden und das Lehren Präpositionen durch diese Methoden.

Аннотация: В этой статье обсуждается важность интерактивных методов и обучения предлогов с помощью этих методов.

Tayanch so‘zlar: Interaktiv,aktiv,passiv, QR-kod, kompetensiya, kommunikativ,metod

Ключевые слова: Интерактивный, активный, пассивный, QR-код, компетентность, коммуникативный, метод

Schlüsselwörter: Interaktiv, aktiv, passiv, QR-Code, Kompetenz, Kommunikation, Methode.

Ta’lim bosqichlarida barcha fanlarni o‘qitishda AKT vositalarini qo‘llashning dasturiy manbalarini yaratish yuzasidan respublika prezidentining farmonlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qator qarorlari chiqdi. Mazkur me’yoriy hujjatlar dasturulamal sifatida ta’limning barcha bo‘g‘inlarida katta o‘zgarishlar yuz berishiga olib keldi va bugungi kunda o‘zining samarali natijalarini bermoqda. Ma’lumki, axborot manbalaridan foydalanish nafaqat AKT vositalarini bilishni, balki chet tillarini ham puxta egallashni taqazo etadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Chet tillarni o‘rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 1875-sonli qarorning e’lon qilinishi respublikamizda chet tillarni uzluksiz o‘qitishni tashkil qilish, ta’lim bosqichlari uchun belgilangan davlat ta’lim standartlarini jahon ta’lim standartlariga muvofiqlashtirish va xorijiy tillarni o‘qitish tizimini tubdan yaxshilash vazifalarini qo‘ydi. Buni amalga oshirish ta’lim jarayoniga zamonaviy pedagogik uslublarni tatbiq etish, xorijiy tillarni o‘qitishda turli xil ped texnalogiyalar yordamida, interaktiv metodlardan samarali foydalanishni yo‘lga qo‘yishni ham taqozo etadi. Ma’lumki, xorijiy til ta’limida talabalarning nutqiy kompetentsiyalarini rivojlantirishda tinglab tushunish va so‘zlash malakalari yetakchi o‘rinda turadi.Mamlakatimiz uzluksiz ta’lim tizimida ham chet tillarni o‘rganish bo‘yicha Davlat ta’lim standartlari loyihasini ishlab chiqish jarayonida “Ta’lim to‘g‘risida” va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonunlari talablari asoslanildi hamda dunyoning rivojlangan mamlakatlarining ijobiy tajribalari va “Xorijiy

tillarni bilish bo‘yicha umumyevropa kompetensiyalari”tizimi chuqur o‘rganib chiqildi. Uzluksiz ta’lim tizimida chet tillarini o‘rgatish bo‘yicha ishlab chiqilgan davlat ta’lim standartlarining ahamiyati shundaki, unda o‘quvchi-yoshlarni chet tillarda erkin muloqot qila olish ko‘nikmasini shakllantirish eng muhim vazifalardan biri etib belgilangan bo‘lib, bir nechta yo‘nalishlarni qamrab olgan. Eng muhim jihati Davlat ta’lim standartining loyihasi chet tilini o‘rganishda kommunikativ faoliyat va shaxsga yo‘naltirilgan, integrativ va kompetensiyali yondashuvlar asosida ishlab chiqilgan.

Predloglarning paydo bo‘lish tarixi. Predloglarning etimologig tarixi lotin tilidan paydo bo‘lgan “Präposition” so‘ziga borib taqaladi. “ Lotincha-nemischa ” lug‘atga murojaat qilsak, “prae” so‘zi predlog ma’nosini anglatadi. Bundan tashqari “prae” so‘zi nemis tilida *vor* old qo‘shimchasiga to‘g‘ri kelib, bu old qo‘shimchadan fe’l va ot yasaladi.

a) Präfix: prae- (lat.)= voran, voraus[1 ,408]

b) Präfix im Verb: praepono (lat.)= voransetzen, stellen, -legen[1 ,412]

c) Präfix im Substantiv: praepositio (lat.)= Voranstellung[1 ,412]

Präposition : prae (lat.)= vor (her) [1 ,412]

Predloglarning so‘zma-so‘z tarjimasi vo, voran, voransetzen so‘zlar bilan bog‘liqdir. Bu bog‘liqlik *Präposition* so‘zining ma’nosini ochib beradi. Vor-Wort ya’ni

predloglarning o‘rnini, qaysi so‘z bilan bog‘lanib kelgan bo‘lsa o‘sha so‘zdan oldin kelishiga ishora qiladi [2,159].

Nemis tilida qo‘llaniladigan predloglarning ko‘pchiligi turli xil so‘z turkumlari masalan ravish, ot partiziplar va boshqa chet tillaridan, maxsus tillardan paydo bo’lgan.

Ravishlardan paydo bo‘lgan predloglar. Sifatdosh sifat va otlardan paydo bo‘lgan predloglar.

“Die Duden Grammatik” va “Bünting Eichlers Deutsche Grammatik” kitoblariga murojaat qilsak , birinchi predloglar o‘rin ravishlaridan paydo bo‘lganligi haqidagi ma’lumotlarga ega bo’lamiz. Bu predloglarga *ab, an, aus, auf, bei, bis, durch, hinter, mit, nach, uber, um, unter, von, vor, zü* kiradi. Bu predloglarni ham predlog sifatida ham ravish sifatida qo‘llash mumkin [3,383].

1) Adverb: Die Zeitschrift liegt unten im Regal**.**

2) Präposition: Sie liegt unter dem Buch.

3) Adverb: Der Besen ist hinten im Abstellraum.

4) Präposition: Er ist hinter dem Staubsauger.

Keyinchalik o‘rinni ifodalovchi predloglar vaqtni ifodalovchi predloglar o‘rnida qo‘llanilgan. Vaqtni ifodalovchi predloglarga: *ab, an, auf, aus, bei, bis, gegen, hinter, in, nnerhalb, mit nach, um unter, von, vor, zu va zwischen* kirdi [4,148].

O‘rinni va vaqtni ifodalovchi predloglar mantiqan birga qo‘llanila oladi. Masalan *vor* predlogi ham vaqtni ham o‘rinni ham sababni ifodalay oladi:

5)Mein Auto steht vor dem LKW (lokal)

6)Wir haben vor zwanzig Minuten gegessen (temporal)

7)Ihre Kinder kreischten vor Vergnügen. (kausal=sie kreischten, weil sie vergnügt waren)

Sifatdoshlar, sifatlar, otlardan paydo bo‘lgan predloglar.

Ayrim predloglar sifatlardan, otlardan, fe’llarning sifatdosh formasidan paydo bo‘lgan. Sifatdoshlardan paydo bo‘lgan predloglar ikkiga bo‘linadi. Sifatdosh I va sifatdosh II dan paydo bo‘lgan predloglar.

Sifatdosh I shaklidan paydo bo’lgan predloglarga: *betreffend, entsprechend* kiradi.Sifatdosh II dan paydo bo‘lgan predloglarga *angenommen, ungeachtet* kiradi. Ungeachtet predlogi ***un*** inkorni ifodalovchi old qo‘shimcha bilan yasalgan. Ayrim sifatdoshlar predloglar bilan qo‘llaniladi: *angefangen bei, ausgehend von, beginnend mit* [5,699].

Partizip + Präposition + Dativ
angefangen bei
ausgehend von
beginnend mit
entfernt von
gleichbedeutend mit
übereinstimmend mit

Sifatlardan paydo bo‘lgan predloglarning soni ko‘p emas. Bu predloglarga *nach (von nahe), nächst, voll frei, gleich, westlich, südlich, ähnlich, fern, lang, unweit* [3,384] kiradi.

Otlardan paydo bo'lgan predloglarga: *dank, krank, trotz, wegen, laut zeit, mangels, betreffs, zwecks*[4,149] kiradi. Bunday predloglar bosh harf bilan emas, balki kichik harflar bilan yo‘ziladi.

Predloglarni innovatsion texnalogiyalar bilan o‘rgatish usullari. O‘qitish metodlaridagi innovatsiyani quyidagi metodlarda ko‘rishimiz mumkin;

Aktiv metod. Bu metod talaba-yoshlarni dars jarayonida faollashuviga, ma’lum bir holat va voqelikga nisbatan fikrlashga-muloxaza yuritishga undaydi.

Passiv metod. Bu metod dars jarayonida talabalarda o‘rganilayotgan mavzu bo‘yicha bir tomonlama tushuncha hosil bo‘lishiga olib keladi.

Interaktiv metod. Bu metodni maqsadi dars jarayonida o‘qitivchi va talabalarni birgalikdagi faol hatti-harakatlariga asoslanadi.

Interaktiv (ingl. Interaction-o‘zaro ta’sir) metodlar – bu jamoa bo‘lib fikrlash deb yuritiladi, ya’ni pedagogik ta’sir etish usullari bo‘lib, ta’lim mazmunining tarkibiy qismi hisoblanadi. Bu metodlarning o‘ziga xosligi shundaki,ular faqat pedagog va o‘quvchilarning birgalikda faoliyat ko‘rsatish orqali amalga oshiriladi.

Interaktiv mashg’ulot –o‘qituvchi va o‘quvchilar faol ishtirok etadigan mashg’ulot; jarayon hamkorlikda kechadi.Interaktiv metodlar o‘zining quyidagi o‘ziga xos jihatlari bilan izohlanadi:

a) Interfaol metodlar o‘qituvchi bilan o‘quvchining faol munosabati,bir-birini to‘liq tushuntirishga asoslanadi.

b) Interfaol metodlarni o‘quv jarayonida joriy etishning tub maqsadi – dars qaysi shaklda bo‘lmasin ,qayerda o‘tkazilmasin darsda o‘qituvchi bilan o‘quvchining hamkorlikda ishlashini natijada o‘zlashtirishlarini ta’minlashi losim.

c) Bunda o‘qituvchi faqat fasilitator (yo‘l – yo‘riq ko‘rsatuvchi, kuzatuvchi, xulosalovchi) vazifasini bajaradi.

d) Ushbu metodlar orqali o‘quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatlari rivojlantirilib ularda erkin fikrlash,mustaqil qaror qabul qilish ,hissiyotlarni boshqara olish , tanqidiy va ijobiy fikr yuritishning rivojlanishiga zamin tayyorlaydi.

Quyidagi interaktiv metodlar nemis tilida predlog mavzusini o‘quvchilarga o‘rgatishda qo‘l keladi:

O‘ylash, fikrlash, ijro etishga doir interfaol metodlar: (Rasmlarga qarab mustaqil hikoya tuzish va so‘zlab berish.)

Vincent van Gogh



Van Goghs Zimmer in Arles

Wählen Sie die richtige Variante aus:

1. Wo schlief der Maler Gogh?

a) Er schlief in seinem Zimmer und lag auf dem Bett.

b) Er schlief in seinen Zimmer und lag unter dem Bett.

c) Er schlief in seinem Zimmer und lag auf das Bett.

2. Den kleinste Stuhl stellte Gogh

a) zwischen das Bett und den Tisch.

b) zwischen dem Bett und den Tisch.

c) zwischen das Bett und den Stuhl.

3. Wohin hing der Maler seine Bekleidung und den Hut?

a) Er hing sie auf die Ablage hinter dem Bett.

b) Er hing sie auf der Ablage unter das Bett.

c) Er hing sie auf die Ablage hinter das Bett.

4. Wo befindet sich im Schlafzimmer der Spiegel?

a) Der Spiegel hängt auf der Wand neben dem Fenster.

B) Der Spiegel hängt an die Wand neben das Fenster.

c) Der Spiegel hängt an der Wand neben dem Fenster.

5. Der blaue Krug, die Flaschen und die Bücher hatte van Gogh

a) auf dem Tisch.

b) auf den Tisch.

c) an dem Tisch.

Hören Sie die Ballade und ergänzen Sie die passenden Präpositionen:

am, auf, beim, bis an, im, in, ins, um

König in Thule(Johann Wolfgang Goethe)

Es war ein König _____ Thule, Er saß _____ Königsmahle,
Gar treu ____ _____das Grab, Die Ritter _____ ihn her,
Dem sterbend seine Buhle _____ höhem Vätersaale
Einen goldenen Becher gab. Dort ____ dem Schloß ___ Meer.

Es ging ihm nichts darüber, Dort stand der alte Zecher,
Er leert` ihn jeden Schmaus: Trank letzte Lebensglut
Die Augen gingen ihm über, Und warf den heiligen Becher

“ Monsterspiel ” o‘yini .

Bu o‘yin orqali o‘quvchilar ko‘rish eshitish, o‘qish ko‘nikmalarini rivojlantirish bilan birga, predloglarni kerakli kelishiklarda qo‘llay olishni o‘rganishadi. O‘quvchilar 2 guruhga bo‘linadi va har bir o‘quvchiga oldindan tayyorlangan rasmlar beriladi. Ana shu rasmlar yo‘rdamida har bir o‘quvchi o‘zining partnyorini topishi kerak bo‘ladi. O‘quvchilar quyidagi savollarni berib, o‘ziga kerakli bo‘lgan sherigini topadi:

-Hast du Hände anstatt der Füße?

-Hast du einen Kopf im Bauch?

-Hast du einen Arm auf dem Rücken?

-Haben Sie drei Beine?

-Haben Sie ein Auge anstatt des Mundes?

O‘quvchilar berilgan savollarga “ha “ yoki “yo‘q” deb javob qaytarishi kerak bo‘ladi.

Wechselpräposition –Rallye o‘yini .

Bu o‘yinda 3-4 o‘quvchi ishtirok etishi mumkin. Bu o‘yin orqali o‘quvchilar dativ va akkusativ kelishigi predloglarini to‘g‘ri qo‘llay olishni organadilar. O‘quvchilar ikki guruhga bo‘linadi va har bir guruhga o‘yin rejasi hamda kubik beriladi. O‘quvchilar navbat bilan o‘yinni boshlashadi. Masalan, kubik quyidagi gap ustiga tushdi: Im Restaurant: Das Salz steht _____Pfeffer”.

O‘quvchi gapni o‘qib kerakli kelishikga qo‘yishi kerak. Agar vazifani bajara olmasa keying o‘quvchi o‘yinni davom ettiradi.

Scannt die QR -Codes, schreibt und ergänzt die Lücken.

 QR-1----------  QR-2--------  QR-3-------  QR-4-----  QR-5-----  -------QR6

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Langenscheidt Taschenwörterbuch, 1999, S. 408,412.

2.Bünting, Karl-Dieter ; Ader, Dorothea: Grammatik auf einen Blick: Die. deutsche Sprache und ihre Grammatik mit einem Grammatiklexikon Schweiz : Isis Verlagsgesellschaft AG Chur, 1993.

3.Gelhaus, Hermann ; Eisenberg, Peter ; Henne, Helmut ; Sitta, Horst ; Wellmann, Hans ; (Bearbeitung): Grammatik der deutschen Gegenwartssprache. neu bearbeitete Auflage. Mannheim, Leipzig, Wien, Zürich : Dudenverlag, 1998

4. Bünting, Karl-Dieter ; Eichler, Wolfgang: Deutsche Grammatik: Form, Leistung und Gebrauch der Gegenwartssprache. 6. Auflage. Weinheim : Beltz Athenäum Verlag, 1996

5.Engel, Ulrich: Deutsche Grammatik. 3, korrigierte Auflage. Heidelberg : Julius Groos Verlag, 1996

6.Klaus, Cäcilia: Grammatik der Präpositionen. Frankfurt am Main, Berlin, Bern, Bruxelles, New York, Wien : Peter Lang Verlag, 1999

7.di Meola, Claudio: Die Grammatikalisierung deutscher Präpositionen. Tübingen : Stauffenberg Verlag, 2000

8.Schilling, H. ; Hentzschel, D. ; Döring, H. ; Kühn, R. ; Ludewig, W. ; Ludwig, W.; Schinke, W. ; Schmid, W.: Die deutsche Sprache. Leipzig : Fachbuchverlag, 1954

9.Wellmann: Deutsche Grammatik. Laut. Wort. Satz. Text, Universitätsverlag Winter, (2008)

10. Schulz, D., Griesbach, H.: Grammatik der deutschen Sprache. Max Hueber Verlag. 1996

11. Helbig, Gerhard ; Buscha, Joachim: Deutsche Grammatik: Ein Handbuch für den Ausländerunterricht. Berlin, München, Wien, Zürich, New York 2000

12.Sick, Bastien, Der Dativ ist dem Genitiv sein Tod, Folge 2, die Zwiebelfisch Kolumne Spiegel Online, Köln, 2003

БОШЛАНҒИЧ СИНФЛАРДА ИНГЛИЗ ТИЛИ ТАЛАФФУЗИНИ ЎРГАТИШ ХУСУСИЯТЛАРИ

А.Абдупаттаев, п.ф.н., доц. С.А.Мисиров. Наманган давлат университети

Бошланғич синфларда инглиз тилини ўқитиш жараёнида талаффуз материали устида ишлаш оғзаки нутқ (гапириш ва тинглаб тушуниш), ўқиш малакаларини шакллантиришда муҳим ўрин эгаллайди. Чунки, инглиз тилида фикр баён этиш учун айтиладиган жумла, товушларни талаффуз этиш ва уларни бириктириш ҳамда тегишли нутқ оҳанги(интонация)ни билиш талаб этилади.

Талаффуз эшитиш (акустик), айтиш (мотор) ва маъно билдириш (семантик) каби уч қисмдан иборат бўлиб, уларнинг ҳар бири ўзига хос ижро хусусиятига эгадир. Чет тилда талаффуз материалини ўргатиш узоқ давом этадиган мураккаб жараён бўлиб, у кўп меҳнат ва вақтни талаб этади. Маълумки, ўрта мактабда фонетик материални ўрганишдан мақсад талаффуз, яъни эшитиш-талаффуз қилиш кўникмаларини шакллантиришдан иборатдир. Бошланғич синф шароитида ўқувчилар инглиз тилида тақрибий (аппроксимациялашган) талаффузни ўрганишади [2]. Аппроксимация ғоясига, биноан, биринчидан, фонетик материални ҳажман чегаралашга, иккинчидан, айрим товушлар талаффузининг сифати тил соҳибиникидан пастроқ бўлишига йўл қўйилади. Талаффуздаги тақрибийлик, аввало, таълим шароити, яъни инглиз тили ўрганишнинг сунъий муҳити билан белгиланса, сониян, талаффуз лексика ва грамматикага нисбатан мураккаброқдир.

Инглиз тили талаффуз (фонетик) минимуми лексик ва грамматик материалга боғлиқ ҳолда танланади. Тил материалини, одатда, фаол ва пассив минимумлардан иборатлиги таъкидланди. Лекин талаффуз минимуми ўзгача хусусиятга эга эканлигини алоҳида таъкидлаш жоиздир. Инглиз тилида фаол ва пассив талаффуз минимумлари бир пайтнинг ўзида ўрганилади. Улар мураккаб нутқий малаканинг таркибига кириб, оғзаки нутқнинг гапириш (айтиш-талаффуз кўникмасини) ва идрок этиб тушуниш (эшитиш кўникмаси) жиҳатларида намоён бўлади. Талаффузнинг фаол минимумда тақрибийликка йўл қўйилади, пассивда бундай ҳолга йўл қўйилмайди. Фаол минимум доирасида чегараланган фонетик материал юзасидан иш кўрилади, пассивда эса ўрганилаётган инглиз тили фонемаларининг вариантлари ҳам учрайди.

Талаффуз минимумини қуйидаги мезонлар асосида танланиши методик адабиётларда тадқиқ қилинган: (1) нутқий мулоқот эҳтиёжига фонетик бирликнинг мутаносиблиги; (2) танлашга мос келадиган услуб; (3) талаффузнинг нормативлиги; (4) кенг тарқалганлик [1].

Инглиз тили ҳинд-европа тиллари оиласи, ўзбек тили эса олтой тиллари оиласига мансуб бўлиб, туркий тиллар гуруҳига киради. Шунинг учун ҳар иккала тилнинг товуш таркиби ва ўзига хос талаффуз хусусиятларини қиёслаш фақат методик талаб асосида бўлади. Инглизча товушларни талаффуз этишни ўргатишда товушларни ўзига хос хусусиятларига алоҳида эътибор бермоқ лозим. Унлиларнинг қисқа-чўзиқлилиги фонематик (маъно ўзгартирувчи) роль ўйнайди. Қисқа ва чўзиқ товуш(монофтонг)лардан ташқари икки унлидан иборат бўлган дифтонглар ҳам мавжуд. Мазкур ишдан кўзда тутилган асосий мақсад, инглиз тили

ўқитувчисига инглиз ва ўзбек тиллари товуш таркибини ва айрим талаффуз хусусиятлари ўртасидаги ўхшашлик ва фарқни маълум даражада қиёслаш билан ўқувчиларга тушунтириш, инглизча талаффузни ўргатиш жараёнида юз берган қийинчиликларни бартараф этиш ҳамда улардан келиб чиқадиган методик хулосаларни умумлаштиришдан иборатдир.

Инглиз тили ва ўзбек тилларидаги товушларнинг қиёсий таҳлили ҳар иккала тилда ўхшаш (t-т, d-д, p-п, b-б, m-м, n-н ва ҳ.з.), инглизчада учрамайдиган ўзбекча товушлар (х, қ, ғ), шу билан бирга, ўзбекчада учрамайдиган инглизча товушлар (θ, ∂, w, r, f, v ва ҳ.к.) мавжудлигини кўрсатади. Юқоридаги ўхшашлик ва фарқлар ўқувчиларга она тили ва ўрганилаётган тилнинг товуш таркиби, ёзувдаги ифодаланишини қиёслаш билан улар ўртасидаги фарқ ва ўхшашликларни белгилаб олиш имконини беради.

Ўқувчиларга тўғри талаффузни ўргатишда хилма-хил усуллар мавжуддир. Улар муайян товуш(фонема)нинг қандай ҳосил бўлишини тушунтириш, талаффуз намуналарида кўрсатиш, фонетик машқлар бажариш, матнларни овоз чиқариб ўқитиш, ниҳоят сўз ва гапларни фонетик таҳлил қилдириш каби амаллардир.

Талаффузни ўргатиш методикасидан шу нарса маълумки, нутқнинг талаффуз томони устида чет тил ўргатиш курсининг бошидан охиригача иш олиб борилади. Сўнгги йилларда талаффузни ўргатиш бўйича ўтказилган тажрибалардан қуйидагича хулосалар чиқарилди:

1. Ўқувчиларнинг товушлар таллаффузини осон ва қийин ўзлаштиришларини назарда тутиб, уни тушунтиришда турли методлардан фойдаланилади. Таллаффузи қийин ҳисобланадиган товушларни тушунтиришда, албатта, уларнинг талаффуз этилиш ҳолати тасвирланган расмларни кўрсатиб, қисқача артикуляция қоидаси берилади, кейин мазкур товуш овоз чиқариб талаффуз этилади. Ўзбекча товушларга ўхшаб кетадиган товушларни ўргатиш жараёнида улар она тили товушлари билан қиёсланса, хато бўлмайди.

2. Ўқувчиларга инглизча талаффузни ўргатишда кўргазмалиликдан қуйидагича фойдаланилади: а) ўқитувчининг нутқи, унинг талаффузи ўқувчилар учун намуна бўлиб хизмат қилади, магнитафон ва грампластинкага ёзиб олиган инглизча матнлар талаффузи ҳам шунга оиддир. б) ўқувчилар талаффуз жараёнида ўқитувчининг ёки бир-бирларининг нутқ органларининг фаолиятини кузатиб борадилар. Мана шундай қилгандагина инглиз тили талаффузи ўқувчилар томонидан онгли равишда ўзлаштирилади.

3. Талаффузни ўрганишда изчиллик ва кетма-кетлик принципига амал қилиш яхши самара беради.

Бошланғич синфларда инглиз тилидан талаффуз материалини ўргатиш бир қатор нутқ малакаларини шакллантиришга ўзининг ижобий таъсирини кўрсатади. Товушларни тинглаш, қайтариш, таний олиш, фарқлаш орқали тинглаб тушуниш ривожланса, талаффуз материалини такрорлаш, тақлид қилиш, сўзларни гапларда қўллаш (талаффуз қилиш машқлари) орқали гапириш малакалари

шакллантирилади. Сўзларни матнда таний олиш, фарқлаш машқлари ўқиш малакаларини ривожлантирилишига ўзининг ижобий таъсирини кўрсатади.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Жалолов Ж. Ж. Чет тил ўқитиш методикаси. Чет тиллар олий ўқув юртлари (факультетлари) талабалари учун дарслик. –Т.: Ўқитувчи, 1996. –368 б.

2. Общая методика обучения иностранным языкам в средней школе/Под редакции А. А. Миролюбова, И. В. Рахманова, В. С. Цетлин. –М.: Просвещение, 1967. –450 с.

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARGA CHET TILINI O’RGATISH USULLARI

M. Xolmirzayeva, U. Soliyev. Namangan davlat chet tillar instituti

Til o’rganish kishilik jamiyatida bag’oyat muhim sohalardan hisoblanadi. Muloqot vositasi bo’lmish tilni oilada, jamoatchilik orasida yoki darsda amaliy egallash mumkin. Til hodisalariga oid bilimlar esa nazariy jihatdan o’rganiladi. Ma’lumki, chet tillini o’rgatish-o’rganish muayyan jihatlari bilan ona tili va ikkinchi tildan keskin farq qiladi. Bu esa, o’z navbatida, tegishli chet tili o’qitish texnologiyasini qo’llashni taqozo etadi. Shuningdek O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-2021-yillarda „Maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora tadbirlari’’ to’g’risidagi qarori chet tilini yanada mustahkam o’rganishga undaydi. L.S.Vigotskiyning fikriga ko'ra bolalar ona tilini o'z-o'zidan, beixtiyor o'rganishni boshlashadi, chet tilini esa ongli ravishda qabul qilishadi. Shuning uchun ham til o'rganish ko'nikmalari bolalarda quyidagicha shakllanadi:ona tili-pastdan tepaga qarab, chet tili esa yuqoridan pastga qarab rivojlanadi. So’nggi bir necha yillar davomida chet tilini o’rganish barcha yosh-u qari uchun zaruriyatga aylanib kelmoqda. Hozirgi kunda chet tili barcha ta’lim muassasalarining asosiy qismiga aylanib bormoqda. Jamiyatimizda chet tiliga bo’lgan talabning ortib borishi barcha yoshlar, nafaqat, ota-onalarni ham e’tiborsiz qoldirayotgan emas. Til o’rganish ham yosh davrlariga bog’liq. Bolalarda til o’rganishga bo’lgan tabiiy moyillik, ularda taqlid qilish xususiyati kuchli ekanligi, kattalarga qaraganda bolalar vaqtining ko’pligi buning asosiy sabablaridandir. Masalan, maktabgacha yosh, ayniqsa, chet tilini o’rganish juda qulay hisoblanadi. Negaki, bu yoshdagi bolalar judayam qiziquvchan, intiluvchan bo’lishadi. Ya’ni ularning bu yoshida xotira faoliyati yangi rivojlanayotgan bo’ladi. Shu sababli ular oson eslab qoladi. Bog’cha yoshidagi bolalarga chet tilini o’rgatishdan ko’zlangan maqsad quyidagilar:

1) Yosh bolalarda chet tilida boshlang’ich muloqot qobiliyatini shakllantirish;

2) Chet tillarini yanada mustahkam o’rganishga ijobiy munosabat yaratish;

Chet tillarini o’rganish uchun erta yoshning muhimligini foydali tomonlaridan biri, bola qancha yosh bo’lsa, shuncha yaxshi. Negaki, yoshligi sabab bolaning eslab qolishi, yod olishi judayam oson kichadi. Bundan tashqari yosh bolalarga chet tilini o’yinlar orqali o’rgatish ham foydadan holi bo’lmaydi. Hattoki, eng oddiy jumlalar,

iboralar ham ular uchun qiziqarli bo’lib tuyiladi. Shuning uchun ularga chet tilini turli xil usullar bilan o’rgatish lozim. Shunda ular zerikmaydilar, qiziqib o’rganadilar. Masalan, bola stolda o’tirib, kitob varaqlamaydi, biroq hamma narsani so’zma-so’z qabul qiladi va oddiy jumlalar bilan gapirishga harakat qiladi. Mening fikrimcha bularning barchasi o’yinlar orqali.

Bog’cha yoshidagi bolalarga chet tilini o’rgatishda oson, tushunarli metodikalarni qo’llash lozim. Misol uchun bolaning atrofini qamrab olgan buyumlardan foydalanib o’rgatish ham oson metodika sirasiga kiradi. Bundan tashqari yana bir nechta usullari mavjud. Dars boshlanishidan oldin o’qituvchi yoqimli, inglizcha qo’shiq va uning ohangiga mos ravishda birga raqs tushsa bola qo’shiqning so’zlarini tezda yodlab oladi. Bu yoshdagi bolalarga chet tilidagi multfilmlar qo’yib berish ham noto’g’ri emas, albatta. To’g’ri, bola tilni bilmasa qanday tushunadi deyishingiz mumkin. Lekin bola tushunmasada multfilm qahramonlarining xatti-harakatlari orqali ham anglab, tushunib olishi qiyin bo’lmaydi. Bundan tashqari o’qituvchi mavzuga oid muhit yaratishi lozim. Misol uchun trip(sayohat) mavzusini olaylik. O’qituvchi buning uchun sayohat uyushtirishi, qanday vositalar orqali sayohatga chiqishi(bus, boat, bicycle, train), qayerlarga sayohat qilishi(Kokand, Samarkand, Bukhara) haqida tushuntirib o’tadi. Turli xil usullar orqali chet tilini oson o'rgatsa bo'ladi. Misol uchun belgilar va rasmlar bilan ishlash usuli, ovozni tanib olish va moslashtirish usuli, o'z faoliyatini o'quvchilarga moslashtirish usuli kabilardan foydalanilsa xatoga yo'l qo'yilmagan bo'ladi deb o'ylayman. Endi rasmlar va belgilar orqali ishlash usuli bu-rasmdan so'zga tarjima qilish desak mubolag'a bo'lmaydi. Misol uchun kundalik so'z boyligini targ'ib qilish haqida Touchtime Internationalning direktori doktor Eleyn Fogel Shnayderning fikriga ko'ra:,, Bolalarga umumiy brendlar va belgilarga og'zaki yorliq qo'yishdir". U rasmdan so'zga tarjima qilish tilni rivojlantirishga yordam berishini tushuntiradi. Ya'ni bu bolalarni yangi tillarni tez va oson o'rganishga katta yordam beradi. O'z faoliyatini o'quvchilarga moslashtirish usuliga kelsak, Gretzimgerning aytishicha, bolalar an'anaviy bo'lmagan uy sharoitidagi bolalarga nisbatan sezgirroq bo'lishlari kerak. O'quvchilarga o'z oilasini rasmlarini chizishlarini so'rashdan oldin ikki marta o'ylab ko'rish- asrab olingan bola ota-onadan ajralgan farzand o'zini qanday his qilishi mumkinligi va boshqa bolalar ularga qanday munosabat bildirishini yaxshilab o'ylash kerak. Inklyuziv faoliyat bilan shug'ullanish biroz vaqtni olishi mumkin, ayniqsa, yil boshlanganda chunki o'qituvchilar bolalar haqida ma'lumotga ega bo'lishmaydi ya'ni ularning yashash tarzi, oilasi haqida bilmasligi sabab. Shu bilan birga chet tili vositasida o’zlashtiriladigan axborot va ingliz tilini o’rganish davomida olinadigan aqliy va nutqiy ko’nikma hamda malakalar bolalarni tarbiyalaydi.

Kichik yoshdagi bolalarga til o’rgatish majburiyat sifatida emas, zavqlantirib, qiziqarli qilib olib borilsa foydadan holi bo’lmaydi. Albatta, til o’rganuvchi ham qiziqib tilni o’rganishi mumkin. Chet tillarini o'rganish yosh avlodga kelajakda yangi imkoniyatlar eshigini ochishi, ularni malakali kadr bo'lib yetishishi, butun jamiyat uchun foydasi tegadigan inson bo'lib kamol topishi uchun o'z hissamizni qo'shishimiz darkor. Shuning uchun ham bolalarga yoshligidan ta'lim berib borish kerak, o'qishga

qiziqtirishimiz, har bir bolani nazardan chetda qoldirmasligimiz, o'zlashtirishi qiyin bo'lgan bolalar bilan alohida vaqt ajratib shug'ullanishimiz va chet tillarini o'rgatishimiz davomida ularni rag'batlantirib borishimiz darkor. Bundan tashqari bir necha samarali usullardan foydalanish bolani chet tiliga bo’lgan qiziqishlarini yanada rivojlantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Tajibayev G.Sh. Boshlang’ich sinflarda ingliz tili o’qitish.
2. Jalolov J. Chet tilini o’qitish metodikasi.

CHET TILLARNI O’QITISHGA BO’LGAN ZAMONABIY YONDASHUVLAR.

ИНГЛИЗ ТИЛИ ЎҚИТИШГА ҚЎЙИЛАДИГАН ЗАМОНАВИЙ ТАЛАБЛАР ТАҲЛИЛИ (КОММУНИКАТИВ ЁНДАШУВ МИСОЛИДА)

А.Абдупаттаев, п.ф.н., доц. С.А.Мисиров. Наманган давлат университети

Ҳозирги кунда чет тиллар ўқитиш методикасида “коммуникатив методика” асосида (чет) тилни ўргатиш кенг урф бўлиб бормоқда. Чет тиллар ўргатишда, айниқса, “communicative competence”, “communicative approach”, “communicative method”, “communicative exercise”, “communicative grammar”, “intercultural communication” каби атамалар кенг ўрин олмоқда. Коммуникатив методика асосидаги илк илмий-назарий фикрлар методистлар К.Ж.Брумфит ва К.Жонсонларнинг инглиз тилидаги «Тил ўқитишга коммуникатив ёндашиш» тўпламида тилга олинган бўлиб, унда шундай фикр баён этилган: «Communicative Language Teaching» has in recent years become a fashionable term»… .

Коммуникатив метод замонавий чет тил ўқитишда кўп сонли тарафдорларга эга ва жадал тарзда тадқиқ ва тарғиб қилинаётган соҳа бўлиб, унинг концептуал асосини яратишда улкан хизмат қилган Е.И. Пассов (Основы коммуникативного метода обучения иноязычному общению. – М., 1989; Коммуникативный метод обучения иноязычному говорению. 2-е изд. –М., 1991; Программа-концепция коммуникативного иноязычного образования. – М., 2000) асарларида муфассал тавсифини олган.

Ўзидан олдин ишлаб чиқилган ва амал қилиб келган барча методларнинг фойдали маълумотлари коммуникатив методда мужассам ҳолда намоён бўлган. Илмий адабиётлардан маълумки, коммуникатив метод йиғма, комбинация қилинган, омихта метод саналади. Ушбу метод вакиллари, тўғри методда бўлганидек, тил бирликларини контекст ёки мулоқот вазиятида ўргатиш ва таржимани минимал даражада қўллаш тарафдоридирлар. Айни пайтда онгли методлар намояндалари тарғиб-ташвиқ қилган онглилик принципига риоя қилишга ҳам қарши чиқмайдилар. Бироқ коммуникатив метод ижодкорлари фикрларига кўра, нутқ фаолиятини ўргатиш бирламчи мақсад, нутқий намуналарни ўрганиш шу мақсадга хизмат қиладиган лисоний воситадир. Грамматиканинг роли ёрдамчи

ҳисобланиб, грамматик ҳодисалар функционал тарзда (амалий нутқий йўналишда) ўзлаштириб борилади. Методнинг яна бир эътиборли жиҳати шундаки, унга кўра тил ўрганишда маданиятлараро мулоқот илмий ғояларига асосланиш тавсия этилади.

Чет тилдаги нутқнинг муҳим коммуникативлик аломатлари этиб, мотивация, мулоқот, фаоллик, ҳамкорлик, муаммолилик, машқ ва фикр юритиш, ҳис туйғуларни ифодалаш кабилар олинган.

Чет тил ўқув предметини бошқа фанлардан фарқланадиган томони шундаки, у бир пайтнинг ўзида таълим мақсади ва воситасидир. Бу хусусият уни ўқитиш методикасини жадал ривожланаётганлигини белгиловчи омилдир. Методнинг тараққиётига коммуникатив лингвистика, фаолият назарияси, маданиятлар диалогда шахснинг камол топиши концепцияси кабилар сезиларли таъсир ўтказмоқда. Жумладан, коммуникатив компетенция тушунчаси ҳам кенг оммалашди. Ушбу атама маъно доираси тил системасидан бохабар бўлиш ва мулоқот қилиш учун тил бирликларини ишлатиш қобилиятини қамраб олади. Коммуникатив компетенция лисоний, лингвистик, нутқий, ижтимоий-маданий таркиблардан иборатдир.

Методнинг психологик асосини И.А.Зимняя илмий мактабида яратилган шахс фаолияти ёндашуви маълумотлари ташкил этади. Бу ёндашув эса, ўз навбатида, Л.С. Виготский, С.Л. Рубинштейн, А.Н. Леонтьев фундаментал тадқиқотлари натижаларига суянади. Коммуникатив методнинг ҳозирги ишлаб чиқилган вариантида чет тилда нутқ фаолияти ва чет тил маданиятини ўрганиш мақсад қилиб қўйилган.

Коммуникатив метод принципларига кўра ўрганилаётган тилнинг ҳар қандай бирлигига, шу жумладан, грамматикага ҳам, нутқий функция юкланади. Нутқ фаолиятини эгаллаш жараёнида грамматик бирликлар ўзлаштириб борилади. Нутқ намуналари (Ч.Фриз ва Р.Ладо терминологиясида speech patterns) функционал тарзда ўрганилиши грамматиканинг ёрдамчи ролидан дарак беради. Метод лингвокультурологик (тили ўрганилаётган мамлакат маданиятини ўрганиш) йўналишда янада такомиллашув босқичига кирганлигини алоҳида таъкидлаш лозим.

Коммуникатив методиканинг пайдо бўлишида аввалари фақат гапиришни ўргатиш назарда тутилган бўлса эндиликда методнинг эволюцион ўзгариши оқибатида оғзаки ва ёзма мулоқотни ўргатиш мақсад қилиб олинди.

Коммуникатив лингвистиканинг қуйидаги ғоялари коммуникатив метод учун асос қилиб олинган:

1. Мулоқот (коммуникатив) бирлиги қилиб нутқий амал (ҳаракат) қабул қилинган. Улар, ўз навбатида, боғланишли нутқ (дискурс)ни ташкил этади. Бу соҳада тадқиқот олиб борган олимлар эътироф этишларича, нутқий амалларни эгаллаш орқали чет тил ўргатишда тил ўрганувчининг мотивацияси (мойиллик) тил ўрганишнинг кучайишига сабаб бўлади (О.Я. Гойхман., Т.М. Надеина: 2001; С.Г.

Тер-Минасова. 2000; Н.И. Формановская. 1989; Ю.Н. Абдуллаев., А.М. Бушуй. 2001).

2. Коммуникатив методика ғояларига биноан тил материали (жумладан грамматика)ни танлаш ва ўқув жараёнида қўллашда функционал ёндашиш тавсия этилади. Бу дегани – коммуникант тил ҳодисаларини нутқий фаолият юритиш мақсадида ўзлаштиради. Лексик-грамматик материал ёд олиш ёки кимгадир айтиб бериш учун эмас, балки ахборот алмашишга хизмат қилади, мулоқот бирламчи таълимий вазифа ҳисобланади.

3. Мулоқот мақсадини рўёбга чиқишида тил системасини билиш тил бирликларини нутқда эркин ва тўғри қўллай олишга қаратилади. Тил билиш коммуникатив компетепцияни ҳосил қилиш демакдир. Бундай компетенция нутқий, лисоний, амалий, лингвистик, ижтимоий-маданий компонентлардан ташкил топади. Таълим жараёнида бир пайтнинг ўзида тил ва маданиятни ўзлаштириш коммуникатив методиканинг асосий методологик концепциясидир.

Фойдаланилган адабиётлар

1.Жалолов Ж. Ж. Чет тил ўқитиш методикаси. Чет тиллар олий ўқув юртлари (факультетлари) талабалари учун дарслик. –Т.: Ўқитувчи, 1996. –368 б.

2.Общая методика обучения иностранным языкам в средней школе/Под редакции А. А. Миролюбова, И. В. Рахманова, В. С. Цетлин. –М.: Просвещение, 1967. –450 с.

METHODS OF USING MODERN PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES IN THE DEVELOPMENT OF COMMUNICATIVE COMPETENCE OF STUDENTS OF THE TOURISM DIRECTION

K. Yuldasheva, Namangan State University

Annotation: It is believed that the communicative language teaching approach is one of the most effective methods to keep away from the weaknesses of the traditional English teaching method in developing students’ communicative ability. Using games, which is communicative in essence, are often considered effective in developing students’ communicative ability. In order to help English teachers put the communicative language teaching approach in to practice, this paper, on the basis of pointing out the weaknesses of the traditional English teaching method, discusses what the communicative language teaching approach is, states the value and importance of using games in English-teaching class in the tourism directions, introduces two types of games that could be used in class, and presents some suggestions when using the games.

Keywords: Communicative ability, games, suggestions, method, technology, language, Role Play, Information activity, speaking.

Sometimes it is easy to get a new method like the communicative language teaching approach heard but difficult to get it accepted, understood and applied to practical classroom teaching in the end. Therefore, it is not out of date to discuss the

techniques of applying the communicative language teaching approach to classroom teaching. In this paper, the author, on the basis of pointing out the disadvantages of the traditional teaching method, discusses and explores one way to teach students effectively – using games in the English classes in tourism directions, which is often considered as one of the best way to get the students involved in the classroom activities in which their communicative ability is practised and improved. Language games, as one of the most valuable and effective techniques in English language teaching, have been used for a long time by many teachers.

For years, the main method of teaching English in Uzbekistan is like this: firstly, the teacher explains the new words in the vocabulary list by giving definitions and examples. Then he/she will give a brief introduction to the background of the text. When dealing with the text, the teacher always explains and translates it sentence by sentence or even word by word, sometimes with a few questions which seldom elicit answers or responses from students. Finally, citing task or translation exercise is given to the students. In short, the traditional way of English teaching is teacher-centered and language-knowledge-focused. The way of teaching English is similar to that of teaching mathematics: new words presented, related grammar explained, and then written exercises assigned; if students can do the exercises well, it means that they have learned the language knowledge well, and then the lesson moves on.[1] Under such pattern of teaching, students are passive information receiver and written exercises doer. They can remember large numbers of words and grammatical rules, and they can do very well in exams, but they scarcely have chances to express themselves in the target language and test their understanding of the received information about the language. And they are found having a lot of difficulty in communicating with others in English. This phenomenon is ironically defined as “Dumb English, which is the “product” of long hard work of both teachers and students.[2]

As the foreign language pedagogy has developed over the past few decades, we have experienced a number of methods and approaches to language teaching. Out of them the Communicative Language Teaching Approach (abbreviated as CLTA), at length,characterizes the present era.

There are many good ideas about English teaching. Among them, using games in the English class is the one which is most easily accepted by students and which is also a very useful and helpful aspect of communicative method. As is known to everyone, game is an activity providing entertainment or amusement; it`s acompetitive activity or sport in which players contend with each other according to a set of rules. “A game is an activity carried out by co-operating or competing decision-makers, seeking to achieve, within a set of rules, their objectives”. [3] A game is an activity that both the teacher and students enjoy doing. It is student-centered and as appealing as playing in the playground.

Using games in English class can get students relaxed and enjoying using the language. It may be argued that college students, unlike children, having grown up, do not need games to relax themselves. On the contrary, adults sometimes feel more nervous

than children when they face new things, and they are more afraid of losing their face as the sense of face develops with their age. In this sense, they do need games or any other activity that help them relaxed and innocent like children to the new language without being afraid of making mistakes.

Games are communicative in essence, and so using game in English teaching and learning can well realize the fundamental idea of the communicative language teaching approach. Using games is a good way to improve students' various skills, as Wright, Betteridge and Buckby say, "Games can be found to give practice in all the skills, in all the stages of the teaching and learning and for many types of communication". [4]

Furthermore, games can be used at any stage in a lesson: at the beginning to diagnose what the students can or cannot do; during the lesson for language practice purposes; or at the end as reinforcement and „reward`. Students playing language games are encouraged to express their ideas for certain purpose, and they can use different types of games at different stages appropriate for different types of language learning.[5]

As stated above, the main purpose of using games like Debating, Interviews, Miming, Fact-Finding, Jigsaw Game, Role Play activity, Information gap activity in English classes are to practise students' different skills, enable to develop and to strengthen students’ communicative ability. And we can support these methods with, which is the most effective one **Role Play and Information-Gap activities** in English language training for students of the tourism direction.

Role Plays

A role-playing game is a game in which the participants assume the roles of characters and collaboratively create stories. Participants determine the actions of their characters based on their characterisation, and the actions succeed or fail according to a formal system of rules and guidelines. Within the rules, they may improvise freely; their choices shape the direction and outcome of the games._Teachers should keep them in mind and apply the game to the practical situation appropriately in order to achieve the best results.

And the importance of using Role Play game in English classes in Tourism directions is really effective to improve students’ communicative competence and implement them in their real life. Let’s run through lovely role play ideas for students who study in tourism directions:

Role-play: Hotel Guests

The students have to present the role play

You are traveling alone. You would like a single room. You would like to pay with cash. You will be staying 1 night. You would like a wake-up call for 7:30 A.M.

You are traveling alone. You would like a single room. You would like to pay with cash. You will be staying 2 nights. You would like a wake-up call for 7:00 A.M.

You are traveling with your husband/wife. You would like a single room. You would like to pay with credit card. You will be staying 2 nights. You would like a wake-up call for 6:00 A.M.

You are with your brother. You would like a double room. You would like to pay with cash. You will be staying 2 nights. You would like a wake-up call for 6:00 A.M.

1. The Check-In

Conversation:

Front Desk : Welcome to the Wyatt Hotel. May I help you?
Traveler : I'd like a room please?
Front Desk : Would you like a single or a double?
Traveler : I'd like a double, please?
Front Desk : May I have your name, please?
Traveler : Timothy Findley.
Front Desk : Could you spell that please?
Traveler : F-I-N-D-L-E-Y.
Front Desk : How many are in your party?
Traveler : Just two.
Front Desk : How many nights would you like to stay?
Traveler : Just tonight.
Front Desk : How will you be paying?
Traveler : Is Visa OK?
Front Desk : That'll be fine. Would you like a wake-up call?
Traveler : Yes, I'd like a wake-up call for 6:30. Do you have a pool?
Front desk : Yes, we do. On the 2nd floor. Here's your key. That room 405 on the fourth floor

2. Telling Time

There are four ways of telling time:

a. Use o’clock to say that the time is ‘tepat’

Example: 07.00----it’s seven o’clock

b. Use past. Say the minute -past-then say the hour

Example: 07.10----it’s ten (minutes) past seven
09.25----it’s twenty five (minutes) past nine

c. Use to. Say the minute –to-then say the hour

Example: 02.50----it’s ten to three

d. Say the hour then say the minute

Example: 11.20----it’s eleven twenty am

3. Conversation Activities

a. Practice using the above expressions by having a dialogue similar to the ones above with a partner, one partner taking the role of the guest and the other taking the role of the staff. For additional practice, switch roles. Practice the dialogue several times, trying to use all of the expressions noted above.

b. Role play the following situations with a partner, one person taking the role of the guest and the other person taking the role of a staff.

Information gap activity. Speaking

An information gap activity is an activity where learners are missing the information they need to complete a task and need to talk to each other to find it. Information gap activities are useful for various reasons. They provide an opportunity for extended speaking practice, they represent real communication, motivation can be high, and they require sub-skills such as clarifying meaning and re-phrasing. [6]

Put the lines of Tourist Information Centre conversation in the correct order. Then practise the dialogue. One person should be the Tourist Information Officer (TIO) and one should be the visitor (V).

TIO: .....
V: .....
TIO: .....
V: .....
TIO: .....
V: .....
TIO: .....
V: .....
TIO: .....

.

What type of place are you looking for?
Yes, we’re looking for somewhere to eat.
There’s a very nice restaurant on Queen Street. Why don’t you go there?
No, that’s all thanks.
Is there anything else I can help you with?
Have a good day.
Can I help you?
Somewhere that’s not very expensive.
OK. Thank you very much. We’ll try it.

Additional dialogue

May I help you?
Did you have anything in particular in mind?
I can recommend it.
Would you like any more information?

CONCLUSION

From the above analysis, a conclusion can be drawn that teaching and learning by means of language games and activities is effective and efficient in improving students` communication abilities in tourism directions. While in the traditional method of teaching English, students sit still, listen to teachers talk about English, and try their best to remember English words and grammar rules by rote memory, in the communicative

language teaching approach, they are actively involved in playing games, which in turn can encourage and maintain their interest in learning and promote their motivation to study. At the same time, they get lots of opportunities to have their basic skills of listening and speaking practiced. Admittedly, there are many difficulties in using games in most English classes, but it is possible to use them as long as both teachers and students appreciate their value and function. When using games, such factors as the time, choice, preparation and management should be put into consideration, which is the guarantee of successful use of language games in English class in tourism fields. In a way, using games in nglish teaching very well reproduces the theme of the communicative language teaching approach—"communicating to learn" and "learning to communicate.".

REFERENCES:

1. Carrier, Michael.(2010). Take 5 Games and Activities for the Language Learner. Edinburgh: Nelson's Company.
2. Ellis, Rod.(2016). Understanding Second Language Acquisition. Oxford : Oxford University Press.
3. Harmer,J.(2015). Thse Practice of English Language Teaching. NewYork: Longman.
4. Hubbard, J.(2017). A Training Course for ELT.Oxford: Oxford University Press.
5. Kallsen, Loren J.(2017). Advanced Communication Games. Edinburgh: Nelson's Company.
6. Littlewood,William.(2011). Communicative Language Teaching. Cambridge: Cambridge University Press.

ИНГЛИЗ ТИЛИ ТАЪЛИМИДА ЎҚУВЧИЛАР ТИЛ ТАЖРИБАСИНИ ҲИСОБГА ОЛИШ ТАМОЙИЛИНИНГ МЕТОДИК ТАВСИФИ

А.Абдупаттаев, п.ф.н., доц., С.Мисиров. Наманган давлат университети

Мустақил Республикамизнинг ҳар томонлама сиёсий ва иқтисодий, маънавий-маърифий равнақида чет тилларни мукаммал билиш бугунги куннинг устивор вазифасига айланди. Шу боис, чет тилларни ўрганиш ва ўргатишда илғор, тезкор методлардан фойдаланиш ўз самарасини бериши табиий, албатта. Бинобарин, барча ўқув предметлари қатори чет тилнинг ҳам ўрганилиши ягона мақсад – замонавий талабларга жавоб берадиган малакали кичик мутахассислар етиштиришга қаратилгандир.

Мазкур тадқиқотда чет тил таълимида ўқувчилар тил тажрибасини ҳисобга олиш тамойили хусусида фикр юритилади. Ўқувчиларнинг “тил тажрибаси” уч тилдан йиғилган билим, кўникма ва малакалар мажмуи бўлиб, унинг ҳажми, қўлланиш кўлами, ўзаро боғлиқлиги масалалари методиканинг “тил тажрибасини ҳисобга олиш принципи” доирасига киради. Методикада тил тажрибасини ҳисобга олиш алоҳида аҳамиятга эга бўлган методик ҳодисадир.

“Тил тажрибасини ҳисобга олиш” деганда, ўқувчи шу кунгача ўзбек, рус, чет тиллардан олган билим, кўникма ва малакаларининг ҳозир ўрганилаётган чет тил материалини ўзлаштиришга салбий ёки ижобий таъсири тушунилади. Ўқувчиларнинг “тил тажрибаси” чет тил ўрганишда ғов бўлиши (салбий таъсир – интерференция) ёки ёрдам бериши (ижобий таъсир – транспозиция) кузатилади. “Интерференция” (салбий таъсир) – лотинча сўз бўлиб, “inter” орасида, ичида, “ferentis” – кўчирувчи, ўтказувчи деган маъноларни билдиради, яъни салбий таъсир, номаълум кўчиш, тўсқинлик қилиш, ғов бўлиш, кўникма ва малакаларни салбий натижага олиб бориш тушунилади. Иккинчи методик ҳодиса бу “транспозиция”дир. “Транспозиция” (ижобий таъсир) ҳам лотинча сўз бўлиб, “transposition” – бошқа жойга кўчиш деган маънони билдиради. Ушбу тушунча методикада ижобий таъсир, ижобий кўчиш, ёрдамга келиш, кўмаклашиш, ижобий натижага олиб борувчи билим, кўникма ва малаканинг кўчиши маъноларида талқин қилинади.

Илмий-тадқиқотларда ўқувчилар тил тажрибаси(ТТ)да юз берадиган ижобий ва салбий таъсир ҳодисаларининг муайян тартиблари ишлаб чиқилган. Уларда (а) она тилидан иккинчи тилга (ТТ1дан ТТ2га), (б) она тилидан чет тилга (ТТ1дан ТТ3га), (в) иккинчи тил(рус тили)дан чет тилга (ТТ2дан ТТ3га), (с) она тили ва иккинчи тилдан чет тилга (ТТ1-ТТ2дан ТТ3га) бўладиган ижобий ва салбий таъсир натижалари тадқиқ қилинган [3:38-44].

Ўзбекистон шароитида она тили, иккинчи тил (рус тили) ва ўрганилаётган чет тилнинг ўзидан тўпланган тажриба хусусида фикр юритиш мақсадга мувофиқдир. “Тажриба” илмий категориядаги термин сифатида ушбу ўринда тор лингводидактик жиҳатдан талқин қилинади. Унинг методик таърифи қуйидагича маъқул кўринади; “тажриба” – индивид(шахс)нинг нутқий муомила жараёнида муайян мавзуга оид тил бирликлари билан иш кўришидир. Ўқувчининг тажрибаси умумий хабардорлик(объектив борлиқ ҳақидаги маълумотларни билиш)дан, тил заҳирасининг лексика, грамматика, талаффуз каби воситалардан, муайян бир мавзу доирасида маълумотларни бериш ва олиш қобилятидан иборат бўлади [1:59-60].

Бир ва ундан ортиқ тилни эгаллашдан қатъий назар ўқувчида (ҳар қандай кишида ҳам) муайян “тил тажрибаси” ҳосил бўлади. Тил ўқитишда уларни нутқий, лисоний ва лингвистик таркиблар тарзида талқин қилинади. “Нутқий таркиб” деганда, мулоқот малакаси, яъни ахборот етказиш ва ўзгалар фикрини идрок этиб тушуниш, “лисоний тарафи”да эса ахборот олиш ва бериш мақсадида тил ҳодисаларидан тил бирликларида фойдаланиш ва, ниҳоят, “лингвистик жиҳат”дан тил ҳодисаларига доир билимлар назарда тутилади. Ҳар уч қисм бир бутун “тил билиш” тушунчасини ҳосил қилади.

“Тил тажрибаси”, аввало, она тилида шаклланади, икки ва ундан кўп тил билганларда унинг тегишли қатламлари ошиб боради. Оқибатда, хотира ва тафаккурда нутқий, лисоний ва лингвистик таркиблар бойишига эришилади. Фикрни ифодалашда турли тилларга оид восита ва усуллар ишга тушади. Шу аснода бир тил доирасида ва тиллараро салбий (интерференция) ёки ижобий таъсир

(транспозицион) хусусиятларини назарий таснифлаш малакаси ҳамда таълим жараёнида уларга фарқлаб ёндашиш амалий муаммоси пайдо бўлади.

Тил тажрибасини ҳисобга олиш айниқса, потенциал лексик бирликларнинг қуйидаги турларини ўргатишга ўзининг ижобий таъсирини кўрсатади: (1) шакли ва маъноси чет тил, она тили ва иккинчи тилда ўхшаш сўзларни (academic-lyceum, college, gymnasium, arithmetic, astronomy, geography, arithmetic, computer, laboratory); (2) шакли ва маъноси иккинчи ва чет тилда ўхшаш сўзларни (student-студент, style-стиль, actually-актуальный, active-актив, analysis-анализ, center-центр, certificate-сертификат, classification-классификация, communication-коммуникация); (3) чет тил конверцияси усулидаги сўзлар (answer-жавоб, to answer-жавоб бермоқ, air-ҳаво, to air-шамоллатмоқ); (4) қисмлари олдин ўрганилган ўқувчига таниш қўшма сўзлар (schoolboy, homework classroom, bookshop, workplace, handball); (5) ўзак ва аффикс қисмлари таниш ясама сўзлар (teacher, director, publication, typical, graceful, stormy); (6) тўлиқ шакли таниш қисқартма сўзлар (UNO-United Nations Organization, RU-the Republic of Uzbekistan, the UK-the United Kingdom).

Хулоса қилиб, шуни айтиш мумкинки, ўқувчиларнинг тил тажрибасини бойитиш учун уларнинг чет тил ва она тили бўйича тиллараро ёки тил ички лингводидактик қиёсий таҳлилига оид билимлар билан қуроллантириш, уларнинг билиш, коммуникатив-таълим ва амалий-режалаштирув вазифаларини ҳал этишга қаратилган малакаларини шакллантириш орқали эришиш мумкин.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Джалалов Д. Д. Проблемы содержания обучения иностранному языку. –Т.: Фан, 1987. –110 с.

2. Жалолов Ж. Ж. Чет тил ўқитиш методикаси. Чет тиллар олий ўқув юртлари (факультетлари) талабалари учун дарслик. –Т.: Ўқитувчи, 1996. –368 б.

3. Сатторов Т. Қ. Бўлажак чет тили ўқитувчисининг услубий омилкорлигини шакллантириш технологияси. –Т.: ТДЮИ, 2003.–191 б.

CHET TILLARNI O’QITISHDA MASOFAVIY TA’LIMNING AHAMIYATI

Sh. Kozimova, U.Soliyev. Namangan davlat chet tillari instituti

Ta’lim tizimi har qanday jamiyatning asosiy negizidir. Zero har qanday rivojlangan davlatning tarixiga nazar solsak ham, uning ta’limiga bergan e’tibori tufayli erishilgan yutuqlarini ko’rishimiz mumkin.

Masofaviy ta’lim G’arbda an’anaviy b’lib qoldi. Ya’ni har bir yuqori mavqega ega bo’lgan universitet hozirgi kunda albatta, masofaviy dasturga ega. Bugungi kunga kelib chet davlarlarida ko’plab maxsus masofaviy o’quv yurtlari ochilmoqda va ulardan ko’pchiligi mashhurdir. Tahminlarga qaraganda aynan masofaviy ta’lim an’anaviy o’qish shakllari bilan birgalikda keng tarqalib bradi, ta’limning bu shaklini

esa ,,kelajak ta’limi” deb atamoqdalar.Bu o’z navbatida ta’lim olishning yangi shakli-masofaviy ta’limga zamin yaratdi.

Darhaqiqat zamonaviy axborot va kommunikatsiya texnologiya vositalarini ta’lim jarayoniga kirib kelishi o’qitish usullariga yangi shakl berdi. Internet tizimi va axborot texnologiyalardan maqsadli foydalanish, avvalo ta’lim siatini yuqori bosqichga ko’tarish imkoniyatini berdi.

Bilamizki 2020-yilda O’zbekistnga ham kirib kelgan COVID-19 pandemiyasi tufayli, yurtimizning barcha ta’lim bosqichlarida masofaviy ta’limga o’tildi va bu bo’yicha tegishli chora-tadbirlar ko’rildi.Xususan maktab ta’lim tizimida ham bir qancha ishlar amalga oshirildi.Pandemiya paytida esa o’quvchilar video va audio ko’rinishlarda ta’lim oldilar.

Ushbu virus tarqalishni boshlagan bir paytda butun dunyo universitetlari va maktablari ananaviy ta'limdan masofaviy ta'limga o'tishni boshlashdi. Masofaviy talimga bu tariqa tezda o'tilishi talim sifatiga o'z ta'sirini o'tkazmay qolmadi. Albatta, masofaviy ta'limning bu tariqa boshlanishi o'qituvchi va talabalarni shoshiltirib qo'ydi. Bu esa albatta, til o'qish va o'qitish borasida turli imkoniyatlarini yaratdi va shu bilan bir paytda o'ziga xos nuqson va kamchiliklari ham boldi. Bu borada dunyodagi turli o'qituvchilar ish olib borishdi.Ilmiy manbalarning tarixiy analitik tadqiqoti shuni ko'rsatadiki, ko'plab yuqori malakali o'qituvchilar masofaviy o'qitish modellarini tuzishga o'z e'tiborlarini qaratishdi.

Shu jumladan, E.S. Polat rahbarligidagi jamoa masofaviy ta'lim tashkil etishda quyidagi 6ta modelni korsatishgan:[2]

1. Eksternat turi boyicha o'qitish.

Bunda turli qulayliklar mavjud. Bu talabalar va til o'rganuvchilar uchun samarali foydalanish imkonini beradi. Ayniqsa, til o'rganuvchilar uchun ta'limning bu turi sezilarli ahamiyatga ega.

2. Talabalar uchun Universitet masofaviy ta'lim model

Bunda har bir fan uchun tayyorlangan va doimiy boyitilib turuvchi elektron kitoblar talabalarga yetkazilib beriladi. Bu esa albatta, chet tillarini o'rganayotgan talaba uchun kerakli kitoblardan elektron shaklda foydalanish imkonini yaratadi.

3. Dunyodagi bir nechta oliy ta'lim muassasalarining hamkorligidagi masofaviy ta'lim modeli. Bu yo'nalishda bir nechta nufuzli universitetlar hamkorligida elektron kitoblar yaratiladi, bu esa ushbu kitoblarning mukammal hamda sifatli bo'lishiga zamin yaratadi. Bunday kitoblar talabalarga hamda til o'rganuvchilariga darslarni yaxshiroq o'zlashtirishga imkoniyat yaratadi.

4. Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari hamkorligidagi masofaviy ta'lim modellari.

Bu yo'nalishda hozirgi zamonaviy texnologiyalar talabalar, til va boshqa biror sohani o'rganuvchilar ta'lim olishlari uchun ishlab chiqilgan. Oxirgi ikkita yo'nalish bu “Avtonom o'qitish hamda integrallashgan o'qitish”lar. Ushbu shakldagi o'qitish metodlari mustaqil ta'lim olish uchun tashkillashtirilgan bolib, televideniya, radioeshittirishlar

talabalarning asosiy o'qitish vositalari hisoblanadi. Bu kabi tizimga Amerika telivizion loyihasini misol qilib keltirishimiz mumkin.

Rivojlanish yo’lida ildam qadam tashlayotgan O’zbekistonning ham asosiy e’tibori ta’lim tizimini takomillashtirish, yangi innovatsion metod va g’oyalarni ilgari surishga qaratilgan.

Bu borada bir qator islohotlar amalga oshirildi va izlanishlar hali ham davom etmoqda. 2019-yil 30-avgustda qabul qilingan yangi tahrirdagi „Ta’lim to’g’risidagi” yangi qonunda „O’zbekiston Respublikasi ta’lim tizimini xalqaro ta’lim standartlari darajasigacha takomillashtirish” belgilab qo’yilgan. O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 6-noyabrdagi 4-son „O’zbekiston Respublikasi Oliy va o’rta maxsus ta;li vazirligi huzurida Ta’lim muassasalarida elektron ta’limni joriy etish markazini tashkil etish to’g’risida’’gi va 2012-yil 25-iyundagi 228-son qaroriga qo’shimcha va o’zgartirishlar kiritish to’grisidagi qarqorida ta’lim tizimida elektron ta’limning o’rni alohida belgilab o’tilgan.

Masofaviy ta’limning afzallik taraflari ayniqsa masofa va vaqt talab etilmasligi, ya’ni foydalanuvchining o’z xohishiga muvofiq amalga oshirishi mumkunligi bilan belgilanadi. Masofaviy ta’limning asosiy va muhim o’rni bu internet tarmog’i hisoblanadi shu sababli siz qayerda turib ishtirok etishingizning ahamiyati yo’q. Barchamizga ma’lumki, har bir sinfda turli kayfiyat va xarakterga ega o’quvchilar ta’lim oladi. Bu o’z navbatida ularning o’zlashtirishida biror muammo tug’diradi. Shu o’rinda o’qituvchi masofaviy ta’lim berish jarayonida ushbu muammoni osongina ota-onalarining yordami bilan hal etish mumkin. Bu ta’lim tizimining yana bir afzalligi bu o’quv jarayonida eng dangasa o’quvchilar uchun qiziqarli bo’ladi. Kompyuterning ularni o’ziga tortuvchi kuchi savollarning qiyinchiliklarini unutishga majbur qiladi. Ular imkon qadar tezroq yangilarini olish uchun vazifalarni faol va zudlik bilan yechimini topishga harakat qiladilar. Shu bilan birga elektron o’quv adabiyotlar o’quvchilarni tasavvurlarini kengaytirishga va boshlang’ich bilimlarni rivojlanishiga yordam beradi. Qo’shimcha ma’lumtlarni berilib borilishi o’quvchini ma’lumotlar bazasini kengayishiga sabab bo’ladi.

Talabalar esa ma’ruza va seminar mashg’ulotlarida qatnashmaydi balki qulay vaqtda, qulay jyda darslarga qatnashadilar va bu esa ko’pchilik talabalar uchun katta afzalliklardan biridir.

Uning yana bir afzal tomoni, ular o'zlarining til o'rganishdagi mahoratlarini oshirish maqsadida turli foydali va kerakli materiallardan foydalanish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Misol uchun, ingliz tilini o'rganish 4 guruhga bo'linadi:

1. Eshitib tushunish.
2. O'qib tushunish.
3. Gapirish mahorati.
4. Yozish mahorati.

O'qituvchi talabalarga bularni o'rgatish paytida talabalarning ichidagi ba'zi talabalar darsni tushunmay qolishlari mumkin. Masofiy ta'lim bu muammoni yechishga

yordam berdi. Unda dunyo bo'ylab barcha darslar Zoom platformasida va turli ijtimoiy tarmoqlarda olib borildi, va bu esa o'tilgan darslarni yozib olgan holda darsni o'zi xohlagan vaqt qayta ko'rish imkonini berdi. Va shuningdek, ular tilning qaysidir turiga tushunishmasa yoki shu haqida yetarlicha ma'lumotga ega bo'lishmasa, ularda ijtimoiy tarmoqdan turli video darsliklarni ko'rish imkoniyati paydo bo'ldi. Masofaviy ta'limning yana bir qulay tomoni shundaki, har kim o'zining yashayotgan hududidan turgan holatda o'zi xohlagan til oqitish markazlarida o'qish imkoniyatiga ega bolishdi. Misol uchun, Toshkentdagi eng zo'r oquv markazi “Cambridge education centre”masofaviy ta'lim boshlangan vaqtdan buyon qariyb 17000dan ortiq abituriyent va IELTS tayyorlanuvchilarini o'qitib kelmoqda.

O'qituvchilar uchun masofaviy ta'limning qulay tomonlaridan biri shundan iboratki, ularda dars berishdan tashqari, ularda avvalgiga qaraganda ko'proq vaqt paydo bo'ldi. Bu vaqt esa ularga o'z bilimlari ustida ko'proq ishlash yanada imkoniyat yaratdi. Va shu bilan birga, masofaviy ta'limning o'ziga xos kamchiliklari va nuqsonlari mavjud. Misol uchun, til o'rganishda yuzma-yuz muloqotning yo'qligi, masofaviy olib borilayotgan darslarning an'anaviy darslardek sifatli va maroqli bo'lmasligi.Masofaviy ta'limning yana bir nuqson tomoni bu internet muammosi. Shu muammo ko'plab abituriyent, talaba va ota-onalar norozichiliga sabab bo'ldi.

An’anaviy ta’limga keladigan bo’lsak bu ta’lim tizimining ham afzallik taraflari bor. An’anaviy dars o’tishda ko’proq o’quv mashg’ulotlari, ma’ruza, tezkor savol-javob, kichik sinflarda esa turli hil o’yinlar kabilardan foydalaniladi. Shu sabab, bu hollarda an’anaviy darslarning samaradorligi ancha past bo’lib, o’quvchilar esa dars jarayonining passiv ishtirkchilariga aylanib qoladilar. Lekin darsda o’quvchilarning faol yoki passivligi darsni qanday o’tilishiga va uni rejalashtirilishiga bog’liq bo’ladi. Dars jaraynini qiziqarliroq o’tish uchun turli o’yinlardan, yangi metodlardan foydalanish kerak. An’anaviy darslarning afzalligi shundaki o’quvchi yoki talabalarni o’qituvchi bajarayotgan ishlarini dars jarayonida nazorat qilishi mumkin.

Masofaviy ta’lim nafaqat o’quvchilar bilan guruhlarda, balki har bir o;quvchi bilan individual ishlash imkonini ham beradi. Bu esa o’qituvchi va o’quvchi orasida turli psixologik to’siqlarni olib tashlaydi. Xorijiy tillarni o’rganishda ayrim o’quvchilarni tinglab tushunish qobilyatlarida kamchiliklar borligi sezilar edi, bu esa audio darslar orqali o’z yechimini topdi. Maktablarda olib brilgan masofaviy ta’limni hamkorlikdagi ta’lim deyishimiz ham mumkin. Chunki bunda ta’lim jarayonini o’qituvchi, o’quvchi va ota-ona birgalikda olib boradi.

Xulosa qilib aytdanda, hozirgi kunda yoshlarning zamonaviy texnologiyalarga bo’lgan qiziqishlarini e’tiborga olgan holda, masofaviy o’qitsh tizimi o’quvchilarning o’qishga bo’lgan qiziqishini ancha oshiradi deb hisoblayman. Shuni chuqur anglashimiz kerakki, qilinayotgan hamma islohotlar faqat faezandlarimizning porlq kelajagi, ularni har tomonlama bilimli, yuksak ma’naviyatli va komil inson bo’lib yetishishiga qaratilgan. Yuqoridagi xulosalardan ko'rinib turibdiki,til o'qish va o'qitishda masofaviy ta'limning

ahamiyati katta bo'ldi.Ko'rib turganimizdek,masofaviy ta'lim talabalar va til o'ganuvchilarga kata imkoniyatlar eshigini ochib berdi desak mubolag'a bo'lmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Полат Е.С Моисеева М.В Петгов А.У Бухагкина М.Ю Аксенов Ю.В Югбункова Т.Ф “ Дистанционная обучения “
2. Ilmiy metodik jurnal „ Ilm sarchashmasi’’
3. Library.ziyonet.uz
4. Uz.edu.uz rasmiy sayti
5. Abduqodirov A.A., Pardayev A.X. Masofali o‘qitish nazariyasi va amaliyoti. – T.: Fan, 2009.145 b.

CHET TIL O’QITISHGA BO’LGAN ZAMONAVIY YONDASHUVLAR (CLIL YONDASHUVI MISOLIDA)

X. X. Xabibullayev. Namangan davlat chet tillar instituti.

Annotasiya. Hozirgi davr ilm-fan yutuqlari, raqobat va globallashuv ortib borayotgan bir davrda xorijiy tillarni o’rgatishning imkon qadar samarali usullarini qo’llash davr talabidir. Fanlararo bo’glanish va qiyosiy o’rganish hisobiga ma’lum tadqiqot va xulosalar olinishi amaliyotda keng qo’llanayotgan bir vaqtda xorijiy tillarni ham ma’lum soha yoki fanga yo’naltirib o’qitish uslubi qo’llanilishi ahamiyatlidir. Yurtimizda ham xorijiy til o’qitishda turli davrlarda har xil metodika va yondashuvlar asosida xorijiy til o’qitish jarayoni tashkil etilgan bo’lsada, maktablarda STEAM fanlariga va nofilologik yo’nalishlardagi oliygohlardagi maxsus fanlar o’quv dasturining asosiy qismini tashkil etuvchi bilim yurtlarida CLIL yondashuvi asosida darslarni tashkil etishda yetarlicha nazariy asoslarni kuchaytirish va amaliyotga tadbiq etish zarurati hali ham yuqoriligicha qolmoqda. Ushbu maqolada CLIL yondashuvi mazmuni, ushbu yondashuvni samarali qo’llashda lozim jihatlar haqida bayon etiladi. Maqola o’qitish jarayonini aniq, tabiiy va amaliy fanlar bilan birgalikda o’qitish jarayonida ayniqsa samarali bo’lishi mumkin. Maqolada o’quvchilarning xorijiy til o’rganishi mavjud boshqa fanlardagi yangi bilimlarni o’rganilishi orqali yanada yengilroq, qiziqarliroq va amaliyroq bo’lishini ta’minlash ustuvor maqsad ekani aks etadi.

Abstract. It is really crucial to use a more efficient way of teaching foreign languages as the world is becoming more globalized, and competitive and there are many scientific inventions we have. It is important to provide integration between foreign language teaching and other subjects as we have many researches and conclusions taken by integrative studies between other subjects and fields. Although through the practice of teaching foreign languages, we have applied many methods and approaches successfully,

the development of a theoretical base and implementation of the CLIL approach at schools where we have STEAM subjects or other universities, not specialized in linguistics, is still important. This article is about the CLIL approach and elements of it to use during lessons. The article may be an effective tool for teachers while organizing language lessons with the integration of mathematics, physics, biology, or other practical subjects. As it is clear from the article the most important thing is to provide and mention that teaching foreign languages by discussing and observing non-language related facts, subjects are easier, more interesting, and more practical.

Абстрактный. В наше время, в эпоху возрастающих научных достижений, конкуренции и глобализации, необходимо использовать самые эффективные методы обучения иностранным языкам.

В то же время, что на практике широко используется для получения определенных исследований и выводов за счет междисциплинарности и сравнительного изучения, важно использовать метод обучения иностранным языкам, ориентируясь на определенную область или науку.

В нашей стране процесс обучения иностранному языку организован в разные периоды на основе разных методов и подходов. Однако по-прежнему существует высокая потребность в укреплении теоретических основ и реализации их на практике для организации уроков на основе подхода CLIL в образовательных учреждениях, которые составляют основную часть учебных программ специальных предметов в вузах нефилологических направлений. и предметы STEAM в школах. В данной статье описывается содержание подхода CLIL, аспекты, необходимые для эффективного применения этого подхода. Статья может быть особенно эффективна при обучении учебному процессу совместно с конкретными, естественными и прикладными науками. В статье показано, что приоритетной целью является сделать изучение иностранного языка более легким, интересным и практичным для студентов за счет изучения новых знаний по другим существующим предметам.

Kalit so'zlar: CLIL yondashuvi, fanlar, samaradorlik,tashkil etish

CLIL(Content and language integrated learning) atamasi 1994 yilda Devid Marsh tomonidan til o’rganishga chuqur kirishish va tarkibga asoslangan ko'rsatmalarga o'xshash, ammo ajralib turadigan yondashuv sifatida yaratilgan. Uning tarafdorlarining g'oyasi tilni o'qitish vositasi sifatida ishlatishning turli shakllarini o'z ichiga olgan yondashuvning ilmiy atamasini yaratish edi.CLIL yondashuvi dastlab biznesga doir qo’llashlarda til bilan integratsiya asosida ayniqsa Italiyada yaxshi samarasini berdi. Keyinchalik nafaqat yevropa, balki boshqa hududlarda va sohalararo qo’llab kelinmoqda. CLIL yondashuvi asosida tashkil etilgan darslarda o’quvchi o’zi ilk marta o’rganayotgan boshqa soha yoki faktlar bilan tanishtiriladi,bunda ma’lumotlar ko’lami va turi jihatidan fizikadan tortib hayotiy ko’nikma va malakalargacha o’rgatish mumkin.Ayrim tanqidlarga ko’ra CLIL yondashuvi til o’qitish siyosati va ideologiyasiga ta’sir etishi mumkin. Lekin aniq yoki tabiiy fanlar, moddiy ne’matlarni qayta ishlash va ixtiro qilish

kabi ishlab chiqarishning sanoat yo’nalishlariga qiziquvchan mutaxassislar hamda bo’lajak kasb egalari uchun samarali hisoblanadi. CLIL yondashuvi asosida xorijiy til o’qitish jarayonini tashkil etishda til o’qitishning quyidagi nazariy asoslarini amalda to’g’ri qo’llash muhimligi e’tiboridan xorijiy tilni o’qitishda yondashuv, uslubiyot, uslub, texnika va strategiya kabilarga diqqat bilan e’tibor berish, farqlash va o’rinli qo’llash lozim. Birinchisi, til o’qitish jarayonini umumiy aks ettiruvchi “yondashuv” atamasi(*inglizcha.*approach) bo’lib til o’qitishning nazariy jihati yoki falsafasini ifodalaydi va qanday o’qitish kerakligini o’zida aks ettiradi, o’quv dasturi va ma’lumot turlari yondashuv mazmuniga ko’ra belgilanadi. CLIL til ta’limida yondashuv hisoblanadi. Ikkinchi atama “uslubiyat” atamasi (*inglizcha.* methodology) bo’lib, “yondashuv”ning samarali qo’llanilishini tashkil etish uchun “uslub”larni tizimli qo’llashni nazarda tutadi va o’rganilish miqyosi, faoliyatni ifoda etadi huddi o’qitish kabi. Bu o’rinda “uslub” atamasi esa ma’lum bir narsani avvaldan o’rnatilgan tartib va jarayon asosida uddalash yoki yondashishda qo’llaniluvchi yo’l. Yana til o’qitish metodi va texnikasi haqida ham bir oz qiyosiy holda tushunchalarimizni aniqlashtirib olishimiz kerak bo’lib, uslub (*inglizcha.*method) - til materiallarini tartibli taqdim etishning umumiy rejasini anglatadi, uning hech bir qismi qarama-qarshi bo'lmasligi va barchasi tanlangan yondashuvga asoslanishi ta’minlangan bo’lishi kerak. Texnika esa "amalga oshiruvchi" vazifasiga nisbatan ishlatiladi va umumiy jarayonning ma’lum qismida faol ishlatish orqali qo’llanayotgan uslub va asos qilib tanlangan yondashuvni amalga oshirishda yordamchi hamda bevosita maqsadga erishish uchun ishlatiladigan narsadir.Til o’qitish texnikasiga misollardan, tez aytish, takrorlash, so’z almashtirish o’yinlari va vaziyatli rolli o’yin kabilarni keltirib o’tish mumkin. |Endi nafaqat til o’qituvchilari, balki til o’rganuvchilariga oid eng asosiy ataamlardan biri “til o'rganish strategiyasi” haqida bir oz ma’lumot berib o’tsak. Til o’rganish strategiyalari - bu tilni o'rganish yoki undan samaraliroq foydalanishga yordam berish uchun til o'rganuvchilar tomonidan ongli ravishda qo'llaniladigan jarayonlar va harakatlarga ishora qiluvchi atama. Til o’rganuvchilar orasida eng mashhur til o’rganish strategiyalaridan ayrimlariga misol keltirsak, bular o’ziga o’zi nutq, do’stlari bilan suhbat, o’zi uchun soddalashtirib o’rganish, so’z qo’shish, taqlid qilish va turli tasviriy qo’llanmalar tashkil etish kabilar.Umuman olganda til o’rganish strategiyalari asosan 3 xil turga bo’linadi. Birinchisi, o’rganuvchi o’z imkoniyati va tajribasidan kelib chiqadi va o’z ta’lim olish jarayoni va o’rganish shakli haqida o’ylab, shunga mos yo’l tutadi (*inglizcha.* metacognition).Bunga misollardan, “Men bu haqida avvaldan nimalarni bilaman?”, “Bu menga men bilgan mana bu narsani eslatib yubordi”, “O’rganish jarayonimda qaysi jihatlari meni qiynamoqda?” , “Bu mendan nimani bajarishimni so’rayapti?” kabi. Ikkinchisi, umumiy tafakkur jarayonini qamrab olgan bo’lib fikrlashdan tashqari, til, diqqat, o'rganish, xotira va idrokni o'z ichiga oladi. Ushbu beshta tafakkuriy qobiliyat amalda (*inglizcha.*cognitive ability) qisqa muddatli xotira, mantiq, ishlov berish tezligi, diqqat va aqliy tasavvurlarni jarayon shaklida ko’ra olish (*inglizcha.* spatial recognition) kabilarni faol ishlatish orqali amalga oshiriladi. Uchinchisi, ijtimoiy ta’sir jihatlari

(*inglizcha.* socio affective) e’tiborga olinib o’z o’rganish jarayonini tashkil etish kabilardir. Yuqorida keltirib o’tilgan nazariy ma’lumotlarni amaliyotda ham mohirlik bilan qo’llash ushbu maqoldagi yondashuvni muvaffaqiyatli qo’llashda asosiy tashkiliy jihatlardir.

Muvaffaqiyatli natija va samaradorlikni ikkinchi yoki xorijiy til o’qitishning yangi ma’lumot bilan qanchalik mos, izchil va maqsadli integratsiya qilinishi muvaffaqiyatni belgilab beradi.CLIL yondashuvi o’quvchida yangi ma’lumotlarni olayotgani hisobiga lug’at yodlash, jarayonlarni o’zaro bog’lash va ifodalash hamda boshqa til amaliyotiga oid mashqlarni yanada qiziqish bilan o’rganishlarida katta foyda beradi. Ushbu yondashuvda ayrim qiyinchiliklar mavjud bo’lib, ulardan, ilk bor qo’llab ko’rishda chalkashishlik kuzatilishi va xorijiy til o’qituvchisi bu o’rinda o’zini huddi o’sha sohaning yo’naltiruvchi mutaxassisi sifatida ko’rsata olishi kerak. Odatda bu qiyinchilklar o’quvchilarda guruh bilan ishlash, muhokama va qisqa topshiriqlar berib asta kunlik jrayondek holatga kelsa, o’qittuvchilar bu materiallarga avvaldan tayyorlanib, uslubiyot va uning tarkibidan mos uslubni qo’llash va talaba yoki o’quvchiga o’ziga mos o’rganish strategiyalarini topishda ko’maklashib muammoni hal etishlari mumkin. Yana o’rganilgan manba yoki ma’lumotni qayta tekshirish jarayonini xorijiy til sinov topshiriqlari va mashqlari orqali tizimli tashkil etish ham ikki tomonga foydalidir, ya’ni o’qituvchi yondashuvning yaxshi qo’llanayotgani va o’quvchi samarali o’rganayotganini nazorat qilib boradi. Xorijiy tillarni o’qitishda bu uslubning eng afza tomonlaridan biri shundaki, o’quvchi o’zi tabiiy holatda muloqot, kuzatish va ijtimoiylashuv asosida til o’rganadi. Bu jarayonda o’quvchi xorijiy til darsida ma’lumotning ayrim umumiy yoki muhim jihatlarini o’rgansa, o’sha ma’lumot yoki manba xos o’rganiladiga maxsus fanlarda, maktab yoki oliygohda, chuqurroq o’rganib oladi o’sha fan ustozidan. Xorijiy til o’qituvchisi esa, masalan ingliz tilida gular mavzusini o’tishda, o’quvchilarga gul turlari va gul tanasi qismlari, o’sish va gullash jarayonin amaliy o’rgatishi, xatto tabiat qo’ynida o’ta olishi ham mumkin. Bolalar bunda gullarni o’z qo’llari bilan ushlab ko’rishlari va ingliz tilida o’sha gul haqida o’rganganlarini o’zaro suhbat asosida muhokama qilishlari, o’z shaxsiy tajribalari bilan bo’lishishlari mumkin. Bularning barchasi o’rganilayotgan xorijiy tilda amalga oshiriladi. CLIL yondashuviga asoslangan darslarga amaliyotdan misollar haqida gap ketganda bu yondashuv butun haftalik yoki oylik har bir darslarga asos yondashuv qilib olinishi kerak emasligini avvalambor yodda tutishlik muhimdir. CLIL yondashuvi haftalik yoki oylik biror mavzular to’plamiga (inglizcha.topic) umumiy kirish darsida qo’llanilishi va qolgan darslarda o’sha dars hususiyatidan kelib chiqib yondashish kerak. Masalan, tabiat mavzusiga kirishda CLIL yondashuvi asosida dars tahkil qilish o’quvchiga mos bo’lsada, shu mavzuga aloqadar matnlar asosida grammatikadan zamonlar o’tilishi lozim bo’lgan ikkinchi yoki so’z yasovchi qo’shimlarar o’tilishi kerak bo’lgan uchinchi darslarga mos bo’lmasligi mumkin. Odatda bir jamoada ishlayotgan ta’lim muassasasi o’qituvchilari bilan hamkorlik qilgan holda xorijiy til o’qituvchisi yillik dasturidagi haftalik mavzular to’plamilarini (*inglizcha.*topics) integrative usulda CLIL yondashuvi asosida tashkil etishi mumkin.

BO`LAJAK NEMIS TILI O`QITUVCHILARINING XATOLARINI BARTARAF ETISH KOMPETENSIYALARINI TAKOMILLASHTIRISH YUZASIDAN OLIB BORILGAN ILMIY-METODIK ISHLAR TAHLILI

Q. Xasanova Farg`ona davlat universiteti

Chet til o`rganish jarayoni qiyin, murakkab hamda uzoq davom etadigan jarayon hisoblandi. Chet til o`rganishning har qanday bosqichida til o`rganuvchilar xatoga yo`l qo`yishlari mumkin. Xatolar chet tilni mukammal o`rganib olgunga qadar jarayonning ajralmas qismi bo`lib qolaveradi. Chet tilini o`rganish jarayonida xatolar doimiy uchrab turgan bo`lsa-da, chet til o`qitish metodikasida “xato” tushunchasini keng o`rganish tarixi uzoqqa borib taqalmaydi. M.Shoormanning qayd etishicha chet tili darslarida xatolarni to`g`rilashning ahamiyati XX asrning oxiriga kelib tadqiq etila boshlangan [9]. Shunga qaramay bugungi kunga qadar xatolarni to`g`rilash mavzusi o`zining aniq yechimlarini topmagan. Nemis tilini ikkinchi til sifatida yoki chet til sifatida o`rgatish borasida bir qator tadqiqotlar olib borilgan bo`lib, quyida ularga batafsil to`xtalib o`tmoqchimiz.

Nemis tilini chet tili sifatida o`rgatish jarayonida xato va xatolarni to`g`rilash yuzasidan amalga oshirilgan tadqiqotlar orasida nemis olimi K.Kleppinning “Fehler und Fehlerkorrektur”(Xato va xatoni to`g`rilash) kitobi alohida ahamiyat kasb etadi. Olim o`z tadqiqotida xatoning nima ekanligi, xato tushunchasining ta’rifi, xatolarning kelib chiqish sabablari, turli omillarning xatolarni kelib chiqishiga ta’sir etishi, og`zaki va yozma nutqqa oid xatolar, ularning turlari va ularni bartaraf etish usullari haqida fikr yuritgan [5].

Venger tadqiqotchisi G.Gotlib “Problemde der Fehler und Fehlerkorrektur im Fremdsprachenunterricht (Xorijiy til darslarida xato va xatolarni to`g`rilash muammolari)” mavzusidagi tadqiqotida xorijiy tillarni o`rganish jarayonida xato tushunchasi, xatolarni klassifikatsiyasiga oid turli qarashlar, xatolarga psixolingvistik jihatdan yondashuv haqida o`z mulohazalarini keltirilgan [2].

A.Gavranning “Fehler und Fehlerkorrektur im DaF-Unterricht (Nemis tili chet tili sifatida darslarida xato va xatolarni to`g`rilash)” mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasida o`qituvchining xatoni to`g`rilashi o`quv jarayonining ajralmas qismi ekanligi, o`qituvchi xatoni to`g`rilash jarayoni til o`rganuvchilarga demotivatsiya sifatida ta’sir etmasligiga harakat qilishi lozimligi haqida asosli fikrlar keltirib o`tiladi [1].

G.Vittman ham o`zining “Von Fehleranalysen zur Fehlerkorrektur (Xatolar analizidan xatolarni to`g`rilashga)” nomli maqolasida xuddi K.Kleppin, E.Gottlib va A.Gavranlar kabi tadqiqotchilar singari xato tushunchasi, uning tasnifi va xatolarni to`g`rilash madaniyati haqida fikr yuritadi. U o`z tadqiqotida pedagogik fanlarni o`rgatishda yo`l qo`yiladigan xatolar aniq fanlarni o`qitishda yo`l qo`yiladigan xatolardan farq qilishi haqida o`z mulohazalarini keltirib o`tadi [3].

M.Lopinova va bir qator mualliflar tomonidan yozilgan “Понятие "ошибка", причины возникновения и классификация ошибок в методике преподавания иностранного языка” (Xato tushunchasi, chet til o`qitish metodikasida xatolarni kelib chiqish sabablari va klassifikatsiyasi) nomli maqola chet tillarini o'qitish metodikasida

"xato" konseptini aniqlashga qaratilgan turli usullarni va muloqotdagi xatoliklar uchun asosiy sabablarni ko'rib chiqadi. Shuningdek, maqola til o'rganishdagi xatoliklar uchun turli xil sabablarni, masalan, til o'rganuvchining yoshi, muloqot va o'rganish strategiyalari, shaxsiy, madaniy, psixologik va ijtimoiy-falsafiy sabablarni ko'rib chiqadi. Maqola aynan shu sabablarga ko'ra, og`zaki va yozma muloqotda xatoliklar uchun turli xil tasniflarni taklif qiladi va nemis tilidagi yozma nutqda uchrashi mumkin bo'lgan xatoliklar jadvali bilan birga, ularni to'g'rilash usullarini ham o`zida aks ettiradi. Mualliflar xatolarni mutlaqo yomon qabul qilmaslik, balki ularni til o`rganuvchilar bilimining bo'shliqlarini va til o`rganishda kreativlikni ko'rsatish vositasi ekanligini ham ta'kidlaydilar. Bundan tashqari maqolada til o'rganishda uchraydigan fonetik, morfologik, sintaktik, semantik va pragmatik kabi xato turlari tahlil qilinadi [8].

K.Loxtman o`zining “Die mündliche Fehlerkorrektur im DaF-Unterricht” (Nemis tili chet tili sifatida darsida xatolarni og`zaki to`g`rilash) nomli maqolasida nemis tilini chet tili sifatida o`rgatishda xatolarni og`zaki to`g`rilash borasida fikrlarini keltirib o`tadi. Muallif maqolada xatolarni to'g'rilashda til o`rganuvchining o'z-o'zini tekshirishi usulining ahamiyatini yoritishga harakat qiladi. Olima o`z fikrlarini Belgiya maktablarida olib borilgan tadqiqot natijalari yordamida izohlaydi. Bu tadqiqotda nemis tilini chet tili sifatida o`rgatadigan o'qituvchilari orasida qabul qilingan uchta to'g'rilash usuli keltirib o`tiladi: xatolarga bag`rikenglik bilan yondashuvchi, xatolarga murosasizlik bilan yondashuvchi hamda xatolarga o`rtacha yondashuvchi. Maqolada o'qituvchilar tomonidan ishlatiladigan turli xil to'g'rilash usullarini va ularning til o'rganishga potensial terapevtik ta'sirini o'rganiladi. Muallif o'qituvchilarning to'g'rilash usullaridan xabardor bo'lishlari til o'rganish jarayonining yanada samarali bo`lishiga xizmat qilishini ta’kidlaydi. Maqolada ikkinchi tilni o'rganishda o'z-o'zini tekshirishning ahamiyati haqida ham gap boradi, xususan, guruhda o'qitish kontekstida. Muallif salbiy fidbek va xatolarni to'g'rilash til o'rganish uchun zarur emasligini borasida ba'zi nazariyalar bo'lsa-da, til o'qitish va o`rganish muhiti uning ishtirokisiz mavjud bo`lmasligini qayd etadi. Bundan tashqari maqolada til o'qitishining ijtimoiy kontekstini va o'qituvchilar hamda talabalar o'rtasidagi turli xil rollarni ham o'rganiladi. Xulosa sifatida muallif o'qitishda xatolarni o'qituvchilar tomonidan boshqariladigan turning samarasiz ekanligi haqida yozadi [6].

M.Shoormann va T.Shlaklar tomonidan yozilgan “Sollte korrektives Feedback „maßgeschneidert “werden? Zur Berücksichtigung kontextueller und individueller Faktoren bei der mündlichen Fehlerkorrektur im Zweit-/Fremdsprachenunterricht” (Korrektiv fidbek qolipga solingan bo`lishi kerakmi? Ikkinchi va chet tili darslarida xatolarni og`zaki to`g`rilashda kontekstual hamda individual omillar) nomli maqola ham nemis tilini o`rgatishda xatolarni og`zaki to`g`rilash masalalariga bag`ishlangan. Bu maqola ikkinchi til o'rganishda og`zaki korrektiv fidbekning samaradorligini yoritib beradi. Bundan tashqari maqolada kognitiv-interaksiyaviy va ijtimoiy-madaniy ta’sirlarning xatolarni og`zaki to`g`rilash o`rganish samaradorligi bilan bog'liqligi qayd etiladi. Tadqiqotchilar o`qituvchi fidbekni mahalliy va til o`rganuvchilarning shaxsiy xususiyatlariga moslashtirishi kerakligini aytib o'tadi va til o'qitish amaliyotida buni

amalga oshirish uchun tavsiyalar keltirib o`tadi. Shu bilan birga maqoda korrektiv fidbek yoki to'g'ri qayta ishlash, o'rganish jarayonida til o`rganuvchilarning xatolarini aniqlash va ularni to'g'rilash uchun berilgan qayta ishlash ekanligi aytiladi. Bu maqolada, til o'qitishida korrektiv fidbekning maqsadlari, til o`rganuvchilarning qabul qilish usullari, fidbek turlari va ularning foydalanishiga qarab samaradorligi o`zgarishi haqida ko'proq ma'lumot berilgan [9].

M.Shoorman va T.Shlaklarning “Hilfreich oder ohne praktischen Nutzen?–Die Forschung zur mündlichen Fehlerkorrektur im Zweit-und Fremdsprachenunterricht” (Foydali yoki amaliy foydasiz? –Ikkinchi va chet tili darslarida xatolarni og`zaki to`g`rilash yuzasidan tadqiqot) nomli maqolasi ham ikkinchi va boshqa chet tillarini o'rganishda muntazam uchraydigan xatolar va ularga javob berishning nazariy asoslarini va ularni guruhlashtirishni yoritishga xizmat qiladi. Maqolada til o'rganishda fidbekning ahamiyatini va javobni qayta ishlash, ochiq to'g'ri shakllantirish, aniqlash so'rovlari, xato takrorlanishi, metalingvistik fidbek kabi turlari tadqiqqa tortilgan. Maqolada shuningdek, fidbekning til o'rganishga yordam beruvchi interaksiya, input va output haqidagi qarashlarga ham to`xtalib o`tiladi [10].

Olib borilgan tadqiqotlar ichida L.Ciepielevskaning “Mündliche Fehlerkorrektur im DaF-Unterricht”(Nemis tili chet tili sifatida darsida xatolarni og`zaki to`g`rilash) nomli maqolasi ham alohida ahamiyat kasb etadi. Bu maqola chet tillarini o'qitishda og`zaki nutqda yuzaga kelgan xatolarni og`zaki to'g'rilash haqida yozilgan. Maqolada o'qituvchilar xatolarni tez-tez to'g'rilashga harakat qilishi, bu qarashlar til o'rganuvchilarning motivatsiyanini tushirib yuborishi va ularni gapirishdan qochishlariga olib kelishi mumkinligi haqidagi fikrlar keltirib o`tiladi. Maqola o'qituvchilarning xatolarni tanlashda ko'proq tanqidiy bo'lishi, alohida e'tibor qaratishi kerakligini, ya'ni muloqotni buzishga yoki o'rganilayotgan tilda muhim bo'lgan xatolarga e'tibor qaratishni tavsiya qiladi. Maqola nemis tilini chet tili sifatida o'rganuvchilarga o'qitishda og`zaki nutqda yuzaga kelgan xatolarni to'g'rilashning ahamiyatini ko'rsatadi. Bundan tashqari maqola til o'rganuvchilarning xatolarni o'zlari to'g'rilashlari va guruhda muzokaralarni o'tkazish yordamida o'rganishlariga imkon beruvchi ko'rsatkichlar haqidagi fikrlarni ham taqdim etadi. Asosiy maqsad muloqotni rag'batlantiruvchi va xato qilishdan qo'rqish hissidan saqlash hisoblanadi [7].

H.Vulf o`zining “Communicative teacher talk: Vorschläge zu einer effektiven Unterrichtssprache” (Kommunikativ o`qituvchi nutqi: Samarali dars tili uchun o`qituvchi tavsiyalari) maqolasida talabalarning gapirish qobiliyatlarini rivojlantirish uchun tavsiyalar taklif qiladi. Ayniqsa, talabalarning gapirishi tushunarli bo`lmaganida, ularning o'zlariga xatolarini tuzatish imkoniyatini berishning ahamiyatiga urg'u beradi. Bundan tashqari, talabalarga tilda erkin so`zlashuvchilarning qanday gapirganini ko'rsatib, xatolarni to`g`rilashning ahamiyatini ko`rsatib beradi. Bundan tashqari xatolarni juda qattiq to`g`rilashdan qochish kerakligi ham belgilab qo'yilgan [4].

Nigeriyalik O.Oyadele o`zining “Eine Analyse der schriftlichen Fehler nigerianischer Yoruba-Sprecher beim Deutscherwerb”(Nigercha yoruba tilida

so`zlashuvchilarning nemis tilini egallashda yo`l qo`yadigan yozma xatolari analizi) mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasida nigeriyalik nemis tilini o`rganuvchilar tomonidan yozma nutqda yo`l qo`yiladigan xatolar tahlil qilingan. Xatolarning kelib chiqish sabablarini va qaysi mavzularda eng ko`p xatolar uchrashini tadqiqqa tortgan. Bundan tashqari xatolarni kategoriyalarga ajratgan holda o`rganib, nigeriya tili bilan taqqoslagan va o`z fikrlarini mashqlar yordamida asoslashga harakat qilgan [11].

G.Jdanova va L.Almyashovalar o`zlarining “Языковые ошибки в переводах с иностранного языка на русский в письменных работах студентов вуза”(OTM talabalarining chet tilidan rus tiliga yozma tarjimalarida uchraydigan lisoniy xatolar) nomli maqolalarida nemis va ingliz tillaridan rus tiliga qilingan tarjimalarda uchraydigan xatolarga to`xtalib o`tishgan [12].

Dunyo mamlakatlarida chet tillarni o`rganish jarayonida yo`l qo`yiladigan xatolar, ularni to`g`rilash usullari bir qator olimlar tomonidan tadqiqqa tortilganiga qaramay, o`zbek olimlarining metodikaga oid kitob va tadqiqotlarida xato tushunchasi, xatolarning turlari, o`zbek tilli o`rganuvchilarning nemis tilini o`rganish jarayonida yo`l qo`yadigan xatolari, bo`lajak nemis tili o`qituvchilariining xatolarni to`g`rilash, ularni bartaraf etish kompetensiyalarini takomilashtirishga oid tadqiqotlar olib borilmagan. Bu esa mavzuning monografik planda tadqiq etilishi lozimligini ko`rsatadi. Bundan tashqari xatolarning til o`rganish jarayonining uzviy qismi ekanligi , uning har bir o`rganish bosqichida uchrashi, noto`g`ri berilgan fidbek til o`rganuvchilarning til o`rganishga bo`lgan qiziqish va motivatsiyalarini tushib ketishiga sabab bo`lishi mavzuning dolzarbligini ko`rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. A.Gavran. Fehler und Fehlerkorrektur im DaF-Unterricht : дис. – 2012.
2. E.Gottlieb. Problemde der Fehler und Fehlerkorrektur im Fremdsprachenunterricht //Theorie und Praxis von Pädagogik. – 2010. – С. 3.
3. G.Wittmann. Von Fehleranalysen zur Fehlerkorrektur. – 2007.
4. H.Wulf. Communicative teacher talk: Vorschläge zu einer effektiven Unterrichtssprache. – Hueber, 2001.
5. K.Kleppin. Fehler und Fehlerkorrektur. – Langenscheidt, 1998. – Т. S.154.
6. K.Lochtman. Die mündliche Fehlerkorrektur im DaF-Unterricht //German as a foreign language. – 2003. – Т. 3. – С. 1-19.
7. L.Ciepielewska. Mündliche Fehlerkorrektur im DaF-Unterricht //Lingwistyka Stosowana/Applied Linguistics/Angewandte Linguistik. – 2010. – Т. 2. – С. 83-92.
8. М. Лопинова и др. Понятие" ошибка", причины возникновения и классификация ошибок в методике преподавания иностранного языка //Известия Великолукской государственной сельскохозяйственной академии. – 2016. – №. 3. – С. 63-71.
9. M.Schoormann, T.Schlak. Hilfreich oder ohne praktischen Nutzen?–Die Forschung zur mündlichen Fehlerkorrektur im Zweit-und Fremdsprachenunterricht //Zeitschrift für Fremdsprachenforschung. – 2011. – Т. 22. – №. 1. – С. 43-84.

10. M.Schoormann, T.Schlak. Sollte korrektives Feedback „maßgeschneidert “werden? Zur Berücksichtigung kontextueller und individueller Faktoren bei der mündlichen Fehlerkorrektur im Zweit-/Fremdsprachenunterricht //Zeitschrift für interkulturellen Fremdsprachenunterricht. – 2012. – T. 17. – №. 2.

11. Oyedele O. C. Eine Analyse der schriftlichen Fehler nigerianischer Yoruba-Sprecher beim Deutscherwerb : дис. – Universität Bayreuth, Sprach-und Literaturwissenschaftliche Fakultät, 2017. S.190

12. Жданова Г. А., Альмяшова Л. В. Языковые ошибки в переводах с иностранного языка на русский в письменных работах студентов вуза //Научный диалог. – 2018. – №. 5. – С. 268-277.

CHET TIL DARSLARIDA BOSHLANG‘ICH SINF O’QUVCHILARINING BILISH FAOLLIGINI ZAMONAVIY METODLAR ASOSIDA SHAKLLANTIRISH USULLARI.

S.Bilolidinova, V.A. Ermatova. Namangan davlat chet tillari instituti

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang‘ich sinflarda chet tilini o‘rganishda chet tiliga bolgan qiziqishni oshirish va yanada zamonaviy metodlar bilan ularning eslab qolish qobilyatini rivojlantirish haqida to‘xtalib o‘tiladi .

Kalit so‘zlar: Zamonaviy va innovatsion metodlar ,boshlang‘ich sinflar, mnemonika ,sezgi organlar.

KIRISH :

Mustaqillik har bir insonga barcha imkoniyat eshiklarini ochib berdi .Shuningdek, alohida to‘xtalib o‘tish kerak bo‘lgan bir bir jihat bor , bu albatta, yoshlarni chet tillariga bo‘lgan qiziqishlaridir.

Yangi O‘zbekistonda yoshlar uchun hech qanday ,ayniqsa ,bugungi kun yoshlari uchun hech qanday imkonsiz narsaning o‘zi yo‘q ya`ni yetishib chiqayotgan avlod o‘z lug‘at boyligidan “ IMKONSIZ” so‘zini chiqarib tashlagan desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Yoshlarni chet tillarni o‘rganish borasidagi ishonch va qiziqishlarini kuchaytirmoqlik uchun Prezidentmiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev ularga yanada keng sharoitlar yaratib bermoqda. Bunga misol qilib 2021 –yil 6-may sanasidagi nutqida chet tillariga bo‘lgan e`tibori o‘z tasdig‘ini topdi. Nutqda shunday deyilgan: “ Xorijiy tillarni o‘rgatish bo‘yicha kelajak uchun mustahkam poydevor bo‘ladigan tizimini yo‘lga qoyish vaqti keldi”.

Albatta chet tillarini o‘rganish oson bo‘ladigan davr bu - yoshlik . Buni hatto olimlar ham ta`kidlashgan. Malakali o‘qituvchilarimiz bolalarni zamonaviy va innovatsion metodlardan foydalangan holda ularda eslab qolish qobiliyatini rivojlantirishda o‘z hisslarini qo‘shmoqda .

Eslab qolish metodologiyasi va tahlili

Hozirgi kunda eslab qolish usullari xilma-xil va bu olimlar tomonidan tasdiqlangan.Masalan , mashhur olim Linkoln ongiga kerakli ma`lumotni aks ettirmoq uchun ikki his-tuyg‘u azosidan foydalangan . U – “ Men qachon ovoz chiqarib o‘qisam ,

fikr ikkita his etish a`zosi orqali qabul qilinadi. Birinchidan , nimani o‘qisam oshani ko‘raman , ikkinchidan , men uni eshitaman , shuning uchun juda yaxshi eslab qolaman “, -degan . Eslab qolishning yana bir samarali usullaridan biri – mnenomika bo‘lib , sun`iy assotsiatsiyalar hosil qilish yo‘li bilan esda saqlab qolishni osonlashtiruvchi va xotira hajmini kengaytiruvchi usullar tizimi.

Muhokama:

Tomas Edison o‘zining 27 nafar laboranti oy davomida har kuni olti lampa sexidan Nyu-Jersi shtatidagi Menlo – parkda joylashgan zavodning bosh binosiga boradigan yo‘ldan qatnashni aniqlab oldi. Bu yo‘lda gilos daraxti o‘sar edi , ammo o‘sha 27 kishi bilan savol –javob o‘tkazilganda , birontasi ham uning mavjudligini umuman payqamaganligi ma`lum bo‘ldi . Bularning barchasi insonlarning

Kuzatuvchanlikning yomonligidandir . Insonlar biron bir ma`lumotni yodda saqlash uchun avvalo e`tiborni bir joyga yig‘ib kuzatishni o‘rgnanish kerak va bu eng yaxshi usuldir.

Natija:

Haqiqatdan ham, sezgi azolar mnemonik usullar va boshqa usullar chet tilini o‘rganishda Judayam yaxshi samara beradi. Masalan Nemis tili alifbosini o‘rganish uchun 1-sinf o‘quvchilariga O‘yin tarzida o‘rgatishda harflarni sonlar bilan belgilab har bir o‘quvchiga o‘z ismlarini sonlar bilan yozishni o‘rgatish judayam yaxshi natija beradi. Bolalar uchun albtta bundanda yaxshi usullar bor

va bu usullar ularni eslab qolish qobilyatini oshirishda yordam beradi.

Xulosa:

O‘tkazilgan ilmiy ishlar va amaliyotlar shu xulosani beradiki , inson birinchi navbatda e`tiborini bir joyga yig‘a olishi so‘ngra ovoz chiqarib o‘qish va yana turlicha usullarni qo‘llash foydalidir.

Har bir yetuk shaxs kamida 2 yoki 3 ta chet tilini bilishi u insonning fikrlash doirasini kengaytirishga va jamiyat orasidagi shaxslardan bir pog‘ona yuqorida turishiga va kelajakda huddi o‘zidek bir komil insonni tarbiyalashda yordam berishiga ishonch hosil qilishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Bekmaratova U.B.,,Ingliz tilini o‘qitishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish’’//Toshkent 2012

2.O‘z ME 1.Birinchi jild.Toshkent,2000-yil .

3.2020 ,,Yangi O‘zbekiston’’ va ,, Pravda Vostoka’’ gazetalari tahririyati DUK

4.2016.04;2018-yil ,,Xalq so’zi ‘’ va ,,Navodnoye Slava ‘’ gazetalari tahririyati.

5.Tojiboyeva S .J. (2020).TEACHING INTERCULTURAL COMMUNICATION IN ENGLISH.

CHET TILLARINI ÕQITISHNING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI

M.Q. Abdullayeva. Qarshi davlat universiteti

Hozirgi kunda yurtimizda ilm-fan sohasida sezirarli darajada õzgarishlar yuz berayapdi,ayniqsa chet tillarini õrganish sohasida.Õzbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti Islom Abduğaniyevich Karimovning 2012-yilning 13- dekabrdagi PQ 1875-sonli qarori qabul qilingandan sõng ustuvorda chet tillarni õrganishga bõlgan e’tibor yanada kuchaydi.Yurtimizda chet tillarini õqitishda yangicha bosqich,yangicha davr boshlandi.Chet tillari darslarning õqitilishi jarayonida ilğor pedagogik texnologiyalar,interfaol,innovatsion usullardan,kommunikativ-axborot usullaridan foydalanilmoqda. Aslida chet tili biz uchun boshqa bir mamlakat tili hisoblanadi.Respublikamizda hozirgi kunda Ğarbiy Yevropa tillari(ingliz,nemis ,fransuz,ispan kabi tillar)va Sharq (arab,turk,fors,xitoy,hind) tillari õqitilib kelinmoqda.Ona tili tabiiy vaziyatda ,chet tili esa sun’iy muhitda õrgatiladi.Chet tillarini samarali õqitish uchun uning metodikasini bilish taqazo etiladi.Metodikaning asosiy tushunchalari “usul”,”prinsip” kabilardir. Õrta umumiy ta’lim maktablarida chet tili õqitish metodikasi fani erishgan yutuqlarni egallash talabalar uchun quyidagi imkoniyatlarni yaratadi:

1.Kelajak kasbiy faoliyatlariga puxta nazariy zamin tayyorlaydi;

2.Ta’limning zamonaviy metodlari,tashkiliy formalari va vositalari bilan atroflicha tanishtiradi;

3.Talabalarning olgan metodik bilimlarini amaliyotda samarali qõllash olishlari uchun kõnikma va malakalar hosil qiladi;

4.Barcha fanlardan õzlashtirgan nazariy bilim va amaliy malakalarini maktab ta’lim-tarbiya ishida ijodiy tatbiq etishga kõmaklashadi.

Metodika universitetda berilgan bilimlar yiğindisi bilan maktab tajribasi orasidagi “kõprik” vazifasini bajaradi.Leksiya va amaliy mashğulotlarda chet tili õqitish qonuniyatlari bayon etiladi,metodika faniga ta’limning xususiy nazariyasi sifatida qarash shakllantiriladi.Har qanday maqsad ehtiyoj tufayli paydo bõladi.Maqsad tushunchasi rejalashtirilgan natija va tasavvurdagi oqibat ma’nosini anglatadi.Chet tili maktabda nima uchun õqitiladi,degan savolga chet tilini amaliy,ta’limiy,tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlarda õrganidilar,deb javob qaytarish mumkin.Ta’lim maqsadlari ijtimoiy buyurtma-topshiriq bõlib,har tomonlama rivojlangan shaxsni shakllantirish va tarbiyalashga qaratiladi.

Chet tili ta’limi maqsadlari metodik adabiyotlarda keng muhokama qilinib keladi.Õtgan asr oltmishinchi yillarining ikkinchi yarimiga kelib,amaliy,ta’limiy va tarbiyaviy maqsad terminlari davr talabiga muvofiq sharhlab berildi[1,31]. Saksoninchi yillarda uchala nomga qõshimcha rivojlantiruvchi maqsad[2,2]termini paydo bõldi. Ushbu tushuncha- terminning chuqur tahlili sermahsul metodistlardan prof. Galina Vladimirovna Ragova[3,34] tomonidan amalga oshirilgan. Chet tili õqitish 4 ta maqsadni õz ichiga oladi. Bular:

1.Amaliy maqsad-chet tilda nutq muloqoti yuritish (gapirish,tinglab tushunish,õqish va yozuv)ni õrgatish hisoblanadi.Chet tilini amaliy egallash,õzgalar nutqini tushunish va õz fikrini bayon etish degan tõgri umumiy ta’riflar ham bor.Õzi chet til metodikasidagi

“maqsad” termini quyidagicha izohlanishi mumkin.Nutq faoliyatining turi maqsad maqomini olish uchun,albatta,birinchidan,uning õz ta’lim mazmuni (nutq mavzuyi,nutq malakalari,til materiali)mavjudligi,ikkinchidan,til materiali dastavval shu nutq faoliyati turida õrganilishi,uchinchidan,unga vaqt va kuchning asosiy qismi sarflanishi va,nihoyatda,tõrtinchidan,mashqlarning aksariyati ushbu nutq faoliyati turida bajarilishi kerak.Masalan:gapirish birinchi pallada maxsus mavzu va til materiali asosida õrgatiladi,yuqori sinflarda esa õqish aynan mana shunday mavqega molik.Boshlanğich davrning gapirish mavzulari va leksik-grammatik materiali õqish va yozuvda takrorlanadi,mustahkamlanadi.Chet tilni egallash (amaliy maqsadga erishish) ta’limiy va tarbiyaviy maqsadlarni hal etish bobida asos va sharoit vazifasini õtaydi.Qisqasi,chet tilni amaliy maqsadda õrganish ushbu til yordamida kerakli axborot olish va boshqalarga yetkazish ma’nosini anglatadi.Olingan axborot (informatsiya) õquvchilar bilim saviyasini oshirish (ta’limiy maqsad) va ularni tarbiyalash ishiga xizmat qiladi.

2.Ta’limiy maqsad-xotira va mantiqiy tafakkurni rivojlantirish; õquvchilar bilim saviyasi va umumiy madaniyatini yuksaltirish.Chet til õrganish natijasi ham,jarayoni ham umumta’limiy ahamiyatga molikdir.Chunki chet til vositasida olinadigan axborotdan tashqari,uni õrganish jarayonida qõllaniladigan til birliklari tafakkurni rivojlantiradi,nutqning ifoda planidagi yangi hodisalar õquvchilar uchun qiziqarli bõlib,ularning til tajribasini boyitadi.Chet tiliga oid ta’limiy material hajmi torligiga qaramay, yaratilgan sharoitga yarasha ish tutiladi.Ta’limiy maqsadda chet til õrganishning õquvchi mantiqiy tafakkurini baholi qudrat rivojlantirishga va xotirasini yaxshilashga hamda ularning bilim saviyasi va umumiy madaniyatini kõtarishga nafi tegadi.Chet tilini õrganish tufayli õquvchilar til hodisalarini nutqdagi real faktlar sifatida õzlashtiradilar.Chet tilni nutq muloqot darajasida õrgana borib,õquvchi til vositalari (ifoda plani)zaminida uning mazmun planini fahmlab oladilar.Nutq faoliyati yuritish,natijada axborot almashish,chet til õquv predmetini õqitish oldida turadigan kõp qirrali yagona maqsaddir.Lekin nutqda qõllaniladigan materialning õzi kõnikmaga aylanuvchi bilim undan hosil bõladigan mavhumot shaklidagi bilim esa sodda-sodda qoidalar (mavhumotlar) tizmasidir.Bir sõz bilan,qoidalar,til birliklari va matnlar mazmunini bilish chet tilda umumta’lim olish hisoblanadi.Umumta’lim chet tilni amaliy bilish choğida rõyobga chiqadi.Amaliy bilish tarbiya berish uchun ham asosiy yõl sanaladi.

3.Tarbiyaviy maqsad-ğoyaviy-siyosi tarbiya,aqliy mehnat malakalarini hosil qilish; õquvchilarning bilish faoliyatini oshirish.Ta’lim va tarbiyaning hamjihatligi qadim zamonlardan beri kishilarga ma’lum.Ta’lim õchoqlari,sõzsiz,tarbiyaga ham e’tiborini qaratadi.Tarbiyalash yoki tarbiyalanish tushunchasini ta’limsiz tasavvur etib bõlmaydi.Shuning uchun ham chet tilni õqitishda 4 maqsadan biri tarbiya berishdir.Metodika fanida chet til õqitishning tarbiyaviy maqsadi qisqacha ta’rif bilan yoritilgan.Tarbiyaviy maqsad asosan ikki yõl bilan rõyobga chiqariladi.Birinchisi,õquvchilarning bevosita chet tili õrganish jarayonida tarbiyalanishi kuzatiladi.Masalan:chet til darslari boshlangan sentabr oyining dastlabki kunlarida

õquvchilarning aksariyati õrganilayotgan tilni tinglab tushunishadi va õzlari gapirishga zõr ishtiyoq bilan kirishadilar.Chet til õqitishda tarbiyaviy maqsadni amalga oshirishning ikkinchi metodik usuli ushbu til materialida tarbiyaviy jihatlardan foydalanish hisoblanadi.Masalan :õzaro chet tilda oğzaki muloqot choğida suhbatdoshiga hurmat bilan qarash ,odob doirasiga kiradigan sõz va iboralarni qõllash,birgalashib she’rlar dialoglar aytish kabi xatti-harakatlar madaniyat sari yetaklaydi.Chet tili audimatni va grafik matnidan olinadigan yangilik-ma’lumotlar tarbiyalashning tengi yõq metodik vositalaridan biridir.

4.Rivojlantiruvchi maqsad-õquvchi shaxsining aqliy,hissiy va motivation(ichki turtki) xususiyatlarini rivojlantirish.Chet til õqitishda õquvchilarning aqliy saviyasini quyidan yuqoriga kõtarish,aqliy jihatdan ravnaq toptirish,mazmunan yuksaltirish,ijobiy ma’noda aqlan yuksaltirishni ta’minlash ushbu maqsadning rõyobga chiqishida kõzlanadigan birinchi maqsaddir. Chet til metodikasi ilmida õquvchilarning ichki kechinmalari (emotsiylari) va ichki turtkisi(motivatsiyasi)ni rõyobga chiqarish muhim ekanligi nazariy asoslab berilgan. Oqibatda chet til õrganish motivatsiyasi oshadi,õquv jarayoni tõlaqonli mazmun kasb etadi. Shularning barchasi chet til dasturida rivojlantiruvchi maqsadning õrin egallashiga sabab bõldi. Chet til ta’limida tashkiliy õquv kõnikma va malakalari õquv- metodik vositalar asosida hosil qilinadi.Tashkiliy ,aqliy,axborot va muloqot õquv kõnikma va malakalarni shakllantirish yõli bilan õquvchilarni faollashtirishga erishiladi.Rivojlantiruvchi maqsad nutqiy harakatlar tufayligina yuzaga chiqadi.Uning ta’limiy maqsaddan jiddiy farqi shundaki, õquv ma’lumotlari olish bilan ta’lim fikran boğlanadi,ma’lumotning mazmuni va uni olish jarayoni esa kõnikma va malakalarni rivojlantiruvchi maqsad doirasiga kiradi.Ta’lim rivojlanishing tarkibiy qismi sanaladi.Chet til õrgatishning ta’limiy,amaliy va tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlari uzviy boğliqdir.

Chet til õqitish metodlari tarixan 4 guruhga birlashtirilib,ularning nomlariga “tarjima”, “tõğri” ,”qiyosiy”(yoki ongli-qiyosiy),”aralash” sõzlarini aniqlovchi sifatida qõshib aytiladi. Shunday qilib,chet til õqitishning bir necha asrlik tarixidagi barcha metodlar ushbu tõrt toifaga tõplangan.

1.Tarjima metodi- ushbu metodning nomi,odatda tarjima metodlari, terminlari bilan kõplikda ishlatiladi.Nomiga kõra ma’nosini bilib olish qiyin emas: chet til materiali ona tiliga tarjima qiladi.Asosan ular ikki kõrinishda bõlib, grammatika-tarjima va matn-tarjima metodlari nomi bilan yuritiladi. Grammatika-tarjima metodi nuqtayi nazaridan chet til umumta'limiy maqsadda o'rganilgan. Grammatik mashqlar til o'rganuvchining mantiqiy tafakkurini o'stirish maqsadida bajarilgan.Metodning asosiy prinsiplari quyidagilar:

1. Til o'rgatish yozma nutqqa asoslangan.

2. O'rganish predmeti qilib grammatika olingan, leksika ham unga tobe ravishda tanlangan. Grammatik mashqlar bajarish asosiy ish usuli bo'lgan.

3. Avvalan, grammatik qoida yod olingan, qoidalar asosida gaplar tuzish tavsiya qilingan.

4. Grammatik shakl va so'zlarning ma'nosi so'zma-so'z tarjima vositasida ochib berilgan.

Matn-tarjima metodining maqsadi ham umumiy ta'lim berishga qaratilgan, lekin e'tibor grammatika-tarjima metodidagidek mantiqiy tafakkurni o'stirish emas balki til o'rganuvchining umuman aqliy rivojiga qaratilgan.Matn-tarjima metodining prinsiplari quyidagilar:

1.Yozma nutq asosida chet til o'qitish.

2. Bog'lanma va ko'pincha asl nusxadagi matn olish.

3. Matnni o'rganishda analiz qilishga ko'p kuch va vaqt sarflash.

4. Sõz va grammatik shakl ma'nosini ochish usuli - tarjimadir.

2.Tarjimasiz metod-mazkur metodning turli ko'rinishlari tarixdan ma'lum. Ularni ikki yirik guruhga ajratish mumkin: tabiiy va to'g'ri metodlar.Tõgri metod-nomining kelib chiqishiga asosiy sabab shundan iboratki,tõgri metodda õqitish choğida ona tilini chetlab õtib,chet tili sõzi bilan predmet orasida bevosita assosiatsiya(fikran boğlanish)õrnatishga urinib kõrilgan.Chet til grammatikasini õrgatishda ham xuddi shunday metodik yõl tutilgan:grammatik ma’no bilan forma õrtasida bevosita boğlanish hosil qilmoqchi bõlishgan.Ushbu metoddan kõzlangan asosiy maqsad chet tilni amaliy jihatdan õrgatishdir.Tõgri metodning zamonaviy kõrinishlaridan ikkitasi -audiolingval va audiovizual metodlari kõp tarqalgan.Audiolingval metodning asoschilari (mashhur Amerika metodistlari Charlz Karpenter Friz va Robert Lado) fikrlariga binoan chet til amaliy va ta’limiy maqsadda õrganiladi.Audiolingval metodning ayrim qonuniyatlari bizning sharoitga tõgri kelmasligi maktab darsliklarida hisobga olingan.Masalan:nutq namunalari ong ishtirokisiz va hech qanday qoidalar berilmasdan õrgatilishi undagi ğayriilmiy kõrsatmalardir.Audiolingval metoddan qator jihatlari bilan faqrlanuvchi audiovizual metod namoyandlari P.Guberina va P.Rivan) metodik kõrsatmalariga binoan leksik materialni tanlashga alohida e’tibor berilgan.

3.Aralash metod- ikkita katta metodik yõnalishlarning ilmiy-amaliy tomonlarini õziga singdirib olgandir.Aralash metodlar XIX asr oxiri -XX asr boshlarida tarjima va tõgri metodlar qorishmasi sifatida vujudga kelgan.Aralash metodning yana bir boshqacha kõrinishi tõgri va qiyosiy metodlar prinsiplarining qorishmasi sifatida vujudga keldi.Aralash metodning har ikkala yõnalishi ham õzining maxsus prinsiplariga ega emas,muayyan metodlar kõproq yon bosishi, shu bilan birga ikki metod qonun-qoidalari omuxta tarzda qõllanilishi ularga xos xususiyatlardandir.

4.Qiyosiy metod-tõliq nomi “ongli-qiyosiy metod”dir .Bu metodning asoschisi akad. L.V.Shcherba bõlib, metodni hozirgi chet til õqitish jarayoniga moslashtirgan,metod asoschisi ishini samarali davom ettirgan Pedagogika fanlar akademiyasi muxbir a’zosi prof. I.V.Rahmonov bõlgan.Ongli -qiyosiy metod bõyicha chet til õrgatilganda didaktik onglilik prinsipi asosida ish kõra boshlagan.Ushbu metodning qiyoslash,ona tiliga tayanib ish kõrish ,nutq faoliyati turlarini bir yõla õrgatish singari xususiy prinsiplari õtgan va keng kõlamda amaliy qõllaniladi.Chet til õqitishning amaliy ,ta’limiy va tarbiyaviy maqsadlari ilmiy asoslab berilgan.Bu esa metodning birinchi kõrinishi bõlgan.Ongli-

qiyosiy metodning birinchi kõrinishida qoida asosida mashqlar bajarilar edi, zamonaviy kõrinishida mashqlar jarayonida amaliy ruhdagi qoida umumlashtiriladi. Õquvchi qiyoslash,qoidani yodlash va aytib berish,nazariy bilimlar yiğish bilan maxsus shuğullanmaydi.

Xulosa qilib aytganda chet til õrganish kõp qirrali ta’limot bõlib, bu jarayonda inson murakkab psixologik õzgarishlarni boshdan kechiradi. Chet til õrgatishda uning metodikasiga oid bilimlarga ega bõlishni taqozo etadi. Metodika va texnologiyalar chet til õrganish jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi.Shu orqali biror bir chet tilni mukammal tarzda õrganish mumkin.Shuning uchun,avvalo chet til metodikasini õrganish zarurdir.Va albatta, chet tilini õrganish jarayonida ilğor pedagogik texnologiyalarni,interfaol usullardan foydalanish kerak bõladi.Chet tilini õrganishga ehtiyoj yuqori bõlgan bir davrda biz õrganish davomida albatta shunday metodlardan va zamonaviy texnologiyalardan foydalanishimiz kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1.Jalolov Jamol “Chet tili õqitish metodikasi” ,”Õqituvchi” nashriyot matbuot uyi, Toshkent 2012

2. Общая методика обучения иностранным языкам в средней школе / Под ред.И.В

Рахманова, А.А.Миролюбова, В.С Цемлин.—М.:Просвешение ,1967.

3.Программы средней школы. Иностранные языки.—М.:Просвещение,1983.

4.Г.В.Рагова, И.Н.Верещагина.Методика обучения английской -му языку на начальном етапе в средней школе.—М.: Просвещение,1988.

XORIJIY TILLARNI MUSTAQIL O‘RGANISHNING SAMARALI USULLARI

S.Adhamjanova, U.Soliyev, Namangan davlat chet tillari instituti

Ma’lumki, til o‘rganish kundan-kunga rivojlanib borayotgan zamon bilan hamnafas yashash uchun muhim omillardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, texnologiya va ilm-fanning yuksak darajada taraqqiy etayotgani, hattoki kunlik hayotimizda ham til o‘rganishga bo‘lgan ehtiyojni keltirib chiqarmoqda. Bundan tashqari, ko‘plab kasb egalari, jumladan, ish yuzasidan chet davlatlariga tashrif buyuradigan tadbirkorlar, ijtimoiy tarmoqlarga aloqador sohalar, xorijiy davlatlar bilan hamkorlikda ishlaydigan va shu kabi bir qator insonlarda til o‘rganish zaruriyati kuzatiladi. Nafaqat biror bir kasb yuzasidan, balki shunchaki maroqli vaqt o‘tkazish yoki bilim olish uchun ham bizda chet tili ko‘nikmalari bo‘lishki darkor. Misol uchun, qo‘shiqlar yoki filmlar hayotimizda muhim ahamiyat kasb etadi. Biroq ba’zan ularni xorijiy tilda ko‘rishga majbur bo‘lamiz. Yokida, o‘zimiz uchun kerakli bo‘lgan biror ma’lumotni qidirganimizda, bir tilda unchalik ko‘p manbalar chiqmasligi tabiiy holat. Shu sababdan ham biz ko‘proq va aniqroq tushuncha olish maqsadida boshqa tillarga yuzlanamiz. Ba’zi insonlar esa o‘zlriga sevimli mashg‘ulot sifatida til o‘rganishni, chet tilida gapirishni yoki kitoblar o‘qishni afzal ko‘radilar.Ammo hamisha ham istagan natijalarga erisha olmaydilar. Bunga munosib ustoz topa olmaslik,

moliyaviy ahvol ajrata olmaslik yoki shunchaki qanday bajarishni bilmaslik sabab bo‘lishi mumkin. Shu sababdan ham ko‘plab til o‘rganishga qiziquvchilarning ishtiyoqlari vaqt o‘tishi bilan kamayib borishi kuzatilgan holatlardan biri desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Til o‘rganishning oson kechishi insondagi kuchli xohish-istakka bog‘liqdir. Ya’ni inson qanchalik ko‘p xohlasa, bu maqsaddan voz kechishi shunchalik qiyin bo‘ladi va bu yo‘lda bardavom tura oladi. Shuningdek, har bir narsa vaqt talab qilganidek, ushbu ilm ham o‘quvchidan sabr va matonat talab qiladi. Demakki, til o‘rganish yo‘lidagi birinchi qadamimiz ruhiy tayyorgarlik ekan. Biz bu yo‘lga ruhan tayyormiz, xo‘sh keyin nima qilishimiz kerak? Ingliz tilida “TIME MANAGEMENT” degan ibora bo‘lib, u vaqtni to‘g‘ri nazorat qilishga nisbatan qo‘llaniladi. Biz qiladigan eng kata xato ham mana shunda. Boshlang‘ich qiziqishimiz ta’sirida vaqtimizning katta qismini sarflab yuboramiz, misol uchun, bir kunda 3-4 soat (ba’zida undan ham ko‘proq). Shu tarzda uzog‘I ikki haftaga ham yetib bora olmaymiz. Bu holatta miyamizni qattiq toliqtirib qo‘yamiz va u o‘rganish jarayonini to‘xtovsiz rad eta boshlaydi va til o‘rganish siz uchun emasligi haqida o‘ylay boshlaysiz. Anglatadiki, agar narvonning zinalaridan birma-bir chiqmasak, manzilimizga yetolmay yiqilib tushishimiz mumkin. Biz qiladigan ikkinchi masala kunimizning munosib qismidan til o‘rganish uchun ajratib olishdan iborat ya’ni muntazam davom ettira oladigan va miyamiga og‘irlik qilmaydigan ma’lum bir vaqt nazarda tutilmoqda. Masalan, har kuni yarim soatdan ajratilgan taqdirda ham natijaga erishish, bir kunda 2-3 soatdan vaqt sarflashga qaramasdan, bir kun shug‘ullanib, erttasi kun shug‘ullanmay qo‘yishdan ko‘ra foydaliroqdir. Keyingi qadam resurslar bilan aloqador. Albatta, har birimiz zamonaviy texnologiyalar va ijtimoiy tarmoqlarga egamiz. Siz behuda narsalar uchun foydalanadigan dasturlar katta yutuqlaringiz sababchi bo‘lishi mumkunkigi bilarmidingiz ? “GOOGLE” ga o‘rganmoqchi bo‘lgan tilingiz uchun kitob so‘rab murojaat qilishingiz mumkin. Misol qilib turk tilini olsak, “Turk tilini 0 dan o‘rganish uchun kitoblar” deb yozilsa u yerda bir qancha kitoblar ro‘yxati chiqadi. Biz ularni bir qator ko‘zdan kechgach, o‘zimizga eng ma’qul kelganini tanlab olamiz. Turk tilidan “Yedi iklim”, “Yeni Hitit” kabi bir qancha kitoblar chiqadi va “Yedi iklim” kitobini tanlab oldik deylik, “Ustozsiz bu kitobni qanday o‘rganish mumkun?” degan hammada ham tug‘ilishi mumkin. Kitobni ochib mundarijasidagi mavzularni birma-bir “YOU TUBE” ga kiritamiz va shu mavzuga doir bir necha videolar chiqadi. Ularni tomosha qilib, tushuninib olgandan so‘ng kitobdagi mashqlarni bajaramiz va yangi so‘zlarni yodlaymiz. shuningdek, ular ishtirokida gaplar tuzib qo‘yish hech ham zarar qimaydi. Ustozlar uchun mo‘ljallangan kitob orqali ishlagan mashqlarimizni tekshirib olish yodingizdan chiqmasin! Bilmaydigan so‘zlarimiz bir talay chiqadi, bu fakt, boshida tarjimon dasturlardan foydalanamiz. Eng mashhuri “GOOGLE TRANSLATOR” bo‘lib, xohlagan tilingizga tarjima qilishingiz mumkin. “Yedi Iklim” kitobidagi birinchi mavzu salomlashuv bo‘lib unda “MERHABA” degan so‘z chiqadi va bu so‘zning ma’nosini bilmaymiz deylik, tarjima qilib “Salom” ekanligini bilib olishimiz mumkin. Albatta kunlik o‘rganganlarimizni har kuni daftarga yozib, takrorlab borishimiz darkor. Agar

muntazam ravishda takrorlab, bajarib, qunt bilan o‘rganilmasa, sarflanayotgan vaqt behuda ketmoqda demaktir. Shuningdek, bir mavzuni o‘rganib, yangi so‘zlarni yodlab, o‘zlashtirib olmaguncha boshqa mavzularga o‘tib ketish, keyinchalik, samaradorlikni kamayishiga, hamda tushunmovchiliklar yuzaga kelishiga olib keladi. Shuning uchun me’yorlarga amal qilish juda muhimdir. Shu tarzda “GOOGLE” “YOU TUBE” , tarjimon dasturlar va kitob yordamida barcha barcha vazifalarnio‘z vaqtida bajarsak, ko‘zlagan maqsadimizga erishamiz desam yanglishmagan bo‘laman.

Ikkinchi usulga to‘xtalsam, deyarli barcha poliglotlar grammatikadan ko‘ra ko‘proq og‘zaki nutq va talaffuzga e’tibor qaratadilar. Ma’lumot o‘rnida, 3 tadan ko‘proq tilni ona tili kabi biladigan tilshunoslarga poliglot deyiladi. Shu jumaladan men ham, nafaqat o‘z hayotimda, balki bir qancha o‘quvchilarimning o‘rganish jarayonlarida ham tajribadano‘tkazdim. Ushbu usulda “TALAFFUZ” eng asosiy o‘rinni egallaydi. Bunda alifbodagi harflarni yaxshilab o‘rganib, muntazam o‘sha harflar qatnashgan so‘zlarni o‘qish orqali tilimizni kelishtiramiz. “Til o‘rgatishga shunday yondashilganki, toliblar eng qisqa zamonda arab va boshqa tillarda so‘zlashishni o‘rganib olishi mumkin. Ustozlar talabalarga, avvalo, to‘g‘ri o‘qishni o‘rgatib, keyin qo‘llariga o‘sha tildagi kitoblarni berib, o‘z xonalarida namozdan bo‘shagan vaqtlarida tinmay ovoz chiqarib o‘qishni buyurarkan. Natijada bolaning nutqi va eshitishi o‘sha tilga moslasharkan.” [11]

Keyingi bosqich ikkiga bo‘linadi :

1) Tinglab talaffuzlarini o‘rganib olish ;

2) O‘qib talaffuzga taqlid qilish ;

Avvalo, hamisha o‘sha tildagi diolog, qo‘shiq, she’r, film, multfilm, hujjatli film yoki habarlarni doimiy ravishda eshitamiz. E’tibor bering, gap uni tushunish haqida ketmayapti, faqatgina tinglaymiz va so‘zlarning talaffuzlarini qulog‘imizga singdiramiz. Qayerda ko‘rgansiz chaqaloq siz aytgan barcha so‘zlaringizni anglab olganini, shunchaki shu so‘zni eshitaverib yodlab oladi va taqlid qilib siz ishlatgan holatlarda takrorlaydi (huddi to‘ti kabi, u ham yodlab olgan so‘zlarini foydalana oladi xolos). Bu holatni hamisha qilib, o‘sha tildagi atmosfera yaratib olishimiz kerak. Ikkinchidan, eshitib talaffuzini o‘rgangan so‘zlarimizni, endi o‘zimiz o‘qiymiz. Baland ovozda o‘qish talab qilinadiki, qulog‘imiz so‘zni xato yoki tog‘ri talaffuz qilayotganimizni anglasin. Keyinchalik katta-katta romanlar o‘qish tafsiya etiladi. Bu orada siz takrorlangan so‘zlarni yodlab olasiz va bemalol bir-biriga qo‘shib keta olasiz. Bora-bora gap nima haqida ketayotgani ham tushunarli bo‘la boshlaydi. Shu bilan birga bu usul, muloqotingiz jarayonida to‘xtab yoki duduqlanib qolmasingizni kafolatlaydi. Shuning uchun ham bu usulni kunlik odatga aylantirish maqsadga muvofiqdir. Bu bosqich eng kamida biro oy, yo‘qsa uch oygacha bo‘lgan muddat davomida davomiy bajarilsa, kelasi bosqichlar juda oson kechadi. Ammo shu muddat ichida hech qanday grammatik qoida o‘rganmaslik va vaqt sarflab lug‘at yodlamaslik darkor. Aks holda diqqat talaffuzdan chalg‘ib qoladi.

[11] A.Xolmuhammad o‘g‘li. Savdogarlar ustozi 2.Toshkent. 2023. P. 34.

Uchinchi oydan so‘zlarni yodlab olib, kichik-kichik dialoglar yoki manaloglar tuzish boshlanadi. Endi o‘zimizni o‘sha tilda fikrlashga majburlaymiz. Nega aynan uchinchi oydan degan savolga shunday javob bergan bo‘lardim, chunki endi tilimiz va qulog‘imiz bu tilni o‘rganishga tayyor va ko‘nikib bo‘lgan. Bu tayyorlik sizni yangi so‘zlarni osongina yodlab olishga va muloqotda qo‘llay olishga sharoit yaratib beradi. Biroz vaqt o‘tgach, kichik dialoglar o‘z o‘rnini ertaklarga almashtirib beradi. Ertaklarni o‘qib bo‘lgach, tushunganimizni uchinchi shaxs nomidan gapirib beramiz. Bunda birovning tilidan aytilgan gaplarni o‘z tilimizdagiga aylantirishga urg‘u qaratilgan bo‘lib, birinchi miya ma’lumotlarniz sintez uchun yanada ko‘poq harakat qilsa, boshqa tomondan qo‘shimchalarni to‘g‘ri foydalanishni o‘rganib olamiz. Keyinchalik. bu mashqni serial, film, qo‘shiq, ko‘rsatuvlar bilan davom ettirish mumkin. Ushbu holda yangiz so‘zlar xotiramizga avtomatik ravishda o‘rnashib qoladi va hech qanday qiyinchiliklarsiz so‘zlashuvda foydalanish odat bo‘lib qoladi. Bunga ishonchingiz komil bo‘lsin, men ham deyarli turkcha so‘zlarni lug‘at sifatida yodlamaganman. O‘sha tildagi ma’lumotlarni muntazam qabul qilib olarkanmiz, xorijiy tilni odatiy holga keltirib olsak, “AVTOMATIK TARJIMA” hosil bo‘ladi. Siz endi shunchaki mazmunga qarab tarjima qilib keta olasiz. Bu safar notanish so‘zlarni o‘qishda va anglashda avvalgidek qiyinchiliklarga duch kelinmaydi. Ana endi bemalol o‘sha tilning o‘zida xohlaganingizcha Grammatik qoidalarni o‘rganishingiz mumkin. Bu yo‘ldan to‘g‘ri foydalanila olinsa 6 oyda yaxshi natijalarga erishish mumkin.

Yana bir usuli, bu o‘yinlar va bellashuvlar orqali o‘rganishdir. Qattiq o‘qish talabani charchatib, zerktirib, o‘rganishdan sovutib qo‘yishi turgan gap, shuning uchun, qadrli ustozlar, darslaringizni turli o‘yinlar bilan bezatib, har safar yangicha sarguzashtlarga boy qilib o‘tsangiz, o‘quvchilaringiz darsga ishtiyoqmand bo’ladilar. Jumladan, talaffuzni o‘rganib bo‘lgandan keyin, biror matnni taymerga qo‘yib tez va ravon o‘qishdir. Bir daqiqada 100 tadan ko‘proq so‘z o‘qish kerak bo‘ladi. Bu o‘yin vhet tilida sekin gapirishni oldini olish bilan bir qatorda, miyamizda xorojiy so‘zlarni tezlik bilan qabul qilishiga o‘rgatadi, shuningdek, qulog‘imizning sezgirlik darajasi ortadi. Bu usulni ustozlarga tafsiya qilaman, bemalol o‘quvchilaringizga til o‘rgatishda foydalanishingiz mumkin. Bu o‘yin bilan samaradorlik kamida 20-30% ga ortishiga aminman.

Shuningdek, yana 2 ta o‘yinni maslahat beraman, ammo buning uchun o‘quvchilarda biroz til ko‘nikmasi bo‘lmog‘i darkor. Birinchisi , do‘skaga biror bir surat ilib qo‘yib, talabalardan nimani ko‘rayotganini gapirib berishini so‘rashdan iborat. Misol qilib tabiat manzarasini olaylik, daraxtlar , maysalar, quyosh charaqlashi, qushlarning sayrashi-yu bolalarning o‘yin-kulgulari, bularni gap holatifa ifodalab berish so‘raladi. Bolalar o‘zlarini ko‘rsatib qo‘yish maqsadida, birov aytgan gapga o‘xshatmaslikka harakat qilib bir-biridan farqli fikrlar bildiradilar. Bu o‘yin nafaqat ularni fikrlashga o‘rgatadi, balki bir-birlarining izohlarini eshitish jarayonida xilma-xil idealarga ega bo‘lishga katta yordam beradi. Ikkinchisi esa biroz boshqacharoq bo‘lib, yanada qiziqarliroqdir. Har bir o‘quvchidan 1 ta fe’l, 1 ta ot, 1 ta sifat so‘z turkumiga mansub

so‘zlarni kichkina qog‘ozchalarga yozib berish talab qilinadi. Keyin barcha qog‘ozchalar o‘qituvchi stoli ustiga yopiq holatda teriladi. O‘quvchi ularning ichidan 3 ta qog‘ozchani ko‘zlarini yumib tanlaydilar va o‘sha so‘zlar ishtirokida ertak tuzib, davom ettirishi lozim. Keyingi o‘quvchi ham huddi shunday qilib 3 ta so‘z tanlab , birinchi ishtirokchi tuzgan gapga ulab ketishi kerak bo‘ladi. Bunda mazmun unchalik muhim bo‘lmasada, so‘zlarni grammatik jihatdan to‘g‘ri qo‘llash va 3 ta har xil so‘zdan bitta gap hosil qila olish kerak.

Xulosa qilib aytganda, birozgiba qat’iyat bilan, ozgina sabr va davomiylik bilan barcha sohalardagi ilmlarni mustaqil o‘rgana olamiz. Tillar hayotimizning asosiy qismiga aylangan bir davrda vaqtdan va mavjud resurslardan to‘g‘ri foydalanib ko‘proq til o‘rganish har bir insonga yorqin kelajak bunyd etish uchun poydevor bo‘ladi.

TINGLASHNI MULTFILM ORQALI O‘RGATISH

Shamshidinova Gulmira Ibroximjonovna
Namangan davlat chet tillar instituti, 1-bosqich magistranti
Email: gulishamshidinova1987@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada tinglab tushunish kompetensiyasini audiovizual ma’lumot manbalari orqali o‘quvchilar e’tiborini darsga jalb qilishga, tinglash qobiliyatini rivojlantirishda “Zootopiya” multfilmi vosita sifatida tahlil etilgan. Maqola umumiy o‘rta ta’lim maktablarining boshlang‘ich sinf chet til o‘qituvchilari uchun tavsiya etilgan.

Kalit so‘zlar: Audiovizual ma’lumot manbalari, audio va videofilmlar, “tinglash” va “tinglab tushunish”, frazeologik birliklar va idiomatik iboralar, multfilm, animatsion film.

O‘quvchilar, nutq va nutqdan tashqari xatti-harakatlar qoidalarini o‘zlashtiradi. Nutq faoliyatining asoslaridan biri tinglashdir. Keling, tinglash jarayoni nimani o‘z ichiga oladi va o‘quvchilar chet tildagi nutqni idrok etishda qanday qiyinchiliklarga duch kelishlarini ko‘rib chiqamiz.

Tinglash atamasi umumiy ma’noda quloqdan nutqni idrok etish va tushunish jarayonini anglatadi. Tinglash, tushunib tinglash yoki eshitish orqali nutqni tushunishdir [Passov 1989: 183]. Ta’rifdan ko‘rinib turibdiki, “tinglash” va “tinglab tushunish” tushunchalari sinonim emas. Agar tinglash faqat o‘lchovni akustik idrok etish bo‘lsa, unda tinglash tovushli nutqni idrok etishning yanada murakkab jarayoni bo‘lib, u tinglashdan tashqari eshitishni, shuningdek, quloq orqali qabul qilinadigan ma’lumotni tushunish va izohlashni ham o‘z ichiga oladi [Filatov 2004: 238]. Ingliz tilida esa tinglash atamasi amalda qo‘llanilmaydi: xorijiy metodologlarning fikriga ko‘ra, “tinglab tushunish” tushunchasi nutq faoliyatining ushbu mustaqil turining mohiyatini aniq ifodalaydi [Solovova 2006: 124]. Audio va video materiallar zamonaviy o‘quv-uslubiy majmualarning ko‘pchiligi tarkibiga kirganligi sababli, chet til o‘qituvchilari nutq faoliyatining bu turiga har doim ham yetarlicha e’tibor bermaydilar. Bu ikki sababga bog‘liq. Birinchidan, uzoq vaqt davomida tinglash nutqning qo‘shimcha mahsuloti sifatida qaraldi, mos ravishda sinfda u vaqti-vaqti bilan va haqiqiylikdan juda uzoqda ishlatilgan. Og‘zaki nutqni o‘rgatishda o‘qituvchi nutqqa yetarlicha e’tibor bersa va o‘quvchilar bu ko‘nikmani to‘g‘ri o‘zlashtirsalar, ular nutqni o‘z-o‘zidan tushunishni o‘rganadilar, deb hisoblar edi. Ikkinchidan, ko‘pgina o‘qituvchilar tinglashning

psixologik va lingvistik qiyinchiliklari va ularni qanday yengish kerakligini hali ham yetarli darajada bilishmaydi [Galskova 2006: 161]

"Zootopiya" multfilmi 2016 yilda chiqarilgan, bir qator mamlakatlarda va katta prokatlarda katta muvaffaqiyatga erishgan. Videofilm go‘zal va aqlli hayvonlarning hayoti haqida hikoya qiladi. Zootopia gullab-yashnagan shahar bo‘lib, u yerda o‘txo‘rlar va yirtqichlar birga tinch va totuvlikda yashaydi. Bosh qahramon - quvnoq quyon Judi Xopps. U bolalarni faqat yaxshi ishlar qilishga va har doim haqiqat va adolat bilan harakat qilishga undaydi. Judi politsiyachi bo‘lib ishlaydi va og‘ir va xavfli jinoyatlarni ochishi mumkinligini isbotlashga harakat qiladi.

Zootopia quyidagilardan iborat:

- haqiqiyligi;
- tinglovchilarga hissiy ta’sir;
- zamonaviy til;
-film tarbiyaviy va estetik ahamiyatga ega;
-film syujeti o‘quvchilarning yosh xususiyatlariga mos kelishi;
- filmda hazil elementlari mavjud, jozibali grafikalar ham qiziqish uyg‘otadi.

Tinglashni o‘rgatish bo‘yicha videodarslar tuzilmasida an’anaviy ravishda uch bosqich ajratiladi: namoyishdan oldingi, namoyish qilish, namoyishdan keyingi.

Eslatib o‘tamiz, namoyishdan oldingi bosqichning maqsadi o‘quvchilarni rag‘batlantirish, matnni idrok etishda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan qiyinchiliklarni bartaraf etish va tayyorlashdir.

Namoyishdan oldingi bosqichda biz o‘quvchilarni epizod syujeti bilan tanishtiramiz. Talabalarning videoning taxminiy mazmuni haqidagi bilimlari uni yaxshiroq o‘zlashtirish va tushunishga yordam beradi, deb ishoniladi. Bu, ayniqsa, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun to‘g‘ri keladi. Multfilm bilan birinchi tanishuvda biz o‘quvchilarga bosh qahramonlar haqida gapirib beramiz, ularning xususiyatlari va tavsifini beramiz. O‘qituvchi multfilmni tomosha qilishdan oldin qahramonlarning tasvirlarini chop etsa va ularni ko‘rsatsa foydali bo‘ladi. Ikkinchi qismdan boshlab, o‘qituvchi faqat oldingi bo‘limlarda ko‘rilmagan personajlar haqida gapiradi. Demodan oldingi bosqichda filmni tushunish uchun zarur bo ‘lgan va faol foydalanish uchun mo‘ljallangan lug‘at kiritiladi. Har bir epizodni tomosha qilishdan oldin yangi lug‘at kiritiladi. Frazeologik birliklar va idiomatik iboralarga alohida e’tibor beriladi.

Lug‘at o‘quvchiga inglizcha so‘z va ingliz tilidagi ta’rif orqali ko‘rsatiladi. Bolalar bu so‘z nimani anglatishini taxmin qilishlari kerak. Qiyinchilik bo‘lsa, o‘qituvchi maslahatlar beradi, masalan, kontekstda so‘zning ishlatilishini ko‘rsatadi. Agar ko‘rsatmalardan keyin ham o‘quvchilar so‘zning ma’nosini taxmin qilmasalar, o‘qituvchining o‘zi tarjima qiladi. Talabalar yangi so‘zlarni lug‘atga yozadilar.

Uchinchi qism uchun matndan oldingi mashqlarni ishlab chiqishda lug‘at bilan ishlashning boshqa usulidan foydalandik. O‘quvchilar inglizcha iboralar va ularning o‘zbekcha ekvivalentlarini moslashtirishlari kerak.

Ushbu vazifani ishlab chiqishda biz mavjudlik tamoyilini qo‘llashga harakat qildik: agar biz iboralarni o‘zaro bog‘lashni so‘rasak, ushbu iboraga kiritilgan so‘zlarning kamida bittasi bolaga tanish bo‘lishi mumkin deb taxmin qilinadi.

Turg‘un va idiomatik iboralarni ishlab chiqish uchun biz quyidagi mashqlardan foydalandik:

So‘zlarni moslashtirib, ibora hosil qiling:

Take care - Ehtiyot bo‘ling

Get careful- qayg‘urmoq; o‘zini ehtiyot qilmoq
Go along- bo‘ylab bor
Move to up- yuqoriga harakatlanmoq

Ko‘rib chiqish bosqichida o‘qituvchi o‘quvchilarning epizodda eng ko‘p uchraydigan asosiy grammatik tuzilmalar haqida tushuncha beradi. Masalan, ikkinchi qismni ko‘rishdan oldin ko‘plik yasalish qoidasini, oltinchi qismni ko‘rishdan oldin – sifatlarning qiyoslanish darajasini, sakkizinchisini ko‘rishdan oldin – “bo‘lmoq” bog‘lovchi fe’lini takrorlaymiz.

Ko‘rgazmali bosqichning maqsadi - o‘quvchilar tomonidan film mazmunini tushunish, o‘quvchilarning nutqi va fikrlash faolligini faollashtirish. Namoyish bosqichida o‘quvchilar mashqlarni bajarishlari kerak, shunda filmni tomosha qilish aniq syujetga emas, balki nutqni tushunishga qaratilgan bo‘lishi kerak. Bunday mashqlar sifatida biz quyidagilarni tavsiya qilamiz:

- gaplardagi tushib qolgan so‘zlarni to‘ldiring;
- dialog tuzish uchun qahramonlar satrlarini to‘g‘ri tartibda joylashtirish;

Qahramonning gapi va bu gapga javobni moslang.

Videofilm uchun topshiriqlar kartochkalarda chop etilsa va filmni tomosha qilishdan oldin stollarda talabalarga tarqatilsa yaxshi bo‘ladi. Har bir o‘quvchi uni o‘qiy oladi va u individual sifatida qabul qilinadi. Bu o‘quvchilar topshiriqlarini muvaffaqiyatli bajarishlari uchun yaxshi motivatsiya va yordamdir.

Ingliz tilini o‘rgatishning dastlabki bosqichida videoni kamida 2 marta ko‘rsatish kerak. Agar o‘qituvchi ko‘plab talabalar epizodning ko‘p qismini tushunmaganligini ko‘rsa, siz o‘qituvchining o‘zi sharhlashi uchun ovozi o‘chirilgan holda ko‘rsatishingiz kerak, lekin har doim ingliz tilida, keyin esa parchani yana ko‘rsating.

Namoyishdan keyingi mashqlar o‘quvchilarning matndagi ma’lumotlarni tushunish darajasini, umumiy mazmun yoki tafsilotlarga kirib borish darajasini, shuningdek, eshitgan narsaga munosabatini ifodalash mashqlarini tekshiradi [Maslyko 2004: 289-291]. Namoyishdan keyingi bosqichdagi mashqlar o‘quvchilarning ijodiy nutq faoliyatini tashkil etishga qaratilgan.

O‘quvchilar savollarga javob berishga taklif qilinadi:

- Did Judy like her new room? -Judiga yangi xonasi yoqdimi?
- Are Judy’s neighbours quiet? - Judining qo‘shnilari jimmi?
- How many mammals’ cases do they have? - Ularda nechta sut emizuvchi hayvonlar bor?
- What duty was assigned to the Judy? - Judiga qanday vazifa yuklangan edi?
- Was Judy top of her class in the academy? - Judi akademiyada o‘z sinfida birinchi o‘rinda edimi?

Namoyishdan keyingi mashqlar sifatida “to‘g‘ri yoki yolg‘on” mashqlaridan ham foydalandik. O‘quvchilarga ishlash uchun bir qator bayonotlar beriladi. O‘quvchilarning vazifasi - bu bayonotning haqiqat yoki yo‘qligini aniqlash; agar bayonot noto‘g‘ri bo‘lsa, u haqiqatga aylanishi uchun tuzatilishi kerak.

- Mrs. and Mr. Otterton have 2 children. - Xonim. va janob Ottertonning 2 nafar farzandi bor.
- Mr. Otterton has been missing for 15 days. - Janob. Otterton 15 kundan beri bedarak yo‘qolgan.
- Emmitt is an artist. - Emmitt rassom.

Ba’zi epizodlarni tomosha qilgandan so‘ng, o‘quvchilar taklif qilinadi.

Epizodning mazmuni haqida to‘g‘ri va yolg‘on bayonotlar bilan chiqiladi. Bir qator topshiriqlarda bolalarga ataylab yolg‘on bayonotlar beriladi. Ular xatolarini tuzatishlari kerak. Qahramonlardan qaysi biri u yoki bu mulohazalarni aytganini aniqlashi kerak bo‘lgan mashqlarni biz namoyishdan keyingi mashqlarga ham ajratamiz: Bu so‘zlar kimga tegishli?

-Biz qo‘rqishimiz kerak bo‘lgan yagona narsa bu qo‘rquvning o‘zi.

-The only thing we have to fear is fear itself.

-Tabriklaymiz, ofitser Xopps.

-Congratulations, Officer Hopps.

-We’re real proud of you, Judy.

Biz sen bilan faxrlanamiz, Judi.

-I’ve been working for this my whole life.

-Men butun umrim davomida shu maqsadda ishladim.

Eng qiyin, lekin ayni paytda eng qiziqarli mashg‘ulotlar nafaqat mazmunni tushunishni nazorat qilish, balki kommunikativ va ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishga qaratilgan mashqlardir.

Multfilm bilan ishlashning yakuniy bosqichida o‘quvchilar o‘z taassurotlari bilan o‘rtoqlashadilar, nimani yoqtirganlarini va nima yoqmaganligini aytadilar. Multfilmdagi ishni kostyum sahnasi bilan boshida va oxirida yangraydigan multfilm qo‘shig‘iga aylantira olamiz.

Multfilmning barcha o‘n to‘qqiz epizodini tomosha qilish juda ko‘p vaqtni talab qilishi sababli, biz ushbu turdagi ishni sinfdan tashqari mashg‘ulotlarga olib borishni yoki haftada bir marta ingliz tilini o‘rganish uchun ko‘p soatlik darslarda foydalanishni tavsiya qilamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Barmenkova O.I. Ingliz tilini o‘qitishning samarali usullari: O‘qituvchi uchun qo‘llanma - Penza: PENZA, 1997 - 84 b.

2. Маслыко Е. А., Бабинская П. К., Будько А. Ф., Петрова С. И. Настольная книга преподавателя иностранного языка. Справочное пособие. – 9-е изд., стереотип. – Минск: «Вышэйшая школа», 2008. – 517 с.

3. Гальскова Н.Д. Теория обучения иностранным языкам. Лингводидактика и методика / Н.Д. Галь 39.

4. Филатов В.М. Методика обучения иностранным языкам в начальной и основной общеобразовательной школе: Учебное пособие для студентов педагогических колледжей / В.М. Филатов, В.П. Белогрудова, Т.Е. Исаева [и др.] / под ред. В.М. Филатова. – Ростов-на-Дону: Феникс, 2004. – 416 с.

5. Пассов Е. И. Основы коммуникативной методики обучения иноязычному общению. – М.: Рус. яз., 1989. – 276 с.

6. Пассов Е. И. Основы коммуникативной теории и технологии иноязычного образования: методическое пособие для преподавателей русского языка как иностранного / Е.И. Пассов, Н.Е. Кузовлева. — М.: Русский язык. Курсы, 2010. — 568 с.

7. Соловова Е.Н. Методика обучения иностранным языкам: базовый курс лекций: пособие для студентов пед. вузов и учителей – М.: Просвещение, 2006. – 239 с.скова, Н.И. Гез. – М.: ACADEMA, 2006. – 336 с.

TIL BA ADABIYOT, TIL NAZARIYASI MUAMMOLARI.
XITOY TILIDA JOY NOMLARINING IFODALANISHI

D.D. Mamidova, J. T. Kuralova, Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Annotatsiya: Xitoy tilida joy nomlarini madaniy tomondan tahlil qilish orqali, ularning kelib chiqishi, chuqur tarixi, ma’lum bir joy nomining qanchalar chuqur ma’no anglatishini o‘rganish, madaniy tomondan uning qay darajada baholanishi va qadrlanishini bilish, ularni lingvistik tomondan ham tahlil qilishni bilish.

Kalit so‘zlar: Xitoy joy nomlari, Xitoy madaniyati va an’analari, geografik joy nomlari, rivojlanish, iqtisod, madaniyat, ma’naviyat

Joy nomlari lisoniy hodisa bilan bir qatorda madaniy hodisa hamdir. Geografik nomlar til belgilaring bir turidir, tildagi so‘zlar sifatida joy nomlari, avvalo til lug‘atining ma’lum qoidalariga rioya qilish natijasida hosil bo‘lgan qismidir, joy nomlari lingvistik lug‘atsiz shakillanmaydi. Joy nomlari ma’lum so‘zlar bilan ifodalanib, til va belgilar orqali tasvirlanadi. Ularning harakterlari, tabiati, tuzilishi va rivojlanishini e’tibordan chetta qoldirib bo‘lmaydi. Ko‘pgina joy nomlarini bir o‘qigandayoq, familiya, o‘simlik nomlari yoki tabiiy geografik obyektlar bilan bog‘liq nom nazarda tutilayotganini bilishimiz mumkin. Bu joy nomlarida so‘zlarning qo‘llanish tarixi, so‘zlarning tabiati va tuzilishini o‘rganishdan iborat ekanligini ko‘rsatadi. Masalan, Pingdingshan (平顶山 *píng dǐng shān*)[12] yonidagi Yinyan (浮阳 *yín yáng*), u yerda tog‘lar va suvlar, tuproq va hasharotlar borligi sababli “loyqalik”(浊 *zhuó*) so‘zi paydo bo‘lgan. “Tsi Xay” izohli lug‘atida bu so‘zning talqini quyidagicha: u Xenan provinsiyasidagi joy nomiga ishora qiladi deyilgan; yana bir misol, Pingdingshan (平顶山 *píng dǐng shān*), Lushan(鲁山 *lǔ shān*) okrugidagi aylana lagerining nomi, asl iyeroglifi “yumaloq”(滚). Biroq “yumaloq”(滚) va “zi”(子) belgilari tabiatan bir-biriga mos kelmaydi, agar uning o‘rniga singan toshlardan yasalgan “kosa”(碗) so‘zi yozilsa, “zi” (子) so‘zi iboraga aylanishi mumkin va matn alifbo tartibida bo‘ladi. “ Lushan okrugi yilnomalari”ga ko‘ra(鲁山县志), Nianzi(碾 子) ko‘prigining eski nomi bo‘lsa, bu yerda “Nianzi”(碾 子)ni “yaxmalak/g‘altak”(磙 子) ga o‘zgartirish mumkin. Tahlillar orqali, 水 滚 滚[13] iyeroglifidagi 滚 so‘zi, “qo‘l yozma”(手头子) xatoligi ekanligi tushuniladi. Joy nomlar ma’lum bir talaffuz, ma’noga ega bo‘lib, odatda, talaffuz, shrift va semantikaning birikmasi bo‘lgan yozma shaklga ega bo‘ladi. Uning tarkibi ma’lum bir grammatik qoidalarga va o‘ziga xos ifoda vositalariga ega, demak, joy nomlari tilshunoslarning tashvish obyektiga aylanadi, bular joy nomlarining tildan tashkil topgan timsollar tizimining ichki tuzilishini aks ettiruvchi aniq shakllardir. Moddiy sivilizatsiya, ijtimoiy tuzum, qadryatlar, tafakkur tarzi, estetik didi, diniy e’tiqodlari, urug‘ oilalari, turmush urf-odatlari, harbiy siyosat va boshqalar kabi joy nomlarining shakl va tuzilishi ortida aks

[12] 魏宏泽."公示语汉语地名及英译的转喻解读." *上海理工大学学报(社会科学版)*..

[13] 瞿元庆.《汉语大字典（第二版）》所收地名用字研究[D].四川外国语大学,2018.

ettirilgan madaniy ma’nosi, uning resessivligi, bu joy nomlarining jismoniy dunyosini, madaniy dunyosini va psixologik olamini aks ettiruvchi joy nomlarining chuqur qatlamidir. Odamlar ko‘pincha til tarkibidagi ko‘plab madaniy omillarni ko‘rsatish uchun “Lingvistik paleontologiya”(语言的古生物学 *yǔ yán de gǔ shēng wù xué*)[14]dan foydalanadilar, bu omil Xitoy joy nomlari tizimida ham mavjud. Masalan, sharqda Yalu daryosidan(鸭绿江 *yā lǜ jiāng*)boshlanib, g‘arbda Jiayuguan(嘉峪关) shahrigacha bo‘lgan qadimiy buyuk arxitektura- Buyuk Xitoy devori (万里长城) ma’nosida shunchaki yozuv emas, balki u timsol hamdir. U Xitoy xalqi tarixidagi turli etnik guruhlarning ziddiyatlari, integratsiyasi va Xitoy xalqining an’anaviy madaniyati ramzi hisoblanadi. Bu Xitoy sivilizatsiyasining ramzi, insoniyatning qimmatli tarixiy va madaniy merosi. Yana bir misol, Xitoy xalqining beshigi va Xitoy xalqining ona daryosi deb ataladigan Xuanxe (黄河) daryosi va Yangszi(长江) daryosi endi shimol va janubdagi eng katta daryo emas, balki ularning muqaddasligi, buyukligi, kuchi va ulug‘vorligi tufayli, ular Xitoy xalqi ruhining ramziga aylandi. Yana bir misol, bugungi kun shoiri Li Bay (李白 *lǐ bái*) ning asrlar davomida o‘n besh martta kuylagan mashxur binosi- Sariq turna minorasi (黄鹤楼 *huáng hè lóu*) allaqachon binoning o‘zidan oshib ketgan, u madaniyat va ruhning vakiliga aylandi, usiz Uxanda(武汉 *wǔ hàn*) tarixiga sahifa yetishmaydi, usiz Yangszi (长江 *cháng jiāng*) daryosi tutiladi, u mashxur “Guiyuan ibodatxonasi”(归元寺 *guī yuán sì*) va mashxur “Xalq jannati”(民众乐园 *mín zhòng lè yuán*) bog‘i bilan birga Uxan (武汉 *wǔ hàn*) ning ramziga aylandi. Shu sababli, boy madaniy merosga ega Xitoy joy nomlari alohida madaniy hodisa, insoniyat madaniyatining tirik qoldiqlari, Xitoy madaniy merosining muhim jihati, Xitoy madaniyatining juda muhim qismidir, Xitoy madaniyati esa, Xitoy moddiy madaniyati, institutsional madaniyati va ma’naviy madaniyati rivojlanishining ta’sirida va cheklanishi ostida shakllangan. U Xan (汉 *hàn*) madaniyati kuchiga ega bo‘lib, Xan(汉 *hàn*)millatining madaniy mentaliteti va xalq urf-odatlarini ozida mujassam etgan.

Madaniyatshunoslik nuqtai nazaridan qaraganda, xitoycha joy nomlarining ko‘p mazmuni mamlakat ijtimoiy madaniyati, ijtimoiy hayoti, milliy madaniyati va etnik migratsiya bilan chambarchas bog‘liqligini ko‘rishimiz mumkin. Xitoy joy nomlarini o‘rganish orqali biz nafaqat turli joylarning tabiiy landshaftlari va tabiiy-madaniy joy nomlarini o‘rganishimiz, joy nomlari va geografik muhit o‘rtasidagi munosabatlarni chuqur tushunishimiz, bundan tashqari, Xitoy xalqining tafakkuri, g‘oyalari va psixologik xususiyatlarini tushunish va tarixdagi yirik siyosiy o‘zgarishlarini ko‘rsatish mumkin. Siyosiy o‘zgarishlar, iqtisodiy yuksalish va pasayish, etnik migratsiya, diniy e’tiqod va boshqa shart-sharoitlar cheksiz boy madaniy kannotatsiyalar maqsadini joy nomlari nuqtai nazaridan ro‘yobga chiqarishda katta ahamiyatga ega. Xitoycha joy nomlarini o‘rganish orqali biz ijtimoiy hayotning barcha jabhalari- moddiy ishlab chiqarish, siyosat, harbiy ishlar, iqtisod va hatto mafkurani chuqurroq anglashimiz mumkin. Janob Feng

[14] 董雪松.汉语地名用字的社会语言学研究——以哈尔滨市地名用字“哈”为例[J].东北农业大学学报(社会科学版),2015,13(01):65-70.

Jicai (冯骥才 *féng jì cái*) [15]“ Joy nomlarining ma’nosi’(地名的意义 *dì míng de yì yì*) maqolasida ta’kidlaganidek, “Joy nomi shunchaki ma’lum bir hududning nomi emas, joy nomi, hayot va hayot bilan bo‘liq boy va chuqur ma’noga ega”. Xitoycha joy nomlari “o‘zining noyob tarixiy madaniyatini bosqichma-bosqich shakllantiruvchi”, “mahalliy tuyg‘ularga ta’sir qiluvchi” va “betakror tarixiy madaniyati” mavjud. Agar keng va chuqur Xitoy an’anaviy madaniyati Xitoy joy nomlari uchun boy ma’nolarni anglatadigan bo‘lsa, unda Xitoy joy nomlari Xitoy an’anaviy madaniyating yorqin misoli bo‘la oladi. Joy nomlari nafaqat Xitoy xalqining umumiy madaniy xususiyatlarini, balki ayrim mintaqaviy madaniyatlarning o‘ziga xos xususiyatlarini ham aks ettiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

[1]《汉语大词典》，汉语大词典出版社，2012 年。
[2]《河南省平顶山市地名志》，天津人民出版社，2008 年。
[3]《湖北市县概况》，湖北省地方志编纂委员会出版，2012 年。
[4]《平顶山市志》，河南人民出版社，2014 年。
[5]《实用中国地图集》，西安地图出版社，2014 年。

IS'HOQXON IBRAT ASARLARINING YOSHLAR TARBIYASIDAGI AHAMIYATI

G. Jo'rayeva, U. Soliyev, Namangan davlat chet tillari institute

Milliy uyg‘onish davrining yorqin namoyandalaridan biri, ma’rifatparvar shoir, olim, sayyoh, matbaachi va muallim Is’hoqxon To‘ra Ibrat 1862 yili Namangan viloyatining To‘raqo‘rg‘on qishlog‘ida ziyoli oilasida tavallud topgan. Otasi Junaydulla xo‘ja, onasi Hurbibi otin xat-savodli kishilar bo‘lib, maktabdorlik qilishgan. Is’hoqxon ota-onasi qo‘lida savod chiqarib, keyin turli maktab va madrasalarda o‘qiydi. Is’hoqxon To'ra 1886-yilda madrasani tugatib, To’raqo‘rg‘onga qaytib keladi. U o’z faoliyatini pedagog sifatida qishloqda ma’rifat tarqatish bilan boshladi. 0’sha yili eski mahalliy maktablardan ancha farq qiluvchi yangicha maktab ochadi.Qo‘qondagi Muhammad Siddiq Tunqotar madrasasida o‘qigan (1878—86). O‘z she’rlari («Tarixi chopxona», «Madaniyat haqida masnaviy», «Gazeta xususida», «Qalam»)da mahalliy va chor amaldorlari kirdikorlarini fosh etgan («Ilmi Ibrat», she’riy to‘plam, 1909). Ibrat arab, fors, hind, turk, o‘zbek va rus so‘zlaridan tarkib topgan «Lug‘at sitta as-sina» («Olti tilli lug‘at», T., 1901) tuzgan, bu asar o‘sha davr uchun katta ahamiyatga ega bo‘lgan. Ibratning yozuvlar tarixiga oid «Jome’ ul-hutut» («Xatlar majmui», 1912) asarida lotin, yunon, xitoy, hind, arab, Kirill yozuvining kelib chiqishi, rivojlanish tarixi haqida ma’lumot berilgan, ilmiy-tarixiy asarlari («Tarixi Farg‘ona», 1916; «Tarixi madaniyat», 1925; «Mezon uz-zamon», 1926) esa Qo‘qon xonligining vujudga kelishidan to 20-asr 30-yillarigacha bo‘lgan davrni o‘z ichiga olgan. Ibrat «Turkiston viloyati gazeti», «Sadoi Turkiston», «Sadoi Farg‘ona» gazetalariga yozgan maqolalarida fan, ma’rifat va madaniyatni targ‘ib etgan. 1937 yilda qatag‘on qurboni bo‘lgan. Namangan viloyati

[15] 陈思. 对外汉语视域下的温州地名教学研究[D].西南大学,2018.

To‘raqo‘rg‘on tumanidagi 14-o‘rta maktab va Toshkentdagi bir ko‘chaga Ibrat nomi berilgan. Is’hoqxon To'ra 1887-yilda haj safariga otlanadi. So‘ng u Sharq mamlakatlari bo’ylab sayohatni davom ettiradi. Yevropaning Istanbul, Sofiya, Afina, Rim kabi markaziy shaharlarida bo’ldi, ancha vaqt Jidda shahrida istiqomat qiladi, Bombey va Kalkuttada yashaydi. Is’hoqxon u yerlarda ko‘p ishlatiladigan arab, fors, hind va ingliz tillarini mukammal o’rgandi. U 1896-yilda o’z vataniga qaytib keldi. 1901-yilda „Lug‘ati sitta-alsina“ asarini bosmadan chiqaradi. Mazkur lug‘at jadid maktablarida sharq va rus tillarini o’rganishda birdan bir qo‘llanma sifatida foydalanib kelindi. Is’hoqxon To'ra 1912-yilda yozuvlar tarixiga bag‘ishlangan „Jome’ ul-xutut“ („Yozuvlar majmuasi“) asarini yaratdi va o’z matbaasi „Matbaayi Is’hoqiya“da bosmadan chiqardi. Ibrat chin qalbdan o’z xalqining ilmli, ma’rifatli bo’lishini istadi. Keyingi 20 yil ichida 14 ta ilmiy-:,. tarixiy, lingvistik asar yozdi. 30 yillik poetik ijodining majmuyi bo’lmish „Devoni Ibrat“ she’rlar to‘plamini tuzdi. Tarixshunoslikka oid „Tarixi Farg‘opa“, „Tarixi madaniyat“ va „Mezon uz-zamon“ ilmiy asarlarini yaratdi. Ibratning so‘nggi yillardagi hayoti ancha tahlikali o’tdi. 1935-yildan u hamma lavozimlardan olib tashlandi. 1937-yilning aprel oyida 75 yoshli keksa shoir va ma’rifatparvarni hibsga oladilar. Ibrat Andijon turmasida vafot etadi. Is’hoqxon Ibrat qabri Namangan tumanida.

Ko'p tillarni ancha mukammal bilgan Is'hoqxon Ibrat xalqiga yordam berish orqali ma'lum bir asarlarni yozadi. U olti tildan iborat : fors, arab hind, o'zbek, turk va rus so'zlari foydalanilgan holda "Lug'ati sitta al-sina" nomli lug'at kitobini yaratdi. Ushbu asarni yaratayotganda rus tiliga qiziquvchi o'zbeklarni ko'zda tutdi. Lug'at olti tilli, ancha murakkab, o'zbek tilidagi so'zlarning yonida arab, fors turk, hind va rus tilidagi tarjimalari beriladi. Unda mingdan ortiq so'z yozilgan bo'lib, 53 bet, ikki qismdan tashkil topgan. Lug'atning birinchi qismi alifbo tartibida tuzilgan bo'lib, har bir harfga alohida boblar ajratilgan.

Unda fe'llarning noaniq va kelasi zamon shakllari avval fors, keyin arab, turk, hind, o'zbek, va rus tilidagi tarjimalari berilgan. Asarning ikkinchi qismi 37 bobdan tashkil topgan bo'lib, fe'llarning boshqa shakllari, otlar, kishilik olmoshlari, kun, oy nomlari odam a'zolari, hayvonlar, hasharotlar, parrandalar, oziq - ovqat va boshqa buyumlarlarning nomlari aytib o'tilgan. Bu qismda avval arab, keyin fors, turk, hind, o'zbek va rus tilidagi tarjimalari keltiriladi. Agar XX asrning dastlabki yillarida "Turkiston viloyatining gazeti" sonlarini ko'rsak, Is'hoqxon Ibratning ushbu "Lug'ati sitta al-sina" asariga bag'ishlangan turkman maqola taqrizlarga ko'zimiz tushadi. Mazkur asar o'zbek tilshunosligi fani taraqqiyotida ham muhim bo'lib, fanimizda ko'ptilli lug'atlar tuzishda dastlabki qadam bo'ldi. Shu bilan birga o'zbek leksikografiyasini rivojlantirishga munosib hissa qo'shildi. “Jome' ul-xutut” Yozuvning jamiyat, madaniyat va ilm - fan taraqqiyotidagi, uni kelgusi avlodlarga yetkazishdagi ahamiyati beqiyosdir. Tilshunoslikning murakkab, shu bilan birga, kam o'rganilgan sohasida Is'hoqxon Ibrat ancha mukammal "Jome' ul - xutut" ("Yozuvlar majmuasi") nomli asar yaratdi. Ibrat o'zining mazkur ilmiy asarida jahon yozuvlarining eng ibtidoiysi – piktografik (lotincha pictus – rasm va grekcha grapho – yozaman) yozuvlardan, to shu XX asr boshlaridagi

eng mukammal yozuvlargacha bosib o'tgan taraqqiyot tarixini yoritib berishga harakat qiladi. Asari 132 betdan iborat bo'lib, 1330 - hijriy – 1912 -milodiy yili Namanganda o'zining "Matbaayi Is'hoqiya" bosmaxonasida chop etilgan. Is'hoqxon Ibrat "Jome' ul-xutut" asarida dunyoda mashhur bo'lgan qirqqa yaqin yozuv tizimi haqida, shu jumladan arab xatining suls, tavqe', rayhon, zulf, humoyun, turra kabi husnixat shakllari haqida ma'lumot beradi. Shu bilan birga husnixat san'atga oid qimmatli fikrlar yozib, namunalar keltiradi. Is'hoqxon Ibratning XX asr boshlaridayoq olib borgan ilmiy - ma'rifiy faoliyati uning ajoyib tilshunos olim - filolog ekanligidan dalolat beradi. Shu bilan birga Is'hoqxon Ibrat maorif va madaniyatimiz taraqqiyoti tarixida husnixatni mukammal egallagan xattot sifatida ham mashhur bo'lgan. Bu hol uning "San'ati Ibrat, qalami Mirrajab Bandiy" (1908), "Jome'ul-xutut" asarlarida ko'zga yaqqol ko'rinadi. Ibrohim Davron xabar berishicha, Is'hoqxon zo'r xattot, husnixatni mukammal egallagan kalligrafdir. U bu sohada yaratgan Shoyoni bir san'ati (asari) uchun 1907-yilda katta mukofotga sazovor bo'lgan. Is'hoqxon Ibratning "Jome'ul-xutut" asaridan oldin yaratilgan "San'ati Ibrat qalami Mirrajab Bandiy" asari xattotlar uchun husnixat bo'yicha qo'llanma sifatida yaratilgan bo'lsada Farg'ona vodiysi viloyat va shaharlarida faoliyat ko'rsatgan usuli jadid maktablarida "Alifbo" darsligi sifatida ham foydalanilgan. Ibratning teran fikrli moziyshunos salohiyatini namoyon etadigan asari, bu – “Tarixi Farg‘ona”(1916)dir. Unda Qo‘qon xonligi va, umuman, Turkistondagi xonliklar inqirozi, mustamlakachilik zulmi, eng muhimi, xalqning yorqin kelajagiga ishonch ruhi o‘z ifodasini topgan. Shuningdek, 1928 yilda yana bir muhim asari – “Mezon ul-zamon” yaratiladi. Is’hoqxon Ibrat matbaachi sifatida 1908 yildayoq Namanganda “Matbaai Is’hoqiya”ni tashkil etib, kitoblar nashriga kirishadi, ilmiy, tarixiy, badiiy asarlar bilan birga, zamonaviy mavzulardagi ilm-ma’rifat va ma’naviyat rivojiga xizmat qilishga yo‘naltirilgan ko‘plab kitoblarni chop etadi. Ibratning milliy kutubxona, kitobxonlik ishlarining ilk tashkilotchisi va targ‘ibotchisi sifatidagi xizmatlari ham beqiyosdir. U asos solgan “Kutubxonai Is’hoqiya” fondi bu jihatdan ancha boy bo‘lib, kitob berish va olish ma’lum tartib-qoida asosida yo‘lga qo‘yilgan edi. Ezgu va xayrli ishlari tufayli xalq hurmatini qozonib, qozilik darajasiga ko‘tarilgan Ibratning ilm-fan, madaniyat, maktab-maorif sohasidagi jonbozligi ayrim g‘alamis mutaassiblarning g‘ayrli munosabatlari tufayli ko‘p to‘siqlarga uchradi. 1937 yilga kelib esa uning barcha faoliyatiga chek qo‘yildi, kitoblari yoqib yuborildi.

O‘zi esa yovuz kuch – Stalin qatag‘oni qurboniga aylandi. Shu’la zulmat qoshida mahv etildi. Faqat istiqlol davriga kelib adibning muborak nomi va benazir ijodi asl qadr-qimmatini topdi. Kitoblari chop etilib, o‘zi tug‘ilib o‘sgan To‘raqo‘rg‘onda Is’hoqxon Ibrat muzeyi ham tashkil etildi. Ishoqxon to‘ra Ibrat shoir, tarixnavis, tilshunos va islomshunos sifatida o‘zidan boy meros qoldirgan. Xatning o‘n yetti turida qalam yurgizgan mohir xattot, o‘z nomida «Matbaai Ishoqiya»ni tashkil etgan birinchi o‘zbek noshirlaridan edi. Ulug‘ ma’rifatparvarning ushbu «Tanlangan asarlar»idan shu paytgacha o‘quvchilarga ma’lum bo‘lmagan «Mezon uz-zamon» asari, o‘nga yaqin yangi she’rlari, o‘z davrining dolzarb muammolariga bag‘ishlangan publitsistik maqolalari

o‘rin olgan. Shuningdek, «Tarixi Farg‘ona»ning muallif dastqalami asosida ko‘chirilgan mo‘’tabar nusxasidan tayyorlangan matni kitobxonlar e’tiboriga havola etilmoqda. Darhaqiqat, Ibratning ilk matbaachi, yangi usuldagi maktab asoschisi sifatidagi bemisl xizmatlari tahsinga sazovor. U 1908 yilda Orenburg shahridan litografik mashina xarid qilib ming mashaqqatlar bilan Namanganga olib kelgan va “Ishoqiya bosmaxonasi”ga asos solgan. Mazkur bosmaxonada o‘tgan asrning 60 yillariga qadar turli ilmiy-ma’rifiy kitob va risolalar, “Turkiston viloyati gazeti”, “Sadoi Turkiston”, “Sadoi Farg‘ona” singari gazetalar chop etilgan. Shuningdek, Ibrat shoir sifatida ham devon tartib bergan. Ming taassufki, uning “Devoni Ibrat”i bizgacha yetib kelmagan. O‘z davrida el orasida yuksak e’tibor topib, qozilik martabasiga erishgan, biroq, ayrim g‘alamisliklar bois tazyiqqa uchragan ma’rifatparvar bobomiz 1937 yilda 75 yoshida hibsga olinib, vafot etadi. Davlatimiz rahbarining Namanganga, xususan, To‘raqo‘rg‘on tumanidagi Ishoqxon To‘ra Ibrat memorial majmuasiga tashrifi va ma’rifatparvar alloma xotirasiga cheksiz ehtirom ko‘rsatgani barchamizni behad g‘ururlantirdi. — Prezidentimizga alloma qoldirgan ulkan ma’naviy meros haqida ishtiyoq bilan gapirib berdim, — deydi davlatimiz rahbariga hamrohlik (gid) qilgan Namangan Davlat universiteti tayanch doktoranti, yosh olim Sardor Rustamov. — Binobarin, dunyoviy bilimlarni chuqur o‘rgangan, yetti tilni mukammal bilgan serqirra ijodkor, olim va shoir, pedagog Ishoqxon Ibratning hayoti va ijodi biz, yoshlar uchun chinakam ibrat maktabidir. Prezidentimiz allomaning “Olti tilli lug‘at”, “Xatlar majmui”, “Tarixi Farg‘ona”, “Tarixi madaniyat”, “Zamon tarozusi” singari 14 ta tilshunoslikka oid, ilmiy-tarixiy, badiiy hamda ma’rifiy asarlari haqidagi ma’lumotlar bilan tanisharkan, domlaning ko‘plab kitoblari qatag‘on yillari yoqib va ko‘mib yuborilgani adabiyotimiz uchun katta yo‘qotish bo‘lganini afsus bilan ta’kidladilar. Ajdodimizning arxitektura va dizayn masalalaridagi yondashuvlari aks etgan loyihani kuzatib, uning bu tajribasini ham keng yoyish va o‘rganish zarurligini uqtirdilar. Buning barobarida taraqqiyot va sinovlar oldida turgan jamiyat uchun ulug‘ mutafakkir «Mezon uz-zamon» asarini yaratdi. Uning serqirra ilmiy-ijodiy va tashkilotchilik faoliyati o‘z davridayoq keng miqyosda e’tirof etilgan. Ushbu asar kishilik jamiyatini ilf-fanga, taraqqiyotga undaydigan, aslida yashamoqlik dunyoga, nafsga mubtalolik emas balki, inson zotiga mulk qilib berilgan ilmu ma’rifatni kashf qilmoq, dasturul amal bilmoqlik, zamon va makon tushunchasida barcha mezonlar inson baxti va qadri uchun xizmat qilishliligi xususida fikr yuritiladi. Asarda zamon va jamiyat xususidagi mushohadalar 9 ta mezonda asoslangan. Birinchi mezon ilm, ahli ummatga inkor eshiklarini emas, saodat eshiklarini ochishligi xususidadir. Zero, jadid ma’rifatparvarlarning asosiy g‘oyalaridan biri faqat og‘ir mehnat orqali emas balki ilm orqali baxtli hayot sari intilmoqdir. Olloh tomonidan inson qadr-qimmati uchun yaratilgan imkoniyatlari eshigini kashf qilmoqqa urg‘u beriladi. Bugungi kunda ham bu mezonga amal qilish orqali ilm-fan islohotida shakl emas mohiyat va natija muhimligining e’tirofi aynan shu masalaga qaratilgandir.

Xulosa qilib aytganda Is’hoqxon Ibrat nafaqat o'z davrining yetuk diniy ilmlar ulamosi va qozisi balki tarixchi, shoir, tilshunos, noshir, o'qituvchi, vatan ravnaqi uchun

fidoyilik bilan kurashgan shaxsdir. Uning har bir asarlari o'zgacha xususiyatlarga va tarixga ega. Shuning uchun hozirgi kunda butun dunyo bo'yicha Ibratning asarlariga bolgan e'tibor kundan kunga kuchayyapti. Uning asarlarini o'rganib ular bo'yicha tarjima ishlari ham olib borilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbek adiblari (Toshkent G'afur G'ulom adabiyoti va san'at nashriyoti.
2. Dolimov U. Is’hoqxon Ibrat - Toshkent Sharq - 1994.
3. Milliy uyg‘onish davri o'zbek adabiyoti Toshkent : Ma'naviyat, 2004.
4. Is’hoqxon Ibrat. Jome'ul-xutut Namangan: Matbaayi Is'hoqiya, 1912.
5. Is’hoqxon Ibrat. Tarixi Farg'ona. O'zR FA SHI qo'lyozmalar fondi, inv 11080.
6. Is’hoqxon Ibrat. Tarixi madaniyat. O'zR FA SHI Qo'lyozmalar fondi, inv 11616.

ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBURNING MEHR-MURUVVAT OLAMIGA DOIR QARASHLARI

H. A. Muradova, Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Annotatsiya: Mazkur maqola Zahiriddin Muhammad Boburning yuksak insoniy fazilatlari haqida fikr yuritilgan. Boburning atrofidagilariga bo‘lgan mehr-shavqati, ularning insoniyligini qadrlashi va himmat-saxovat ko‘rsatishi haqida tarixiy mabalari asosida ma’lumotlar keltirilgan.

Аннотация: Данная статья размышляет о высоких человеческих качествах Бабура. Приводится сведения о доброте Бабура к окружающим, его высокой оценке их гуманности и великодушия.

Abstract: This article reflects on Babur's high human qualities. Information is given about Babur's kindness to those around him, his appreciation of their humanity and generosity.

“Yaxshi kishilarni yaratgan yaxshi insonlar bilan siylaydi” Zahiriddin Muhammad Bobur buyuk siymo, davlat arbobi, mehribon ota, mahoratli shoir, tarixchi olim, adabiyotning yorqin yulduzi, xalqparvar hukumdor hisoblanadi. Buyuk Boburiylar sulolasi asoschisi 1483-yilning 14-fevralida Temuriylar avlodidan bo‘lgan, Farg‘ona hukumdori Umar Shayx Mirzo oilasida, Andijon shahrida tavallud topgan. Sultonning otasi Umar Shayx Mirzo, Amir Temurning uchinchi o‘g‘li Mironshoh Mirzoga evara hisoblanadi. Onasi Qutlug‘ Nigorxonim Toshkent hukumdori Yunusxonning ikkinchi qizi hisoblanadi. Zahiriddin Muhammad Bobur hali bola chog‘laridayoq davlat boshqarish vazifasini olishga majbur bo‘ldi.Ya’ni otasi Umar Shayx Mirzo 1494-yilning 9-iyunida baxtsiz hodisa tufayli halok bo‘lgach, 12-yoshli Bobur otasining o‘rniga Farg‘ona viloyatining hukumdori sifatida taxtga chiqdi. Lekin bu davrda butun mamlakat bo‘ylab tarqoqliklar avj olgan va har bir viloyat hokimlari alohida mustaqil davlat bo‘lishga harakat qilayotgan bir paytda yuz berdi. Davlat mustaqilligini saqlab qolish uchun buyuk sarkarda hayotining mashaqqatli, sertashvish va suronli yillari boshlandi. Uning orzusi butun Movaraunnahrni birlashtirib, bobokaloni Amir Temur davlatini birlashtirib, qayta tiklash edi. U yosh bo‘lishiga qaramasdan ko‘p

qiyinchiliklarni boshdan kechirdi. Ba’zida ulkan saltanat sohibi va adolatli hukumdor, ba’zida mag‘lub yoki g‘olib sarkarda sifatida ko‘rishimiz mumkin. Shunday bo‘lsada hayot yo‘llarida mardanovar jang qildi. Ota yurtidan ketishga majbur bo‘lgan bo‘lsada, Xindistonda katta hududlarni o‘z ichiga olgan ulkan saltanat-bobuburiylar saltanatiga asos soldi.

Zahiriddin Muhammad Boburning mehr-muruvvat olami, insonlarga bo‘lgan mehri, shavqati, saxiyligi, saxovati, himmati borasida ko‘plab tarixchilar, sharqshunos olimlar tomonidan e’tirof etilgan. Jumladan: G‘arb sharqshunos olimi Vilyam Erskin saxovatli hukumdorning insonlar bilan bo‘lgan munosabatini quyidagicha sharhlaydi: “Saxovati va mardligi, istedodi, ilm fan va san’atga muhabbati va ular bilan muvaffaqiyatli shug‘ullanishi jihatidan Osiyodagi podshoxlar orasida Boburga teng keladigan birorta podshoh topilmaydi.” Bobur yoshligidan temuriy shahzoda sifatida katta e’tibor bilan tarbiyalangan. Qalbida ayrim hukumdorlarda uchraydigan manmanlik kabi tuyg‘ularga o‘rin bo‘lmagan. Buni uning oddiy insonlar bilan, ilm ahli bilan, o‘z yaqinlari, askarlari bilan bo‘lgan munosabatida ko‘rishimiz mumkin. Tarixiy ma’lumotlarda aytilishicha Bobur Afg‘oniston hukumdori bo‘lib turgan bir paytda mamlakatda kelib chiqqan isyon xavfi kelib chiqadi. Bu xavfni bostirish uchun qish fasli bo‘lishiga qaramasdan Hindikush tog‘laridan o‘tishiga to‘g‘ri keladi. Ushbu holatda yo‘llarni qor bosib qolganligi sababli yo‘l ochish mashaqqatiga duchor bo‘lishadi. Bobur ushbu vaziyatda hukumdor sifatida faqat buyruq berib kuzatib turmasdan, askarlari bilan tengma-teng ravishda yo‘l ochish ishlarida harakat qilgan. Boburning bag‘rikengligi, mehr-shavqati, ota-onasiga, farzanlariga, fuqorolariyu, lashkariga nisbatan muruvvati tahsinga sazovordir.

”Bobur sadoqatli o‘g‘il, mehribon ota, sodiq do‘st, vafodor er va g‘amxo‘r qarindosh edi,-deb yozadi L.P.Sharma,-Bobur qarindosh-urug‘laridan mehr-muruvvatini ayamas, do‘stlarining tashvishlariga hamdardlik qilar va quvonchlariga sherik bo‘lar, xotinlari bir necha bo‘lishiga qarasdan ularning barchasiga bir xil munosabatda bo‘lar va bir xil izzat ikrom ko‘rsatardi, o‘g‘illarining hammasiga birdek mehr bilan qarar edi.” Yoshligidanoq o‘tkir zehni, yuksak insoniy xislatlari bilan ajralib turgan yosh shoirning volidasi Qutlug‘nigorxonimga va opasi Xonzoda begimga nisbatan bo‘lgan otashin mehri cheksiz hurmati misolida ayyollarga nisbatan izzat-ikromini ko‘rsatadi.”Tarixiy Rashidiy” asarining muallifi Mirzo Muhammad Haydarning yozishicha Bobur yoshligidanoq “son-sanoqsiz yaxshi fazilatlarga ega edi, dovyuraklik va vallomatlikda hammaning orasida ajralib turar edi. Zahiriddin Muhammad Boburning ota sifatida farzandlariga mehri va umir yo‘ldosh sifatida xotinlariga hurmati yuqori edi. Boburning jami yettita ayoli va o‘n sakkiz nafar farzandi bo‘lgan. Bular: Birinchi ayoli Oisha sulton begim bilan nikohidan Faxriniso begim (chaqoloqligida vafot etgan) ismli farzandi bo‘lgan. Ikkinch ayoli Zaynab Sulton begim nikohidan farzandli bo‘lishmaydi.Uchinchi malika Moxim begim nikohidan Humoyun Mirzo,Borbul Mirzo,Mexr Jahon Begim,Eshon Davlat begim, Foruq Mirzo ismli farzanlari bo‘lgan.Ulardan faqat Humoyun Mirzogina yashab qolgan. Kamron Mirzo,Askariy Mirzo,Shoxruh Mirzo,Sulton Ahmad Mirzo , Gulzorbegim ismli farzandlarining onasi Gulruh begim

bo‘lgan. Ulardan Kamron Mirzo va Askariy Mirzolardan boshqalari yoshligida vafot etgan. To‘rtinchi malika Dildor begim bilan nikohidan Gulrang begim,Gulchehra begim,Hindol Mirzo,Gulbadan begim va Olamur Mirzolar bo‘lgan. Gulbadan begim va Hindol Mirzolargina yashab qoladi. Oltinchi ayoli Masuma begim nikohidan Masuma sulton begim ismli farzandi bo‘lgan. Yettinchi ayoli Mexri begim bo ‘lib undan Mexrjon begim ismli qizi bo‘lgan. Mehribon ota farzandlarini birdek sevib ularni birdek ardoqlagan. Buni ushbu to‘rtlikda ham ko‘rishimiz mumkin. Dinu donishda har kun afzal bo‘l,

Davlatu baxt ila Humoyun bo‘l
Kamron bo‘l,
jahonda davlat ko‘r
Yuz tuman obro‘-yuz izzat ko‘r

Buyuk hukumdor saltanatni boshqarish va davlat ishlaridan ko‘ra adabiy muhitni yoqtirar edi. Hayotining so‘ngi yillarida taxtni o‘g‘li Humoyunga topshirib siyosiy hayotdan ko‘ra adabiyot olamida umrini o‘tkazmoqchi bo‘ladi.Ammo saroy ahli bunga qarshilik qilishadi. Shunday kezlarda Sunbul hokimligini boshqarayotgan o‘g‘li Humoyunning og‘ir betobligi haqida mash’um xabar keltirishadilar. Humoyun saroyga keltirilgach ahvoli og‘irlashishda davom etaveradi. Farzandiga bo‘lgan cheksiz mehr xoh u shoh bo‘lsin xoh u gado bo‘lsin bir biridan farqlanmaydi. Mehribon ota o‘g‘lining betobligiga chiday olmaydi va Humoyunning atrofida aylanib, bosh tomoniga o‘tirib “Hudoyo agar jon o‘rniga jon berish mumkin bo‘lsa, men borman, umri jonimni Humoyunga bag‘ishlayman” deydi .Yana bir kishini Murtazo Alining mozorlari ziyoratiga yuborib undan ham shu gaplarni aytib duo qilishni aytadi.Shu kunlardan keyin Humoyun Mirzoning ahvoli yaxshilanib, mehribon otaning ahvoli yomonlasha boshlaydi. Buyuk podshohning yana bir go‘zal xislatlaridan biri kechirimliligi va saxovatliligidir. Bu xislatlaridan o‘rnak olishga arziydi. Saxovatpesha hukumdorning jo‘vmardligi yoshlik chog‘laridan ko‘zga tashlanadi. Masalan hokimdorligining dastlabki yillarida bobosi saltanatini qayta tiklash orzusida Samarqand shahriga bir necha bor yurish qilgan.1497-yil ilk marotaba Samarqand shahrini qo‘lga kiritish jarayonida shahar 7-oy davomida qamal qilinib egallanadi. Bu vaqt mobaynida shahar ahli ochlikdan, suvsizlikdan aziyat chekayotgan edi. Shahar egallangach o‘sha payt urf odatlariga ko‘ra biror shahar yoki davlat egallansa bek-u sarkardalar, askarlar o‘rtasida egallangan hudud aholisidan o‘lja yig‘ish, ularga ma’lum miqdorda mulk belgilanishi kerak edi. Shunday bo‘lsada saxovatpesha hukumdor shaharning talanishiga yo‘l qo‘ymadi. Qiynalgan aholini battar qiynamaydi.

Bu xususida Bobur o‘zining “Boburnoma “kitobida shunday yozadi: “Cherik ahlining o‘ljasi tugagandi.Samarqandni olg‘onda Samarqanda andoq xarob erdikim, madad va taqoviga ehtiyoji bor edi.” O‘zining qo‘shinidagi taminot yaxshi bo‘lmasada, Samarqand ahli uchun ancha vaqtdan beri yoqilmagan tandirlarni yondirib non pishirtirib tarqatiradi. Kechirimlilik hislati unda bolalik chog‘laridan yuqori edi. Jumladan bir necha bor xiyonat qilgan amaldorlarini kechirib, ularga qayta ishonch bildiradi. Bu haqda

adolatli podshoh shunday deydi: “Samarqand taxtiga chiqqach men bilan bo‘lganlarni amallariga yarasha tarbiyat va shafqat qildim.”- deydi. Boburning kechirimi, shavqati ham tahsinga sazovor bo‘la oladi. Mohir sarkarda Ibrohim Lo‘diyni yengib Hindistonni egallagach, uning onasi malika Baydaga mehr –shavqat ko‘rsatadi va unga mulklar in’om etadi. Unga siz mening ham onamsiz, meni ham o‘z o‘g‘lingizdek ko‘ring deb aytadi. Saroy amaldorlaiga ham uni hurmat qilishlarini aytadi. Lekin o‘g‘lining qasosi uchun malika unga qilingan yaxshiliklarni unutadi. Saroy xizmatkorlaridan birini ko‘p miqdorda oltin berish evaziga aldab, Boburning ovqatiga zahar qo‘shtiradi.

Bobur zahardan omon qolgan bo‘lsada vaqtlar o‘tib o‘z ta’sirini ko‘rsatdi. Yuqorida aytib o‘tilgan shahzoda Humoyunning kasal bo‘lishi bilan bo‘gliq voqealardan so‘ng Humoyun Mirzoning ahvoli yaxshilanib boradi, lekin Boburning ahvoli yomonlashib boradi. Bu haqda bizga malika Gulbadanbegim o‘zining “Humoyunnoma” asarida ma’lumot beradi. Kasallik ta’siri natijasida buyuk shoh va shoir, mehribon ota, adolatli va sahovatpesha hukumdor, qomusiy olim Zahiriddin Muhammad Bobur 1530 – yilning 25-dekabirida 47 yoshida bu olamni tark etdi. U qisqa va suronli umri davomida jahon sivilizatsiyasi va tarixida juda ko‘plab asarlari, madaniy va moddiy yodgorliklari bilan o‘chmas iz qoldirdi.

Xulosa qilib aytganda Zahiriddin Muhammad Boburning mehr muruvvati, saxiyligi, insonparvarligi tahsinga sazovardir. Uning kechrimliligi insonlarga o‘rnak bo‘la oladi. Boburning insonparvarligi butun mamlakat bo‘ylab fuqarolarining baxt-saodati, turmush tarzini yaxshilashga harakat qilgani va bu borada ko‘plab qarorlar qabul qilgani, imoratlar, madrasa va masjidlar, saroylar qurdurgani misolida ko‘rishimiz mumkin. Ushbu hislatlari jihatidan Boburnning shaxsiyati muhim hisoblanadi. Zahiriddin Muhammad Boburning o‘zi qurgan davlatida fuqarolarini qaram xalq emas, davlatining bir qismi sifatida qaragan. Mamlakatga turli tomonlardan mashhur me’morlarni yig‘ib mamlakat bo‘ylab obodonchilik ishlarini olib bordi. Ko‘plab bog‘lar tashkil ettirdi. Mamlakatda turli xil din vakillari bo‘lishiga qaramay ularga din erkinliklari berdi va bu xususda farzandlariga ham maslahatlar berdi. Vatandan yiroqda bo‘lsada vatanni yodidan chiqarmadi.Movaraunnahrda hukumdorlik qilayotgan sulolalar bilan iqtisodiy va ijtimoiy aloqalarni tikladi.Bobur shaxsiyati tahsinga sazovorligi butun dunyo Boburshunos olimlari tomonidan e’tirof etildi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. H.Qudratillayev.Boburning davlatchilik siyosati va diplomatiyasi T.:Sharq.2011.
2. Z.Mashrabov,S.Shokarimov.Asrlarni bo‘ylagan Bobur.”Yozuvchi” Toshkent. 1997-176b.
3.Z.M.Bobur.”Boburnoma”.-“O‘qituvchi “Toshkent.2008.
4.X.Sultonov, R.Farmonov. Boburiyzodalar.”Manaviyat”Toshkent.2003.
5.Fayziyev.T.Bobur va uning avlodlari.”Yozuvchi”Toshkent.1996.
6. Nuriddinov.M.Boburiylar sulolasi.”Fan”Toshkent .1994.

НЕКОТОРЫЕ ВОПРОСЫ ПРОЗЫ А.С.ПУШКИНА

Наталия Соколова
Удмурдский государственный университет.

«The Belkin’s novels» - is the new stage in Pushkin’s life.

With the help of personage as a “storyteller” it was described an ordinary life of Russian people in this novel.

Another Pushkin’s famous novel is “Captain’s daughter”. In this novel a real Russian character was shown for the first time in the history of literature.

Пушкинская проза – огромный материк русской литературы, представленный различными жанрами: повестью, циклом повестей, историческим романом в письмах, многочисленными замыслами. Обращаясь к Вяземскому с призывом образовать русскую прозу еще в начале двадцатых годов, Пушкин сформулировал свое понимание ее законов: «Точность и краткость вот первые достоинства прозы. Она требует мыслей без них блестящие выражения ничему не служат!».

Художественное исследование поведения человека определяет внутреннее единство «Повестей Белкина» (1830). Цикл считается началом нового периода пушкинского творчества. При кажущейся простоте, понятности цикла, событий, происходящих в повестях, «не загадочных», объяснимых чувств персонажей, «Повести Белкина» понимаются исследователями по-разному: 1) как противопоставление двух миров – европейского (маленькие трагедии) и русского; 2) как широкий срез жизни нескольких социальных слоев (провинциальные помещики, офицерская среда, ремесленники, чиновники 14-го класса, русские барышни, крестьяне); 3) как пародия на жанр романтической повести; 4) как ироническое освещение разных сторон русской жизни (реакция Баратынского).

Русская повседневная жизнь изображается изнутри благодаря введению образов рассказчиков (титулярный советник рассказывает «Станционного смотрителя»; полковник - «Выстрел»; приказчик - «Гробовщика»; девица - «Метель» и «Барышню-крестьянку»), всех их объединяет Иван Петрович Белкин главное лицо цикла. Пушкин скупо характеризует Белкина (сосед, ненародовский помещик, образование, служба в армии после 1812г. и до 1825г. и т.д.), подчеркивая отношение к писательству и литературе.

Себе Пушкин отводит скромную роль издателя (этого раньше не было). Таким образом, Пушкин создает «целую систему повествовательных опосредований» (В.Виноградов). Повествование ведется на трех уровнях. Первый уровень – непосредственный очевидец. Полковник («Выстрел») – сам дуэлянт, но история Сильвио и для него выходит за рамки офицерских дуэлей. Титулярный советник передает историю Вырина как заурядную. Девица старше и опытней

героинь «Метели» и «Барышни-крестьянки». Приказчик не может понять сон Адрияна («Гробовщик»).

На втором уровне – белкинская версия и трактовка услышанных историй: «Избрал замечательные анекдоты... и старался украсить истину живостью рассказа, а иногда и цветами собственного воображения».

На третьем уровне – пушкинская концепция жизни. При отсутствии тематического единства жизнь и судьба каждого персонажа определялась обстоятельствами. Именно обстоятельства вскрывались на пушкинском уровне повестей.

К «Повестям Белкина» примыкает написанная в жанре неоконченной повести «История села Горюхина» (Макогоненко), хотя другие исследователи (В.Кулешов) считает ее завершенным произведением. Обычно значение болдинской прозы Пушкина определяется созданием образа «маленького человека», по «История села Горюхина» также оказала сильное влияние на последующую литературу. Пушкин открыл ею новую область реализма, новые способы утверждения идеалов через обличение отрицательного.

Вершиной пушкинской прозы тридцатых годов стал исторический роман «Капитанская дочка». Автор читал его друзьям (у Вяземских в присутствии Жуковского) 1 ноября 1836г. Эпиграф к роману «Береги честь смолоду» через несколько дней (после получения пасквиля) станет главным ориентиром в оставшиеся три месяца жизни Пушкина.

Пушкинский реализм в этот период сочетает постановку глубоких вопросов и неоднозначность ответов. Художественный прием, к которому обращается Пушкин – рассказ от чужого лица. Именно так в виде семейных записок написана «Капитанская дочка». Используя документальный материал, собранный для «Истории Пугачева», автор создает вымышленный сюжет с вымышленными героями и подлинными историческими лицами. Испытание на человечность оказывается решающим для участников конфликта. В центре повествования не столько пугачевское восстание, сколько судьба простых, обыкновенных людей.

Петруша Гринев по рождению, присяге – на стороне дворян, по законам человечности – на стороне Пугачева. Гринев не испытывает к Пугачеву никаких неприязненных чувств - он обязан ему и жизнью и спасением Маши. В Пугачеве Гринев видит сильного, волевого человека, а из рассказанной «калмыцкой сказки» узнает его философию жизни. Пугачев – самый сложный характер, созданный сложными художественными приемами (двойной смысл главы «Вожатый», где Пугачев выводит путников на дорогу и где он вожак восстания; сон Гринева о чернобородом мужике с топором; застолье, пение, признания Гриневу о своих товарищах).

Особое место в образной системе принадлежит Маше Мироновой, в ее честь – заглавие «Капитанская дочка». Маша, в отличие от родителей Петруши, не может поверить в его измену и спасает Гринева. Во все войны и восстания самая тяжелая

ноша была на плечах женщин, они выживали в нечеловеческих условиях и спасали близких.

На наш взгляд необходимо решить два спорных вопроса в понимании пушкинского произведения:

1) судьба «Пропущенной главы»; и 2) кто стоит за словами о «бунте бессмысленном и беспощадном» - Гринев или автор.

«Сравнительно с «Капитанской дочкой» все наши романы и повести кажутся приторной размазней. Чистота и безыскусственность взошли в ней на такую высокую ступень, что сама действительность кажется перед нею искусственной, карикатурной. В первый раз выступили истинно русские характеры: простой комендант крепости, капитанша, поручик; сама крепость с единственной пушкой, бестолковщина времени и простое величие простых людей – все не только самая правда, но еще как бы лучше ее» (Н.В.Гоголь «В чем же наконец существо русской поэзии и в чем ее особенность?»).

Пушкин художник обращает свой исторический роман к будущему, знание прошлого прогнозирует будущее и оценивает настоящее. Соотнесенность повествования о прошлом с современностью обозначается назидательным обращением Гринева к внуку, которым и заключается повествование. «Капитанская дочка» - последнее из прозаических произведений и вместе с тем «маленькая», но первая народная эпопея» (Е.Н.Купреянова). Проблема крестьянского восстания, отношение к нему дворянства, в широком смысле, проблема добра и зла не могли получить однозначного решения, но главное – они поставлены Пушкиным.

Литература.

1. С.М. Петров. А.С. Пушкин. Очерк жизни и творчества. М., Наука, 1991.
2. Д.Д.Благой. Мастерство Пушкина. М., Наука, 1985.

XITOY ERTAKLARIDA EPIK MAKON TUSHUNCHALARINI BERILISHI

D.Sh.Saydaxmedova, Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Annotatsiya: Ushbu maqola xitoy ertaklarida epik makonning berilishi va uning turlari haqida bayon etadi. Ertak syujeti kechuvchi epik makonlar makromakonlar va mikromakonlarga bo‘lingan bo‘lib, ertak voqealariga ta’siri misollar yordamida yoritib berishga harakat qilingan.

Kalit so‘zlar. Epik makon, makromakonlar, mikromakon

Abstract. This article describes the provision of epic space and its types in Chinese fairy tales. The epic spaces where the fairy tale plot takes place are divided into macrospaces and microspaces, and an attempt was made to explain the influence on the events of the fairy tale with the help of examples.

Key words. Epic space, macrospace, microspace

Ertaklardagi barcha syujet voqealari makon va zamon doirasida sodir bo‘ladi. Har bir harakar va holat epik makonda yuzaga kelib, ma’lum zamon ichida kechadi, rivojlanadi va yechim nuqtasini topadi. “Boshqacha qilib aytganda, makon konsepsiyasi vaqt konsepsiyasi bilan o‘zaro yaxlitlikni tashkil qiladi.”[2:93]

Bu mavzuni tahlil qilish ertaklarning g‘oyaviy-badiiy jihatini yoritish, xalq tarixi, ijodiy salohiyati, badiiy tafakkuri, bilim va duyoqarash doirasini o‘rganishga ham yordam beradi.

Makon va zamon o‘lchovlarining har bir tafsiloti ertaklarda muhim o‘rin tutib, syujet davomida turli shakllarda namoyon bo‘ladi. Ular zamonning siqiq va yoziqligi, makon va masofaning uzoq yoki yaqinligini tasniflaydi. Zamon va makon xususiyatlarining ana shu xususiyatlari, syujet chizig‘ida tutgan o‘rni, funksiyalari xilma-xildir. Shu sabab bu masalalarni poetik hodisa sifatida har tomonlama o‘rganish, yechimlarini topish, nazariy asoslarini belgilash kerak bo‘ladi.[1:4]

Xitoy ertaklarida makon berilishining ham o‘ziga xos xususiyatlari, real va g‘ayritabiiy shakllari mavjud. Ertak voqealari ana shu epik makonda rivojlanib, o‘z nihoyasiga yetadi. Ertak boshlanmasida kelgan epik makon o‘ziga xos shakli va xususiyati bilan ajralib turadi. Xitoy ertaklarida ham ba’zan umumiy makon haqida gap ketsa, ba’zilarida ma’lum bir geografik hudud epik makon sifatida olinadi.

“传说古时候,在高山下面的大海旁边有一个很小的 村庄。村庄里有一个老汉,他有七个儿子。” “Aytishlaricha qadim zamonlarda, baland tog‘lar ostida, dengiz bo‘yida, kichik bir qishloq bo‘lgan ekan. Qishloqda bir chol bor bo‘lib, uning yetti o‘g‘li bor ekan.” (“Yetti aka-uka” ertagidan) [3:53]

“相传：中国古时侯有一种叫，“年” 的怪兽，头长尖角，凶猛异常，“年”兽长年深居海底，每到除夕，爬上岸来香食牲畜伤害人命，所以每到除夕，村村寨寨的人们扶老携幼，迷往深山，以躲避”年“的伤害. ” “Afsonalarda aytilishicha: qadim o‘tgan zamonlarda Xitoyda «Nian» ismli afsonaviy maxluq - uzun shoxli, g‘ayrioddiy dahshatli bo‘lib, maxluq «Nian» uzoq yillar dengiz tubidagi chuqurlikda yashar, har Yangi yil oyi arafasigacha sohilga qaytib chiqar, chorva mollarni yamlama yutar, xalq hayotiga zarar keltirar edi, shu sababli, har Yangi yil arafasigacha barcha qishloq aholisi keksa-yu yosh «Nian»ning ozorlaridan saqlanish maqsadida tog‘larning orasiga ketar edi.”(Nian ertagidan) [5]

Misollarimizda epik makon umumiy jihatdan ta’riflangan bo‘lib, qaysi tog‘lar orasidagi qishloq yoki qaysi dengiz tubi bular barchasi tinglovchi uchun noma’lum bo‘lib faqatgina insondagi mavjud ma’lumotlardan kelib chiqib umumiy tasavvurni uyg‘otadi.

Ertaklar orasida aniq bir manzil ko‘rsatilganlari ham mavjud. Ammo voqea-hodisa haqiqatda o‘sha yerda sodir bo‘lganini anglatmaydi, faqatgina o‘sha yerda yashovchi xalqning yashash tarzi yoki madaniyati bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin.

“很久以前,南阳城西有个牛家庄。”

“Uzoq yillar ilgari, Nanyang shahrining g‘arbida bir cho‘pon oilasi bor ekan.” (Cho‘pon yigit va to‘quvchi qiz ertagidan) [4:46]

“古代，在荒无人烟的戈壁滩上，波斯商人的骆驼队因遇风沙袭击而迷路.”

“Qadim zamonlarda, kimsasiz Gobi sahrosida , fors savdogarlarining tuya karvonlari shamolli qum bo‘roniga uchrabdi va yo‘lini yo‘qotibdi.” (To‘qqiz rangli ma’bud kiyik ertagidan)[6]

Epik makonlar ham o‘z doirasida ikkiga makromakonlar va mikromakonlar bo‘linadi. Makromakonlarga osmon, yer, yer osti kirsa, mikromakonlarda viloyat, shahar, qishloq, cho‘l, tog‘, dengiz kabilar kiradi. “epik makonlar ertak personajlari mavqeyiga qarab belgilanadi” [1:14]

Makromakonlardan biri osmon xudolar, burjlar, parilar, ajdarho va qaqnus qushlari mamlakati – jannat hisoblanadi. Yer esa tirik jonzotlar – odamlar, hayvonlar, goblinlar mamlakatidir. Xitoy ertaklarida yer osti arvohlar, ruhlar hududidir. Xudolar osmonda buyruqlar berishadi, yerdagilarni nazorat qilishadi. Agarda u yerdagilar jannat qoidalarini buzishsa yerga badarg‘a qilinadi.

“原来这头老牛本是金牛大仙因为触犯天条,被贬下天庭摔坏了腿差点饿死,幸好得到牛郎的照顾才活了下来,现在它要报答牛郎。”

“Ma’lum bo‘lishicha, bu keksa sigir asli boqiy buqa burji bo‘lib, Osmon(jannat) qonun-qoidalarini buzgani uchun jannatdan surgun qilingan, oyog‘i singan va deyarli ochlikdan o‘lay deganda, baxtiga, Cho‘ponning qaramog‘ida tirik qolgan ekan. Hozir esa Cho‘ponga yaxshiligini qaytarmoqchi ekan.” (Cho‘pon yigit va to‘quvchi qiz ertagidan).[4:46]

Yerdagilar arvoh va ruhlarni bezovta qilsa, yer ostida jazolanadi.

Xitoy ertaklarida syujet voqealari asosan besh ko‘rinishdagi makromakonlarda kechadi: osmon va yer, yer, yer va yer osti. Osmondagi xudolar yoki u yerda istiqomat qiluvchilar jannat qoidalarini buzib yerga tushiriladi, yoki ma’lum maqsadda yerga tushib yana qaytib ketishadi.

Yerda sodir bo‘ladigan hodisalar odatda odamlarning kundalik turmush tarzi haqida hikoya qilinib, osmon yoki yer osti bilan bog‘lanmasligi mumkin.

Yer va yer osti makromakonlarida kechuvchi voqealar odatda arvohlarning yer ustiga boshqa ko‘rinishda chiqishi, yoki yerdagilar ularni bezovta qilib oxir-oqibat o‘zlari yer ostida jazo ko‘rishi ko‘rinishida sodir bo‘ladi. Ularning birinchi makondan ikkinchi makonga o‘tishi voqealar rivoji va kulminatsiya yechimini ta’minlashda hal qiluvchi ro‘lga egadir. Odatda birinchi makromakondan ikkinchisiga o‘tishi ma’lum bir sababdan amalga oshiriladi. Xususan, olib qochilgan yorini qaytarish, o‘lgan yaqinini qayta tiriltirishga harakat qilish, jazoni o‘tash shular qatoridadir. Bu kabi sabablar sarguzasht voqealarning tashkil topishini va rivojini ta’minlaydi.

“只见她轻轻地拉住牛郎,又把两个孩子揽入怀 中,说道:“我是王母娘娘的外孙女儿。现在,天宫来 人要把我接回去了,你们自己多多保重! 说罢,泪如 雨下,腾云而去 。 ” “Qarasaki, u cho‘ponni ohista ushlab, ikki bolani bag‘riga olib: “Men malika onaning nevarasiman. Endi, jannatdagilar meni qaytarib olib ketishadi, o‘zingni ehtiyot qil! ” - deya ko‘z yoshlari yomg‘ir kabi to‘kilib, uchib ketibdi.”

Bu yerda ikki hodisa sodir bo‘lmoqda. Birinchidan, voqealar birinchi makondan ikkinchi makonda ko‘chib davom etmoqda. Ikkinchidan, voqealar yangi makonda qayta rivojlanib, syujetga yangi qahramonlar olib kirilishi va kulminatsiya nuqtasiga yetishi uchun imkon paydo bo`lmoqda.

Mikromakonlardan odatda qishloq, tog‘, g‘or, dengiz kabilar takrorlanadi. Shu bilan birga Xitoy ertaklarida nilufar gulli ko‘l bilan bog‘liq hodisalar ham ko‘p uchraydi. Nilufar gulli ko‘lga parilar cho‘milishga kelishi, yoki nilufar guli ustiga o‘tirolgan inson pariga aylanolish imkoniyatiga ega bo‘lishi va hokazo. B

Shu bilan birga mikromakonlar qahramonlarning ijtimoiy kelib chiqishidan kelib chiqib ham belgilanishi ko‘rishimiz mumkin. Masalan mikromakon qishloq sifatida olingan ertaklarda, qahramon dehqon yoki odddiy kambag‘al inson bo‘lishi mumkin. Tog‘da kechadigan voqealarning qahramonlari odatda hayvonlar yoki dindorlar yoki qaysidir ma’budga sig‘inuvchilar sifatida namoyon bo‘ladi. G‘or ham xuddi shunday ma’budga sig‘inuvchilar bilan bog‘liq syujetdan darak beradi. Yuqorida ta’kidlagan nilufar gulli ko‘l parilar bilan uzviy aloqadordir. Dengiz esa dengiz xudolari yoki baliqchilik bilan shug‘ullanuvchilar haqidadir. Bu esa boshlanmada keltirilgan hudud, ertak qahramonlarining kim bo‘lib chiqishini tinglovchiga oldindan ishora etadi.

Xitoy ertaklarida epik makon tasviri ertak boshlanmasida beriladi. Shu bilan birgalikda ertaklardagi epik zamon sulolalar orqali berilgani kabi, Xitoydagi mashhur shahar yoki viloyat nomlari orqali ham berilishi mumkin.

Xulosa o‘rnida aytishimiz mumkinki, Xitoy ertaklarida epik makon odatda ikki turda beriladi, makromakon va mikromakon. Makromakon orqali berish ertak personajlarining kim ekanligi anglatsa, mikromakonlar berish ularning qaysi ijtimoiy guruhga tegishli ekanligidan darak beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. K.Qodirov. O‘zbek sehrli ertaklarida zamon va makon talqini. F.f.n. olish uchun taqdim qilingan dissertatsiya aftoreferati. T.: 2004. – 27 bet.

2. Пропп И.Я. Фольклор и действительность. Хрестоматия по истории русской фольклористики. – М.: Наука, 1976. – С. 93.

3. 人生必读书：中国民间故事.长春: 吉林大学出版社, 2020. 183 页.

4. 立人主编.中国民间故事. 成都:天地出版社, 2022. 244 页.

5. https://zhidao.baidu.com

6. https://www.xiaogushi.cn/diy/minjiangushi

YOVVOYI HAYVON NOMLARI ORQALI INSON OBRAZI TASVIRLASH USULLARI (O‘ZBEK TILIDAGI O‘XSHATISHLAR MISOLIDA)

A.Sh.Hatamova, Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Annotatsiya: Mazkur maqola o‘zbek tilidagi o‘xshatishlar va ularning tarkibiy qismlariga bag‘ishlangan bo‘lib ,unda o‘xshatish etalonlariga alohida urg‘u berilgan. Unda o‘xshatishlarning turlariga ham qisqacha to‘xtalib o‘tilgan bo‘lib, o‘zbek o‘xshatishlarida nomlari uchraydigan yovvoyi hayvon obrazlarining o‘zbek lingvomadaniyatidagi o‘rni tahlil qilingan.Yovvoyi hayvon nomlari uchraydigan o‘xshatishlar qanday ma’noda kimlar uchun qo‘llanilishi mumkin ekanligi ham qayd etilgan.Yovvoyi hayvonlar nomlari bilan bog‘liq o‘xshatish birliklari ijobiy yoki salbiy ma’noda ishlatilishiga ko‘ra guruhlarga ajratilgan.

Kalit so‘zlar: o‘xshatishlar, o‘shatish subyekti, etalon, hayvon nomlari, erkin o‘xshatish, turg‘un o‘xshatish, ijobiy ma’no, salbiy ma’no.

Abstract: This article is devoted to similes in the Uzbek language and their components, with a special emphasis on simile standards. It briefly touched upon the types of similes and analyzed the role of the images of wild animals whose names appear in Uzbek similes in the Uzbek linguistic culture. It is also noted that it can be used for Uzbek similes with the names of wild animals are divided into groups according to whether they are used in a positive or negative sense.

Key words: similes, subject of analogy, ethalon, name of animals, free similes, static similes, positive and negative means .

Hozirgi rivojlanib borayotgan mamlakatimiz dunyoning deyarli barcha davlatlari bilan o‘zaro siyosiy,madaniy va savdo-sotiq aloqalarini yo‘lga qo‘ygan. Bu esa o‘z-o‘zidan turli xalqlarning tillari o‘rtasida tarjimonlarga ehtiyojni keltirib chiqaradi. Tarjimonlar ikki davlat o‘rtasidagi o‘zaro tinchlikni va hurmatni saqlab qolish uchun muhim bir vazifani bajarishadi. Bunga erishish uchun esa tarjimonlardan nafaqat tilni mukammal bilish, balki har bir so‘zning ortida yashiringan o‘sha xalqning lisoniy tafakkurini aks ettiruvchi ma’noviy xususiyatlarini ham anglay olishi talab etiladi. Shu jihatdan tili o‘rganilayotgan xalqning madaniyatini ham bilish muhimdir. Mamlakatning madaniyatini o‘rganish uchun esa o‘sha xalqning xalq og‘zaki ijodi namunalari, stereotiplari, ramzlari va o‘xshatish motivlari bilan tanishish lozim bo‘ladi. O‘xshatishlar o‘sha xalqning madaniyati, dunyoqarashi, turmush tarzi va tabiati haqida hikoya qiluvchi asosiy va ishonarli manbalardan biridir. Shu jihatdan, bugungi kunda turli xalqlar limgvomadaniyatida mavjud o‘xshatishlar ustida tadqiqotlar olib borilmoqda. O‘xshatish tasviriy ifodaning eng qadimiy ko‘rinishlardan biri hisoblanadi. M.Mukarramov o‘zbek tilshunosligida birinchilardan bo‘lib o‘xshatish ustida tadqiqot olib borgan. Unga ko‘ra, o‘xshatish uch qismdan iborat: o‘xshatiluvchi obyekt, o‘xshovchi obraz va o‘xshatish vositasi. Biroq o‘xshatiluvchi obyekt va o‘xshovchi obraz o‘xshatishning asosi bo‘la oladi. O‘xshatish vositasi esa asos bo‘lib xizmat qila olmaydi [1]. N.Mahmudov esa o‘zbek tilidagi o‘xshatishlarni to‘rtta unsurdan tashkil topganligini ta’kidlaydi. Ularni o‘xshatiladigan narsa yoki subyekt, o‘xshatish etaloni, o‘xshatish asosi va o‘xshatishning

shakliy ko‘rsatkichi deb nomlaydi [2]. *Axir, Mirvali bilan Luqmonov aka-ukadek qadrdon-ku!*[3]. Bunda o‘xshatish subyekt(lar)i – Mirvali, Luqmonov o‘xshatish etaloni – aka-uka, o‘xshatish asosi – qadrdon, o‘xshatish vositasi esa -dek qo‘shimchasi hisoblanadi.

O‘xshatishlar o‘ziga xos badiiy tafakkur mahsuli sifatida namoyon bo‘ladi. Shu jihatdan ular yakka muallifga tegishli yoki umumxalq birdek qo‘llashiga ko‘ra 2 turga, ya’ni erkin o‘xshatishlar va doimiy o‘xshatishlarga ajratiladi[4]. Masalan, Abdulla Qodiriyning “Mehrobdan chayon” romanidan olingan quyidagi parcha erkin o‘xshatishga misol bo‘la oladi: *“Sening murassa xaltachaga (qimmatbaho toshlar solinadigan kichkin xaltacha)o‘xshash kichkinagina yuraging bor, ichini qiymatli toshlar bilan to‘ldirg’ansan”.* Anvarning tilidan Ra’noga qarata aytilgan ushbu chiroyli qalbga nisbatan qo‘llanilgan o‘xshatish Abdulla Qodiriydan boshqa muallif ijodida uchramaydi. Uni yozuvchi o‘zi yaratgan bo‘lishi mumkin.

Turg‘un o‘xshatishlarda esa o‘xshatish etalonida ifoda etilgan obraz barqarorlashgan bo‘ladi. Bu turdagi o‘xshatishlar ham ma’lum bir muallif tomonidan yaratilgan bo‘lishiga qaramay, vaqtlar o‘tishi bilan xalq orasida ommalashib, doimiy qo‘llaniladigan birliklar sifatida o‘sha xalqning lingvomadaniyatidan joy olib ulgurgan bo‘ladi. *“Quyosh oydek yuzungning hijlatidin Qochib to‘rtinchi ko‘k uzra chiqibdur*”(Lutfiy). Go‘zal hamda tiniq yuzni oyga o‘xshatish mumtoz adabiyotda hamma uchun tushunarli va qoliplashgan o‘xshatish hisoblanadi. Lingvokulturologik nuqtai nazardan turg‘un o‘xshatishlar ayniqsa diqqatga sazovor. Negaki ular “milliy ong jumbog‘ini yechishga imkon beradigan yorqin obrazli vositalardan biri hisoblanadi”, dunyoni o‘ziga xos, milliy tarzda ko‘rish o‘xshatish semantikasida aks etadi” [5]. Turg‘un o‘xshatishlarning asosiy xususiyatlaridan biri – xalqning milliy-etnik va antropologik xususiyatlaridan kelib chiqib o‘xshatish etalonlari tanlanishidir. Bir madaniyat vakili uchun ijobiy ma’no kasb etgan so‘z, boshqa bir madaniyat uchun butunlay aksi bo‘lishi mumkin. Bu esa o‘zaro muloqotda va tarjima asarlar mutolaasida tushunmovchilikni yuzaga keltiradi. Masalan, o‘zbek lingvomadaniyatidagi “qo‘ydek yuvvosh” o‘xshatishidagi “qo‘y” etaloni o‘zbek xalqi dunyoqarashini aks ettiradi. Boshqa xalqlar o‘xshatishlarida ham qo‘y obrazi bor bo‘lsada, boshqa ma’no kasb etishi mumkin. Xususan, rus madaniyatida bu hayvon quyon bilan bir qatorda “qo‘rqoqlik” belgisi uchun o‘xshatish etaloni bo‘lib xizmat qiladi[6].

Tabiiyki, turli lingvomadaniyatlarda muayyan bir narsa, masalan, o‘simlik yoki hayvon turg‘un o‘xshatish etaloni sifatida qo‘llaniladi. E’tiborli jihati shundaki, muayyan bir xalq lisoniy tafakkurida ba’zi bir hayvonlar ijobiy, boshqalari esa salbiy ma’no kasb etishi bilan muhrlanib qolgan. Ayrim hayvonlar esa ham ijobiy, ham salbiy ma’noda o‘xshatish etaloni vazifasini o‘taydi. O‘zbek lingvomadaniyatiga nazar tashlar ekanmiz, hayvonlarning xalq turmush tarzi, tarixi, an’analarida tutgan o‘rniga ko‘ra lisoniy ongida turli obrazlarda shakllanganligini kuzatishimiz mumkin. Yovvoyi hayvonlarning hammasi ham salbiy ma’noda ishlatilmasligi xalqning hayvonlar haqidagi tasavvurlarining mahsuli yoki boshqa xalqlar o‘g‘zaki ijodi na’munlarining ta’siri

hisoblanadi. Xususan, o‘zbek lingvomadaniyatida yovvoyi hayvonlar o‘xshatish birliklarida ma’no anglatish xususiyatiga ko‘ra quyidagicha tasniflandi:

1.Ijobiy ma’noda qo‘llaniluvchi yovvoyi hayvonlar;

2. Salbiy ma’noda qo‘llaniluvchi yovvoyi hayvonlar;

3.Ham ijobiy ham salbiy ma’noda qo‘llaniluvchi yirtqich hayvonlar.

Hayvon nomlari	**Ijobiy ma’noda**	**Salbiy ma’noda**	**Neytral**
Ajdar	Benihoya kuchli, pahlavon	Jahli chiqib quturish,yamlash	-
Ayiq	Jasur, Baquvvat,	Beso‘naqay	-
Arslon	Mard, jasur	-	-
Baliq	-	-	Qaysidir vaziyatda o‘zini erkin his qilish
Buqalamun	-	O‘z manfaati yo‘lida o‘zgaruvchan ayyor	-
Bo‘ri	Dovyurak, mard	G‘ajimoq	-
Och bo‘ri	-	Yovuz, izg’imoq	-
Ilon	-	Sovuq, o‘ta yoqimsiz, zahar sochish	-
Kaltakesak	-	Juda yoqimsiz, jirkantiradigan	-
Kiyik	Chaqqon, hushyor, sergak, hurkak	-	-
Fil	Bardoshli, baquvvat, bahaybat	-	-
Maymun	Benihoya abjir	Mazax qilish, laqillatib o‘ynatish	
Nahang	-	Har narsani yutib yo‘q qilmoq	-
Ohu	Chaqqon, nozik, hurkak	-	-
Quyon	Qochib qolish	-	-
Sichqon	-	Kemirmoq, yeb bitirmoq	-
Toshbaqa	-	Immilamoq, sudralmoq	-
Tulki	-	Ayyor, hiylakor	-
To‘ng’iz	-	Haddan tashqari	-

		semiz, qo‘pol	
Sher	Mardona, jangovor, azamat	-	-

O‘zbek lingvomadaniyatidagi o‘xshatishlardagi ajdar obrazi xalq og‘zaki ijodi na’munalaridan kirib kelgan. Xalq ertaklari va dostonlarida uchraydigan ushbu hayvon o‘ta bahaybat va yengilmas ko‘rinishida tasvirlangan. Bundan tashqari ba’zan jahldor va shafqatsiz hayvon obrazida ham gavdalangan. Shu jihatdan u ham ijobiy ham salbiy o‘xshatish etaloni sifatida xalqning ongida muhrlanib qolgan, Masalan, M.Osimning “Kitobga ixlos’’ hikoyasidan keltirilgan ushbu parchada ajdaho salbiy ma’nodagi o‘xshatish etaloni sifatida qo‘llanilgan, *“Yong‘in borgan sari kuchayar,qimmatli kitoblarni ajdahodek yutayotgan alanga quturib, hujra eshigidan tutun aralash chiqib turar edi.* P.Qodirovning “Yulduzli tunlar” romanida esa ajdahoning kuchli va yengilmas sifatiga ijobiy ma’nodagi o‘xshatish birligi xosil qilingan. *“Bizning Samarqanddagi dushmanlarimiz yetti boshliq ajdarhoday zo‘r edi* [7]. O‘zbek tilida ayiq ham salbiy hamda ijobiy xarakterga ega o‘xshatish etaloni hisoblanadi. U ijobiy ma’noda baquvvat kuchli ma’nosida ishlatiladi(asosan erkaklarga) [4]. Quyidagi parchada bunga misolni uchratishimiz mumkin*;Urushda zo‘r arslon yuragi kerak, Kurashda-chi qoplon bilagi kerak. To‘ng‘izdek hujumkor, bo‘ridek kuchli, Ayiq shiddati-yu qo‘tosning o‘chi* [8]. Ushbu misolda askarlika loyiq kishining sifatlari berilgan bo‘lib, u bo‘riday kuchli va ayiqday baquvvat, jasur bo‘lmog‘i lozimligi aytilgan. Ayiqning baquvvat hayvon sifatida tasvirlanishi uning tashqi ko‘rinishi bilan bog’liq bo‘lib,uning semiz va baquvvat tanasi xalqning ongida kuchli hayvon sifatida gavdalanishiga asos bolgan. Insonlar ayiqni qo‘l kuchi yengish mushkul deb hisoblashgani uchun ham baquvvat kishilarni unga o‘xshatishgan.Shu bilan birga uning qo‘pol va beso‘naqay harakatlariga insonlarning qo‘pol harakatlari o‘xshatilib salbiy ma’nodagi o‘xshatishlar yuzaga keladi. *Ana,beton qorishmasi sachrayverib, shimining pochasi qatirmoch bo‘lib ketgan Safar aka Ayiqdek lapanglab kelyapti* [9].

O‘zbek tilidagi o‘xshatishlarda nomlari uchraydigan yovvoyi hayvonlarning ba’zilari salbiy ma’noda qo‘llaniladi. Boshqa birlari esa ijobiy ma’nodagi o‘xshatish etaloni vazifasini bajaradi. Yovvoyi hayvonlarning yashash tarzi, ov qilish usuli, tashqi ko‘rinishi va yemishiga qarab xalq tasavvurida ularning obrazi shakllangan. Shu jihatdan o‘xshatishlarda uchraydigan har bir hayvon xalqning lisoniy manzarasini aks ettiradi. Xususan buqalamun o‘zbek tilidagi o‘xshatishlarda hech qachon ijobiy ma’noda qo‘llanilmaydi. O‘z manfaati yo‘lida o‘zgarib turuvchi, laganbardor, ayyor kimsalar, insonlarning vaziyati va mansabiga qarab muomalasini o‘zgartiruvchi odamlar buqalamunga o‘xshatiladi. Bu uning teri rangini atrof-muhitga moslab o‘zgartirib turishi bilan bog‘liq. “Yoshlik” jurnalidan olingan ushbu parchada ikkiyuzlamachilikni buqalamunga o‘xshatish holati ko‘zga tashlanadi. *“Savdogarchilik kasbi odamni buqalamunga o‘xshatib qo’yadi chog‘i”* [10]. Vaziyatga qarab o‘zgarib, odamlar bilan muomalada ham beqaror kishi buqqalamunga o‘xshatilyapti. Buqalamunga zid ravishda kiyik faqatgina ijobiy ma’nodagi o‘xshatish etaloni sifatida o‘rnashib qolgan. Uning

tabiatiga xos bo‘lgan tez yugurish va hurkaklik, hech qanday jonzotni ovlab unga ziyon keltirmasligi, tashqi ko‘rinishi jihatdan esa nozikligi u bilan bog‘liq o‘xshatishlarga asos bo‘lgan. “*Onasining: “Sulh tuzing, binokor bo‘ling!” degani “kiyikday beozor yashang” degani edi”* [7]. Kiyikdek chaqqon, hurkak o‘xshatishlari ayol va qizlarga nisbatan ishlatiladi. *“Kiyikday chaqqon Xonzoda begim yigitning yelkasidan tutib, o‘zini tez o‘ngladi va unga sekin rahmat aytdi”*[7]. O‘zbek tilida har bir yovvoyi hayvon o‘ziga xos o‘xshatish etaloni vazifasini bajaradi. Ularning har birining ortida shu xalqning lisonniy tafakkuri yashirin.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, o‘xshatishlar o‘zbek tilining eng boy va qadimiy birliklaridan hisoblanadi. Shu jihatdan, ular o‘zbek xalqining turmush tarzi , madaniyati, tarixi, tasavvuri va dunyoqarashini ko‘rsatib beruvchi eng ishonchli omillardan biridir. O‘xshatishlar ustida ko‘plab tadqiqot ishlari olib borilgan bo‘lib, ular adabiy, lingvistik va linvomadaniy tomondan o‘rganilgan. O‘xshatishlar erkin holda ham yasalib qo‘llaniladi. Bu muallifning o‘z kuzatuvlari va tasavvuri bilan bog‘liq bo‘ladi. Xalqning uzoq yillik tajribasi, milliy mentaliteti natijasida yuzaga kelgan, shu bilan birga barcha uchun tushunarli, tanish bo‘lgan o‘xshatishlar esa turg‘un o‘xshatishlar hisoblanadi. O‘xshatishlar uchun u yoki bu narsa, hayvon yoki o‘simlik dunyosi va shu kabilar o‘xshatish etalonlari sifatida tanlanadi. Eng ko‘p uchraydigan o‘xshatish etalonlari sifatida esa o‘simlik yoki hayvon nomlari kelishi kuzatildi. O‘z o‘rnida hayvonlar ham xalqning tasavvuriga bog‘liq ravishda ijobiy yoki salbiy xususiyatlariga ko‘ra o‘xshatish etaloni vazifasini bajaradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1.Mukarramov M. O‘zbek tilida o’xshatish. Monografiya. – Toshkent: Fan, 1976. – B.239 .

2.Mahmudov N. O‘xshatishlarda milliy mentallik jozibasi // Til va adabiyot ta’limi. 2019. 2-son. – B.5

3. Ahmad S. Jimjitlik. – Toshkent: O‘zbekiston, 2008. – B.157.

4.Mahmudov N, Xudoyberganova D. O‘zbek tili o‘xshatishlarining izohli lug‘ati. – Toshkent: Ma’naviyat, 2013. – 320 b.

5.Маслова В. Лингвокультуралогия. М., Academia, 2001 – С.133-134.

6.Байко Л. Культурно маркированное содержание устойчивых сравнений русского языка. – Волгоград: 2009. -218 b.

7.Qodirov P. Yulduzli tunlar. –Toshkent: Yoshlar Nashriyot uyi, 2017. – 480 b.

8. Yusuf Xos Hojib. Qutadg‘u bilig. –Toshkent: Cho‘lpon, 2007. –B. 82.

9.Hoshimov O‘. Ikki eshik orasi. –Toshkent: Sharq, 2012. – B. 9.

10.O‘zbek tilining izohli lug‘ati. –Toshkent: O‘zbekiston milliy entsiklopediyasi, 2006. I jild – B. 392.

11.http//www.ziyonet.com.

12.https//kh-davron..uz.

O'ZBEKISTONDA TURIZMNI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARIGA DOIR

M. Mazamjonova, U. Soliyev Namangan davlat chet tillari instituti

Annotatsiya: Turizm-bugungi kundagi va davlatlarda muhim ahamiyatga ega sohalardan biri.Ko'plab yo'nalishlarga ega hisoblanadi.Xususan,tarixiy-madaniy,tabiiy,quruqlik va suv turizmlari shularga misol bo'la oladi.Ko'pchilik sayyohlar yurtimizdagi turistik obyektlarga boshqa davlatlardan kam bo'lmagan holda qiziqish bildirishmoqdalar.

Kalit sozlar: Rekreatsion,turistlar,turistik madaniyat, ichki va tashqi turizm,

Boshqa davlatlardan ortda qolmagan holda O'zbekistonda ham turizm o'ziga xos o'ringa ega.Yurtimizda turizmni rivojlantirishga to'la qonli ishlarni,yetarli sharoitlarni ko'rishimiz mumkin.Misol uchun,Prezidentimiz tomonida ko'plab qaror va farmonlar ishlab chiqilgan.Jumladan,O‘zbekiston Respublikasining “Turizm to‘g‘risida”gi Qonuni,O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 13-avgustdagi PF-5781-son "O‘zbekiston Respublikasida turizm sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi Farmoni va boshqalar.

O’zbekiston o’zining ko’plab tarixiy-me’moriy yodgorliklari, turfa xil iqlimi va tez sur’atlarda rivojlanishi bilan butun dunyo diqqatini o’ziga tortmoqdah.Yurtimizda turizm qadimdan rivojlangan desak adashmaymiz.Negaki,bizning yurtimiz qadimgi zamon savdosiga juda katta foyda keltirgan Buyuk ipak yolida joylashgan.Chet ellik savdogar va sayyohlar shu yol orqali bizning yurtimizga ham kelishib ozlarining savdo-sotiq ishlarini amalga oshirishgan.

Shu hodisa bizning turizm sohasini nafaqat bugungi kunda balki otkan zamonlarda ham mavjud bolganligiga misol bolishi mumkin.Bugungi kunda barcha sohalar qatori turizm ham jadal suratlarda rivojlanib bormoqda. Chet el turistlarining yurtimizga tashrif buyurish korsatkichi hozirgi davrda otkan yillarga qaraganda sezilarli darajada osishi kuzatilmoqda.

Yurtimizga tashrif buyurgan har bir mehmonlar uchun yetarlicha sharoitlar mavjud. Tarixiy, madaniy,sport,biznes,rekreatsion va boshqa yana ko'plab turistik yo'nalishlar mavjud bolib,tashrif buyuruvchi har qanday turist bu imkoniyatlardan o'zi hohlaganicha foydalanish imkoniga ega.

Tabiat go'zalliklaridan bahra olmoqchi bo'lsa,yoz-u qish o'zining qorli nafasi bilan to'la bo'lgan Chimyon va Chortoq tog'lariga chiqishi,do'stlari yoki oila davrasida shashliklar go'shtlar pishirib,maroqli dam olishi mumkin.

O'zbekistonning tarixiga yoki madaniyatiga qiziquvchilar bo'lsa ular uchun ham o'zgacha,bir-birini takrorlamaydigan shaharlarimiz,obida-yu inshoatlarimiz bor.Bir tomonda Samarqand bir tomonda Xiva-yu Buxoro shaharlari qurilganiga 2500 yildan ortiq vaqt bo'lgan bo'lsada,hali ham kelgan mehmonlarning e'tiborlarini tortishda davom etmoqda.

O'z salomatligini tiklash niyati bilan tashrif buyurish niyati bo'lgan sayyohlar turli xil kasalliklarga tibbiyot sohasida yuksak bilim egasi bo'lgan Ibn Sino bobomizning

izdoshlari o'zlarining sifatli dam olish sanatoriyalarini taklif qiladi.Zomin va Xonobod sanatoriyalarida ham yuksak bilimli va shirin so'zli shifokorlar bemorlar dardiga davo ulashmoqdalar.

Shuni ham ta'kidlab o'tish kerakki,O'zbekistonga yanada ko'proq turistlarni jalb qilish kerak.Nega deganda bazan youtube internet sahifalarida blogerlar tomonidan joylangan shunday vidiolarni ko'rib qolamiz.Ularda chet ellik insonlarga O'zbekiston haqida nimalarni bilishlari haqida savollar berishganlarida chet elliklarning ko'pchiliklari ,hatto, bizning davlat nominigina bilishlarni aytishadi ,holos.Bundan ko'rinib turibdiki,yurtimizda hali yana ko'plab qo'shimcha ishlarni ham amalga oshirishimiz kerak bo'lar ekan.

Men o'zim shu soha bo'yicha institutda 1-kurs talabasiman.Men ustozlarimdan olgan bilimlarimni amalda sinash maqsadida bir ajoyib loyihaga qadam tashlash arafasidam."YOUNG GUIDES COMMUNITY"nomli telegram ijtimoiy sahifasida o'zimning birinchi jamoamni tashkil qildim.Hozirda shu jamoamga o'zim kabi turizm sohasiga qiziquvchi yoshlarni to'plamoqdaman.Jamoa shakllangandan so'ng barchamiz O'zbekistonning barcha viloyatlaridagi turistik obyektlar va joylar haqida ma'lumotlar joylangan vidioro'lik tayyorlash niyatim bor.Va uni Internet saytlariga joylaymiz.Barchamizga ma'lumki,hozirgi kunda axborotlarni qulay va tez tarzda yetazishni ta'minlaydigan ham shu internet sahifasidagi sayt va platformalar hisoblanadi.

Bundan nima naf degan savollar barchada paydo bo'lishi aniq.Barchamizga aniq bo'lgan volontyorlik tashkiloti turli xil tadbirlar va muruvvat ishlarini amalga oshirishmoqda.Va bu tashkilotning safi kundan-kunga rivojlanmoqda.Men tashkillashtirmoqchi bo'lgan jamoam ham kelajakda yurtimizga kelayotgan turistlarga ,nafaqat,chet ellik balki o'zimizning aholimizga ham foyda beradi.Bu bilan bir vaqtning o'zida ham tashqi turizm ham ichki turizm rivojlanadi.Yurtimizga tashrif buyurgan turist turizm agentligiga uchrab,gid qidirib sarson bo'lmaydi.Bizning jamoamizning o'zi ularga ular hohlagan va ular uchun qulay bo'lgan xizmat ko'rsatadilar.

Men tashkil qilmoqchi bo'lgan loyihaning qisqacha ta'rifi shunday.Hozircha,shularni reja qilmoqdaman keyinchalik boshqa tashkilotlar singari bu loyiha ham rivojlanib,barcha uchun foyda keltiradigan tashkilotlar qatoridan joy olishiga ishonchim komil.

Yuqorida tashqi turizm bilan bir qatorda ichki turizm haqida ham gapirib o'tdim.Aholimizning ham sekin asta sayr-sayohatga qiziqishlari ortib bormoqda.Lekin nafaqat chet elliklar balki o'zimizning ham aholi haligacha yurtimiz ichki turizmida faol bo'lishganlaricha yo'q.Ularga ham turizm aslida ham maroqli va foyda ekanligi haqida tushunchalar berish zarur deb o'ylayman.

O‘zbekistonda ichki turizmning rivojlanishi bilan bog‘liq holatni o‘rganish uchun 2023 yilning mart-aprel oylarida o‘tkazilgan so‘rovnomada 1032 kishi ishtirok etdi.Natijalarga ko‘ra, sayohatlar chastotasi bo‘yicha respondentlarning 58,5 foizi yiliga kamida bir marotaba, 16,6 foizi 3 oyda bir marotaba, 8,3 foizi oyiga bir marotaba ichki sayohatga chiqadi. Shu bilan birga ishtirokchilarning 32,3 foizi sayohat qilish va

mamlakatning diqqatga sazovor joylarini ko‘rish istagini bildirgan.Qatnashchilarning 24,7 foizi pul yetishmasligi, 27 foizi esa bo‘sh vaqtning kamligi uchun sayohatga chiqolmasligini bildirgan.

Bundan tashqari, ichki turizmdagi asosiy muammolar sifatida ham aholining fikri o‘rganilgan. Unda nisbatan dolzarb omillarning birinchi guruhiga yo‘llar sifati, mehmonxona va transport narxi, suv ta’minoti va kanalizatsiyadan foydalanish kiritilgan. Keyingi o‘rinda qanoatlanmaslik darajasi o‘rtacha bo‘lgan turistik xaritalar va ma’lumotlarning kamligi, transport topish, umumiy ovqatlanish joylarida gigiyena va sanitariya qoidalariga qat’iy rioya qilinmasligi, elektr energiyasidan foydalanish kabilar ko‘rsatilgan.

Sayohatchilar diqqatga sazovor joylar haqida internetdagi ma’lumotlar, mehmonxona xizmati, mehmonxonalarni qidirish va ovqatlanish joylarini topishga oid ma’lumotlar ularni nisbatan qoniqtirishini ma’lum qilishgan.

Meni o'z lohiyam orqali shu kabi yurtimiz turizimidagi ba'zi kamchiliklarga yechim topishni oldimga maqsad qilib qo'ydim.Biz jamoamiz bilan birgalikda bir vaqtning o'zida ham chet elliklarni yurtimiz qizishlarini oshirish,ham aholimizning turizm madaniyatlarini yanada rivojlantirish yo'lida tolmay horimay qo'l berib harakat qilamiz.

Yurtimizda turizm qanchalik rivojlansa,iqtisodiy va ijtimoiy sohalarga ham juda katta foyda keladi.Ko'plab ishsiz aholi ish bilan ta'minlanadi.Har bir kelgan turist o'zi bilan hech bo'lmaganda bitta esdalik sovg'asi olmasdan ketmaydi.Bu bilan esa Savdo-sotiq va ishlab chiqarish rivojlanada.Avtomobil yo'llari, temir yo'llar,havo yo'llarining qatnovi ham ko'payadi.

Xulosa qilib aytganda, turizm ko'p eshiklarni ochishga yordam beradi.Masalan,yoshlarimizning chet tillarini o'rganishga bo'lgan qiziqishlari ortib boradi.Negaki,kelgan chet el sayyohi bilan suhbatlashish uchun chet tilini o'rganish kerak.Yoshlarning keraksiz ishlar bilan shug'ullanishi,bekorchilikdan turli jinoiy ishlarni sodir etishlari kamayadi. Har tomonlama ham davlatga ham aholiga foyda bo'ladi.

JEYMS JOYS SHE’RIYATINING O’ZIGA HOS HUSUSIYATLARI

N.U. Egamova Namangan davlat chet tillari instituti

Abstrakt: Bu maqolada, ingliz yozuvchisi va shoiri Jeyms Joys hayoti va ijodi, she`riyat olami haqida so’z boradi. Uning she`riy to’plamlaridagi ayrim she`rlar tahlil qilinib, o’zim tomonimdan amalga oshirilgan tarjima o’quvchi e`tiboriga havola etiladi. Bu maqolani o’qigach, o’quvchi, Jeyms Joys nazmda ham muvaffaqiyatli ijod qila olganiga ishonch hosil qiladi degan umiddamiz.

Abstract:James Joyce, an English author and poet, is discussed in this page along with his poetry.We'll examine a few of his collections of poems and let the reader know a bout my translation.The reader should be persuaded that James Joyce was capable of writ ing poetry after reading this article, we hope.

Jeyms Joys (to’liq ismi Jeyms Ogastin Aloysius Joys) Irlandiyalik yozuvchi va shoir, 1882-yilning 2-fevralida Irlandiyaning Dublin shahrida tavallud topgan.U Mey va Jon Joysning 10 nafar farzandlarining to’ng’ichi bo’lgan. Joys 1891-yilgacha, ya’ni otasi moliyaviy tomondan imkonsiz bo’lguniga qadar iezuit maktab-internatida tahsil olib, keyinchalik 1899-1902 yillarda Dublin dorilfununining filologiya fakultetiga o’qishga kiradi va u yerda zamonaviy tillarni, antik adabiyot,tarix va mantiqni o’rganadi.Yozuvchining olgan bilimlari istiqbolda uning butun ijodiga o’z ta’sirini ko’rsatadi. 1902-yilda u Parijga tibbiyotni o’rganish uchun boradi, lekin qaytganida, yetarli malakaga ega emasligini anglaydi.U doimo pul topish uchun kurashib,o’qituvchilik,bank xodimi kabi vaqtinchalik ishlar bilan shug’ullanadi.1903 yilda onasi betobligini bilib Irlandiyaga qaytadi, lekin onasi shu yilning avgustida vafot etgach, 1904 yilning iyun oyida bo’lajak turmush o’rtog’i Nora Barnakl bilan tanishadi va birgalikda 9- oktyabrda Parijga ketishadi. U umrining qolgan yillarini Triyest, Syurix, Rim va Parijda yashab o’tkazadi va yashash uchun Irlandiyaga qaytmaydi.

Joys hayoti davomida to’rtta roman, pyesa, hikoyalar to’plami va uchta she`riy to’plamni nashr ettirgan. 1907- yilda uning birinchi she’riy kitobi “Chamber myuzik”, 1914-yilda novellalardan iborat “Dublinliklar” nomli to’plami, 1916-yilda “Musavvirning yoshlikdagi shamoyili” nomli romani, 1922- yilda “Uliss”, 1939- yilda “Finnegancha ma’raka” nomli romanlari chop etiladi.

Umrining ko’p qismini ko’rishning yomonlashuvi va kolit (ichak kasalligining bir turi) dan aziyat chekib o’tkazgan Joys, 1941-yil Syurixda o’n ikki barmoqli ichak yarasining yorilishidan vafot etadi va o’sha yerga dafn etiladi.

Ko’p manbalarda Jeyms Joys she`riyati u qadar shuhrat qozonmagan, chunki u yoshlikdagi sevgi-muhabbat dardi, satira va yumordan iborat bo’lgan deya ta’rif beriladi. “Kamera musiqasi” (1907), “Penyich poms” (1927), “She `rlar to’plami” (1936) va “Surgunlar” (1918) pyesasi garchi mahorat bilan yozilgan bo’lsada , Jeyms Joysni xalqlararo tanilishiga katta hissa qo’shmadi.

Avvalo buyuk so’z san’atkorining nasri soyasida qolib ketgan nazmining vujudga kelishi haqida so’z yuritsak. Joysning birinchi she`riy to’plami “ Kamera musiqasi” , u bo’lajak rafiqasi Nora Barnakl bilan uchrashganlaridan uch yil o’tgach, 1907- yilda nashr etilgan, qo’shiq qilib aytish mumkin bo’lgan, hajmi kichik she`rlardan iborat to’plamidir. Bu to’plamda 34 ta muhabbat haqidagi she`rlar jamlangan bo’lib, nashrdan oldin unga yana ikkita, “Kun bo’yi suv ovozini eshitaman” va “Yerga hujum qilayotgan qo’shinni eshitaman ” nomli she`rlari qo’shiladi. Quyida uning she’rlaridan biri va uning o’zbek tilidagi tarjimasini berib o’taman.

Strings in the earth and air...

Strings in the earth and air
Make music sweet
Strings by the river where
The willows meet
There’s music along the river

For love wanders there,
Pale flowers on his mantle,
Dark leaves on his hair.
All softly playing,
With head to music bent,
And fingers straying
Upon an instrument.

Bu she`r, sevgi va tabiat uyg’unligini kuylasada, uni so’zma- so’z tarjima orqali tushunish mumkin emas. Negaki muallifning she`rlari yangicha poetik uslubda yozilgan bo’lib,bunda badiiy shakl o’zida g’oyaviy, psixologik va boshqa jihatlarni mujassam etib, mazmun o’rnini bosa oladigan darajada namoyon bo’ladi.Bu she`rning tarjimasi shunday ko’rinishga ega bo’ldi:

Ajib musiqa...

Zamin uzra ajib musiqa
Yangrar bo‘lib sehrli ohang.
Bir ohangki, daryo uzra sho‘x
Tolbarglar ham o‘ynar hamohang.
Daryo bo‘ylab yam-yashil barglar
Rangpar gullar yotar yastanib.
Oshiqlarni chorlar bag‘riga
Daryo suvi sirli mavjlanib.
Musiqaga jo‘r bo‘lib bari
O‘ynoqlaydi ohista,mayin.
Go‘yo sozchi nozik barmog‘i
Tor ustida tebranar sokin..

Jeyms Joysning ikkinchi she`riy to’plami “Pomes Penyeach” (sarlavhasi ham Joysning so’z o’yinlaridan biri bo’lib, ma’nosi “ har biri bir tiyinlik she’rlar”) 1904-1924-yillar oralig’ida Joys tomonidan yozilgan o’n uchta she`rni o’z ichiga olib, mingta atrofidagi so’zdangina iborat bo’lsada, uning “Qizimga berilgan gul”, “Fontana plyajida ”, “Tilli” kabi bir qator she’rlari antologiyalarda shu kungacha chiqishda davom etmoqda.Bu to’plamda o’rin olgan yana bir she`r “She weeps over rahoon” ni ingliz tilidagi va o’zbek tiliga tarjimasiga nazar solamiz.

She weeps over rahoon...

Rain on Rahoon falls softly, softly falling,
Where my dark lover lies.
Sad is his voice that calls me, sadly calling,
At grey moonrise.
Love, hear thou
How soft, how sad his voice is ever calling,

Ever unanswered, and the dark rain falling,
Then as now.
Dark too our hearts, O love, shall lie and cold
As his sad heart has lain
Under the moongrey nettles, the black mould
And muttering rain.

Bu she`rning yaratilish tarixi turli manbalarda turlicha talqin etiladi. Xususan, bir manbada adib bu she’rni yozganda, onasiga saraton kasalligi tashxisi qo’yilgani va tez fursatda bu kasallikdan vafot etgani sabab qilib ko’rsatilsa, boshqa bir manbada qaro tun bag’rida va yomg’irlar ostida sevgan yori dafn etilgan qizning qabr ustida ko’z yosh to’kishi haqida hikoya qilinadi. Garchi bular shunchaki taxmin bo’lsada, shoir bu she`rni yurakning tub-tubiga kirib borishiga erishgan.O’quvchini chuqur o’yga soladigan, muhabbat va o’lim orasidagi sadoqat, ayriliq azobi va yurakdagi og’riqni juda chiroyli tasvirlab bera olgan. Birgina qabr ustidagi qichitqi o’tning misol keltirilishini olsak: bu o’simlikning barglari yurak shaklida bo’lishi va atrofi tikonlar bilan o’ralgani va bu yurakni jarohatlashi mumkinligini bilishimiz, shoirning naqadar teran fikr egasi ekanligini anglatadi. Quyida bu she`rning o’zbek tilidagi tarjimasini o’qiymiz:

Qabr uzra to’kar u ko’z yosh...
Ohista va sokin yomg‘ir yog‘adi
U yog‘gan qabrda sevgim yotadi.
G‘am to‘la ovozi chorlaydi meni
Ovozki, tun bag‘rin chok- chok etadi.

Sevgim, quloq osgil, uning ovozi
Meni chorlamoqda ma'yus va mayin,
Va lekin bu sado yomg‘ir ostida
Javobsiz qolmoqda kecha va bugun.
Ey sevgi, dard to‘la yuraklarimiz
Shu sharros yomg‘irning, qichitqi o‘tning,
Botqoqqa aylangan qora tuproqning
Tubida oromin toparmi aytgin...

1932-yilda yozilgan “Esse puer” , she`rlari ichida eng muvaffaqiyat qozongan she`ri hisoblanadi. She’rning so’zma-so’z tarjimasi “Mana, yosh bola” bo’lib, u 1932-yilning fevral oyida tug’ilgan nabirasi Stiven va sal avval dekabr oyida vafot etgan dadasining vafoti sabab yozilgan she`r hisoblanadi.Bu she’r go’dakning yorug’ dunyoga kelishini tasvirlash bilan boshlanib, otasi o’lim to’shagida yotganida qit’adan Irlandiyaga qaytmagani uchun aybdorlik hissi bilan kechirim so’rash bilan yakunlanadi.

Xulosa qilib aytadigan bo’lsak, Jeyms Joys nazmi ham ,uning nasri kabi rangbarang va takrorlanmasdir.Uni mazmunan tushunish, qalban his qilish uchun esa ularga shoir ko’zi bilan qarash kifoya.Zero ,hech bir asar dunyoga sababsiz kelmaydi.

Ular biror- bir dard, orzu yoki go’zallikni kuylash uchun yaratiladi. Joys shu tuyg’ularni she`rlariga ko’chira olgan buyuk shoirdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Blake,William,The complete poems,3rd edition,ed.by W.H Stevenson(London:Longman 2007).
2. Wordsworth,William,The Prelude: 1799,1805,1850 ed.by Jonathan Wordsworth et al.(New york:W.W.Norton,1979)
3. Lennartz,N. “The Ache of Modernism”:James Joyce’s Pomes Penyeach and Their Literary Context.University of Vechta
4. https://qomus.info/oz/encyclopedia/j/jeyms/
5. https://ziyouz.uz/ilm-va-fan/adabiyot/valentina-ivasheva-jeyms-joys/?ing=lat
6. https://uz.m.wikipedia.org/wiki/James_Joyce
7. https://www.theguardian.com/books/2014/jun/16/ecce-puer-james-joyce
8. https://archive.org/details/pomespenyeach_2301_librivox
9. https://www.bl.uk/people/james-joyce

DUNYO TILSHUNOSLIGIDA “TERMINOLOGIYA VA TERMIN” TUSHUNCHALARINING VUJUDGA KELISH OMILLARI

D.Hamdamov, G.S.Hojiyeva. Buxoro davlat universiteti

Annotatsiya: Mazkur maqola dunyo tilshunosligida terminologiyaning soha sifatida tutgan o‘rni, uning asosi bo’lgan “termin”ga ta’rif, bu borada xorij va o‘zbek olimlarining soha rivojiga qo’shgan hissasi va terminologiya doirasidagi izlanishlarga bag’ishlangan.

Kalit so‘zlar: til, tilshunoslik, terminologiya, termin, atama, tushuncha, izohli lug‘at.

Til — inson ma’naviy olamida uning o‘zligini anglash yo‘lidagi eng buyuk kashfiyotidir. Zero davrlar mobaynida tilni tadqiq qilar ekan inson, uning yangi va yangi qirralarini kashf qilib boradi. Shu tariqa *tilshunoslik* deb ataluvchi so‘zlar va ularning o‘ziga xos xususiyatlaridan tashkil topgan ulkan “piramida” bunyodga keldi va hali-hamon uning qirralari kengayib bormoqda [2,12].

Tilshunoslik soha sifatida tadqiq etilar ekan, terminologiya uning muhim bo‘g‘ini sifatida ajralmas qismiga aylanib, bugungi kunda uning fanda bir necha ta’riflari mavjud.

✓ Terminologiya (lotincha *terminus* – chegara + yunoncha *logos* – fan, ta’limot) bir necha ma’nolarini o‘zida aks ettiradi:

1. Fan, texnika, kasb-hunarning bir sohasida qo‘llaniladigan terminlar majmui. Masalan, o‘zbek tili terminologiyasi.
2. Tilshunoslikning terminlarni o‘rganish, tartibga solish bilan shug‘ullanuvchi sohasi. Masalan, terminologiya bo‘limi, terminologiya mutaxassisi [9.74.]

✓ Terminologiya — muayyan bir sohaga oid terminlar majmui va tilshunoslikning terminlarni tartibga solish haqidagi sohasi. Masalan, grammatika terminologiyasi, terminologiya masalalari. [18.564.]

✓ Terminologiya – terminlar to‘plamidir. Terminlar leksik birliklar bo‘lib, ularning ma’nosi ixtisoslashtirilgan matnlarda mutaxassislar tomonidan belgilanadi [5].

✓ Terminologiya – bu bir tizim, eng avvalo, aniq bir terminologik sistemaga xizmat qiluvchi maxsus so‘zlarning lisoniy tartiblanganligi, ya’ni terminlar yig‘indisi hisoblanadi. Shundan kelib chiqib, turli terminosistemalar “milliy tilning leksik sistemasida mavjud bo‘lgan, aniq, to‘liq va keng doirada ifodalanuvchi leksik sistema, ilmiy nazariyalar, qonunlar, tamoyillar, qoidalar shakllantiriladigan vositadir [10,250].

✓ Terminologiya — har bir muallifning o‘zi yaratadigan o‘ziga xos til [7,350].

Terminologiyaning asosini tashkil etgan terminlar xususida ham olimlarning bir necha xil ta’riflarini keltirish mumkin. Jumladan:

➢ Termin – maxsus lug‘atdir. Masalan, informatika, matematika, meditsina, falsafa, grammatika, lingvistika, musiqa va boshqa sohalarga doir [11].

➢ Terminlar fan-texnika, adabiyot, san’at va boshqa sohalarga oid ixtisoslashgan, qo‘llanishi muayyan soha bilan chegaralangan tushunchalarni ifodalaydigan nominativ birliklardir: gulkosa, shona (botanikada); to‘rtburchak, kvadrat (geometriyada); ega, kesim (tilshunoslikda); qofiya, turoq, vazn (adabiyotshunoslikda)” kabilardir [4,12].

Bugungi kunda termin tushunchasiga tilda 3000 dan ortiq ta’riflar keltirilganligiga qaramasdan, uning to‘liq mazmuniy mohiyati butunlay aniqlanganicha yo‘q. Binobarin, “termin ta’rifi xususida ilmiy adabiyotlarda ko‘pdan-ko‘p mulohazalar bildirilgan. Deyarli barcha ta’riflarda termin maxsus ilmiy-texnikaviy tushunchani ifodalovchi so‘z yoki so‘z birikmasi tarzida tavsiflanadi” [6,23].

Bizning nazarimizda, terminlar tilning shakl va mazmun chegaralarini, polisemiya va variativlik qonuniyatlari leksikasida kechayotgan innovatsion jarayonlarni, turli sohalar kesimida morfologik, struktur, derivatsion qonuniyatlarni, funksional, konseptual tamoyillarni, frazeologik, distributiv, diskursiv, statistik, qiyosiy-tipologik, leksik-semantik, milliy-madaniy jihatlarni, pragmatik, lingvostilistik, leksikografik masalalarni, tavsifiy-tasnifiy, universal, differensial belgilarni mufassal o‘rganishda hamda keng tahlil etishda xizmat qiladi. Ana shu lisoniy birliklar majmui nuqtai nazaridan qaralganda, terminlar tilning tizimli xususiyatlarini o‘zida mujassam etadigan madaniyat va milliy tafakkur majmuini tashkil etadi. Shu bois, tilshunoslikda terminologiyani chuqur o‘rganish muhim ahamiyat kasb etadi [3,14].

Terminologiya sohasida uzoq yillar mobaynida ko‘plab dunyo olimlari tadqiqotlar olib bordilar. Uning fan sifatida tarkib topishi avstriyalik olim O.V.Nubasov va rus olimi D.S.Lottening 1930 yilda e’lon qilingan dastlabki ishlariga borib taqaladi [2,14].

Terminologiyani sistema sifatida ham birinchilardan bo‘lib D.S.Lotte qayd etadi va uni sistema sifatida belgilovchi uchta talabni keltiradi: 1) terminologik sistema tushunchalarni tasniflashga asoslanishi lozim; 2) tasniflovchi sxemalarga asoslangan

holda terminlashuvchi belgi va tushunchalarni ajratib olish lozim; 3) so‘zlar terminlashuvchi tushunchaning boshqalari bilan umumiyligi va o‘zining xususiyligini ifodalashi kerak [16,13-14].

A.D.Xayutin ingliz tilining etimologik lug‘atiga asoslanib, “terminologiya” so‘zi ilk bor 1786 yilda nemis olimi S.Shyutz tomonidan qo‘llanilganini aytadi. A.D.Xayutinning aniqlashicha, mazkur so‘z ingliz, fransuz tillarida XVIII asr oxirlaridan, rus tilida esa XIX asr boshlaridan iste’molga kirib kelgan [8,10].

Mashhur shvesariyalik tilshunos olim Ferdinand de Sossyurning fikriga ko‘ra, “Barcha lingvistik konsepsiyalar tabiatning belgilarini va tilning tizimli xususiyatlarini asoslaydi, uning asosiy g‘oyalaridan biri so‘zlashuv hamda tilning nutqiy faoliyatdagi farqlari hisoblanadi, qolaversa, terminologiya o‘ziga xos ilmiy fan bo‘lib, u tilshunoslik, bilimlar nazariyasi va mantiqdan kelib chiqadi” [1,191].

Termin va uning o‘ziga xos tizim sifatida, shuningdek, terminologiyaning fan sifatida shakllanishida ahamiyatli fikrlarni qayd etgan A.A.Reformaskiyning ta’kidlashicha: “Tilshunos uchun terminning tabiatini tushunish yanada muhim, chunki bu so‘z va so‘z birikmasining semantikasi haqidagi tasavvurni oshiradi va eng muhimi, so‘zda lug‘aviy va mantiqiy ma’nolar munosabatini aniqlashga imkon beradi. Bu esa, ya’ni so‘zning mazmun qurilishidagi leksik va mantiqiy, lug‘aviy va ma’noviy semantikani tushunish so‘zning o‘zini ham, uning polifunksional xususiyatini tushunishda ham alohida ahamiyat kasb etadi. Terminlar – ilmiy nazariyalar, qonunlar, tamoyillar, qoidalar shakllantiriladigan vosita bo’lib, ijtimoiy majburiy xususiyat esa atamalarda aks ettiriladi” [17,16]. Shu o‘rinda A.A.Reformatskiyning fikriga qo‘shilish mumkin. Zero, tilshunos uchun ilm-fanning turli sohalarida amal qilayotgan terminlarning yasalish mexanizmlarini o‘rganish ham qiziqarli, ham muhimdir, chunki termin funksiyasida barcha so‘zlar – tub so‘zlar ham, yasama so‘zlar ham, so‘z birikmasi ham, gap ham qo‘llanilishi kuzatiladi. Shuning uchun terminning hosil bo‘lish tamoyillarini chetlab o‘tib bo‘lmaydi.

Soha rivojiga rus olimlaridan, V.G.Gak, O.S.Axmanova, S.O.Karsevskiy, V.V. Antimirova, V.A.Tatarinov, A.L.Abramyan, B.N.Golovin, R.Yu.Kobrin, V.P.Danilenko, M.A.Marusenko, A.A.Strelsov, N.M. Golubeva-Monatkina, fransuz olimlaridan F.de Sossyur, o‘zbek olimlaridan M.Xolbekov, P.Nishonov, O.Ahmedov, J.Bo‘ronov, M.Bo‘ronova, M.Toshboyeva, X.Dadaboyev, M.Umarxo‘jayev, N.Qambarov va D.Xodjayevalar o’z tadqiqotlari bilan munosib hissa qo’shdilar [12,149-159].

Xususan, rus olimi V.G.Gakning fikricha, har qanday lug‘aviy birlik termin bo‘lishi uchun: 1) obyektiv borliqdagi biror narsani ifodalay olishi; 2) tushunchalar qatoridan muayyan joy egallash xususiyatlariga ega bo‘lishi lozim [14,38-41].

Demak, biror narsa, hodisani ifodalay oladigan va tushunchalar sirasidan o‘ziga xos o‘rin egallaydigan har qanday lug‘aviy birlikni termin sifatida ishlatish mumkin. Ma’lumotlarga tayanib aytadigan bo‘lsak, so‘z bilan terminni farqlashning yana bir muhim belgisi bu so‘zning narsa, hodisa, predmetni, terminning esa tushunchani

ifodalashidir. Tushuncha esa, narsa va hodisaning umumlashma mavhum nomi bo‘lib, bu holatni hisobga olish muhim sanaladi [2,18].

Fransuz olimlaridan, Gi Rondo (Guy Rondeau, Introduction à la terminologie, Boucherville, Québec, Gaëtan Morin, 2e éd., 1984, 238 p.), Mariya Tereza Kabre Kastelvi (Maria Teresa Cabré Castellvi, La terminologie. Théorie, méthode et applications, Paris, Armand Colin, 1998, 322 p.), Mari-Klod Lom (Marie Claude l’Homme, La terminologie. Principes et techniques, Presses de l’université de Montréal, 2004, 278 p.) kabilar ham terminologiya sohasida o’z tadqiqotlarini amalga oshirdilar [11].

Turli fan sohalariga oid terminlar o‘zbek tilshunosligida dastlab XX asrning 20-30 yillarida o‘rganila boshlangan. Terminlarni o‘rganishdan asosiy maqsad chet tillaridan kirib kelayotgan so‘zlarni o‘z ona tilimizga aynan mos tushadigan so‘zlarga almashtirish va tarjima qilishdir. Shu sababli terminologiyaning paydo bo‘lishi va rivojlanishi nafaqat bir tildagi atamalarni tahlil qilish, balki bir tildagi atamani boshqa tillar bilan qiyoslab, ularning leksik-semantik va milliy-madaniy xususiyatlarini o‘rganishga va izohli lug‘atlarni shakllantirishga ham yo‘l ochdi. Natijada terminologiyaning shakllanishi yana bir muhim qadam — izohli lug‘atlarning paydo bo‘lishi, hamda ularning barcha jabhalarni qamrab olishiga sabab bo‘ldi.

O‘zbek tili terminologiyasi masalalariga birinchilardan bo‘lib, Ulug‘ Tursunov o’zining “Til-terminologiyada burjuaziya intilishlariga qarshi”, “O‘zbek terminologiyasi masalalari”, “Terminologiya masalalari”, “O‘zbek adabiy tilida so‘z-terminlar tanlash prinsiplari” nomli asarlari bilan asos soldi [13,82]. Bu asarlarda terminlarni hosil qilish, to‘plash, tartibga solish, unifikatsiyalash va nashr etish sohasidagi turli qarashlar va tushunchalar, sohada ro‘y bergan va ro‘y berayotgan chalkashliklar yaqqol ko‘zga tashlana boshlanganligi, jumladan, bir tushunchaning turlicha atala va yozila boshlashi, aniq va ixcham terminlar o‘rniga uzundan uzoq izohlarning berilishi, termin yaratishda ona tili imkoniyatlaridan kam foydalanish, o‘zbek terminologiyasini boyitishdagi manbalardan biri tashqi omilga turlicha yondashish faktlari ekanligi ko‘rsatib o’tilgan.

Terminologiya hamda terminlar xususida yuqorida bildirilgan fikrlardan xulosa qilib aytish mumkinki, terminoligiya — biror ilmiy yoki ijtimoiy sohaga doir terminlar jamlanmasidir. Uning vazifasi nafaqat terminlarni ajratish yoki tahlil qilishdan, balki, maqsadga erishish va ma’noni anglatish yo‘lida yangi terminlarni kashf etishdan ham iborat, deyish mumkin. Shu nuqtai nazardan, terminlar — maxsus sohaga doir lug‘atlar bo‘lib, bunday lug‘atlar aynan bir maqsadga yo‘naltirilgan bir yoki bir necha tilli bo‘lishini qayd etish o’rinli.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Bushuy T.A., Safarov Sh.S. Til qurilishi: tahlil metodlari va metodologiyasi ilmiy-nashr. – Toshkent, «Fan», 2007. – B.191.

2. Hojiyeva G.S. San’atga oid terminlarning leksik-semantik va milliy-madaniy tahlili (fransuz va o‘zbek tillari misolida). Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. – Buxoro, 2023. – B.97.

3. Ismailov G‘.M. O‘zbek tili terminologik tizimlarida semantik usulda termin hosil bo‘lishi. Diss.filol.fan.nom. – Toshkent, 2011. – B.14.
4. Jamoloxonov H. Hozirgi o’zbek adabiy tili leksikologiyasi. 2002. – B. 12.
5. Kocourek, Rostislav. La langue française de la technique et de la science. Vers une linguistique de la langue savante. Wiesbaden : Oscar Brandstetter Verlag GMBH & Co. KG, 1991.
6. Kuldashova N.B. Fransuz va o‘zbek tillarida sport terminologiyasining milliy-madaniy xususiyatlari. Diss.filol.fan.fals.dok. – Buxoro, 2020. – B. 23.
7. Littré E. Dictionnaire de la langue française. Tom 3. Paris, Hachette, 1876. – P. 350.
8. Nishonov P.P. Fransuz va o‘zbek tillari yuridik terminologiyasining qiyosiy-tipologik tadqiqi. Filol. fan. nom. diss. avtoref. – Toshkent, 2009. – B.10.
9. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. IV jild. “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi”, Toshkent, 2008. -74 b.
10. Rasulov R. Umumiy tilshunoslik. – Toshkent, «Fan», 2007. – B. 250.
11. www.google.fr
12. Xodjayeva D.I. Tilshunoslik terminlarining leksikografik tahlili (ingliz, rus va o‘zbek tillari izohli lug‘atlari materiallari misolida) PhD ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya. Toshkent, 2018. – B. 149-159.
13. Xolmanova T.Sh. Neft va gaz sohasiga oid terminlarning ingliz tilidan o‘zbek tiliga tarjima qilish muammolari. Magistrlik darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. Toshkent, 2013. – B. 82.
14. Гак В.Г. *Асимметрия лингвистического знака* и *некоторые общие проблемы терминологии.* Материалы научного симпозиума. – Москва, Изд-ва МГУ, 1971. – С. 38-41.
15. Голубева-Монаткина Н.М. Французская диалогическая речь (воспросительное предложение) – Москва, Высшая школа, 1985. – С.125.
16. Лотте Д.С. Основы построения научно-технической терминологии. – Москва, 1961. – С. 13-14.
17. Реформатский А.А. Мысли о терминологии. – В кн.: Современные проблемы русской терминологии. – Москва, 1986, – С.16.
18. Русско-узбекский словарь. Том II. Ташкент, 1984. – С. 564.

INTERNET TILINING ZAMONAVIY XITOY TILIGA TA’SIRI

N.X. Norbekova, J.T. Kuralova. Toshkent Davlat Sharqshunoslik Universiteti

Annotation: This article discusses the influence of the Internet language on the Chinese language. Information about the emergence of slangs in the Chinese language and their types is presented. In addition, the slangs mentioned in the article are described.

Keywords: Internet language, Internet literature, slang, WeChat, representation of Chinese characters by numbers, representation of Chinese characters by Latin letters, mixed representation of Chinese characters

Annotatsiya: Ushbu maqolada internet tilining xitoy tiliga ta’siri to‘g‘risida so‘z boradi. Xitoy tilidagi slanglarning paydo bo‘lishi va ularning turlari haqida ma’lumotlar bayon etilagan. Bundan tashqari maqolada ko‘rsatilgan slanglarga tavsif berib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: Internet tili, internet adabiyoti, slang, WeChat, iyerogliflarni raqam orqali ifodalash, iyerogliflarni lotin harflar orqali ifodalash, iyerogliflarni aralash tarzda ifodalash

Zamonaviy hayotni Internetsiz tasavvur qilib bo‘lmaydi: internet texnologiyasi barcha mamlakatlarda va hayotning deyarli barcha sohalarida qo‘llaniladi. Ayniqsa, bu internetdan foydalanuvchilar soni butun Yevropa aholisidan oshib ketgan Xitoy uchun to‘g‘ri keladi. Xitoyning deyarli barcha ommaviy axborot vositalari, ilmiy jurnallari internet tarmoqlarida nashr etiladi. Xitoyda internet adabiyoti[16] juda mashhur bo‘lib, u uchun rasmiy atama kiritilgan - 网络文学 wǎngluò wénxué. Biroq, xitoydagi internet adabiyoti, elektron ommaviy axborot vositalaridagi maqolalar an’anaviy xitoy tili me’yorlariga iloji boricha amal qilingan holda yoziladi. Buning natijasida yozma nutq kamroq ta’sirlanadi.

Eng sezilarli o'zgarishlar Xitoy ijtimoiy tarmoqlari sodir bo‘lmoqda. Buning sababi shundaki, Xitoydagi internet foydalanuvchilarining 90 foizi bungungi kunda mobil qurilmalardan asosan ijtimoiy tarmoqlar orqali ovozli va matnli xabarlarni yuborishda va qabul qilishda foydalanishadi. Masalan, bugungi kunda eng mashhur WeChat (微信 wēixìn "micro") ko‘p funksiyali kommunikator ilovasi orqali har kuni dunyo bo‘ylab millionlab xitoylik foydalanuvchilar muloqot qilishadi. Shuning uchun ham xitoy internet tili 网络语言[17] wǎngluò yǔyán atamasi kirib keldi va u o‘ziga xos shart-sharoitlari, qonunlari va rivojlanish yo‘llariga ega bo‘lgan qiziqarli til hodisasi sifatida, albatta, alohida ilmiy qiziqish uyg‘otadi. Til resurslaridan foydalanishning tubdan yangi usullari - grafik elementlar, lug‘atlar, grammatikalar - ayniqsa chat va forumlarda kuzatiladi. Xitoyda til va yozuvni an’anaviy standartlashtirish jarayoni, onlayn muloqot tili bugungi kunda lingvistik hodisa sifatida ajralib turadi.

Xitoyda oddiy odamning nutq tezligi daqiqada 170 bo‘g‘inni, belgilarni yozish tezligi esa 30-50 belgini tashkil qiladi[18]. Xitoylik foydalanuvchilar uchun ierogliflarni yozish jarayoni alifbo tillarida so‘zlashuvchilar kabi oson va tez emasligi bilan murakkablashadi. Ko‘pincha iyeroglif belgilarini kiritishning ikkita usuli qo‘llaniladi: fonetik - klaviaturada pinyin transkripsiyasini yozish, shu jumladan 2 dan 4 tagacha harflar kombinatsiyasi va grafik - sensorli ekran texnologiyasidan foydalangan holda iyeroglifni qo‘lda yozish. Birinchi usul ko‘pincha ikkinchisiga qaraganda tezroq: o‘rtacha

[16] А.В.Кислов, Е.Н.Колпачкова Влияние интернета на современный китайский язык, 2017

[17] 龙凯力. 汉语网络语言研究[D].天津师范大学,2015.

[18] Crystal, David. Language and the Internet / David Crystal. Cambridge University Press, 2001.

qiymatdan iborat murakkab iyeroglif belgilarini qo‘lda yozishdan ko‘ra, barqaror ifodadan har bir bo‘g‘inning transkripsiyalarining boshlang‘ich tovushlarini va harflar kombinatsiyasini kiritish osonroq. Biroq, bu ham biroz vaqt talab etadi. Muloqtni osonlashtirish va vaqtni tijash maqsadida iyerogliflarni almashtirish strategiyalarini ishlab chiqila boshladi. Buning natijasida xitoy tilida internet slanglar paydo bo‘la boshladi. Masalan, iyerogliflarni sonlar va lotin alifbosida mavjud harflar orqali ifodalash yo’lga qo‘yildi.[19]

Iyerogliflarni raqam orqali ifodalash

Xabarni kiritishni tezlashtirish uchun internet foydalanuvchilari leksik birliklar va tez-tez takrorlanadigan grammatik ko‘rsatkichlarni raqamlar bilan almashtirib, raqamli klaviatura tartibidan faol foydalanadilar:

我 wǒ o‘rniga 5 wǔ (men)

你 nǐ o‘rniga 0 líng (sen)

拜拜 báibái o‘rniga 88 bābā (hayr!) (inglizcha Bye-bye!)

哈哈哈 hāhāhā o‘rniga 2333èrsānsān (kulgi)

Ijtimoiy tarmoqda keng tarqalgan raqamli slangdan yana biri bu butun iborani raqamlar bilan almashtirishdir:

救救我 jiùjiù wǒ o‘rniga 995 jiǔjiǔwǔ (Menga yordam bering!)

我爱你 wǒ ài nǐ o‘rniga 520 wǔ'èrlíng (Men seni sevaman)

我走了 wǒ zǒule o‘rniga 596 wǔjiǔliù (Men ketyapan)

— 起走吧 yīqǐ zǒu ba o‘rniga 1798 yīqījiǔbā (Keling, birga boramiz)

Iyerogliflarni lotin harflar orqali ifodalash:

Xitoylik foydalanuvchilar odatda pinyin bilan jihozlangan QWERTY klaviaturasidan foydalanadilar. Katta harflarni yozish oson va hech qanday o‘zgartirishni talab qilmaydi. Lotin alifbosidagi qisqartmalar vaqtdan yutishga yordam beradi.

哥 哥 gēge o’rniga GG (aka)

妹妹 mèimei o’rniga MM (singil)

帅哥 shuàigē o’rniga SG (ko’rkam yigit)

警察 jǐngchá o’rniga JC (militsiya)

Iyerogliflarni aralash tarzda ifodalash:

Aralash turdagi toifaga turli xil grafik elementlarning kombinatsiyasi kiradi - iyerogliflar, lotincha harflar, raqamlar va ba’zan hatto belgilar:

Thank you o‘rniga 3Q sān-q (rahmat

啤酒 píjiǔ o‘rniga P9 p-jiǔ (pivo)

年轻人 niánqīngrén o‘rniga 小 P 孩 xiǎo P hái (yigit)

老公 lǎogōng o‘rniga l 公 (er)

[19] Хуэй Тяньган. Обзор тенденций в словообразовании Интернет-лексики / Хуэй Тяньган // Вестник СПбГУ. СПб., 2010.

老婆 lǎopó o‘rniga l 婆 (xotin)

Yuqorida ta’kidlab o‘tilganidik hozirda kunimizni internetsiz tasavvur qila olmaymiz. Bu holat albatta insonlar o‘rtasida bog‘ sifatida xizmat qiluvchi tilga ham o‘z ta’sirini ko‘rsatadi. Yozma nutqda muloqotni yengillashtirish va vaqtni tijash maqsadida slanglar, qisqartmalar paydo bo‘lishiga sabab bo‘ladi. Ammo unitmasligimiz keraki, bu vaziyat har bir millat uchun qadrli bo‘lgan tilga ma’lum bir ma’noda o‘zgarishlarish kirishiga sabab bo‘lishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati:

1. 龙凯力. 汉语网络语言研究[D].天津师范大学,2015.
2. 张竞方.汉语网络语言与对外汉语教学[J].佳木斯职业学院学报,2017.
3. David. Language and the Internet / David Crystal. Cambridge University Press, 2001.
4. Chen, Yiyin Netspeak in China: Features and Impact on Standard Chinese Language MA theses, 2005.
5. А.В.Кислов, Е.Н.Колпачкова Влияние интернета на современный китайский язык, 2017.
6. Хаматова А.А. Словообразование современного китайского языка,: Муравей, 2003.
7. Хуэй Тяньган. Обзор тенденций в словообразовании Интернет-лексики,2010.

WAYS TO PLAN A GOOD LESSON

N. Abdujabborova Sh.Ne’matjonov NamSIFL

Annotation: This article offers some methods how to plan a good lesson and use interactive techniques to improve A1 level learners’ vocabulary acquisition.

Keywords: interactive activity, plan, time management, language, teacher, method.

English is the most widely spoken language in very different contexts in the world. Whereas English is not only an international language, but also a global language, teaching this language has lots of different lesson plans for teachers who are teaching English around the world. However, it does not mean that all the methods suit for everyone. In this situation, teachers should pay attention to learners’ background knowledge and ages as well.

If the students, who will be taught by you, are younger and have almost little awareness about the language, you have to organize an entertaining lesson which contains shorter activities, such as singing songs, pronouncing letters and words correctly and this kind of activities which help your learners to improve their English in engaging, motivating and enjoyable ways. It will also lead your lesson to be as an interesting game. That is why, pupils should feel neither bored nor struggled during the lesson. Otherwise, let them to feel free and make trust that they can learn the second language without any hesitations. In this case, it is up to your teaching skills and how accurately you manage the time while you are instructing. When you are making the lesson plan, you should assign certain time for each activity. Because starting your lesson appropriately is arguably the most important part of it. What is more, let them to pronounce some new vocabularies and understand the meaning by showing with your either hand or body movements which will make the process funny and catchy.

In your previous lessons, try to select the words from the classroom. After you have shown those words, say them to match the words with proper pictures. This tactic is also considered as one of the interactive and significant techniques to improve students’ vocabularies. After they have finished the task, they may evaluate themselves that how many words they have learnt. The most importantly, teachers should persuade their pupils to work as a corporation.

When you feel that you could manage your time and give all of your knowledge related to the topic and see fully comprehension on your students’ eyes, it means that you have gained your aim and planned a good lesson for youngsters. In order to achieve your goal, you should work on yourself by searching out news from various books and resources related to your subject to improve your experience. Here, I decided to share my own reference from a book called “Learning teaching”.

